

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

D. M. KARAXODJAYEVA,
N. M. AKAYEVA,
Sh. R. YULDASHEVA

FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

УДК 347.6 (075)

КБК 67.404ya722

K24

— *Фуқаролик ва оила ҳуқуқи*


*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ilmiy-metodik
birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, amaldagi qonun hujjatlari va xalqaro huquq normalari asosida yozilgan ushbu kitobda fuqarolik va oila huquqi tushunchalari, fuqarolik va oila huquqining manbalari, fuqarolik-huquqiy va oilaviy munosabatlar, fuqarolik va oila huquqining subyektlari va obyektlari, fuqarolik huquqida vakillik, ishonchnoma, vakolat, da'vo muddati, bitimlar, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, shartnomalar, majburiyatlarning alohida turlari, oldi-sotdi shartnomasi va boshqa ko'plab shartnomalarning turlari ochib beriladi.

O'quv qo'llanmada oila huquqining maxsus qismi oila huquqida nikoh tushunchasi, uni tuzish tartibi va shartlari, nikohning haqiqiy emasligi, er-xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlari, nikohning tugatilishi, ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlari, aliment huquq va majburiyatlari, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish shakllari, farzandlikka olish, oilaga tarbiyaga berish (patronat), vasiylik va homiylikni belgilash, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish kabi masalalarga bag'ishlangan.

Mas'ul muharrir: O.OQYULOV — TDYI professori, y.f.d.

Taqrizchilar: O.A.KARIMOVA — TDPU «Huquq ta'limi metodikasi» kafedrasi professori; A. TO'XTA-XUNOV — TDPU «Huquq ta'limi metodikasi» kafedrasi dotsenti, y.f.n.; Z.N. ESONOVA — TDYI dotsenti, y.f.n.



HD 41019
38

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan oq ijtimoiy-siyosiy sohada kuchli huquqiy demokratik davlat va jamiyat, iqtisodiyot sohasida turli mulk shakllariga asoslangan bozor munosabatlari qurishni maqsad qilib qo'ydi. Shu ma'noda keng ko'lamli islohot olib borilmoqda va uning natijalari, aytish mumkinki, muvaffaqiyatli bo'lmoqda. Islohotning pirovard maqsadi — inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi¹.

Demak, islohot doirasida qabul qilinayotgan va amalga kiritilayotgan ko'plab qonun hujjatlari inson manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan. Bu jarayon xalqimizning tarixiy an'alarini, urf-odatlarini, milliy-ma'naviy qadriyatlarini hisobga olib davom ettirilmoqda. Shu maqsadda 1998-yil mamlakatimizda «Oila yili» deb e'lon qilinishi va e'tiborlisi, shu yili Oila kodeksi qabul qilinishi jamiyat va davlatning tayanchi hisoblangan oilaga bo'lgan alohida e'tibordan darak beradi. E'tirof etish lozimki, Oila kodeksining 1-moddasida normalanganidek, oila to'g'risidagi qonun hujjatlari-ning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'uliyat hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir².

Shu jihatdan, kelib chiqib, mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov tomonidan O'zbekistonda 2012-yil — «Mustahkam oila

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. —T.: O'zbekiston, 2011. 5-b.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. —T.: Adolat, 2000. 9-b.

yili», deb belgilanishi oilani mustahkamlash, uning jamiyat va davlatdagi barqarorligini ta'minlashning asosiy elementlaridan biri sifatida qaralishi muhimdir. «Binobarin, biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni keng qaror toptirishda, tobora kuchayib borayotgan, bizning milliy tabiatimiz, urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo'lgan har qanday zararli ta'sirlar, buzg'unchi g'oyalarga qarshi turishda, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda oilani mustahkam tayanch deb bilamiz»¹.

¹ *Karimov I.A.* Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza //Xalq so'zi. 2011-yil 8-dekabr.

1-BOB. OILA HUQUQI TUSHUNCHASI. OILA TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARI

1-§. Oila va oila huquqi tushunchasi

Oila jamiyatning asosiy va birlamchi bo'g'inidir. Davlat va jamiyatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat o'rtasida uzviy bog'lanish mavjud bo'lib, jamiyatning negizini oilalar tashkil qiladi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabat axloq-odob, urf-odat, an'ana, vijdon qonunlari asosida tartibga solinib turilsa-da, aksari hollarda ushbu munosabatlar huquqiy me'yorlar, qonunlar bilan ham tartibga solinadi. Masalan, nikohga kirish, nikohning haqiqiy emasligi, er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari, nikohning tugatilishi, ota-ona va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlar va h.k.lar huquqiy munosabatlar bo'lib, u oila huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan ijtimoiy-siyosiy soha munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonunlar xalqaro huquqiy standartlarga to'la-to'kis mos bo'lib, ular ruhini hayotimizga singdirish ishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Sharq mamlakatlari sirasiga kiruvchi davlatdir. Ma'lumki, Sharqda qadimdan oila muqaddas maskan sanalgan. Unga bunday e'zozli munosabat bugungi kunda ham o'zgargani yo'q.

«Oila, — deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov, — hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i...»¹

¹ 1998-yil — Oila yili. 1998 год — год Семьи. O'zbekiston, 1998. 9–10-betlar.

Oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizda mustahkam jo bo'lgan.

Mamlakatimiz aholisini tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasining o'rni alohidadir. «Oila — mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit sog'lom mafkurani shakllantirish manbayidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi».¹

Oilaning jamiyat oldidagi asosiy vazifalaridan biri — farzand ko'rish va tarbiyalashdir. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, aholi soni ma'lum muayyan ko'rsatkichda bo'lib turishi uchun har 100 oilaga 260 ta bola to'g'ri kelishi kerak. Aniqrog'i, 100 oiladan 60 tasida 3 tadan, 40 tasida 2 tadan bola bo'lishi lozim. Demografik olimlar hisoblariga ko'ra, agar har bir oila bittadan farzand ko'rsa, sakkizinchi avlodga kelib, ya'ni 200 yildan keyin bu xalq millat tariqasida yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan.

O'zbekiston dunyoda aholisining soni juda tez ko'payib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Oila jamiyatning boshlang'ich hujayrasini tashkil etib, unda aholining ko'payishi va yosh avlodni tarbiyalash vazifalari bajariladi.

Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, u jamiyatning demokratik hujayrasini tashkil etib, odamlar shu muqaddas koshonada tug'ilib-o'sib jamiyat tarkibini tashkil etadi.

Ikkinchidan, oila muhim bo'g'in bo'lib, unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklaymiz.

Uchinchidan, oila — muhim tarbiya o'chog'i.

Va to'rtinchidan, nodir ruhiy muhitdir.

¹ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — T.: O'zbekiston, 2000. 66-b.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan bir to'g'ri yo'li oilaviy hayot ekan. Yolg'iz bo'lib yashash har xil noxushliklarga va fojialarga olib kelar ekan.

Oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo'lib, u oila a'zolari, ya'ni er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, vasiylar va homiylar, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibi, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni tartibga soladi.

F.M.Otaxo'jayev oila huquqiga ta'rif berib, bu er-xotinlar, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i¹ ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, oila huquqi boshqa huquq sohalari bilan uzviy va chambarchas bog'liqligini, lekin oila huquqi o'zining predmeti, metodi, prinsipi, tizimi bilan ajralib turishini ko'rsatib o'tadi. Haqiqatan ham, oila huquqi o'zining predmeti, metodi, prinsipi va tizimi bilan boshqa huquq sohalaridan ajralib turadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida normalanib qo'yilgan. Oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasiga shaxsiy hamda mulkiy munosabatlar kiradi.

Oila huquqining predmetini oila a'zolari: er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, farzandlikka oluvchilar, farzandlikka olinganlar, vasiylar va homiylar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi shaxsiy hamda mulkiy munosabatlar tashkil qiladi.

Huquqiy-demokratik davlat, erkin adolatli fuqarolik jamiyatida mulkiy bo'lmagan nomulkiy shaxsiy munosabatlar asosiy belgilovchi, mulkiy munosabatlar esa bo'ysunuvchi hosila xarakterga ega. Oilaviy munosabatlar yig'indisida mulkiy bo'lmagan shaxsiy munosabatlar ustun bo'lishining sababi, avvalo, naslni davom ettirish va bolalarni tarbiyalash bilan bog'liqdir.

¹ *Otaxo'jayev F.M.* O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. — T.: TDYI, 2005. 18-b.

Shunday qilib, oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o'rtasida, ota-onalar bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisidan iborat.

2-§. Oila huquqining manbalari

Oila huquqining manbalari deganda, oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi.

Oila huquqining manbalari uchun ularning matbuotda e'lon qilinishi muhimdir. Chunki qonun hujjatlarining matbuotda e'lon qilinishi ularning amalga kiritilishi demakdir.

Oila huquqining quyidagi manbalarini ko'rsatish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. Konstitutsiyaviy qonunlar (masalan, O'zbekiston Respublikasining «Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida»gi qonunlar va h.k.). Chunki ushbu qonunlarda Konstitutsiyaviy xarakterdagi normalar mavjud;
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi;
4. Mazmunida oilaviy-huquqiy normalar mavjud bo'lgan kodekslar va qonunlar (masalan, Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi va h.k.);
5. Prezident Farmonlari («Mustahkam oila yili» Davlat dasturi to'g'risida);
6. Vazirlar Mahkamasining qarorlari (Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini);
7. Odat huquqi normalari;
8. Xalqaro shartnomalar va Konvensiyalar.

Bevosita Konstitutsiyaning XIV bobi «Oila» deb nomlanib, u o'zida to'rtta moddani mujassamlashtirgan. Unga ko'ra, 63-moddada, Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi, 64-moddada esa, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantirishi, 65-moddada farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida teng ekanliklari, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi, shuningdek, 65-moddada voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari normalangan.

Yuqorida sanab o'tilgan manbalar bevosita oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Masalan, Oila kodeksi nikohga kiruvchi shaxslarning shaxsiy munosabatlarini himoya qilsa, Fuqarolik kodeksi ularning mulkiy huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

1998-yil respublikamizda «Oila yili» deb e'lon qilindi. Shu yilning 30-aprelida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi tasdiqlanib, 1-sentabridan amalga kiritildi.

Oila kodeksi O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgan yillarda ilk bora yangi, axloq-odob, mahalliy urf-odat, an'analarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalariga asosan ishlab chiqilib, amalga kiritilgan, yagona kodifikatsiyalashtirilgan qonun hisoblanadi. Oila kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. Oila kodeksi yirik qonuniy hujjat bo'lib, u nikohni, oilani, voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Oila kodeksi davlatning oila manfaatlariga, onalikni himoya qilishga, otalikni va farzandlikni himoya qilishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi. Nikohlانuvchi shaxslarning

nikohi pok, haqiqiy, shuningdek, o'zaro rozilik, tenglik asosida qurilishi bilan birga, ma'naviy jihatdan ular yetuk inson bo'lishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi Oila kodeksi o'zida quyidagi yangiliklarni aks ettiradi:

1. Kodeks ilk bora, mahalliy mentalitetdan kelib chiqib, yagona tarzda Oila kodeksi¹ deb nomlandi;

2. Kodeksning normalanishi Konstitutsiyaning normalariga to'la-to'kis va hamohang ravishda mos kelishi bilan ajralib turishi;

3. Kodeksda nikoh tuzish tartibi va shartlariga kiritilgan yangiliklarning aks etishi (nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tishlari);

4. Er-xotinlarning shaxsiy, mulkiy huquq va majburiyatlarining kengaytirilganligi;

5. Nikoh shartnomasi institutining kiritilganligi;

6. Nikohning tugatilishi bo'yicha yangi normalarning kiritilishi;

7. Nikohning haqiqiy emasligi va uning huquqiy oqibatlarining atroflicha normalanganligi;

8. Ilk bora qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash masalalariga oydinlik kiritilganligi;

9. Aliment huquq va majburiyatlarining kengaytirilganligi;

10. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish masalalariga alohida urg'u berilganligi;

11. Vasiylik va homiylik institutining kengaytirilganligi;

12. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish institutining xalqaro huquq normalarini hisobga olgan holda boyitilganligi bilan ajralib turishini alohida ko'rsatib o'tish darkor.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha Oila kodeksining normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarga quyidagi yuridik faktlar bilan bog'liq bo'lgan misolni keltirib o'tish mumkin: er yoki xotindan birining vafoti yoki sud tartibida vafot etgan deb

¹ Muqaddam shunday turdagi munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjatining nomi «Nikoh va oila kodeksi» deb yuritilgan. Ya'ni u 1969-yilgi Nikoh va oila kodeksidir.

e'lon qilinishi¹, muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs²ning vasiysi bergan arizasiga binoan ajralish yo'li bilan nikohning tugatilishini ko'rsatish mumkin. Bu yerda bevosita vafot etish natijasida er-xotinlar o'rtasidagi oilaviy-huquqiy munosabatlar tugallangan bo'lib, u huquqiy jihatdan FHDY organi orqali rasmiylashtiriladi. O'limni rasmiylashtirish va nikohning tugallanganligini qayd qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari» bilan bevosita tartibga solinadi.

Oila kodeksi haqida to'xtalib shuni aytish kerakki, uning muvaffaqiyatli jihatlaridan biri, Kodeksning 4-moddasiga oila, onalik, otalik va bolalikning davlat himoyasiga olinganligi, shuningdek, onalik va otalik izzat-ikromga hamda hurmatga sazovorligi normalanganligi oilaga bo'lgan hurmat-e'tiborning yuqori pog'onaga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Oila kodeksining 8-moddasiga ko'ra, qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llanilishi belgilab qo'yilgan.

Oila huquqining navbatdagi manbalari qatoriga Fuqarolik kodeksi, Uy-joy kodeksi, Mulkchilik to'g'risidagi, Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi qonunlar va h.k. larni ham kiritish mumkin.

¹ Amaldagi Fuqarolik kodeksiga ko'ra, agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, basharti u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchun asos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin. Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo'lgan kundan e'tiboran kamida ikki yil o'tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin.

² Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Shu o'rinda Fuqarolik kodeksiga alohida to'xtalib o'tish lozim.

Fuqarolik huquqining eng markaziy subyekti bo'lgan fuqaro, eng avvalo, muayyan oilada tug'iladi, kamol topadi va shaxs sifatida shakllanadi. Amaldagi Fuqarolik kodeksida fuqarolar huquq layoqatining mazmuni jiddiy tarzda boyitildi. Unga ko'ra fuqarolar mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari, mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari, yollanma mehnatdan foydalanishlari, yuridik shaxslar tashkil etishlari, bitim tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari, mashg'ulot turini va yashash joyini tanlashlari mumkin. Bu holatlar ham fuqarolik huquqi, ham oila huquqi bilan uzviy bog'liqdir.

Fuqaroning ismi garchi oila huquqining maxsus institutlaridan biri hisoblansa-da, fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ko'ra, agar qonundan yoki milliy odatdan boshqa tartib kelib chiqmasa, fuqaro o'z familiyasi va nomi, shuningdek, otasining ismi bilan huquq va burchlarga ega bo'ladi hamda ularni amalga oshiradi. Shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan (to'qilgan ismdan) foydalanishi mumkin.

Eng muhimi, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham, oilaviy-huquqiy munosabatlarda ham boshqa shaxs ismidan foydalanib huquq va burchlarga ega bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolik kodeksidagi fuqarolik huquqi bilan ham, oila huquqi bilan ham bog'liq yana bir yangilik — bu emansipatsiya holati bo'lib, unga ko'ra, o'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan taldbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa, u to'la muomala layoqatiga ega deb topilishi mumkin. Bu hol, ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyni (bir so'z bilan aytganda, qonuniy vakillarining) roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ushbu Qoidalar 18 bo'lim, 252 banddan iborat bo'lib, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning umumiy qoidalaridan tortib, uning huquqiy ahamiyati, qayd etuvchi organlar, qayd etiladigan faktlar, MDH davlatlari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining xorijda yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalarini tuzish bilan bog'liq masalalar, dalolatnoma yozuvlarini tiklash, ushbu yozuvlarni o'zgartirish, tuzatish va to'ldirish, dalolatnoma yozuvlarini bekor qilish, takroriy guvohnomalar va boshqa ma'lumotnomalar berish, shuningdek, FHDY organlarining arxiv ishini yuritishi va ularning hisoboti, ushbu organlar faoliyatini tekshirish, gerbli guvohnomalarni hisobga olish va saqlash kabi masalalar o'z aksini topgan.

Ushbu Qoidalarning eng muhim jihatlariga to'xtalish joiz.

Mamlakatimizda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish umumiy tarzda Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDY) organlari vakolatiga kiradi. Ushbu organlarni tashkil etish, qo'shib yuborish, tugatish, qayta tashkil etish va ular faoliyatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

FHDY organlari quyidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etadi:

- tug'ilganlik;
- nikoh tuzish;
- nikohdan ajralish;
- o'lim.

Shuningdek, farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, jinsni o'zgartirish kabi voqea va faktlar yuqorida sanab o'tilgan fuqarolik holati dalolatnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali aks ettiriladi.

Ushbu Qoidalarga muvofiq, fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik hujjatlar bo'lib, ular ikki nusxada tuziladi va FHDY organlarida qayd etilgan vaqtdan boshlab 75 yil mobaynida saqlanadi.

Oila huquqining maxsus manbalari orasida Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom ham muhim ahamiyatga egadir.

Fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan vasiylik va homiylik instituti, asosan, muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'la layoqatli bo'lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilansa, oila huquqi nuqtayi nazaridan esa, asosan, muomalaga layoqatsiz (14 yoshga to'lmagan bolalar) bo'lgan va muomala layoqati cheklangan (14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar, ya'ni o'smirlar) shaxslarga nisbatan belgilanishi nazarda tutiladi. Vasiylik va homiylik, farzandlikka olish, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) haqida kitobning keyingi boblarida batafsil to'xtalamiz.

Xalqaro shartnomalar va Konvensiyalarning oila huquqining manbayi ekanligiga to'xtalib shuni aytish kerakki, agarda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining oila to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qo'llaniladi. Demak, bundan ko'rinadiki, xalqaro huquq normalari milliy huquqdan ustuvor sanaladi. Bu hol, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Muqaddimasida belgilangan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olganligi bilan ham izohlanadi. Xalqaro shartnomalarga 1989-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya, 1994-yil 9-sentabrda Hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasida imzolangan «Bolali oilalarga ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya (tovon) to'lovlari va alimentlar to'lash sohasida fuqarolar huquqlarining kafolati haqida»gi bitimni keltirish mumkin.

Garchi oila huquqining manbayi bo'lmasa-da, oilaviy-huquqiy munosabatlarni to'g'ri yo'naltirishda va hal qilishda Oliy sud Plenumi qarorlari ham muayyan ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi №23-sonli «Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi qarori¹ shular jumlasidandir.

¹ Mazkur qarorga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi 11-sonli qaroriga asosan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan.

Unda qayd etilishicha, Respublika fuqarolarining shaxsiy va ijtimoiy manfaatlari uzviy muvofiqlashgan oilani himoya qilish davlat ahamiyatiga molik bo'lgan vazifalardan biridir.

Bolalarni umuminsoniy qadriyatlarni hurmatlash, onalikni muhofaza etish va bolalarning huquqini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro huquq qoidalariga sodiq bo'lish, ma'naviy merosni saqlash va rivojlantirish, yuksak vatanparvarlik, soflik va halollik ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash ota-onalarning konstitutsiyaviy va ma'naviy burchidir.

Qarorda belgilanishicha, 1998-yil 1-sentabrdan amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilani mustahkamlash, voyaga yetmagan bolalar va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining manfaatlarini qo'riqlashning ustunligini nazarda tutadi.

Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarning sudlar tomonidan to'g'ri hal etilishi ota-onalarning va bolalar huquqlarining muhofazasini, ota-onalarning bolalarini tarbiyalashdagi mas'uliyatlari oshirilishini ta'minlashga imkoniyat tug'diradi, ota-onalarning bolalari manfaatlariga zid bo'lgan huquqlaridan foydalanishlariga barham beradi, voyaga yetmaganlar qonunbuzarliklarining oldini olish choralaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni ko'rishda sudlarning e'tibori bunday nizolarni o'z vaqtida va to'g'ri hal qilish bolalar va oila manfaatlari himoyasining muhim kafolatlaridan biri hisoblanishini nazarda tutgan holda, qonunlarga qat'iy rioya etish zarurligiga qaratilishini, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan: bolaning boshqa-boshqa turgan ota-onadan qaysi biri bilan birga yashashi; bolasidan alohida turadigan ota yoki onani bolasining tarbiyasida ishtirok etishga qarshilikni bartaraf etish; boshqa shaxslarning tarbiyasida bo'lgan bolalarni ota-onasiga qaytarish; ota-onalik huquqidan mahrum etish va ota-onalik huquqini tiklash; ota-onalik huquqidan mahrum etmasdan bolalarini olish (ota-onalik huquqini saqlash); bolaning ota-onalik huquqi cheklangan ota-onalar bilan ko'rishishi; ota-onalik huquqi cheklanishini bekor qilish; farzandlikka olishni bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi va boshqa nizolar sudda ko'rilishi lozimligini uqtiradi.

Shu ma'noda aytish kerakki, Plenum qarorlari yangi norma yaratmasa ham, qonunlarning ijrosini ta'minlashda quyi sudlarning e'tiborini nizolarni hal qilishda haqiqiy holatdan kelib chiqishga, qonunga va ichki ishonchiga tayanishini tavsiya beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida» 2000-yil 26-sentabrda Qaror qabul qildi.

Unda voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul bo'lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadidagi masalalar o'z ifodasini topdi.

Ushbu qarorga binoan, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar haqidagi Nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya tarkibi tasdiqlandi.

Bu komissiya har yarim yilda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda huquqiy-tarbiyaviy ishlarning ahvolini muhokama etib, bu borada mutasaddi idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitib boradi.

Nazorat savollari

1. Oila huquqiga ta'rif bering.
2. Oila jamiyat va davlat hayotida qanday o'rin tutadi?
3. Oila huquqining manbalarini ko'rsatib o'ting.
4. FHDY organlari qaysi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etadi?

2-BOB. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

1-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning turlari.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqi

Oilaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda juda keng tarqalgan munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar muayyan hollarda axloq-odob qoidalari bilan tartibga solinadi.


Oilaviy-huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagi aniq ijtimoiy munosabatlarni oila qonunchiligi nuqtayi nazaridan tatbiq etishdir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikoh tuzishdan maqsad oila qurish bo'lib, u er-xotinning butun umri davomida birga yashashiga mo'ljallanadi. Ota-onalik huquqiy munosabati bolalarning tarbiyasi va ta'minotiga qaratiladi.

Farzandlikka olish, vasiylik, homiylik va boshqa huquqiy munosabatlar ko'p xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Bunday huquqiy munosabatlarda qo'yilgan maqsadlarga uzoq muddat davomida erishish mumkin.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar muddatsiz bo'ladi. Er-xotinning huquq va majburiyatlari, nikohdan ajralish holatini hisobga olmaganda, bir umr davom etadi. Ayni paytda shunday oilaviy-huquqiy munosabatlar ham mavjudki, ular ma'lum muddat bilan cheklanadi, biroq belgilangan davrgacha albatta davom etadi. Masalan, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyatlari farzand 18 yoshga to'lguniga qadar davom etadi.

Qonunchilik oilaviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning maxsus turi deb hisoblaydi. Bu fikrni isbotlash uchun



nikoh-oila qonunchiligining yangi davlat vujudga kelishi bilan mustaqil ravishda rivojlanib kelganligini keltirish mumkin.

Amaldagi qonunchilik oilaviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning maxsus alohida turi deb hisoblab, uni fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan farq qilishini ko'rsatadi.

Bu fikrning isboti sifatida mamlakatimizda nikoh-oila qonunchiligi sovet davlatining vujudga kelgan kunlaridan boshlab uning mustaqil ravishda rivojlanganligini keltirish mumkin.

Iqtisodiy bozor munosabatlarida bo'lgan davlatlarda oilaviy-huquqiy munosabatlar maxsus nikoh-oila qonunlari bilan tartibga solinmasdan, balki fuqarolik qonunlari bilan tartibga solingan. Bozor munosabatlari mavjud bo'lgan jamiyatda oilaviy munosabatlar mulkiy munosabatlar doirasiga kiritilib, fuqarolik huquqi bilan tartibga solingan. Buning asosiy sababi mulkiy manfaatlarining shaxsiy manfaatlardan ustun turishidir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar o'zining ba'zi bir belgilari bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga o'xshab ketadi. Biroq bu o'xshashlik faqat tashqi ko'rinishdadir. Mazmunan oilaviy va fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasida muhim sifat farqlari bor.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosini mulkiy munosabatlar tashkil etsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarning asosini, aksincha, mulkiy bo'lmagan nomulkiy shaxsiy munosabatlar tashkil etadi. Shunga muvofiq, fuqarolik huquqining hamma normalari, barcha institutlari o'zining belgilangan maqsadi, avvalo, mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lsa, oila huquqi esa, birinchi navbatda, shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar, asosan, muayyan ekvivalent barobarida belgilanadigan qiymat, baho bilan ifodalanadigan xarakterga ega. Bu belgilar oilaviy-huquqiy munosabatlarga taalluqli emas.

Oila va fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasidagi farqlar xususiy xarakterga ega emas. Ular bu munosabatlarni o'z tabiati bilan belgilab, ijtimoiy hayot, moddiy sharoitlardan kelib chiqadi.

2-§. Oila huquqida huquq va muomala layoqati

Fuqarolik huquq layoqati u tugʻilgan paytdan eʼtiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi (FKning 17-moddasi).

Muomala layoqati — fuqarolarning oʻz harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlariga ega boʻlishi, ularni oʻzgartirish va bekor qilishi mumkin boʻlgan layoqatidir.

Oila qonuni huquq layoqati va muomala layoqatining ochiq taʼrifini bermaydi. Bu tushunchalarni tahlil qilish natijasida Fuqarolik kodeksida mavjud boʻlgan huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalaridan foydalanish mumkin. Fuqarolik muomala layoqatining oʻzgarishi oila munosabatlariga bevosita taʼsir etishi mumkin. Fuqarolik muomala layoqatini cheklash yoki undan mahrum etish oila muomala layoqatini ham cheklash yoki mahrum etishga olib kelishi mumkin. Koʻrsatilgan huquqiy koʻrinishda fuqarolik va oila huquqidagi bogʻliqlik shunday yaqinki ularni fuqarolik va oila huquqidagi huquq layoqati va muomala layoqati bilan birday tushuncha deb atash ham mumkin.

Oila huquqidagi toʻla muomala layoqati xuddi fuqarolik huquqiga oʻxshab 18 yoshga toʻlish bilan paydo boʻladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, oila huquqida ham fuqarolik huquqiga oʻxshab toʻla muomala layoqati bir vaqtda vujudga keladi. Bunday toifalarning bevosita aloqadorligi ularning bir-biriga uzviy aloqadorligida koʻrinadi. Yoshni kamaytirishi tufayli voyaga yetmagan nikohtuzishi oila huquqida uni beixtiyor ravishda toʻla fuqarolik muomala layoqatiga ega ekanligini anglatadi.

Fuqarolik huquqida toʻla muomala layoqatiga ega boʻlish oila huquqida beixtiyor ravishda muomala layoqatini vujudga keltirmaydi.

Amaldagi Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 28-moddasiga binoan, oʻn olti yoshga toʻlgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi boʻyicha ishlayotgan boʻlsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanayotgan boʻlsa, u toʻla muomalaga layoqatli deb eʼlon qilinishi mumkin. Oila qonuni ushbu dalolatnoma bilan toʻla oilaviy muomala layoqatiga ega ekanligi

bilan bog'lamaydi. Bu esa oila muomala layoqatini fuqarolik huquqiy muomala layoqatidan farq qilishini anglatmaydi. Bu o'zbek qonunchiligida emansipatsiyani juda keng targ'ib qilinishini bildiradi.

Fuqarolik huquqida ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlari uchun javob berolmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan muomalaga layoqatsiz shaxs beixtiyor ravishda oilaviy muomala layoqatini ham yo'qotadi.

Amaldagi oila qonunlari voyaga yetmagan bolalarning roziligini olishni kengaytirishi holatlari oilaviy-huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishini (farzandlikka olish, ota-onalar huquqlarini tiklash va boshqalarda) jiddiy kengaytirib yubordi. Bunday rozilikni oilaviy-huquqiy dalolatnoma deb tushunmoq lozim. Hamma holatlarda bolaning roziligi to'g'risida so'z ketsa, ularda qisman muomala layoqati borligi to'g'risida gap ketadi.

Fuqarolik huquq layoqatini cheklash oilaviy huquq layoqatini ham cheklashga bevosita ta'sir etadi. Bunday shaxslar vasiy, homiy, farzandlikka oluvchi bo'la olmaydilar. Mantiqan ular nikoh shartnomasini va aliment kelishuvini tuzish huquqiga ega bo'lmasligi kerak, chunki fuqarolik qonunlari ularga o'z mulklarini tasarruf etishga ruxsat bermaydi. Biroq nikoh shartnomalari nafaqat oila moddiy holatining yomonlashuvi, aksincha, uni mustahkamlashga qaratilishi mumkin. Chunki oila qonunchiligi qisman muomalaga layoqatsizlarga bunday cheklashni belgilamaydi. Ular bunday shartnomalarni tuzishlari mumkin.

Fuqarolarda oila huquq va majburiyatlariga ega bo'lish layoqati tug'ilish bilan vujudga kelsa (masalan, ota-onalar va bolalar, aka-uka yoki opa-singillar va boshqalar o'rtasidagi aliment majburiyatlari), ayrim holatlarda esa fuqarolarni ma'lum yoshga to'lishlari bilan vujudga keladi. Masalan, nikoh huquq layoqati. Shunday holatlarda huquq layoqati bilan bir yo'la muomala layoqati ham vujudga keladi.

Oilaviy huquq va majburiyatlari paydo bo'lishi ma'lum yoshga to'lish bilan vujudga keladi. Qoida bo'yicha bunday yosh voyaga yetish yoshi hisoblanadi. Biroq ayrim huquqlarga ega bo'lish

ertaroq ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, oila qonunchiligi farzandlikka olinayotgan bola o'n yoshga to'lgan bo'lsa, farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinishini belgilaydi.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi (FKning 30-moddasi). Masalan, muomalaga layoqatsiz shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi. Muomalaga layoqatsiz shaxs vasiy, homiy va farzandlikka bola ololmaydi. Shaxs muomalaga layoqatsiz deb topilganda oila doirasida unga tegishli bo'lgan shaxsiy va mulkiy huquqlar vasiy va homiylar tomonidan amalga oshiriladi.

3-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari va obyektlari

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari faqat fuqarolar bo'ladi. Bu holat oila huquqining fuqarolik huquqidan farqini ko'rsatadi, chunki fuqarolik huquqining subyekti faqatgina fuqarolar bo'lmasdan, shuningdek, yuridik shaxslar va davlat uning alohida subyekti bo'lishi ham mumkin. Demak, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar hatto ular Oila kodeksi bilan tartibga solinsa ham oilaviy-huquqiy munosabat bo'lolmaydi. Masalan, fuqarolar va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari bilan bog'liq (tug'ilganlik; nikoh tuzish; nikohdan ajralish; o'lim va boshqalar) FHDY organlari o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar. Bu ma'muriy-huquqiy munosabatlar turiga kiradi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda obyektlar moddiy bo'lmagan shaxsiy xayr harakat va ashyolar bo'lishi mumkin. Oilaviy-huquqiy munosabatlarda moddiy bo'lmagan shaxsiy xayr: familiya, ism, kasb, mashg'ulot va boshqalar bo'ladi.

Bolani tarbiyalash esa harakat doirasiga kiradi. U uzoq muddat davom etuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi. Harakat doirasiga: er-xotinning birgalikdagi umumiy mulkini boshqarishi, ota-onalar va bolalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga qaratilgan faoliyatni tushunish mumkin.

Huquqiy munosabat obyektini sifatida ashyo yoki mulkning predmeti (masalan, er-xotinning umumiy birgalikdagi mulki doirasiga kiruvchi ashyolar) yoki pul summasi turida (masalan, aliment majburiyatlarida aliment to'lovlari sifatida) qatnashadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda obyekt sifatida bolalar qatnashishi mumkin emas. O'zining tashqi ko'rinishi bo'yicha bola obyekt bo'lib ko'rinib ham, ammo hamma holatda u subyekt bo'lib qatnashadi. Chunki huquqiy munosabat bolalar tarbiyasiga qaratiladi.

4-§. Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar

Huquq layoqati va muomala layoqati — bu shaxslarda oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar vujudga kelishining shart-sharoitidir. Oilaviy-huquqiy munosabatlarda subyektiv oilaviy huquq va majburiyatlar uning mazmunini tashkil etadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar o'zining xarakteri bo'yicha shaxsiy va mulkiylarga bo'linadi.

Mulkiylar doirasiga aliment huquqlari ham kiradi. Shaxsiy huquqlar iqtisodiy mazmundan mutlaq ajratilgandir. Mulkiy subyektiv huquq va majburiyatlar aniq shaxslarning shaxsiyati bilan bevosita bog'langanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, er-xotin o'zaro bir-biridan aliment talab etish huquqiga ega. Ulardan birining o'limi bunday huquq va majburiyatni tugatadi (fuqarolik huquqida esa huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga o'tishi mumkin, masalan, vorislarga). Bundan ikkinchi xulosa ham kelib chiqadi, u ham bo'lsa oilaviy-huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga o'tkazilmaydi. Masalan, o'zining aliment olish huquqini, bolalarni tarbiyalash majburiyatini boshqa shaxslarga o'tkazish mumkin emasligidan bu huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish ularni o'z vakillariga topshirish mumkinligining farqini bilish lozim. Agar ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar bolalar ustidan bo'ladigan nazoratni bolalarni boquvchi xotinga topshirsalar, u holda boshqa shaxslarga ota-onalik huquqi o'tkazilganligini anglatmaydi. Bu yerda gap bu shaxslarga nisbatan huquqni amalga oshirish yoki himoya qilish majburiyatining

o'tganligini anglatadi. Modomiki, subyektiv oila huquqlari qoida bo'yicha huquqiy munosabatlarda amalga oshirilgan ekan, u o'zining yuridik tabiatiga ko'ra nisbiy huquqlar sifatida namoyon bo'ladi.

Har qanday oila huquqi subyektiga qarama-qarshi boshqa subyekt turadi. Chunki bolaga nisbatan qaratilgan boshqa subyekt bo'lganligi uchun ota-onalik huquqi mavjud. Er-xotin o'rtasida qayd etilgan nikoh bo'lganligi uchun shaxsiy huquqdan biri mavjud bo'ladi. Nikohning tugatilishi shaxsiy oila huquqining ham tugatilganligini anglatadi. Demak, subyektiv oila huquqi — bu nisbiy huquqdur.

Ayrim holatlarda oila huquqi nisbiy huquq bo'lsa ham, absolut huquq tusiga ega bo'ladi. Masalan, Oila kodeksining 78-moddasiga binoan, ota-ona bolani qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli.

5-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslari

Oilaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar — yuridik faktlardir.

Huquqdagi yuridik faktlarga xos bo'lgan muhim asosiy xususiyatlar oila huquqidagi yuridik faktlarga ham tegishlidir. Xususan, ular o'zlarining tabiatlari bo'yicha hodisalar, harakatlar yoki muddatlar sifatida qatnashadilar¹.

Oila huquqidagi yuridik faktlar ijtimoiy munosabatlarga ta'siri bo'yicha umumiy huquq nazariyasidagi yuridik faktlarga mos kelib, huquqni vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga bo'linadi. Biroq oila huquqiga xos bo'lgan bir guruh yuridik faktlar borki, ular orqali oila huquqidagi subyektlar yo'qolgan huquq va majburiyatlarni tiklaydilar. Yuridik faktlarning bu guruhi mustaqil kategoriyaga ajratilib, huquqini tiklash yuridik faktlari deb yuritiladi. Bu yuridik faktlarni ota-onalik huquqini tiklash, farzandlikka olishni

¹ Yuridik adabiyotlarda hodisalar va harakatlar qatori muddat, ko'pincha, yuridik faktlarning mustaqil turi sifatida ko'riladi (Qarang: *O.A. Крассавчиков. Юридические факты в советском гражданском праве. Госиздат, 1958, С. 169 — 170; В.П. Грибанов. Сроки в гражданском праве. Изд. Знание, 1967, С. 8 — 9).*

bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish, bedarak yo'qolgan yoki o'lgan deb e'lon qilingan shaxsning hozir bo'lishida qo'llaniladi.

Oila huquqida huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi hol sifatida, ko'pincha, faktiv tarkiblar, ya'ni yuridik faktlarning yig'indisi qo'llaniladi. Shu bilan birga faktiv tarkib, ko'pincha, aralash holda ro'y berib, unga hodisa, shuningdek, harakat kirishi mumkin. Masalan, bolaning tug'ilishi tufayli (hodisa) ota-onalik huquqiy munosabatini vujudga keltirsa, uning tug'ilganligini FHDYda ro'yxat qilish (harakat) sodir bo'ladi.

Oila huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi faktik yig'indi, ko'pincha, uch, hatto undan ortiq faktlar yig'indisidan iborat bo'ladi (masalan, nikohni tuzish vaqtida). Bu faktlardan birortasining yo'qligi faktik yig'indini vujudga keltirish kuchini yo'qotadi.

Oila huquqida, ko'pincha, holat yuridik fakt hisoblanadi.

Holat — bu mavjud ijtimoiy aloqalardir. Ularga nikoh, qon-qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) va boshqalar kiradi. Ammo holat hodisa va harakatlar qatori yuridik faktlarning maxsus turi emas. Holat hodisaning turi sifatida ishtirok etadi. Ularning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular davomli xarakterga egadir.

Ayrim holatlarda huquq va majburiyatning vujudga kelishi holatning tugashi bilan belgilanadi: masalan, nikohning tugatilishi bilan avval nikohda bo'lgan er-xotinda moddiy ta'minot olish huquq va majburiyati vujudga keladi, bolalarni doimiy tarbiyaga olishning tugatilishi bilan doimiy tarbiyada bo'lganlarga o'z tarbiyachilariga ta'minot berish majburiyati yuklatilishi mumkin.

Oila huquqida holat boshqa yuridik faktlardan farq qilib, qisqa muddat (darhol) ta'sir etmasdan, aksincha, davomlilik bilan xarakterlanadi. Masalan, qayd etilgan nikohda bo'lish boshqa nikohni tuzishga yo'l qo'ymaydi, nikohda bo'lish tug'ilgan bolaga er-xotinning familiyasini yozish uchun asos bo'ladi, nikohda bo'lish er va xotindan moddiy ta'minot talab qilish uchun asos bo'ladi va boshqalar.

Nikoh va oila doirasida huquq va majburiyatning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi uchun hodisa va harakat qonun tomonidan o'rnatilgan tartibda, albatta, rasmiylashtirilishi yoki tegishli organlarning qarori bo'lishi lozim. Nikohni haqiqiy deb hisoblash uchun uni tuzuvchilarning o'zaro roziligi bo'lishi, shuningdek, FHDY organlarida qayd etilishi lozim, farzandlikka olish to'g'risidagi dalolatnomani farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi o'rtasida huquq va majburiyatni vujudga keltirish uchun tuman va shahar hokimining qarori bo'lishi lozim va boshqalar. Dalolatnomani qayd ettirish yana boshqa ko'p holatlar uchun ham zarur.

6-§. Oila huquqida qon-qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik tushunchasi va ularning ahamiyati

Oil kodeksining uchinchi bo'lim 9-bobi qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilikka bag'ishlanib, o'z ichiga uch moddani oladi. Undagi bu bob qonunchilikka butunlay yangilik bo'lib kirdi. Uning ham o'z oldiga qo'ygan maqsadi bor.

Qon-qarindoshlik — bu shaxslar o'rtasidagi qon va qorin aloqasi bo'lib, biri ikkinchisidan yoki umumiy ajdoddan kelib chiqqanligini bildiradi.

Qon-qarindoshlik oila huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo'ladigan hollardan biri bo'lgani uchun ham qonunchilikda o'z yechimini topishi lozim edi. Bu vazifa ham bajarildi. Undan tashqari, nikohdan o'tishda uni man etadigan holatlardan biri nikoh tuzuvchilarning yaqin qarindoshlikda bo'lishidir. Shuning uchun unga to'g'ri ilmiy asoslangan tushuncha berish lozim edi, chunki hozirga qadar bu masalada chalkashliklar mavjud. Qonun bo'yicha kimlarni qarindosh deb ataymiz va ular o'rtasidagi huquq va majburiyatlar qanday vujudga keladi, degan masalalar o'z yechimini topdi. Endilikda bu masala bo'yicha ham oila qonunchiligiga aniqlik kiritildi.

Yaqin qon-qarindoshlik o'z ichiga to'g'ri, yon chiziq, tug'ishgan va o'gay qarindoshlar, aka-ukalar bilan opa-singillar tushunchalarini oladi.

To'g'ri chiziq qarindosh bo'lib, biri boshqasidan dunyoga kelgan shaxslar, ya'ni bobo-ota-o'g'il-nevara-evara-chevara-duboralar tushuniladi.

Har bir fuqaro yetti avlodini bilishi lozim, chunki buni bilish o'z avlodiga hurmat va ular o'rtasida nikoh tuzilmaslikni anglatadi.

Yon chiziq qarindosh bo'lib, aka-uka va opa-singillar hisoblanadi.

Umumiy ota-onaga ega bo'lganlar tug'ishgan qarindosh, ota bir ona boshqa yoki ona bir ota boshqalar o'gay qarindoshlar deb tushuniladi.

Aka-uka hamda opa-singillar farzandlarining o'zaro nikoh tuzishlari, shuningdek, bolalarni emizish tufayli vujudga kelgan sut qarindoshlar, ya'ni ko'kaldoshlarning ham nikoh tuzishlari maqsadga muvofiq emas. Bu haqda me'yoriy hujjatlarda tegishli qoidalar berilsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohni qonun yo'li bilan taqiqlash axloqiy hamda biologik nuqtayi nazarga, tibbiyot fani yutuqlari va xulosalariga asoslanadi.

Boshqa qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish qonun bilan man etilmaydi. Shuning uchun yon chiziq bo'yicha qarindosh bo'lgan, amakivachcha, tog'avachcha, xolavachchalar, amnavachchalar va boshqa uzoq qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish mumkin. Ammo bu maqsadga muvofiq emas. Chunki qarindoshlik nikohi tufayli, odatda, jismoniy va aqlan nosog'lom, ya'ni nimjon, kasalmand, aqli zaif, kar-soqov, ortiq, qo'shoq, pakana yoki nuqsonli, mayib bolalar tug'iladi. Ular o'sishda tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bunday oilalarda, ko'pincha, yurak, buyrak xastaligi kasalligiga yo'liqqan go'daklar tug'ilishi kuzatilmoqda. Biologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, nikoh qanchalik begona shaxslar bilan tuzilsa, avlod shuncha sog'lom bo'ladi.

Amaldagi oila qonunchiligida aka-ukalar va opa-singillar farzandlarining nikohlanishi taqiqlanmagan, vaholanki, hozirgi zamon genetikasi yutug'i va xulosalariga ko'ra, bunday nikoh nomaqbuldir. Xo'sh, genetika nima? Gen — irsiyat belgilarini nasldan naslga o'tkazuvchi omildir. Inson a'zosining har bir belgisi,

ko'inishi va xususiyatlarini gen belgilaydi. Ana shu genlar, binobarin, barcha xususiyatlar ota-onadan farzandga o'tadi.

Biror genning o'zgarishi natijasida kelib chiquvchi va nasldan naslga o'tuvchi kasalliklar irsiy kasallik hisoblanadi. Kasal gen kelgusi avlodlarning birida shu xastalikning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Qon-qarindoshlar nikohidan tug'ilgan bolalarda bu xastalik genetik qonuniyatlar asosida osongina yuzaga chiqadi. Bundan ko'rinadiki, qarindosh-urug'lar nikohidan xasta bolalar tug'ilishi ko'p bo'ladi.

Ayni chog'da qarindoshlar o'rtasidagi nikoh aholining geografik yashash sharoitiga ham bog'liq. Tog'li va orol joylarida yashovchi, tashqi dunyo bilan aloqasi birmuncha cheklangan ijtimoiy guruhlarning barini, shubhasiz, qon-qarindosh deyish mumkin. Bu yerdagi barcha aholi o'z xohishidan qat'i nazar, zaruratdan kelib chiqqan holda, qon-qarindoshga aylangan. Olib borilgan kuzatishlar qon-qarindosh nikohining kelgusi avlodga ta'siri oqibatlarini tasdiqladi. Avvalo, bunday nikohdan tug'ilgan bolalar kasallikka tez chalinadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, AQSHda qon-qarindoshlar nikohidan tug'ilgan bolalarning 22,5 foizi, qarindosh bo'lmaganlar nikohidan tug'ilgan bolalarning esa 16 foizi nobud bo'lgan.

Qarindoshlar o'rtasida tuziladigan nikoh, hatto, farzand-sizlikka ham olib kelmoqda. Bular hammasi tibbiyot fanining asosli xulosalaridir.

Akademik K.N.Bochkovning fikriga ko'ra, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga chek qo'yilsa, aholi o'rtasida kasalga chalinishni teng yarmiga kamaytirish mumkin. Umuman, qarindosh-urug'lar nikohi kelgusi avlodlar salomatligiga putur yetkazishi shubhasizdir.

Agar nikoh tuzishga monelik qiladigan hollarga to'la rioya qilinib, oila qurilsa, u mustahkam bo'ladi, kelajak avlod barka-molligiga, qolaversa, kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizning sog'lomligini ta'minlashga katta hissa qo'shiladi.

Musulmon huquqi bo'yicha, har xil oilada tug'ilgan bolalarni bir ona emizishi tufayli sut qarindoshligi vujudga keladi.

Tug'ruqxonalarda ona-bola yotadigan alohida xonalar bo'lishi lozim. Boshqa ayoldan tug'ilgan bolani emizgan ayol o'sha bolaga

ikkinchi ona hisoblanadi. Demak, go'dak boshqa onaning sutini emsa, u o'sha sut bergan ayolning farzandi bilan turmush qurishi mumkin emas. Bu ham o'z tug'ishgan ukasi yo singlisi bilan turmush qurganday bir gap. Hozir ham ba'zilar emizgan ayolni tuqqan onasi yanglig' ko'rib, uni ham «ona» deydi. Qadimda sut emishganlararo aka-uka, opa-singillik, ya'ni ko'kaldoshlik bo'lib, ular o'zaro turmush qurmaganlar. Shuning uchun bundan buyon ana shunday boshqa ayolning manzili, nasl-nasabi o'sha suti kam onaga rasman yozib berilishi, unga tanishtirib qo'yilishi shart. Bu ma'naviy jihatdangina emas, balki kelajak avlodimizning qon musaffoligiga erishishi uchun ham juda zarur. Binobarin, milliy qadriyatlarimizni tiklab, me'yoriy hujjatlarga tegishli o'zgartirish kiritib, bir onani emgan bolalar o'rtasida vujudga kelgan ko'kaldoshlik tufayli ham ularning bir-biri bilan nikohdan o'tishini man etadigan qoida kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Zotan, bu holat islom shariatida ham qayd etilgan.

Oila kodeksining 59-moddasiga binoan, er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik) o'zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilikning qarindoshlikdan farqini bilish kerak. Erning qarindoshlari bilan xotinning qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlar quda-andachilik va qayin-bo'yinchilik hisoblanadi.

Er-xotinning qarindoshlari bo'lmasa, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik vujudga kelmaydi.

Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik shaxsning nasl-nasabiga yoki qarindoshligiga asoslanmasdan, balki er-xotinning nikoh ittifoqi va ahdnomasiga asoslanadi.

Er va xotin qarindosh ham emas, qayin-bo'yin ham emas, quda-anda ham emas. Er va xotin o'zaro qonuniy rasmiylashtirilgan nikohda bo'lib, shu asosda ularning o'rtasida alohida huquqiy munosabat bo'lib, shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik axloq, odob qoidalari bilan tartibga solinadi.

7-§. Oila huquqida da'vo muddati

Da'vo muddati — shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir (FKning 149-moddasi).

Da'vo muddati o'tishi davrida shaxs buzilgan subyektiv huquqini majburlash tartibi bilan tiklashi mumkin.

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi (FK 153-moddasining 2-qismi).

Da'vo muddati fuqarolik huquqida mulkiy huquqiy munosabatlarda juda keng qo'llaniladi, bu ularning barqaror bo'lishi, shartnoma intizomini mustahkamlash, undan tashqari, fuqarolik aylanmasida qatnashuvchilarni rag'batlantirish, o'zlariga tegishli bo'lgan huquqlarini o'z vaqtida amalga oshirish, sudlarga ish bo'yicha obyektiv haqiqatni o'rnatishni yengillashtirish uchun yordam beradi.

Oila huquqida da'vo muddatiga bunday katta ahamiyat berilmaydi. Oila kodeksining 12-moddasi 1-qismida oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi, ushbu kodeks bilan belgilangan hollar bundan mustasnodir, degan umumiy qoida belgilangan oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddatini joriy qilmaslik qoidasi, har qanday buzilgan oilaviy-huquqiy munosabat fuqarolik ish yuritish tartibi qoidasiga binoan tiklanishi mumkin. Bu oila huquqida uzoq muddat davom etadigan shaxsiy huquq bilan bog'liq bo'lib, ularni hamma vaqt himoya qilish tabiatidan kelib chiqadi. Shunday qilib, oila munosabati ishtirokchilari amalda buzilgan oila huquqini himoya qilishda vaqtinchalik o'tkinchi vaqt bilan cheklanmagan. Shundaylarga nikohdan ajralish talabi, nikohni haqiqiy emas deb topish talabi, otalikni belgilash talabi, nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish talabi, alimentni olish huquqi, uni hamma muddat davomida undirish talabi va boshqalar kiradi.

Oila munosabatlarida da'vo muddati qat'iy aniq belgilangan holatlarda tatbiq etiladi. Xususan, buzilgan oila huquqlari OKning o'zida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Bunday holatlar bir qancha.

Birinchidan, bir yillik da'vo muddati OKning 24-moddasi 3-bandida ko'rsatilgan. Er (xotin) o'zining mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er) ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

Ikkinchidan, uch yillik da'vo muddati OKning 27-moddasi 9-bandiga binoan, nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda da'vo muddatining o'tishi ajralgan er yoki xotinning umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqi buzilganligini boshqasi tomonidan bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlanadi (OKning 12-moddasi 2-qismi).

Nazorat savollari

1. Oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va uning turlari.
2. Oilaviy-huquqiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqlovchi jihatlar nimalardan iborat?
3. Oila huquqida huquq layoqati va muomala layoqati qanday?
4. Oilaviy-huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi subyektlar kimlar?

3-BOB. OILA HUQUQI BO'YICHA NIKOH. NIKOHNING HAQIQIY EMAS DEB TOPILISHI

1-§. Oila huquqi bo'yicha nikoh tushunchasi va uni tuzish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilgan nikohgina tan olinadi. Bu holat oila munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Nikoh munosabatlariga kirish uchun ma'lum bir shartlar talab qilinadi. Bu nikohni FHDY organida ro'yxatdan o'tkazish va yuridik kuchga ega bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi holatdir. Nikoh munosabatlariga kirishni ba'zi bir Yevropa davlatlari bilan taqqoslab ko'radigan bo'lsak, davlat organlarida qayd etilgan nikohgina tan olinishining ushbu davlatlar uchun xos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Lekin ba'zi davlatlarda, masalan, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliyada nikoh muqobil asosda: yo diniy, yo fuqarolik shaklda qayd etilishiga qonun yo'l qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasida diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh yuridik ahamiyatga ega bo'lmaydi va er-xotinlik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirmaydi. Lekin ba'zi xorijiy davlatlarda diniy nikoh rasman tan olinaveradi. Jumladan, Misr, Liviya, Jazoir, Iroq, AQSHning ayrim shtatlari, Kanadaning ayrim provinsiyalarida shu holni kuzatish mumkin. Respublikamizdagi kabi Fransiyada, Shveysariyada, Yaponiya davlatlarida ham nikohning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida tuzilishi talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Oila qonunchiligiga binoan, nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bir qator shartlar talab qilinadi. Bular:

1. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi (14-modda);
2. Nikoh yoshi (15-modda);
3. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning mavjud bo'lmashligi (16-modda);
4. Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tishlari (17-modda).

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 14-moddasiga binoan, nikoh tuzish ixtiyoriy bo'lib, bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Respublikamizda nikoh yoshi ayollar uchun 17 yosh, erkaklar uchun 18 yosh qilib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganda (nikoh munosabatiga kiruvchi shaxslardan biri O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga binoan eman-sipatsiya holatida) to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilingan bo'lsa, nikoh yoshi nikohlanuvchi shaxslar ariza bergan tuman yoki shahar hokimining qarori bilan nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoh yoshi turli davlatlarning qonunchiligida turlicha qilib belgilangan. Bolgariyada — erkaklar va ayollarning nikohga kirish yoshlari qat'iy qilib 18 yosh, Angliyada — erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi umumiy qilib 16 yosh, Fransiya va Vengriyada — erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 16 yosh, Polshada — 21 va 18 yosh, Yaponiyada — 18 va 16 yosh, Gruziyada — 17 va 16 yosh, Ukraina va Turkmanistonda — 18 va 17 yosh, AQSHning turli shtatlarida — nikoh yoshi 16 yoshdan 21 yoshgacha qilib belgilangan.

Nikoh tuzish uchun monelik qiladigan holatlar — bu nikoh tuzish uchun to'sqinlik qiladigan yoki qonunga zid bo'lgan holatlardir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida nikoh tuzish shartlari bilan bir qatorda nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar ham ko'rsatilgan. Oila kodeksining 16-moddasiga muvofiq, nikohga kiruvchilardan loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Aksariyat olimlar bu holatga nikoh tuzishga monelik qiluvchi holat deb baho beradilar.

Nikoh munosabatiga kiruvchi shaxslardan biri ilgari ro'yxatga olingan nikohda turgan bo'lsa, u yangi nikohga kirish uchun avvalgi nikohining tugatilganligini asoslovchi hujjatlar (nikoh tugatilganligi to'g'risida guvohnoma, er (xotin) ning vafoti to'g'risidagi guvohnoma, nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi sudning hal qiluv qarori)ni taqdim etishi shart.

Bundan tashqari, nikohdan o'tishda uni man etadigan holatlardan biri, nikoh tuzuvchilarning yaqin qarindoshligidir. Yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmasligi jamiyatning umumqabul qilingan talablaridan biridir. Qarindoshlar o'rtasida tuziladigan nikohni taqiqlash chegarasi turli davlatlarda turlicha qilib belgilangan. Masalan, Bolgariyada tug'ilganlikning to'rtinchi pog'onasigacha bo'lgan yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish taqiqlanadi. Shveysariya va Fransiyada farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar o'rtasidagi nikoh taqiqlanadi. Germaniyada esa farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh tuzilsa, farzandlikka olish munosabatlari tugatiladi.

Nikohni qayd etishga huquqi bo'lgan FHDY organlarida qayd etilgan har bir nikoh qonuniy tuzilgan nikoh hisoblanadi.

Oila kodeksida haqiqiy bo'lmagan nikoh tushunchasi berilgan. Unda belgilangan shartlarning buzilishi sud tomonidan nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkin.

Nikohni haqiqiy emas deb topish tomonlarga avvalgi huquqiy holati qaytarib berilishini bildiradi. Aniqrog'i, qonunga asosan nikoh haqiqiy emas deb topilganda, tomonlar uchun hech qanday huquq va majburiyatlar keltirib chiqarmaydi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilishi voyaga yetmagan bolalar huquqlariga ta'sir etmaydi.

Oila kodeksining 14 — 16-moddalari buzilgan taqdirda, shuningdek, soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Oila kodeksining 49-moddasiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilib, u quyidagi tahrirda bayon etildi:

«Nikoh quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi:

ushbu kodeksning 14 — 16-moddalarida belgilangan shartlar buzilganda;

soxta nikoh tuzilganda, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay nikoh qayd qildirganda;

nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa»¹.

Oila kodeksida nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari haqida mukammal tushuncha berilgan. Quyidagi hollarda qayd etilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi:

— nikoh tuzish ixtiyoriyligining buzilishi (OKning 14-moddasi);

— nikoh yoshining buzilishi (OKning 15-moddasi);

— yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi (OKning 16-moddasi);

— nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida tuzilganda (OKning 16-moddasi);

— muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilganda (OKning 16-moddasi);

— soxta nikoh, ya'ni oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzilgan nikoh (OKning 54-moddasi);

— farzandlikka olgan shaxs bilan farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida tuzilganda (OKning 16-moddasi);

— nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki OITS kasalligiga chalinganligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs bilan tuzilgan nikoh.

Oila kodeksining 17-moddasiga o'zgartirish kiritilib, unda «Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması tomonidan belgilanadi», deb normalandi². Shuningdek,

¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, — T.: Adolat, 2010.

² O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2002-yil 13-dekabrdagi tahririda. Ushbu o'zgartirish 2003-yilning 8-fevralidan, ya'ni uning matbuotda e'lon qilinishi bilan amalga kiritildi. //Xalq so'zi, 2003-yil, 8 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslar quyidagi kasalliklar: psixik, narkologik, tanosil, sil kasalliklari va OIV/OITS bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish muddati nikohlanuvchi shaxslar tibbiy muassasaga murojaat qilgan kundan boshlab ikki haftadan oshmasligi kerak. Agar tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi, tartibi buzilib nikoh tuzilsa, bunday nikoh sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan shartlar buzilib nikoh tuzilgan taqdirdagina, nikoh haqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo'ladi.

Nikoh tuzish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari» bilan tartibga solinadi.

2-§. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va shartlari

Nikoh tuzish ixtiyoriyligining buzilishi. Nikoh nikohlanuvchi har bir shaxsning erkin o'zaro roziligi asosida tuzilishi kerak. Rozilik o'zga (ota-ona, qarindosh, mansabdor shaxs)larni majbur etishi yoki aldash oqibatida berilgan bo'lsa, ixtiyoriylik tamoyili buzilgani uchun bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh tuzishda ixtiyoriylik shartining buzilishi faqat nikohni haqiqiy emas deb topishgagina emas, balki jinoiy javobgarlikka sabab bo'luvchi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 136-moddasiga binoan, ayolni erga tegishga, nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'irlash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi.

Nikoh yoshi qoidasining buzilishi. Oila kodeksining 51-moddasiga asosan, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay, nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilingan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bir qator xorijiy mamlakatlarda o'rnatilgan qonunchilikni buzib tuzilgan nikoh mutlaq haqiqiy bo'lmagan, ya'ni nizoli nikoh bo'lib hisoblanadi. Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh Fransiya va Angliyada mutlaq haqiqiy emas deb, AQSHning ko'pchilik shtatlarida esa nizoli nikoh deb topiladi¹.

Sud nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topishda, asosan, nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab ish tutadi. Shunga ko'ra, nikoh yoshiga yetmagan shaxsning manfaatlari talab qilgan holdagina nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek, vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqli.

Agar nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi ish sudda ko'rilguniga qadar u shaxs nikoh yoshiga yetgan bo'lsa, nikoh faqat uning talabi bilangina haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Chunki nikoh yoshiga yetish bilan nikohni tuzish davrida yo'l qo'yilgan nuqson tugagan hisoblanadi.

Yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi. Bunday holat amaliyotda boshqa asoslarga qaraganda ko'p uchraydi. Faqat yakka nikohda bo'lish, axloq-odob normalari talablariga rioya qilish har tomonlama mustahkam oila qurish imkonini beradi. Oila kodeksida belgilab qo'yilganidek, har bir nikohga kiruvchi shaxsning faqat yakka nikohda bo'lib, boshqa nikohda bo'lmasligi talab etiladi. Bu talab jamiyatdagi axloq-odob normalaridan kelib chiqadi.

¹ *Mualliflar jamoasi.* Xalqaro xususiy huquq. — T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2002. 221-b.

Yakka nikohlilik tamoyili buzib tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ariza nikohda bo'lgan shaxslardan birining talabiga asosan ko'rib chiqiladi. Haqiqiy bo'lmagan nikohda bo'lgan shaxsning vafotidan so'ng mazkur shaxsning vorislari (vafot etgan shaxsning birinchi nikohidagi farzandlari, uning aka-ukalari, opa-singillari, ota-onalari va boshqalar), shuningdek, vafot etgan shaxsning nikohini haqiqiy emas deb topishdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar (moliya, ijtimoiy ta'minot organlari) sudga da'vo bilan murojaat etishlari mumkin. Chunki nikohda bo'lgan shaxs, agar u haqiqiy nikohda bo'lsa, o'ziga nafaqa tayinlashni yoki uy-joyga bo'lgan huquqini belgilashni talab qilishi mumkin.

Yakka nikohlilik tamoyilini to'la va har tomonlama ta'minlash maqsadida oila qonunlarida bir qator qoidalar belgilangan. Ilgari nikohda bo'lgan shaxslar qonuniy kuchga kirgan nikohdan ajralish haqidagi sudning hal qiluv qaroridan nusxa yoki nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi sudning hal qiluv qarorini ko'rsatgan holdagina yangi nikohni qayd etishlari mumkin. Ikkinchi nikoh barcha hollarda haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida tuzilgan nikoh ham haqiqiy emas deb topiladi. Bunday hollar sud amaliyotida kam uchraydi.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikoh ham haqiqiy emas deb topiladi.

Nikohga kiruvchi shaxslar ruhan, aqlan sog'lom, to'la muomala layoqatiga ega bo'lishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-moddasiga binoan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z harakatlari ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki o'zini boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan bitimlarni uning vasiysi amalga oshiradi. Bunday ruhiy holat nikohga kiruvchida nikohning huquqiy rasmiylashuviga qadar bo'lishi lozim.

Agar bunday holat nikohda turuvchilarda nikoh davrida ro'y bersa, bu hol nikohni haqiqiy emas deb topish uchun emas, balki nikohdan ajralish uchun asos bo'lib, bunday hollarda nikohdan ma'muriy tartibda ajratilishi mumkin.

Nikohga kiruvchilardan biri ruhiy kasal yoki aqli zaif bo'lgan holda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, nikohning haqiqiy emasligi haqida manfaatdor shaxslar da'vo qilishlari mumkin.

Soxta nikoh, ya'ni oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzilgan nikoh haqiqiy bo'lmagan nikoh deb topiladi.

Soxta nikoh qandaydir moddiy manfaatlarni, ya'ni uy-joyli bo'lish (uy-joyga ro'yxatdan o'tish) va boshqa maqsadlarni ko'zlab tuziladi.

Xorijiy mamlakatlarga borib ishlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda ham qalbaki nikohlar haqidagi guvohnomalarni qo'llash keng tarqalmoqda. Agar mutaxassis uylanmagan bo'lsa, u uzoq muddatga, ya'ni bir necha yilga xorijiy mamlakatlarga borib ishlash imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

Soxta nikoh jamiyatdagi mavjud axloq-odob qoidalariga to'g'ri kelmaydigan harakatdir. Soxta nikohni axloqsiz harakat deb hisoblab, uni yuridik jihatdan tan olmaslik qonun bilan mustahkamlangan.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ish sudda ko'rilgunga qadar soxta nikoh tuzgan shaxslar amalda oila qursalar, u holda bu nikoh haqiqiy emas deb hisoblanmaydi.

Farzandlikka olinganlar bilan farzandlikka oluvchilar o'rtasida tuzilgan nikoh ham haqiqiy emas deb topiladi.

Farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishni man etish axloq-odob qoidalaridan kelib chiqadi. Chunki ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, kelib chiqishi bo'yicha, ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olish, agar bola amaldagi qonunlarda belgilangan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaslik maqsadida (soxta farzandlikka olish) yoki qonunda belgilangan shartlarni buzib farzandlikka olingan bo'lsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki orttirilgan immunitet taqchilligi sindromi (OITS) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs (ya'ni, aldangan shaxs) nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib, sudga murojaat qilishga haqlidir.

Nikohlanuvchilardan birida bunday kasallikning borligi emas, balki nikohga o'tishda bu kasallikni boshqasidan yashirganligi yuridik ahamiyatga ega.

Nikohni haqiqiy emas deb topish sud tartibida amalga oshiriladi. Bunday munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida sudda da'vo qo'zg'atishga haqli bo'lgan shaxslar doirasi qonunda belgilangan.

Nikoh yoshiga yetmasdan nikoh tuzilganda da'vo qo'zg'atishga quyidagi shaxslar haqlidirlar:

- voyaga yetmagan er (xotin);
- voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar;

- vasiylik va homiylik organi;

- prokuror.

Nikoh tuzishda ixtiyoriylik sharti buzilganda:

- er (xotin), ya'ni majburlash kimga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa;

- prokuror.

Yakka nikohlilik tamoyilining buzilishida:

- vijdonli er (xotin);

- ilgari nikohdagi eri (xotini);

- prokuror.

Qon-qarindoshlik va farzandlikka olish qoidalari buzilib nikoh tuzilganda:

- er-xotindan biri;

- prokuror.

Nikoh ruhiy kasal yoki aqli zaif shaxs bilan tuzilganda:

- muomalaga layoqatli er (xotin);

- muomalaga layoqatsiz er (xotin) ning ota-onasi, vasiysi;

- prokuror.

Er-xotindan biri o'zida tanosil va OITS kasalligi borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga vijdonli er yoki xotin haqlidir.

Nikohni haqiqiy emas deb topish bo'yicha ko'riladigan ish nikohdan ajralishdan ishning ko'rilish tartibi bo'yicha ham farq qiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida er-xotinlarning o'zlari (yoki ulardan biri), shuningdek, bundan manfaatdor bo'lgan shaxslar bir qator asoslarga ko'ra da'vo qilishlari mumkin.

Bu belgi orqali nikohni haqiqiy emas deb topish nikohdan ajralishdan farq qiladi. Bundan tashqari, nikohni haqiqiy emas deb topishga er va xotinning tiriklik vaqtida hamda (nikohdan ajralishdan farq qilib) ularning vafotidan so'ng (ayniqsa, agar da'voning maqsadi meros yoki pensiya olish bo'lsa) yo'l qo'yiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach, o'n kun ichida uning ko'chirilgan nusxasi nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagi FHDY organiga yuboriladi¹.

Oila kodeksi nikohni haqiqiy emas deb topishning aniq huquqiy oqibatlarini belgilab beradi.

Oila kodeksining 55-moddasiga binoan, sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh tuzilgan vaqtdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nikohni haqiqiy emas deb topishning oqibati shaxsiy va mulkiy huquqlardan iborat bo'ladi.

Insofli er (xotin) nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro'yxatiga olingan vaqtda tanlangan familiyasini saqlab qolishga haqlidir.

Nikohi haqiqiy emas deb topilgan shaxslarning mulkiy-huquqiy munosabatlari Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

¹ *Mualliflar jamoasi*. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. — T.: Adolat, 2000. 102-b.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shunday nikohdan tug'ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin uch yuz kun ichida tug'ilgan bolalarning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Haqiqiy bo'lmagan nikohning vujudga kelmagan nikohdan farqini bilish kerak.

Nikoh tuzish uchun belgilangan tartib buzilib, nikoh qayd etilsa, bunday nikoh vujudga kelmagan nikoh hisoblanadi hamda uning vujudga kelganligi va haqiqiy emasligi sud tomonidan belgilanadi. Masalan, ariza berilganidan so'ng bir oylik muddatga rioya qilmaslik huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan nikohni rasmiylashtirish va boshqalar. U tuzilgan vaqtidan boshlab nikoh tuzuvchilarda hech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Masalan, nikoh tuzuvchi er-xotindan birining ishtirokisiz, ariza berganidan so'ng bir oylik muddatga rioya qilmaslik, nikohni rasmiylashtirishga huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan nikohni qayd etish va boshqalar.

Nazorat savollari

1. Nikoh tushunchasi, tuzish tartibi va shartlari qanday?
2. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar nimalardan iborat?
3. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va shartlari qanday?
4. Nikohni haqiqiy emas deb topishning huquqiy oqibatlari.
5. Nikoh haqiqiy emas deb topilishi natijasida er yoki xotin tomonidan yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining undirilishi qanday amalga oshiriladi?

4-BOB. ER-XOTINNING SHAXSIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari tushunchasi

Keyingi paytlarda yurtimizda kechayotgan islohotlar oila masalasini ham chetlab o'tmadi.

Chunki oila — davlat va jamiyat tayanchi. Davlat siyosatining har bir yo'nalishi oila bilan bog'liq, ya'ni oilada kelajak avlod tug'iladi, shakllanadi va kamol topadi. Shu jihatdan barcha oilani qadrlaydi, uning sog'lomligini, tinchligini, farovonligini ta'minlashga harakat qiladi.

Zero, muhtaram Yurtboshimiz «Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslning tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandlarining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi»¹, deb bejiz aytmagan.

Chunki oila har bir fuqaroga mas'uliyat hissini yuklaydi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni vujudga keltiradi va shakllantiradi.

Odatda, oilaning asosini nikoh tashkil etadi. Mana shu nikoh orqali er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi.

Jumladan, bu haqda amaldagi Oila kodeksining 18-moddasida «Nikoh FHDY organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi» deyilgan².

¹ Karimov I. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T.: O'zbekiston, 1997.

² O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. — T.: Adolat, 1998.

Erkaklar va ayollarning teng huquqliligi to'g'risidagi Konstitutsiyaviy tamoyil oilaviy munosabatlarda ham belgilangan bo'lib, unda er va xotin teng ravishda huquq va majburiyatlarga egaligi ko'rsatilgan.

Nikoh ittifoqining tabiiy natijasi oila qurish, farzandlarni birgalikda tarbiyalashdir. Modomiki, shunday ekan, bolaning nasabini, ota-onasining kimligini, kimga qon-qarindosh bo'lishini belgilash muhim huquqiy ahamiyatga ega. Chunki qonun bolaning nasabiga qarab, ota-onalar bilan ularning farzandlari o'rtasida muayyan huquqlarni bog'laydi hamda bir-biriga nisbatan muayyan burchlar yuklaydi.

Ota-onalar o'z farzandlarini moddiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashga, farzandlar voyaga yetganda esa, ular mehnatga layoqatsiz hamda yordamga muhtoj ota-onalariga mehribon bo'lib, ularni o'z qaramog'iga olishga burchli bo'ladi.

Mamlakatimizda ota-onalar zimmasiga o'z bolalariga to'g'ri tarbiya berish, ularni Vatanga sadoqatli, davlat, jamoat oldidagi burchiga nisbatan vijdonli munosabatda bo'lish, jamiyat qoidalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash yuzasidan juda muhim, mas'uliyatli burchlar yuklagan.

Ota-onalar o'z bolalariga nisbatan teng huquq va burchlarga egadirlar. Ularning o'z bolalariga nisbatan huquq va burchlari bola tug'ilishi bilanoq paydo bo'ladi.

Ota-onaning shaxsiy huquqlariga bolaga ism berish, familiyasini belgilash, tarbiyalash, turar joyini belgilash, o'qitish, bolaning manfaatlarini himoya qilish kabilar kiradi.

Oilaning mustahkam bo'lishi esa, er-xotinlar o'rtasidagi munosabatning mustahkam va barqarorligiga bog'liq bo'ladi.

Er-xotinlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar o'z mazmuniga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- shaxsiy huquq va majburiyatlar;
- mulkiy huquq va majburiyatlar.

Nikoh davomida ular doimiy ravishda bir-birini to'ldirib boraveradi.

Oila kodeksining 19-moddasiga binoan, mulkiy, shaxsiy huquq va majburiyatlarni amalga oshirishda er-xotinlar teng huquq va majburiyatlarga egalik qiladilar va foydalanadilar.

Nikohi qonunda ko'rsatilgan tartibda rasmiylashtirilmasdan birga yashaganlik holatlarida yoki nikohi haqiqiy emas deb topilgan holatlarda ularning shaxsiy huquq va majburiyatlari Oila kodeksi normalari bilan emas, balki umumiy tartibda Fuqarolik kodeksi normalari bilan tartibga solinadi.

2-§. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlarining turlari

Oilaviy munosabatlarda er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

— **familiya tanlash.** Ya'ni Oila kodeksining 20-moddasiga binoan, nikoh tuzish vaqtida er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotinining familiyasini umumiy familiya qilib tanlashi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qolishi mumkin. Er va xotindan birining o'z familiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiyasi o'zgarishiga olib kelmaydi;

— **mashg'ulot turi va kasb tanlash.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga hamda Oila kodeksining 19-moddasiga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Bu hol Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi talablariga ham to'la mos keladi. Mashg'ulot turi va kasb tanlash shaxsning o'z erk-irodasi bilan bog'liq bo'lib, u er (xotin) dan har birining Mehnat qonunchiligida belgilangan malaka, ma'lumot va kasb tayyorgarligiga ega bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir;

— **turar joy tanlash.** Nikohda bo'lish aslo er-xotinning birga turish majburiyatini vujudga keltirmaydi. Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning qonuniy vakillari — ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning yashash joyi ham hisoblanadi¹;

¹ *Otaxo'jayev F.M.* O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. — T.: TDYI, 2005. 125-b.

— **bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanish.** Oilaviy-huquqiy munosabatlar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, davomiy munosabatlar hisoblanadi. Oila a'zosi hisoblangan voyaga yetmagan bolalar ota-onasidan ta'lim, tarbiya olish huquqiga egadirlar. Ushbu holat, ota hamda onaga teng ravishda huquq hamda majburiyatlarni yuklaydi. Har bir ota-ona farzandlarining munosib kamol topishlari, elga qo'shilishlari uchun mas'uldirlar;

— **turmush masalalarini birgalikda hal etish va boshqalar.** Ya'ni, oilaviy masalalarda uchraydigan uy-ro'zg'or yumushlari, oilaning budjetini shakllantirish va tasarruf qilish, shuningdek, qarindosh-urug'chilik, qayin-bo'yinchilik munosabatlari, to'y-ma'rakalarni bamaslahat o'tkazish, mahalliy urf-odat va ana'analarga hamda umuminsoniy qadriyatlarga suyangan holda amalga oshirish nazarda tutiladi.

Yuqoridagi huquq va majburiyatlarni birgalikda amalga oshirish er-xotinlikning mazmun-mohiyatini belgilaydi. Odatda, shaxsiy huquq va majburiyatlarning ba'zilari, ya'ni familiya, kasb-kor, turar joyga egalik masalalari fuqaro bilan chambarchas bog'liq va u nikohgacha vujudga kelgan bo'lib, o'zgarmagan holda davom etishi ham mumkin. Shuning uchun shaxsiy huquq va majburiyatlar oilaviy munosabatlarda mulkiy munosabatlarga nisbatan belgilovchi rol o'ynaydi.

Nazorat savollari

1. Konstitutsiyaviy shaxsiy huquq va majburiyatlar hamda oilaviy shaxsiy huquq va majburiyatlar: ularning birligi va o'ziga xosligi.
2. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlariga nimalar kiradi?
3. Er-xotinning familiya tanlashdagi huquqlari nimalardan iborat?
4. Er-xotinning kasb, turar joy, mashg'ulot turini erkin tanlash huquqlari qanday amalga oshiriladi?

5-BOB. ER-XOTINNING MULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillari davomida ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarini huquqiy jihatdan tartibga solish borasida bir qancha yutuqlarga erishdi. Shu jumladan, oilaviy munosabatlar sobiq Ittifoq davrida ham huquqiy tartibga solinib kelingan. Lekin oilaviy munosabatlardagi ko'pchilik holatlarga yetarlicha e'tibor berilmagan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining oilaviy munosabatlarni tartibga solish borasidagi Oila kodeksi bu masalalarni ham o'z ichiga olgan. Er-xotinlarning mulkiy huquq va majburiyatlari shaxsiy huquq va majburiyatlari bilan bir vaqtning o'zida vujudga keladi. Er-xotinlarning mulkiy huquq va majburiyatlari ikki asosda, ya'ni qonun va shartnoma asosida vujudga keladi. Qonun asosida vujudga keladigan er-xotinlarning mulkiy huquqlarini quyidagicha tasniflaymiz:

- er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki;
- er-xotinning har birining xususiy mulki;
- er-xotinning shaxsiy foydalanishdagi mulki;
- er-xotinning o'zaro aliment majburiyatlari.

Er-xotinning har birining mulki ham mavjud. Bular ham, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi.

Oilaviy munosabatlarda ko'p uchrab turadigan mulkiy masalalar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish muhim vazifadir. Shuning uchun ham Oila kodeksida er-xotinlarning mulkiy huquq va majburiyatlari atroflicha yoritib berilgan.

2-§. Er-xotinlarning xususiy va umumiy mulki

Er-xotinlarning mulklari, o'z navbatida, quyidagilarga bo'linadi:

1. Xususiy mulk, ya'ni er yoki xotindan faqat bittasiga tegishli bo'lgan va u tomonidan tasarruf etiladigan mulkidir. Unga quyidagilar kiradi: er (xotin) ning nikohga qadar faqat o'ziga tegishli bo'lgan mulki (masalan, uy, uy jihozlari, omonatga qo'yilgan pul, qimmatbaho qog'ozlar va boshqalar).

O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni va FKning 164-moddasida belgilanishicha, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra, o'z xohishi va manfaatlarini ko'zlab egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Shu ma'noda mulkdor o'z mulkiga bo'lgan huquqlarini ixtiyoriy ravishda, o'z xohishiga ko'ra amalga oshiradi. Mulkdorning o'z xohishi deganda, uning o'z erki, irodasi bilan o'z manfaatlarini ko'zlab, birovning (uchinchi shaxslarning) tazyiqsiz, g'ayrihuquqiy ta'sirisiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Agar mulkdorga nisbatan bunday holatda zo'rlik, tazyiq ko'rsatilgan bo'lsa, qonun mulkdorning xohish-irodasi erkin amalga oshirilishini kafolatlaydi va muhofaza qiladi. Ayni vaqtda mulkdorning o'z xohishiga ko'ra ish tutishi qonun, insof va adolat doirasida amalga oshirilishi lozim.

Mulkdorning mulkiy huquqini o'z xohishiga ko'ra amalga oshirishda uning manfaati yotadi. Bu manfaat bevosita uning o'ziga, yaqinlariga yoki boshqalarga taalluqli bo'lishi mumkin. Mulkdorning o'zi xohishiga ko'ra yoki manfaatiga zid ravishda mulkiy bitimlar tuzishiga majbur qilish, umumiy qoida bo'yicha bunday bitimlar haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

2. Umumiy mulk, ya'ni er va xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini nikohdagi hayoti davrida topilgan mol-mulk tashkil qiladi. Bulardan tashqari, er va xotin o'rtasida qarzlar mavjud bo'lishi mumkin, bular ham ikki turga bo'linib, umumiy qarzlar va shaxsiy qarzlar bo'lishi mumkin. Shaxsiy qarzlar zarar keltirish natijasida, aliment majburiyatidan, mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqqan majburiyatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Shuningdek, shaxsiy qarzlar er-xotindan bittasining nikoh tuzilgunga qadar majburiyati yuzasidan kelib chiqib, o'z shaxsiy

ehtiyojlarini qondirish uchun olgan qarzlaridir. Ularning ikkalasi ishtirok etib olgan qarzlari umumiy qarzlari hisoblanadi.

Mulkiy munosabatlar er-xotinlar o'rtasida har doim ham barqaror kechavermaydi. Ko'pgina hollarda sud yo'li bilan himoya qilinishiga to'g'ri keladi. Oila kodeksining 23-moddasiga ko'ra er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri degan tushuncha Oila kodeksiga yangilik sifatida kiritildi. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, bizning o'zbek an'analarimizga ko'ra, qolaversa bozor sharoitida yoshlarning ota-onalari yoki o'zlari birgalikda o'rtada ko'char va ko'chmas mulklar xarid qilishadi. Mazkur qoida mana shunday holatlarda keyinchalik kelib chiqadigan nizolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, er-xotining to'y munosabati bilan berilgan sovg'alar yoki to'ydan keyingi marosimlarda berilgan sovg'alar, agar ular umumiy foydalanish buyumlaridan iborat bo'lsa, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki tarkibiga kiradi. Bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda er va xotinning huquqlari, ularning majburiyatlari, mulkdan foydalanish tartibi, er va xotinning umumiy va xususiy mulki bilan bog'liq masalalar Oila kodeksida o'z o'rnini topgan.

Er va xotinning mulkiy munosabatlarini ko'rib chiqishda, albatta, mulk va mulk huquqi hamda mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga alohida to'xtalib o'tish lozim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlarning asosiylaridan, bu mulk munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan tadbirlardir. Mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga Prezidentimiz I. Karimov asarlarida katta e'tibor berilganligini ko'rish mumkin.

Prezidentimiz o'z asarlarida asosiy maqsadimiz bo'lmish bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishda mulkiy munosabatlar

asosiy o'rin egallaydi, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, bu munosabatlarni tartibga solish va rivojlantirish zarurligini bildirib o'tadilar.

Mulk va mulk bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi chiqargan hujjatlar bilan, shuningdek, boshqa qonunosti normativ aktlari bilan ham tartibga solinib turiladi. Bu o'rinda «O'zbekiston Respublikasida Mulkchilik to'g'risida»gi, «Xususiy korxona to'g'risida»gi va boshqa qonunlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash hamda boshqa mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish shu asosda insonning mulkdan begonalashtirilganiga barham berish lozim va shart¹, deb ta'kidlagan Prezident Islom Karimov.

Mulkning tegishliligi mulkiy huquq bilan belgilanadi. Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir².

Mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nafaqat mulkiy huquqni vujudga keltiradi, balki shu bilan birga mulkiy majburiyatlarni ham keltirib chiqaradi.

Majburiyat fuqarolik-huquqiy munosabat bo'lib, unga, asosan, bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash va hokazo muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

¹ Qarang: *Karimov I.A.* O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. —T.: O'zbekiston, 1992. 18-b.

² Qarang: *Karimov I.A.* O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. —T.: O'zbekiston, 1995. 32 — 33-b.

Mulkiy huquqlar doirasida oilaviy mulkning o'zini belgilash, bunda, ayniqsa, oilaviy mulkning tarkibiy qismi hisoblangan er-xotin mol-mulking huquqiy maqomi, ularning o'zaro mulkiy huquq va majburiyatlarini aniqlash lozim bo'ladi.

3-§. Er-xotinning mulkiy huquqlari bo'yicha javobgarligi

Er-xotinlarning mulkiy munosabatlari yangi Oila kodeksida bir qator o'zgarishlar bilan ilgari suriladi. Kodeksda er-xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlar ikki guruhga bo'lingan. Bular quyidagilar:

- er-xotinlarning mulkiy-huquqiy munosabatlari;
- er-xotinlarning aliment bilan bog'liq huquqiy munosabatlari.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-bobi er-xotinlarning qonuniy rejim bilan belgilanuvchi mulklar va shartnomaviy rejim bilan belgilanuvchi mulklarni o'z ichiga oluvchi normalardan tashkil topgan er-xotinlarning mulkiy-huquqiy munosabatlarini belgilab beradi.

Qonuniy rejim deganda, er-xotinlarning birgalikdagi mulklari rejimi tushuniladi. Birgalikdagi mulk deganda, er-xotinlarning nikoh davrida topilgan va ularning har qaysisi egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish borasida teng huquqli bo'lgan mulklar tushuniladi. Bunda mulk kimning nomida ekanligi ahamiyatga ega emas.

Umumiy mulkka nisbatan har ikki tomon, garchi ulardan biri mol-mulk topishda biron joyda ishlamay, uy ishlari bilan mashg'ul bo'lgan, farzandlarini tarbiyalagan, bemorga qaragan, qari ota-onasining parvarishi bilan shug'ullangan bo'lsa ham, teng huquqli hisoblanadilar. Bu holat ko'proq ayollarda uchraydi.

Er-xotin mulking qonuniy tizimi ko'pchilik er-xotinlarning qiziqishiga javob beradi. Ayniqsa, ayollarning erkaklarga nisbatan kam daromadli ekanligi borasida. Ayollar, ko'pincha, farzandlar tarbiyasi, uy ishlarini muhim deb hisoblab, uy yumushlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Bunday holatda qonuniy rejim umumiy mulkdagi xotinning hissasini belgilab beradi va uning huquqlarini himoya qiladi.

Ko'pchilik holatlarda voyaga yetmagan farzandlar manfaatlari yotganda sud er-xotinni sud tartibida ajratayotganida mol-mulkni bo'lishning tenglik tamoyilidan chetga chiqishi mumkin.

Agar er-xotinlardan biri umumiy mulkni oila manfaatlari ziyoniga ishlatgan bo'lsa, oilaning umumiy mulkini bo'lish vaqtida uning ulushi kamaytirilishi mumkin. Bunday hollar bir tomonning alkogol ichimliklarga berilishi yoki bo'lmasa giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish uchun ularni sotib olishi, turli o'yin, lotereya va o'z xobbilariga ishlatilishida namoyon bo'ladi. Ushbu salbiy holatlar oila mulkiga ziyon yetkazadi.

Yuqoridagi holatlarda sud, albatta, er yoki xotinga (oila mulkiga ziyon yetkazgan tomonga) nisbatan ko'proq mulkning tegishli bo'lishini belgilashi lozim. Hozirgi vaqtda jamiyatimizda ko'plab shunday holatlar uchrab turibdi. Ko'pchilik bunday holatlar erlar tomonidan sodir etilmoqda. Er o'zining oilasi oldidagi burchlarini unutib, o'z maishati uchun oilaning mol-mulkini ishlatib yuboradi, oilasining ahvoli bilan hech ham ishi bo'lmaydi va o'z oilasiga ziyon yetkazadi.

Mamlakatdagi yangi iqtisodiy vaziyat bizning hayotimizni o'zgartirib yubordi. Xususiy tadbirkorlik, ishlab chiqarish imkoniyatlari ko'plab ayollarga erkaklarga nisbatan ko'proq daromad olish imkonini yaratdi. Mamlakatda yetarlicha mol-mulkka ega bo'lgan mulkdorlar paydo bo'ldi.

Oila kodeksida er-xotinlarning mulkiy-huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi normalarda ham bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Avvalo, bu o'zgarishlar, yangiliklar mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyillarda ifoda etiladi.

Er-xotinning qonuniy tartibdagi mulki ularning qonun hujjatlarida belgilangan imperativ normalar bilan tartibga solingan mulkidir.

Imperativ normalar bilan tartibga solinadigan, er-xotinning kelishuvi bilan o'zgartirib bo'lmaydigan ularning mol-mulkining qonuniy tartibi bilan birga ularning dispozitiv normalar bilan tartibga solinadigan mol-mulkining shartnomaviy tushunchasi ham mavjud.

Oila Kodeksiga er-xotinlarning qonuniy mulkidan tashqari II bo'lim 6-bobi 29 — 36-moddalarida belgilangan «Er va xotin mol-mulkinging shartnomaviy tartibi» ham kirib keldi. Bu qoida qonunchilikka kirib kelishining sababi bozor iqtisodiyotini yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy mulkchilik mavjudligi bilan bog'liq.

Nikoh shartnomasi deb, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuviga aytiladi.

Yangi Oila kodeksi loyihasini tayyorlashda er-xotin mulkinging qaysi biri to'g'ri degan masala tug'ildi. Shunda hech qanday shubhasiz birgalikdagi umumiy mulk eng maqbul deb topildi.

Er-xotinning qonuniy mulk tartibining mavjudligi er-xotinning nikoh shartnomasini tuzishlari shart emasligini anglatadi. Statistika ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, hatto nikoh shartnomasi anchadan beri mavjud bo'lgan davlatlarda ham nikoh shartnomasini ko'pchilik aholi tuzayotgani yo'q.

Barcha fuqarolar uchun bir xil huquq va erkinliklarni ifodalab bergan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi nikoh shartnomasining asosi hisoblanadi. Uning birdan bir sharti, uni amalga oshirishning kafolati boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari buzilishiga yo'l qo'ymasligidir.

Er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkiga shartnomaviy munosabatlar tatbiq etilishi umumiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 216-moddasi 1-bandida belgilangan. Oila huquqining normalari esa ularni har taraflama kengaytirib bergan nikoh shartnomasining huquqiy tabiati; uni tuzish shakli; nikoh shartnomasining mazmuni; uni o'zgartirish, tasarruf etish, haqiqiy emas deb topish asoslaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasi 1-bandiga asosan «Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi». Umumiy ko'rinishda bunday ta'rif nikoh shartnomasiga ham tegishlidir. Ammo bu shartnomaning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Nikoh shartnomasining o'ziga xos xususiyati nafaqat uning shaklida, hatto ichki mazmunida ham ifodalangan. Ular Oila kodeksining 31-moddasida keltirilgan umumiy qoidalar bilan belgilanib, er-xotin qonun bilan belgilangan er-xotinning birgalikdagi mulki tartibini o'zgartirib, uning o'rniga er-xotin shartnomasi tartibini belgilash huquqiga egadirlar.

Nikoh shartnomasi Oila kodeksining 31-moddasi 5-bandiga binoan, «Er-xotinning huquq layoqati va muomala layoqatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tuta olmaydi». Aks holda, birinchidan, er-xotindan bittasining huquqini cheklashga, ikkinchidan, Oila kodeksi 1-moddasi talablari buzilishiga yo'l qo'yiladi.

Nikoh shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik er-xotinning o'zlariga tegishlidir. Agar ular nikoh shartnomasini tuzmasalar, u holda mulkiy huquqiy munosabatlari qonuniy tartibda belgilangan huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Er-xotinning birgalikdagi mol-mulki ilgarigidek ko'pchilik er-xotinlarning manfaatlariga javob beradi. Keyingi vaqtlarda muhim iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga qaramay ayollarning daromadlari erkaklarning daromadlariga nisbatan kamroqdir, chunki ularning ko'proq vaqti oilada uy-ro'zg'or ishlari va bolalar tarbiyasiga ketadi.

Er-xotinning birgalikdagi umumiy mol-mulkini nikoh davrida topilgan mulk tashkil etadi. Nikoh davrida topilgan hamma mulkni er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki deb hisoblasa bo'ladi.

Yangi qonunchilik er-xotinning alohida ajratilgan mulkiga nafaqat ularni nikohgacha bo'lgan mulkini, ya'ni hadya yoki meros asosida olgan mulkini, shu bilan birga haqsiz bitimlar asosida vujudga kelgan mulkini ham kiritadi. Bu turdagi mulklar

doirasiga birinchi navbatda haqsiz ravishda er-xotindan bittasi tomonidan xususiylashtirish asosida olingan kvartira ham kiradi.

Shartnomaning yetakchilik roli va mulkiy munosabatlarning yangi tamoyillari huquqiy jihatdan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan.

Nikoh shartnomasi fuqarolik shartnomasining alohida turi sifatida ko'rilishi lozim, chunki unda er-xotinning mol-mulki huquqiy tabiatini belgilash va o'zgartirishni nazarda tutadi. Nikoh shartnomasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u kompleks xarakterga ega ekanligi, o'zida nafaqat er-xotinning mol-mulkini vujudga keltirish yoki uning huquqiy tartibini o'zgartirish, shu bilan birga er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berishini ham tartibga solishni belgilab berishi mumkin.

4-§. Nikoh shartnomasini tuzish

«Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek, nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi» (Oila kodeksining 30-moddasi).

Agar nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar tuzilgan bo'lsa, bunday nikoh shartnomasi kechiktirib bajariladigan shartli bitim hisoblanadi. U faqat nikoh tuzilgandan so'ng kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasini uning subyektlari faqat er-xotin bo'lganligi munosabati bilan, ularning nikohga kirishi bilan bog'lamoq darkor. Agar shaxs nikoh yoshiga to'lmagan bo'lsa, u ota-onasi yoki homiysining rozilgisiz nikoh shartnomasini tuza olmaydi. Voyaga yetmagan er yoki xotin nikoh tuzishi bilan to'la muomala layoqatiga ega bo'lib, mustaqil nikoh shartnomasini tuzishi mumkin. Nikoh shartnomasini tuzish uchun er-xotin muomala layoqatiga ega bo'lishlari lozim. Agar er-xotindan birontasi muomala layoqatiga ega bo'lmasa, u holda uning nomidan nikoh shartnomasini uning homiysi tuzadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga binoan, fuqaroning muomala

layoqatini cheklash nikoh shartnomasini tuzishga ham ta'sir ko'rsatadi. Chunki muomala layoqati cheklangan shaxs faqat mayda maishiy bitimlarni tuzish huquqiga ega.

5-§. Nikoh shartnomasining mazmuni

Nikoh shartnomasi mazmunining asosiy elementi er-xotin mulkining huquqiy tartibini belgilashdir. Nikoh shartnomasi bilan belgilangan bunday tartib er-xotin mulkining shartnomaviy tartibi deb ataladi.

Nikoh shartnomasi tartibini belgilashda er-xotinlarga juda keng huquqlar beriladi.

Nikoh shartnomasi er-xotinlar bir-birlarini moddiy ta'minlash yoki biri ikkinchisini moddiy ta'minlashini ko'rsatish huquqiga ega. Shartnomada belgilangan shartlar aliment majburiyatining umumiy qoidalariga mos kelmog'i kerak. Xususan, muomalaga layoqatsiz er yoki xotinning huquqlari buzilmasligi lozim. Ammo nikoh shartnomasida qonun bo'yicha aliment olish huquqiga ega bo'lmagan er yoki xotinga aliment to'lash belgilanishi mumkin. Birinchi navbatda bu o'z xohishlari bilan, oila manfaatini o'ylab ishi yoki o'qishini qoldirgan er-xotinlarga taalluqli bo'ladi.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi mumkin (Oila kodeksi 31-moddasining 4-bandi). Masalan, ularning mulki bir yil davomida bo'lingan, bu muddat o'tishi bilan umumiy bo'lib qolishi to'g'risida kelishib olishlari mumkin, er-xotinning nikoh shartnomasi bilan belgilangan huquq va majburiyatlari muayyan shart-sharoitning vujudga kelishi yoxud kelmasligiga ham bog'liq qilib qo'yilishi mumkin. Bu shartlar kechiktirish hamda bekor qilish shartlari bilan ham tuzilishi mumkin. Masalan, er-xotin shartnoma tartibiga ko'ra mol-mulkining alohidaligini belgilab, agar oilada bola tug'ilsa, umumiy tartibda hal bo'lishini ko'rsatishlari mumkin. Yoki er-xotindan bittasi o'qishi tamom bo'lishiga qadar ikkinchisi tomonidan moddiy ta'minlanish shartini belgilash bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Har qanday fuqarolik-huquqiy bitimlari haqiqiy bo'lishi uchun qanday shartlar belgilansa, nikoh

shartnomasida ham shunday shartlar qo'yilishi mumkin. Subyektlar muomala layoqatiga ega bo'lib, ularning xohishi erkin ifodalanishi lozim.

Shuningdek, nikoh shartnomasi er-xotinlarning shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga sola olmaydi. Bu masala shu bilan bog'liqki, nikoh shartnomasiga faqat shunday huquq va majburiyatlar kiritilishi mumkin, ular bajarilmagan holda ularning bajarilishi majburiy ravishda amalga oshiriladi. Yuqorida bir necha bor ta'kidlab o'tganimizdek, faqat shaxsiy xarakterga ega bo'lgan majburiyatlar majburiy ravishda amalga oshirilishi mumkin emas.

Er-xotinlar o'z shaxsiy munosabatlarini kelishish asosida hal qilishlari mumkin, ammo bu kelishish huquqiy xarakterga ega bo'lmaydi.

Shuningdek, nikoh shartnomasi mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning aliment olish huquqini cheklashga qaratilgan shartni belgilay olmaydi.

Nikoh shartnomasida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan yana quyidagi maxsus cheklash mavjud: nikoh shartnomasi er-xotindan bittasini og'ir noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin emas. Aks holda bu bitim bahsli bitim bo'lib, huquqi buzilgan er yoki xotinning da'vosiga ko'ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday maxsus asos kiritilishining zaruriyati nikoh shartnomasida taraflarning shaxsiy munosabatlari bilan bog'liq.

Nikoh shartnomasi oila qonun hujjatlarining boshlanish asoslariga qarama-qarshi bo'lmasligi lozim. Qonunning bu qoidasi sud tomonidan ko'rilishiga keng ko'lamda yo'l ochib beradi. Bunday hujjatlarda oila qonunchiligining asosiy boshlamasi, Oila kodeksining 1-moddasiga muvofiq, oilaning davlat tomonidan himoya qilinishi, oilada er-xotinning tengligi, oilada mehnatga layoqatsiz oila a'zolari huquqlarini himoya qilishda ularga ustunlik berishdan iborat. Nikoh shartnomasida bu boshlanishlardan birontasining buzilishi manfaatdor tomonidan nikohni haqiqiy emas deb topish masalasini qo'yishiga olib kelishi mumkin. Oilaning davlat tomonidan himoya qilinishi tamoyili buzilishi nikoh shartnomasi shartlarini haqiqiy emas deb topish, nikohdan

ajralishni rag'batlantirish, masalan, nikohdan ajralishda er-xotindan bittasiga mulkiy manfaatdorlikni berish, er-xotinlar tengligi tamoyili buzilishligi ulardan birining og'ir noqulay sharoitga tushirib qo'yilishida ifodalanishi mumkin.

6-§. Nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish

Nikoh shartnomasi er-xotinning o'zaro roziligi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Bunday o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda bo'lishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

Agar nikoh shartnomasi bekor qilingan bo'lmasa, u holda u nikoh tugatilishiga qadar amalda bo'ladi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Oila kodeksi 32-moddasining 3-qismiga binoan, «nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno».

7-§. Nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish

Nikoh shartnomasi har qanday bitimga o'xshab sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va tartib bo'yicha to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar nikoh shartnomasi oila yoki fuqarolik qonunlari normalarini buzib tuzilsa, u holda bu shartnomaning mazmuni buzilib, qonunga qarshi tuzilgan hisoblanadi. Biroq O'zbekiston qonunchiligi bilan nikoh shartnomasi instituti kiritilgach, er-xotinlar o'rtasida sud nizolari ko'payadi, degan fikrga borish noto'g'ri. Aksincha, mazkur shartnoma ko'pchilik masalalar taraflarning o'zaro

kelishuvi asosida hal qilinib, sud muhokamasiga bormaslikka imkoniyat yaratadi.

Bunday turdagi shartnomani tuzish amaliyoti ma'lum asosda vujudga kelishi tufayli nikoh shartnomasi er-xotindan bittasining yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish hollari so'zsiz kamayishiga olib keladi, chunki mazkur shartnoma har qaysi er-xotin uni tuzishni (o'zi uchun) ma'qul deb topsa, unga mulkiy huquqiy tartibni belgilash imkoniyatini yaratadi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilsa, beixtiyor ravishda nikoh shartnomasi ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikohning mavjudligi nikoh shartnomasining elementi hisoblanadi. Shuning uchun nikoh haqiqiy emas deb topilganda u tuzilgan vaqtdan boshlab bekor qilinib, nikoh shartnomasi ham tuzilgan vaqtdan boshlab o'zining yuridik kuchini yo'qotganligini bildiradi.

Nikoh shartnomasini tuzuvchi qayd etilgan nikohda turuvchilar deb hisoblanadi. Ularning kelishuvi nikoh shartnomasi hisoblanmaydi, chunki qonunchilik yuridik rasmiylashtirilmagan amaldagi nikoh munosabatlariga huquqiy oqibat bermaydi.

Nikoh shartnomasi albatta yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim (Oila kodeksi 30-moddasining 3-bandi). Qonun bilan belgilangan tartibga rioya qilmaslik bunday shartnomani haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi. Shaklga nisbatan bunday talablarni belgilash nikoh shartnomasining er-xotininga, shuningdek, uchinchi shaxslarga nisbatan ham alohida ahamiyatini ko'rsatadi. Bu shartnoma qoida tariqasida uzoq muddat amalda bo'ladi va mulkiy huquq va majburiyatlarni kelajak vaqtga qarab belgilaydi. Shuning uchun bunday huquqlarni aniq va qat'iy belgilashga notarial shakl berish tufayli erishiladi.

Nazorat savollari

1. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi va vujudga kelish asoslari.
2. Er-xotinning umumiy birgalikdagi mulklari hamda ularning har birining xususiy mulklari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Nikoh shartnomasining mazmunini nima tashkil qiladi?
4. Er-xotinning umumiy va xususiy mulklarini sud tartibida bo'lish.
5. Er-xotinning umumiy va shaxsiy qarzlari uchun javobgarligi.

6-BOB. NIKOHNING TUGATILISHI

1-§. Nikohning tugatilishi tushunchasi

Oilaviy-huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikohdan maqsad oila qurish bo'lib, u er-xotinning butun umri davomida birga yashashiga mo'ljallanadi. Ammo afsuski, hayotda shunday holatlar bo'ladi, ushbu holatlar nikohning tugatilishiga sabab bo'ladi, natijada nikohning bir umrlik sharti buziladi. Biz buni qanchalik xohlamaylik, afsuski, nikohning tugatilishi juda ko'p sodir bo'ladi.

Ma'lumki, nikoh munosabati erkak bilan ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, ya'ni er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi axloqiy, huquqiy majburiyatlarni o'rnatadi. Nikohning tugatilishida esa er-xotin o'rtasidagi bunday majburiyatlar, munosabatlar batamom tugatiladi yoki ularga ma'lum darajada putur yetadi.

Nikohning tugatilishi qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan, nikohning o'zi tartibsiz bo'lgan davrda nikohning tugatilishida ham hech qanday tartib bo'lmagan va undan hech qanday oqibat ham kelib chiqmagan. Keyinchalik turli hukmdorlarning ko'rsatmalaridagi qoidalarga muvofiq nikohning tugatilishi amalga oshirilgan. Masalan, VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid So'g'd arxivi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Nikohning tugatilishi jarayon sifatida shariat normalari amal qilgan davrda yanada rivojlangan. Nikohning tugatilish tartibi Qur'oni karim, hadislarda ifodalangan.

Tarixga nazar solib, xususan, shariat normalari amal qilgan davrni olib qarasak, «islom taloqni, oilaning buzilishini maqsadga muvofiq ish deb hisoblamaydi. Iloji boricha oilani buzmay saqlab

qolishni targ'ib qiladi. Allohning eng ma'qullamagan ishi bu — taloqdir. Shariat bo'yicha nikohdan ajralish ikki turga bo'lingan: yengil va og'ir. Nikohdan ajralishning yengil turida er ajragan xotini bilan qayta nikohdan o'tishi mumkinligi tushunilgan. Yengil ajralish deganda, ikki marotaba aytilgan taloq tushunilgan. «Uch taloq» so'zi aytilganda og'ir turdagi ajralish ro'y bergan»¹.

Birinchi navbatda shuni ta'kidlab o'tish joizki, agar er olti oy muddat davomida xotinini moddiy ta'minlamasa; er nikohda yashashga qodir bo'lmasa; nikoh yoshlik vaqtida tuzilgan bo'lib, jinsiy balog'atga yetgandan so'ng yoki ma'lum yoshga to'lgandan so'ng qiz nikohda yashashga rozi emasligini izhor etsa; er islom dinidan boshqa dinga o'tsa nikohdan ajralish uchun asos bo'lib hisoblangan².

Odatda, hozirgi zamon nikohdan ajralish qonunchiligi ko'pchilik mamlakatlarda deyarli bir xil, chunki ular ko'p yillar davomida shakllanib kelgan tartiblarga asoslangandir. Lekin ularning umumiy tavsifini ko'rsatuvchi bir shakl berish murakkabdir, chunki o'xshashliklar bilan birga o'sha yer dini, an'analariga bog'liq xususiyatlar ham ko'p uchrab turadi.

Ajralishlar, albatta, jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin ma'naviy chegaralar, ajralishga sotsial jarayon nuqtayi nazaridan salbiy baholash bir tomonda, inson shaxsiy manfaatlarining himoyasi ikkinchi tomonda bo'lar ekan, uning ahamiyati kundan kunga oshib boradi. Nikoh tuzilishida hosil bo'ladigan munosabatlar mohiyati jihatidan shundayki, ularga kirish er-xotin ixtiyorlari orqali, boshqalar zo'rqlashsiz bo'lgani kabi, shunday munosabatlarni tugatish huquqi ham ulardan o'zgalarga berilmagan.

2-§. Nikohning tugatilishi uchun asoslar

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasiga binoan, nikohning tugatilishi quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

¹ *Burhoniddin al-Marg'inoniy*. Hidoya. 1-jild. —T.: Adolat, 221-b.

² *Otaxo'jayev F.M.* O'zbekiston Respublikasida nikoh to'g'risidagi qonunlarning rivojlanishi va ularni takomillashtirish muammolari. Y.f.d. nom. diss. —T.: 2000.

- er-xotindan birining vafoti;
- sud tartibida bedarak yo'qolgan er yoki xotindan birining o'lgan deb e'lon qilinishi;
- er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq ajralish yo'li bilan;
- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizasiga muvofiq nikoh munosabati tugatilishi belgilanib qo'yilgan.

Sanab o'tilgan faktlar nikoh tugatilishining asoslaridir. Nikohdan ajralish yuqorida keltirilgan ikki asosdan farq qilib, faqat er-xotinning hayotligida ro'y beradi. O'lim yuridik fakt bo'lib, er-xotin o'rtasidagi nikoh munosabatlarini tugatadi.

Er-xotindan birini sudning hal qiluv qaroriga asosan vafot etgan deb e'lon qilish o'z huquqiy oqibati bo'yicha o'limga tenglashtiriladi. Shuning uchun o'lgan deb topilgan shaxs bilan uning er yoki xotini o'rtasidagi nikoh ham tugallanadi.

Bizning jamiyatda nikoh birga tuzilgan ittifoq hisoblanadi. Ma'lum holatlarda, agar oila amalda buzilgan bo'lsa, u ajralish asosida tugatilgan bo'lishi mumkin. Nikohdan ajralish er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelajak vaqt uchun to'xatishga asos bo'ladi. Bunday ajralish nikohni haqiqiy emas deb topishdan farq qiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topishda nikoh vujudga kelgan vaqtdan boshlab huquqiy munosabatlar tugallangan hisoblanadi. Biroq nikohdan ajralish bilan barcha huquqiy munosabatlar tugallanmaydi. Masalan, sobiq er-xotindan birining aliment olish huquqi bunday holda saqlanib qoladi.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar yuridik faktlarning ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Er-xotindan birining vafoti yoki vafot etgan deb e'lon qilinishi nikohning tugatilishi uchun xizmat qiladi. Vafot etish aniq holat bo'lib, u yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi lozim. Ya'ni vafot etgan shaxsning (nikoh munosabatida turgan) tegishli hujjatlari qonuniy asoslarda FHDY organi va boshqa rasmiylashtirishga vakolati bo'lgan organlar tomonidan qonuniy amalga oshirilishi shart. Fuqaro vafot etgan taqdirda uning nikohi ham tugallangan

hisoblanadi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, shuningdek, Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli normalariga binoan sudning hal qiluv qarori asosida amalga oshiriladi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish o'z huquqiy oqibati bo'yicha o'limga tenglashtiriladi. Fuqaroning (er yoki xotinning) vafot etgan deb e'lon qilinishi natijasida nikoh munosabatlari ham tugallangan hisoblanadi. Vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning eri yoki xotini nikohi tugallanganidan so'ng ikkinchi nikoh munosabatiga kirishga haqli bo'ladi. Hayotda uchraydigan voqea-hodisalar natijasida vafot etgan deb e'lon qilingan shaxs qaytib kelgan taqdirda, sudning hal qiluv qarori bekor qilinib, uning barcha shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tiklanadi. Oila kodeksining normalariga binoan, faqat er yoki xotin boshqa nikoh munosabatiga kirishgan bo'lsa, u holda nikoh munosabati tiklanishiga yo'l qo'yilmaydi. Bordi-yu, ikkinchi taraf nikoh munosabatiga kirishmagan bo'lsa, u holda ikkinchi tarafning roziligi asosida nikoh qayta tiklanishiga yo'l qo'yiladi.

3-§. Nikohning tugatilishi va nikohdan ajralish: umumiylilik va o'ziga xoslik

Oila kodeksining 37-moddasidagi ikkinchi holat bu er-xotindan birining yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq ajralish yo'li bilan nikohning tugallanishi hisoblanadi.

Ajralish nikohning tugatilishi bilan keskin farqlanadi. Nikohning tugatilishi uchun vafot etish yoki vafot etgan deb e'lon qilish sabab bo'lsa, nikohdan ajralishda bu holat er-xotinlarning hayotlik vaqtlarida amalga oshiriladi.

Nikohdan ajralish ikki tartibda amalga oshiriladi:

- sud tartibida;
- FHDY organi orqali.

Sud tartibida nikohdan ajralish uchun er-xotinlar o'rtasida mulkiy nizolarning mavjudligi, o'rtada umumiy voyaga yetmagan bolalarning borligi, voyaga yetmagan bolalar uchun aliment to'lash to'g'risida nizolarning mavjudligi, shuningdek, er-xotinlar o'rtasida o'zaro moddiy ta'minot berish bilan bog'liq bo'lgan nizolarning mavjud bo'lishi kabi omillar xizmat qiladi.

Oila kodeksining 39-moddasiga binoan, xotin homiladorligi vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er nikohdan ajralish to'g'risida xotinning rozilgisiz, hatto homila bevosita shu erdan bo'lmasa ham ishni qo'zg'atishga haqli emas. Nikohdan ajralish ishini qo'zg'atishda xotin rozi bo'lmasa, sud da'vo arizani qabul qilishni rad etishi, agar ariza qabul qilingan bo'lsa, ish tugatilishi lozim.

Shu bilan birga, xotin farzand ko'rganidan so'ng va bola bir yoshga to'lgandan keyin er yana nikohdan ajralish to'g'risida da'vo bilan murojaat qilishga haqli. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrda «Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, ushbu qoidalar bola o'lik tug'ilgan yoki bir yoshgacha yashamay vafot etgan hollarda ham tatbiq qilinishi lozim.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organidan nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 42 — 43-moddalariga ko'ra er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda, er-xotindan birining arizasi bo'yicha, er-xotinning ikkalasi nikohdan ajralishga rozi bo'lsa, er-xotinning voyaga yetmagan umumiy bolalari bo'lmasa ajratiladi.

FHDY organlarida nikohdan ajralishni qayd qilish Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari asosida olib boriladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsni nikohdan ajratish uchun muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxsning eri (xotini) bergan ariza va sudning er (xotin)ni muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorining ko'chirmasi asos bo'ladi.

Arizachi er yoki xotin nikohdan ajratish to'g'risidagi yozgan arizasiga qo'shib FHDY organiga muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning ota-onasi yoki vasiysining familiyasi, manzili, agar vasiy belgilanmagan bo'lsa, muomalaga layoqatsiz er yoki xotin yotgan tibbiy muassasaning manzili haqida xabar berishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 47-moddasiga 2010-yil 16-sentabrda o'zgartirish kiritilib, unga binoan «Nikoh

fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratilganlik ro'yxatga olingan kundan boshlab tugatilishi» belgilandi.

Nazorat savollari

1. Nikohning tugatilishi tushunchasi va uning huquqiy belgilari.
2. Nikoh tugatilganda vafot etgan er yoki xotinning qaytib kelishi va uning huquqiy oqibatlari.
3. Nikohdan ajralish yo'li bilan nikohning tugatilishi.
4. Nikohdan ajralishning huquqiy oqibatlari.

7-BOB. QON-QARINDOSHLIK VA BOLALARNING NASL-NASABINI BELGILASH

1-§. Qon-qarindoshlik tushunchasi

Oila qadriyatlari va qon-qarindoshlik munosabatlarining qayta tiklanishi o'z umrini yashab bo'layotgan oila-urug' munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, ma'naviy va kasb jihatdan erkin bo'lish imkoniyatini anglatishi lozim¹.

Davlat ulkan bir oila bo'lsa, uning rivojlanishida, obro'-e'tiborga ega bo'lishida har bir oilaning o'zni juda katta. Ana shu sababdan oila davlat himoyasidadir. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasi 3-qismida «Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir»², deb belgilanadi.

Jamiyatimiz oilalardan iborat ekan, uning turmush tarzini, farovonligini, tinch-totuv yashashini ta'minlash lozim. Chunki oila tinch bo'lsa, jamiyat ham tinch bo'ladi.

Ana shu ma'noda oilaviy munosabatlarning asosi hisoblangan nikoh masalasi oila huquqida juda katta ahamiyatga egadir.

Qarindoshlik — insonlar o'rtasida qon jihatdan o'zaro bog'liqlik, aloqadorlikdir.

Kishilar o'rtasida qon-qarindoshlik va urug'-aymoqlik aloqalarining mavjudligi muayyan huquqiy oqibatlar yuz berishiga (huquqlar va majburiyatlar paydo bo'lishiga) sabab bo'ladi. Qarindoshlik tushunchasi ta'rifi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nazarda tutilgan. Kodeksning 57-moddasiga ko'ra, bir umumiy uchinchi shaxslar (ajdod)dan kelib chiqqan shaxslar

¹ *Karimov I.A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. —T.: O'zbekiston, 1997. 146-bet.

² Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill kitobida. —T.: Adolat, 1992. 14-bet.

qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasida to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi. To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlik o'zaro farqlanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobo-buvisiga nisbatan ikkinchi, evara katta bobosi-katta buvisiga nisbatan uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi. Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo-buvilarning aka-uka hamda opa-singillari, ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi. To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir. Ikki shaxs o'rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o'zini hisobga qo'shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi. Bunda hisob ajdodlar tomon to'g'ri shajara bo'yicha ular uchun umumiy bo'lgan shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa, avlodlar tomon — ulardan boshqasiga qarab olib boriladi. Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, tog'a va amaki, amma va xola o'z jiyanlari bilan qarindoshlikning — uchinchi, tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa to'rtinchi darajasida turadilar. Aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh bo'lishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo'lsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki, aksincha, ona bir ota boshqa bo'lsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tug'ishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar o'gay hisoblanadi. Er-xotinning ilgari nikohlaridan bo'lgan bolalari o'zaro qarindosh hisoblanmaydi.

2-§. Qarindoshlik munosabatlarining huquqiy ahamiyati

Qarindoshlik huquqiy oqibat yuzaga keltiruvchi yuridik fakt sifatida huquqiy tizimimizning turli sohalarida ahamiyatga ega.

Masalan, Oila huquqida qarindoshlik munosabatlarining mavjudligi o'zaro shaxsiy hamda mulkiy huquqlar va majburiyatlarni yuzaga keltiradi (ota-onalarning o'z farzandlariga bo'lgan huquqi, aliment huquq va majburiyatlari, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning qayd etilmasligi va hokazo). Fuqarolik huquqida qarindoshlik ota-onaning o'z voyaga yetmagan farzandlariga qonuniy vakillik qilishi huquqlari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Vorislik munosabatlari qonun bo'yicha meros ochildan hollarda qarindoshlik aloqalariga ko'ra tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 68-bobida (1134 — 1157-moddalar) qonun bo'yicha vorislik munosabatlari va ularning tartibga solinishiga doir qoidalar belgilangan. Ushbu qoidalarga ko'ra qonuniy vorislik qarindoshlikning darajasiga (vorislik navbatlari) asoslanadi. Shunga ko'ra, qarindoshlik aloqalarining yaqin-uzoqligiga ko'ra vorislikning beshta navbati belgilangan bo'lib, oldingi navbatda turgan vorislarning yo'qligi ularni merosdan voz kechishi yoki mahrum etilganligi navbatdagi vorislarga meros olish huquqini beradi.

Qarindoshlik mehnat huquqida ham ahamiyatlidir. Masalan, 16 yoshga to'lmagan o'smirlarni ishga qabul qilish uchun uning otasi yoki onasi yozma rozilik berishi lozimdir (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-moddasi). Yaqin qarindoshlik aloqasida bo'lgan shaxslarning bitta davlat korxonasida birga ishlashlari taqiqlanadi (Mehnat kodeksining 79-moddasi). Ota yoki ona xavfli mehnat sharoitida ishlayotgan o'z farzandining ishdan bo'shashini talab qilishi mumkin (Mehnat kodeksining 247-moddasi).

Qarindoshlik aloqalari ijtimoiy ta'minot huquqida ham ahamiyatga ega. Bunda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, ijtimoiy nafaqalarning ayrim turlarini tayinlash chog'ida marhum boquvchi shaxs bilan qaramog'ida bo'lib kelgan voyaga yetmaganlar o'rtasida qarindoshlikning mavjudligi asos qilib olinadi (O'zbekiston Respublikasi «Davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 19-moddasi). Qarindoshlik boshqa hollarda ham huquqiy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

3-§. Bolalarning nasl-nasabini belgilash tartibi va shartlari

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 60-moddasiga ko'ra, bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Shuningdek, ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug'lsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning otanasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega bo'ladi.

Bolaning nasl-nasabi quyidagi asoslar bo'yicha amalga oshiriladi: ota-onaning arizasi bo'yicha bolaning nasl-nasabini belgilash orqali; otalikning sud tartibida belgilanishi orqali.

Qonunchiligimizga ko'ra, to'rt holatda faqat ota fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga otalikni belgilash to'g'risida vasiylik va homiylik organining roziligi bilan ariza berishi mumkin, bular: onaning o'limi, onaning muomalaga layoqatsiz deb topilishi, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati yo'qligi, onaning onalik huquqidan mahrum qilinishi kabilar.

Otalikni belgilash o'ziga xos kompleks institut bo'lib, u bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligini belgilash bo'yicha moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy normalar majmuyidan tashkil topadi. Unga ko'ra, otalikni belgilash tushunchasiga quyidagicha ilmiy ta'rif berish mumkin: «Otalikni belgilash deb, o'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolaga nisbatan qonunda belgilangan tartibda ota-onalarning birgalikdagi ixtiyoriy arizasi yoxud sud qarori asosida nasl-nasabning belgilanishiga aytiladi»¹.

¹ Esanova Z.N. Otalikni belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. —T.:TDYI, 2005. 7-b.

«Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan qonunlarning tatbiq etilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001-yil 1-iyundagi 5-sonli qarorida sudlar nikoh va oila masalalaridan kelib chiqayotgan nizolar bo'yicha fuqarolik ishlarini ko'rishda qonunlar asosan to'g'ri tatbiq qilinayotganligini, shu bilan birgalikda otalikni belgilash va voyaga yetmagan farzandlar ta'minoti uchun nafaqa undirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha fuqarolik ishlari tahlil qilinganda sudlar tomonidan ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi aniqlanganligi ta'kidlab o'tiladi.

Qonunlarning to'g'ri va bir xilda qo'llanishini ta'minlash va otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko'rib chiqishda amaliyotda kelib chiqayotgan tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning 17-moddasiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi sudlar otalikni belgilash to'g'risidagi nizolarni ko'rishda ish holatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanliklari, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi to'g'risidagi me'yoriy talablarga qat'iy amal qilishlari lozimligini, nikohda bo'lmagan onadan bola tug'ilganda, bolaning tug'ilganligi FHDY organlarida qayd etilib, taqdim qilingan tug'ilganlik haqidagi guvohnomada bolaning otasi haqidagi yozuv, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 207-moddasi 3-qismi talabiga muvofiq, otaning familiyasi — onaning familiyasi bo'yicha, otaning ismi va millati, onaning ko'rsatmasi asosida yozilgan taqdirdagina otalikni belgilash to'g'risidagi da'vo arizalari sud ish yurituviga qabul qilinishi mumkinligini belgilaydi.

Otalikni belgilash haqidagi da'vo bilan bir vaqtda bolaga aliment undirish to'g'risida talab keltirilishi ham mumkin. Bunday da'volar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 145-moddasiga ko'ra javobgarning turar joyi yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 241-moddasi 3-qismiga muvofiq da'vogarning turar joyidagi sudga berilishi mumkin.

Agar otalikni belgilash va aliment undirish to'g'risidagi da'vo bo'yicha javobgarning qayerdaligi noma'lum bo'lsa, sud ichki ishlar organlari orqali qidiruv e'lon qilishi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 140-moddasi) va ish yuritishni to'xtatish haqidagi masalani (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 93-moddasi 3-qismi) hal etishi lozim.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ishni ko'rishga tayyorlash jarayonida tomonlarning o'zaro haqiqiy munosabatlarini aniqlash maqsadida, sud da'vogar va javobgarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 159-moddasi talablariga muvofiq suhbatga chaqirishi lozim. Agar suhbat davomida yoki sud muhokamasi jarayonida javobgar bolaning otasi ekanligini tan olsa, sud tomonlarga O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 61-moddasi 1-qismiga muvofiq fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga birgalikda ariza berish yo'li bilan otalikni ixtiyoriy ravishda rasmiylashtirish mumkinligini tushuntirishi va buning uchun taraflarga ma'lum muddat belgilashi lozim.

Tomonlarning arizasiga binoan yozilgan otalikni belgilash to'g'risidagi qaydnoma asosida berilgan bolaning tug'ilganligi haqidagi guvohnoma sudga taqdim etilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 100-moddasi 1-qismiga muvofiq ish yuritish tugatilishi lozim. Biroq ko'rsatilgan da'vo bilan birga aliment undirish to'g'risidagi talab ham berilgan bo'lsa, bolalarga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibi o'zaro kelishilmagan taqdirdagina, da'vogarning talabi bilan sud aliment undirish to'g'risidagi masalani mazmunan hal etishi zarur.

Voyaga yetmagan ota-onalar o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda tan olish yoki bunga e'tiroz bildirish huquqiga egadirlar (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 72-moddasi 3-qismi). Shu bilan birga, nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan ona tomonidan otalikni belgilash haqida da'vo qo'zg'atilgan taqdirda, xuddi shuningdek, bunday da'vo voyaga yetmagan shaxsga nisbatan berilganda, sudlar voyaga yetmagan da'vogar yoki javobgarlarga zarur huquqiy yordam ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida ishda qatnashish uchun ularning ota-onalari (vasiylari, homiylari)ni

jalb qilish masalasini muhokama qilishlari lozim (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksi, 38-modda).

Nazorat savollari

1. Oila huquqi bo'yicha kimlar qarindosh bo'lib hisoblanadilar?
2. Qarindoshlikni quda-andachilikdan farqlovchi jihatlar nimalar?
3. Qarindoshlikning huquqiy ahamiyati nimada?
4. Bolalarning nasl-nasabi qanday belgilanadi?
5. Bolalarning nasl-nasabini belgilashning huquqiy ahamiyati nimada?
6. Bolalarning nasl-nasabi belgilanganda voyaga yetmagan bolaning shaxsiy va mulkiy huquqlari qanday himoya qilinadi?

8-BOB. OTA-ONA HAMDA VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING SHAXSIY NOMULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi

Ota-onalarning huquq va majburiyatlari. Avvalo, ota-onalar o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega ekanliklarini ta'kidlash lozim. Ota-onalik huquq va majburiyatlari ikki turga bo'linadi:

- shaxsiy huquq va majburiyatlar;
- mulkiy huquq va majburiyatlar.

Ota-onalarning huquq va majburiyatlariga voyaga yetmagan bolalari bilan birga yashash, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish, ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirish, bolalarning sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, bolalarning qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlash, bolalarning huquq va manfaatlarini har qanday holatlar bo'yicha himoya qilish kabilar kiradi.

Demak, gap fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqlariga borib taqalmoqda.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar deganda, shaxsdan ajratib, begonalashtirib bo'lmaydigan, mulkiy xarakterda bo'lmagan huquqlar tushuniladi¹.

Darvoqe, shaxsiy nomulkiy huquqlar yurisprudensiyada fuqarolik-huquqiy munosabatlar predmetining tarkibiy qismini

¹ *Zokirov I., Oqyulov O., Baratov M.* Fuqarolik huquqi: savollar va javoblar. —T.: TDYI, 2003. 87-bet.

tashkil qilsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarda esa asosiy qismni tashkil qiladi.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar ham, o'z navbatida, ikki turkumga: mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarga, mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlarga bo'linadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish shakllari ham bevosita shaxsiy nomulkiy munosabatlar tarkibiga kirib ketadi.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarga misol qilib, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan va mualliflik huquqiga doir munosabatlarni ko'rsatsa bo'ladi. Bu munosabatlar faqat mulkiy huquqlarnigina emas, balki ularning shaxsiy huquqlarini ham, chunonchi, asarni o'z nomi bilan yoki nomini ko'rsatmasdan anonim tarzda nashr etish, asarning daxlsizligi huquqlari, ixtironing muallifi bo'lib tanilish huquqi va boshqa huquqlarni ham belgilaydi.

Ota-onalar o'z farzandlarini moddiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashi, farzandlar voyaga yetganda esa ular mehnatga layoqatsiz hamda yordamga muhtoj ota-onalariga mehribon bo'lib, ularni o'z qaramog'iga olishga burchli bo'ladilar.

Ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan huquq va burchlari bola tug'ilishi bilan oq paydo bo'ladi.

Ota-onaning shaxsiy huquqlariga bolaga ism berish, familiyasini belgilash, tarbiyalash, turar joyini belgilash, o'qitish, bola manfaatlarini himoya qilish kabi huquqlar kiradi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda qonun bolalar manfaatining ustuvorligini belgilaydi. Shu ma'noda vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-ona va bolalar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik borligi aniqlanganda, ota-ona o'z bolalarining manfaatlarini himoya qilishga haqli bo'lmaydi. Ota-ona va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda, vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlaydi.

Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining

71-moddasida belgilanishicha, ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egaliklari, ota-onalik huquqlari bolalar o'n sakkiz yoshga to'lganlarida (voyaga yetganda), shuningdek, voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonunda belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugashi belgilanib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida belgilanganidek, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Bu tenglik huquqi shaxsiy munosabatlarda ham, mulkiy munosabatlarda ham o'z ifodasini topgan. Nikohga kirgan erkak va ayol bir vaqtning o'zida ham shaxsiy, ham mulkiy huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. Shaxsiy huquqlariga, yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, nikohga kirishda familiya tanlash huquqi, turar joy tanlash huquqi, kasb-kor tanlash huquqi, shuningdek, hayotdagi muhim voqealardan biri bo'lgan voyaga yetmagan bolalarni er-xotin birgalikda teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan holda tarbiyalash, ta'minlashlari shart ekanligi belgilanib qo'yilgan.

Oila kodeksining 65-moddasiga ko'ra, har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'am-xo'rligidan foydalanish, ular bilan yashash huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning quyidagi huquq va majburiyatlarini alohida sanab ko'rsatish mumkin:

- bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatilishi;

- ota-onalarning o'z bolalariga nisbatan qonuniy vakil ekanliklari hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan, sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishlari va shu kabilar qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan.

Ota-onalar va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart. Ota-onalik

huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar yetkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollikdan, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlashdan xoli bo'lishi kerak.

O'z ota-onalik huquqini bolalarining huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-onalar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

Ota-ona alohida yashaganlarida bolalarning qayerda yashashi ota-onaning kelishuviga binoan belgilanadi. Ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, nizo sud tomonidan bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolalarning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onaning axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini hisobga oladi¹.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan berilgan bolalar va ota-onalarning huquq va manfaatleri qonun bilan himoya qilinadi.

Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilish deganda, bolalar manfaatlariga zid ish tutish, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilish, tilanchilik, spirtli ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga undash, uni jinoiy harakatga jalb qilish nazarda tutiladi.

¹ Otaxo'jayev F.M. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. —T.: TDYI, 2005. 166-b.

Nazorat savollari

1. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlariga nimalar kiradi?
2. Fuqarolik huquqidagi shaxsiy nomulkiy huquqlar bilan Oila huquqidagi shaxsiy nomulkiy huquqlar o'rtasidagi nisbat nimalardan iborat?
3. Voyaga yetmagan bolalar necha yoshdan boshlab mustaqil ravishda sudga murojaat qilishga haqli hisoblanadilar?
4. Voyaga yetmagan bolalar va ota-onalar o'rtasidagi nizolar qaysi organ ishtirokida hal qilinadi?
5. Voyaga yetmagan bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlarni sanab o'ting.

9-BOB. OTA-ONA HAMDA BOLALARNING MULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi

Ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi mulkiy-huquqiy munosabat deganda, ota-ona va bolalarning oila egaligidagi mulkka nisbatan bo'lgan munosabati va ikkinchidan, ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi o'zaro moddiy ta'minot berib turish majburiyatlari xususidagi huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi mulkiy-huquqiy munosabatlarning mazmuni faqatgina uy xo'jaligidagi oila huquqi mundarijasini tashkil qiladi. Ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi boshqa mulkiy munosabatlar esa, fuqaroviy huquqiy normalar doirasida tartibga solinadi.

Ro'zg'orda oila tasarrufida bo'lgan mulkning huquq tomonidan tartibga solinishi ko'p qiyinchiliklar tug'dirmaydi. Vaholanki, oilada uning barcha a'zolari, mehnati va xizmati bilan kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun mablag' to'planadi va xarajat qilinadi. Shu bilan birga, umumiy daromad hisobiga uzoq muddatga foydalanish uchun mo'ljallangan uy jihozlari, avtomashina, dala-hovli, hovli va boshqa qimmatbaho mulklar sotib olinadi.

Normal oilaviy munosabat bo'lganda, bu mulklarga nisbatan huquqiy aralashishni talab qiladigan nizo va kelishmovchiliklar bo'lmaydi. Oila tarqalib ketgan hollardagina bunday mulklarga nisbatan har xil nizolar kelib chiqishi mumkin. Bunday nizolar, asosan, er-xotinlar o'rtasida vujudga keladi va Oila kodeksi normalariga asosan hal qilinadi.

Oila tasarrufidagi umumiy mulkni bo'lish talab qilinganda er-xotin bilan birga oilaning boshqa a'zolari o'rtasida nizo kelib

chiqishi mumkin. Bunday hollarda nizo fuqarolik qonun normalari bilan hal qilinadi. Chunki oila qonunlarida faqatgina er va xotinning xususiy mulklari, ularning birgalikdagi mulklari haqida gap boradi.

Ota-ona hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emas. Ota-onaga ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqi berilmagan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir shaxsning, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ham mulkdor bo'lish huquqini kafolatlaydi. Oilada uning ayrim a'zolarining, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ham xususiy mulki bo'lishi mumkin. Oiladagi ota-onalar bilan bolalarning birgalikdagi umumiy mulklariga bo'lgan mulk huquqi fuqarolik huquq normalari bilan tartibga solinadi. Ota-onalar hayotligida ularning xususiy mulklariga nisbatan bolalarning huquqi yo'qligining qonun bilan tan olinishi ularning manfaatlariga putur yetkazmaydi. Chunki er-xotin o'rtasidagi umumiy mulk bo'linganda hamma vaqt voyaga yetmagan bolalarning manfaatlari hisobga olinadi.

Demak, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi mulkiy-huquqiy munosabatlar oila huquqi va fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, voyaga yetmagan bolalarning oiladagi xususiy mulklari alohida bo'lishi, ota-onalar bilan birgalikda bo'lishi Oila kodeksida o'z ifodasini topgan.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf qilish Fuqarolik kodeksi huquqiy normalari asosida amalga oshiriladi. O'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagi voyaga yetmagan bolalar nomidan barcha bitimlarni ularning qonuniy vakillari — ota-onalar, farzandlikka oluvchilar, vasiylar tuzadilar. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalar har xil bitimlarni o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylarning yozma roziliklari bilan tuzishlari mumkin.

Oilada ota-onalar va bolalarning alohida-alohida mulklari bo'lishi mumkin. Bunday mol-mulklardan ular birga yashab turganlarida bir-birlarining roziliklari bilan foydalanishlari, unga egalik qilishlari mumkin. Ota-onalar bilan bolalar mulklarining

alohida bo'lishi, ayniqsa, shahar oilalarida ko'proq va yaqqol ko'rinib turadi.

Mulk barcha jamiyatda ham mamlakatning iqtisodiy qudratini belgilovchi asosiy omillardan hisoblangan. Zero, jamiyat bilan undagi mulkiy munosabatlar o'rtasidagi aloqalar qanday yo'lga qo'yilganligiga qarab istiqbolni belgilash mumkin. Masalan, sobiq totalitar tuzum davrida mamlakatda barcha mulklarning markazlashuvi, davlat qo'lida to'planishi, mulk egasizligi, kishilarning mulkdan begonalashuviga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, mulkning egasiz bo'lishiga, isrofgarchilik, talon-torajlik obyektiga aylanishiga sabab bo'ldi. Konstitutsiya orqali mustahkamlangan umumxalq mulki amalda «barchaniki va hech kimniki» ahvoriga tushdi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab bunday iqtisodiy konsepsiya va qarashlarga barham berildi. Prezidentimiz boshchiligida istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarning rejalari va tamoyillari ishlab chiqildi. Shu o'rinda Prezidentimizning «Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida eng muhim va dolzarb vazifa — mulkiy munosabatni tubdan o'zgartirmoqdir. Uning tub mohiyati — mulkni haqiqiy egalari qo'lga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo'l ochib berish va mulkdorda yangi mulk egasi hissiyotini tarbiyalashdan iborat»¹, degan fikrlarini ta'kidlash joizdir.

Mulk egalari huquqlarining davlat yo'li bilan himoya qilinishini ta'minlash hamda turli mulk shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish shu asosda insonning mulkdan begonalashtirilganiga barham berish lozim va shart², deb ta'kidlaydi Prezident Islom Karimov.

Iqtisodiy o'zgarishlarning asosini mulkchilik munosabatlari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida mulkdorlarning huquqlari tan olinadi va qonun yo'li bilan himoya qilinadi. O'zbekiston

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.3. —T.: O'zbekiston, 1996. 27-b.

² Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. —T.: O'zbekiston, 1992. 18-b.

Respublikasi birinchilardan bo'lib xususiy mulkchilik huquqini e'tirof etdi, mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoitlar yaratildi.

Mulk huquqi fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham Fuqarolik kodeksida mulk huquqiga alohida e'tibor berildi, biz qurayotgan jamiyat tuzumining xususiyatlari hisobga olingan holda, FKga yangi moddalar kirib keldi.

Mulkning tegishliligi mulkiy huquq bilan belgilanadi. Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqini kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.

Mulk bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nafaqat mulkiy huquqni vujudga keltiradi, shu bilan birga mulkiy majburiyatlarni ham keltirib chiqaradi.

Shu nuqtayi nazardan olganda, oila huquqida ham ota-ona hamda bolalar o'rtasida mulkiy huquq va majburiyatlar vujudga kelishi mumkin.

2-§. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi

Ota-onalar va bolalarning mulkiy-huquqiy munosabatlari Oila kodeksining 90-moddasi talablariga ko'ra, ota-onalar hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emasliklari, ota-ona voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lish huquqiga ega emasliklari, shuningdek, voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega ekanliklari, voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolalarning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi, voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda fuqarolik

qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ota-onalar va voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- ota-ona va bolalarning alohida-alohida mulki;
- ota-ona va bolalarning umumiy mulki;
- bolalarning oiladagi xususiy mulki.

Ota-onalar va bolalarning alohida-alohida mulki tarkibiga ota-onalarning hamda voyaga yetmagan bolalarning bevosita o'zlariga taalluqli bo'lgan va ular tomonidan tasarruf etiladigan mulklarini kiritish mumkin.

Voyaga yetmagan bolalarga tegishli bo'lgan mol-mulkni ularning ota-onalari, maxsus topshiriqsiz, qonuniy vasiy yoki homiy sifatida, belgilangan tartibga rioya qilgan holda boshqarishlari mumkinligi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining tegishli normalariga asosan amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 92-moddasida belgilanishicha, ota-ona va o'n to'rt yoshga to'lgan voyaga yetmagan bolalar o'rtasida qonunda belgilangan tartibda umumiy mulk huquqi vujudga kelishi mumkin. Ota-ona va voyaga yetmagan bolalar umumiy mol-mulkni vujudga keltirish to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin. Ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning umumiy mol-mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish huquqi fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining 216- hamda 217-moddalariga muvofiq, ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo'lgan mol-mulk ularga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi.

Mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo'yilgan (ulushli mulk) yoki bunday ulushlar aniqlab qo'yilmagan (birgalikdagi mulk) holda umumiy mulk bo'lishi mumkin.

Umumiy mulk bo'lgan mol-mulk ulushlarga bo'linadi, qonunda bu mol-mulkning birgalikdagi mulkni tashkil etishi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Umumiy birgalikdagi mulk o'z vazifasini o'zgartirmagan holda taqsimlanishi mumkin bo'lmagan (bo'linmaydigan ashyolar) yoki qonunga ko'ra taqsimlanishi mumkin bo'lmagan mol-mulk ikki yoki undan ortiq shaxs mulkiga o'tgan paytda vujudga keladi.

Taqsimlanadigan mol-mulkning umumiy birgalikdagi mulkligi qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda vujudga keladi.

Birgalikdagi mulk ishtirokchilarining kelishuviga muvofiq, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, sudning qaroriga muvofiq, umumiy mol-mulk bu shaxslarning ulushli mulki qilib belgilab qo'yilishi mumkin.

Agar ulushli mulk ishtirokchilarining ulushlari qonun asosida belgilanishi mumkin bo'lmasa hamda uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ulushlar teng deb hisoblanadi.

Ulushli mulk barcha ishtirokchilarning kelishuvi bilan ishtirokchilardan har birining ulushini ularning umumiy mol-mulkni vujudga keltirish va ko'paytirishga qo'shgan hissasiga qarab aniqlash va o'zgartirish tartibi belgilanishi mumkin.

Umumiy mol-mulkdan foydalanishning belgilab qo'yilgan tartibiga amal qilgan holda ushbu mol-mulkni o'z hisobidan ajratib olish mumkin bo'lmaydigan tarzda yaxshilagan ulushli mulk ishtirokchisi umumiy mulk huquqidagi o'z ulushini tegishli darajada ko'paytirilishiga haqli bo'ladi.

Umumiy mol-mulkdagi ajratib olish mumkin bo'ladigan yaxshilashlar, agar ulushli mulk ishtirokchilarining kelishuvi bilan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu yaxshilashlarni amalga oshirgan ishtirokchining mulkiga qo'shiladi.

3-§. Voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulklari va uni tasarruf etish

Voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lishlari mumkin. Xususiy mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi

hamda Mulkchilik to'g'risidagi qonun normalari bilan tartibga solinadi.

Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

Oila kodeksining 93-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan bolalar qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk egasi bo'lish huquqiga ega ekanliklari, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarning qonunda belgilangan tartibda hadya, meros tariqasida olgan mol-mulki, shuningdek, shaxsiy mehnati va tadbirkorlik faoliyati natijasida oltirgan mol-mulki ularning xususiy mulki hisoblanishi, voyaga yetmaganlarning tadbirkorlik faoliyatiga qo'shgan mablag'i va undan oltirgan daromadi, agar bola bilan ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolari o'rtasida boshqacha tartibni belgilovchi shartnoma bo'lmasa, voyaga yetmaganlarning xususiy mulki hisoblanishi, voyaga yetmaganlarning shaxsiy foydalanishidagi buyumlari (kiyim-kechak, poyabzal, ishlab chiqarish qurollari, o'quv anjomlari va boshqalar) ularning xususiy mulki ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

Asosan, mulkiy munosabatlarni tartibga solishga va mustahkamlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining Mulkchilik to'g'risidagi qonuniga ko'ra, mulkdor o'ziga tegishli mol-mulkka o'z ixtiyoriga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor o'z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday xatti-harakatlarni qilishga haqlidir. Shu ma'noda olganda, oiladagi xususiy mulk egalari hisoblangan voyaga yetmagan bolalarning har biri faqat o'ziga qarashli bo'lgan (titul egalik) mulkka nisbatan o'z xohishiga ko'ra egalik qiladi, foydalanadi va tasarruf etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xususiy mulk bo'lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

Qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksining 29-moddasiga binoan, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) uchun bitimlarni, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlardan

tashqari, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishlari mumkin.

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar: mayda maishiy bitimlar; tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar; qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Kichik yoshdagi bolaning bitimlari bo'yicha, shu jumladan, o'zi mustaqil tuzgan bitimlar bo'yicha uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiysi, agar ular majburiyatning buzilishida o'zlarining ayblari yo'qligini isbotlay olmasalar, mulkiy javobgar bo'ladilar. Ushbu shaxslar qonunga muvofiq, kichik yoshdagi bolalar yetkazgan zarar uchun ham javobgar bo'ladilar.

Nazorat savollari

1. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mulkiy huquq va majburiyatlarga tushuncha bering.

2. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mulklarga nimalar kiradi?

3. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi umumiy mulk tarkibini sanab bering.

4. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ulushli mulk tarkibi qanday tasarruf etiladi?

5. Bolalarning oiladagi xususiy mulki va uni tasarruf etish qanday amalga oshiriladi?

10-BOB. OILA A'ZOLARI VA BOSHQA SHAXSLARNING ALIMENT MAJBURIYATLARI

1-§. Aliment huquq va majburiyatlarining umumiy qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga binoan, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega ekanligi normalanib qo'yilgan.

Darhaqiqat, oila kishilik jamiyati erishgan eng yuksak oliy qadriyatlardan hisoblanadi. Jamiyatdagi boshqa mikrotuzilmalar qatori oila ham bir butunlikda shu jamiyatning butunligini tashkil qiladi. Binobarin, oilaning tinch-totuvligi, to'kinligi jamiyatning va davlatning barqarorligiga olib keladi.

Yuqorida aytilgan iliq gaplar, iliq so'zlar jamiki mavjud oilalarga taalluqli bo'lsa qanday yaxshi bo'lar edi. Afsuski, hamisha ham shunday emas. Hayotda, oilada, turmushda uchraydigan ba'zi bir salbiy holatlar tufayli aliment huquq va majburiyatlari ham vujudga keladi. Qaysidir ma'noda bizning millatimizning tasavvurida, mentalitetida aliment so'zining o'ziyoq uni eshitgan kishilarda salbiy kayfiyat uyg'otadi. Nima bo'lganda ham bizga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (aslida, buni chin dildan istamagan bo'lar edik) bu holat, ya'ni aliment to'lov munosabatlari hanuz davom etmoqda.

Mazkur munosabatlar turmushimizda mavjud bo'lganligidan oila qonunchiligi bu munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Aliment so'zi lotincha «alimentum» — «oziq-ovqat», «nafaqa», «ta'minot», «boqish uchun mablag'lar» degan ma'nolarni anglatadi¹. Yoki boshqacha aytganda, bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to'laydigan nafaqasi hisoblanadi. F.M.Otaxo'jayeving

¹ Otaxo'jayeve F.M. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi. —T.: TDYI, 181-b.

fikricha, «aliment to'lash ota-ona hamda bolalarning, farzandlikka oluvchi va farzandlikka oluvchilar, er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment huquq va majburiyatlaridan iboratdir»¹.

Oila qonunchiligida ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga, ota-onaning voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga, yordamga muhtoj shaxslarga, bolalar muassasalariga joylashgan bolalariga, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj o'z ota-onasiga, muomalaga layoqatsiz, yordamga muhtoj er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning bir-birlariga nisbatan aliment huquq hamda majburiyatlari qayd etilgan.

Bular orasida hayotda ko'proq uchraydigan turi ota-ona hamda bolalarga to'lanadigan alimentlardir.

Fuqarolik-huquqiy shartnomasining tushunchasida asosiy belgi, asosiy shart taraflarning muayyan natijaga erishishiga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir. Unda taraflarning har qaysisi tomonidan shartnoma bo'yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo'lsa ham ular oqibati yagona huquqiy natija beradi. Masalan, biron-bir narsaga nisbatan yo egalik huquqi o'tkaziladi, yoki foydalanish huquqi. Shuningdek, fuqarolik-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuzilishini ham aytish kerak. Xo'sh, aliment bilan bog'liq majburiyatlar fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnomalardan nimasi bilan farqlanadi? Demak, aliment majburiyatlari majburiy xarakterda bo'lganligidan aliment to'lovchi va aliment oluvchi o'rtasida uning summasi (miqdori) haqida ko'pincha hech qanday kelishuv bo'lmaydi.

Nazorat savollari

1. Aliment so'zining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
2. Aliment huquq va majburiyatlarining umumiy qoidalari deganda nimani tushunasiz?
3. Oila a'zolari va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari.
4. Aliment majburiyatlarida shaxslar o'zgarishi mumkinmi?

¹ Otaxo'jayev F.M. Oila huquqi. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. —T.: O'zbekiston, 2000. 30-b.

11-BOB. ALIMENTLARNI TO‘LASH VA UNDIRISH TARTIBI

1-§. Aliment to‘lash va undirish tartibi

Aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o‘z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyda yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi mablag‘ olayotgan joydan to‘lashi mumkin. Voyaga yetmagan bolalar uchun olinadigan aliment arizaga muvofiq, Oila kodeksining 99-moddasiga binoan ushlanib qolinadi. Oila kodeksining 135-moddasi 3-qismiga asosan, alimentning ixtiyoriy ravishda to‘lab turilishi aliment undiruvchini xohlagan vaqtda aliment undirish haqida ariza bilan sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmasligi belgilangan edi. Ushbu normaga quyidagicha o‘zgartirish kiritildi. Aliment ixtiyoriy ravishda to‘lab turilishi aliment undirish haqida da‘vo yoki ariza bilan xohlagan vaqtda sudga murojaat qilish huquqidan mahrum qilmaydi, degan so‘zlar bilan almashtirildi.

Amaldagi qonunda aliment majburiyatlarida bir qator yangi qoidalar belgilangan.

Yangi oila qonuni aliment undirishning uch tartibini belgilaydi:

1. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv tuzish (OKning 130 — 134-moddalari).
2. Alimentni ixtiyoriy to‘lash (OKning 135-moddasi).
3. Alimentni sud tartibida undirish (OKning 136-moddasi).

Amaldagi qonunchilik bu uch tartib o‘rtasidagi farqlarni aniq belgilab beradi. Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishish mavjud bo‘lganida sud tartibida aliment undirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Aliment majburiyati — bu shunday huquqiy munosabatki, u qonunda belgilangan yuridik faktlar ro‘y berganida sodir bo‘ladi. Taraflar o‘zaro kelishganda yoki sudning hal qiluv qarori

mavjud bo'lganida oila a'zolaridan biri oilaning boshqa a'zolariga to'lashga majbur bo'ladi, so'nggisi esa uni talab etish huquqiga ega bo'ladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv, sud yo'li bilan aliment undirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida ham (Oila kodeksining 131-moddasiga binoan), bunday huquqqa ega bo'lmaganlar o'rtasida ham tuzilishi mumkin, chunki bu holatda aliment to'lash majburiyatini ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga olish to'g'risida gap boradi. Masalan, Oila kodeksining 16-bobiga ko'ra, uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanuvchi mehnatga layoqatli er yoki xotinga, amaldagi xotin yoki er, vasiy, homiy va ularning homiyligidagilar, amaki-tog'alar, amma-xolalar va jiyanlar hamda qonun bilan sud tartibida aliment talab qilinish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasiga kiritilmagan boshqa shaxslar tomonidan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin.

Oila kodeksining 130-moddasiga binoan, aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish uchun muomalaga layoqatli bo'lish talab etilmaydi.

14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar nomidan kelishuv ularning qonuniy vakillari (voyaga yetmaganlarning ota-onalari, vasiylari, homiylari) tomonidan tuziladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda muomalaga layoqatligi sud tartibida cheklangan shaxslar o'z qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzadilar.

Oila kodeksining 131-moddasida kelishuvni yozma ravishda tuzish va uni notarial tarzda tasdiqlash shartligi belgilangan. Notarial tartibda tasdiqlanmagan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv haqiqiy hisoblanmaydi. Biroq aliment to'lash to'g'risida (oddiy yozma shaklda) kelishuv tuzgan tomonlardan biri amalda uni ijro etishga kirishgan bo'lsa-yu, ikkinchi tomon uni notarial tasdiqlashdan bo'yin tovlayotgan bo'lsa, Fuqarolik kodeksining 12-moddasiga muvofiq, kelishuv sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday holatda keyinchalik kelishuvni notarial tasdiqlash talab etilmaydi.

Notarial tasdiqlangan kelishuv o'z ijro kuchiga ko'ra ijro varaqasiga tenglashtiriladi. Bu esa aliment ushlab qolish uchun boshqa hujjatlarni ko'rsatish talab qilinmasligini bildiradi. Notarial tasdiqlangan kelishuvni jo'natish, hisobga olish va saqlashga nisbatan ijro varaqalarini jo'natish, hisobga olish va saqlash qoidolari qo'llaniladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi Fuqarolik kodeksining 150-moddasida belgilangan da'vo qo'zg'atish muddati doirasida e'tiborsiz qoldirilishi ham, rad etilishi ham mumkin.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvning tomonlarning o'zaro kelishuvlariga binoan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi yozma ravishda amalga oshirilib, notarial tasdiqlanishi zarur.

Oila kodeksining 16-bobiga binoan aliment kelishuvlarini quyidagilar tuzishlari mumkin:

— ota-onalar o'zlarining voyaga yetmagan bolalarini ta'minlashi to'g'risida. Agar aliment 14 yoshga to'lmagan bolalarga beriladigan bo'lsa, u holda kelishuv aliment to'lovchi ota yoki ona bilan ona yoki ota o'rtasida tuziladi, bunda ikkinchi tomon sifatida farzandlikka oluvchi ota yoki onasi, vasiysi yoki farzandlikka oluvchisining roziligi bilan kelishuv tuzadilar;

— ota-onalar yordamiga muhtoj, mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan farzandlarini ta'minlash to'g'risida. Ota-onalar bunday kelishuvni o'zlarining mehnatga yaroqli, voyaga yetgan farzandlari bilan ham tuzishlari mumkin;

— mehnatga layoqatli farzandlari o'zlarining mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarini ta'minlashi to'g'risida. Bunday holatda kelishuv voyaga yetgan har bir farzand bilan ota va onaning har biri o'rtasida, tomonlardan biri muomalaga layoqatsiz bo'lgan hollarda esa uning qonuniy vakili o'rtasida tuziladi. Bunday bitim ota-onalar mehnatga layoqatsizligi va muhtojligidan qat'i nazar tuzilishi mumkin;

— er-xotindan biri mehnatga layoqatsiz, muhtoj bo'lgan hollarda, masalan, xotin homiladorligi davrida hamda umumiy farzand tug'ilganidan keyin uch yil davomida yoki er yoxud xotin nogiron umumiy farzandni parvarish qilayotganida u 18 yoshga to'lgunicha yo bo'lmasa 1-guruh nogironi bo'lgan umumiy

farzandni parvarish qilayotganida er-xotinlar aliment kelishuvi tuzishlari mumkin. Bitimda, aliment oluvchi er yoki xotin mehnatga layoqatsizligi yoki muhtojligidan qat'i nazar, ulardan birini ta'minlash nazarda tutilishi mumkin;

— sobiq er-xotinlar, nikoh mavjudligi davrida ham, ular nikohdan ajralganidan keyin ham. Ular sobiq er yoki xotin mehnatga layoqatsizligidan yoki muhtojligidan qat'i nazar, bunday kelishuvni tuzishlari mumkin;

— shunday bitim tuzishlari mumkin bo'lgan aka-ukalar va opa-singillar;

— bobolar va buvilar. Ular nabiralari bilan o'zlarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin;

— bobolari va buvilarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzish huquqiga ega nabiralari;

— voyaga yetgan amaldagi tarbiyalanuvchilar. Ular o'zlarining sobiq amaldagi tarbiyachilarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzish huquqiga egadirlar;

— voyaga yetgan asrandi o'g'illar va qizlar. Ular o'gay otalari yoki o'gay onalarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin.

Oila kodeksining 145-moddasida xorijiy davlatga doimiy istiqomat qilish uchun jo'nab ketayotgan shaxs bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish mumkinligi nazarda tutilgan. Bu kelishuvda tomonlar aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni ta'minlashning har qanday usulini ko'zda tutishga haqlidirlar.

Kelishuvga muvofiq, voyaga yetmagan bolalar uchun belgilanadigan aliment miqdori ular sud tartibida undirganda olishi mumkin bo'lgan aliment miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Bu miqdor Oila kodeksining 99-moddasi bilan belgilab qo'yilgan va bir bola uchun ish haqi va (yoki) boshqa daromadning 1/4 qismini, ikki bola uchun 1/3 qismini va uchta hamda undan ortiq bola uchun 1/2 qismini tashkil qiladi.

Alimentlar aliment to'lashga majbur shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan hissada muntazam (har oyda,

har chorakda va shu kabi) to'lanadigan qat'iy pul miqdorida, mulk berish yo'li bilan, shuningdek, bo'lakcha usullarda to'lanishi mumkin. Kelishuvda to'lashning turli usullarini aralash qo'llash nazarda tutilishi mumkin.

2-§. Aliment miqdorini indekslash tartibi

Indeksplashning eng keng tarqalgan usuli — aliment miqdorini eng kam ish haqiga yoki chet el valutasiga bog'liq qilib qo'yish.

Kelishuv, tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan, istalgan paytda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu ish ham kelishuv tuzilgan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Tomonlarning moddiy yoki oilaviy ahvoli jiddiy ravishda o'zgargan hamda aliment kelishuvini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida kelishuvga erishilmagan holatlarda manfaatdor tomon ushbu kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari aliment majburiyatlarining birinchi toifasiga kiradi. Ota-onalar va bolalar boshqa qarindoshlari bo'lish-bo'lmasliklaridan qat'i nazar bir-birlariga moddiy ta'minot berishga majburlar.

Ota-onalarning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash majburiyatning asosi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qon-qarindoshlik va voyaga yetmagan bolalarning mavjud bo'lishi hisoblanadi. Ishlashi yoki ishlamasligidan qat'i nazar, 18 yoshga to'lmagan bolalar voyaga yetmagan bola bo'lib hisoblanadilar.

Oila kodeksining 96-moddasiga binoan, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona) dan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun to'rt dan bir qismi; ikki bola uchun uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun yarmisi

miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvoli va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak (Oila kodeksining 99-moddasi).

Oila kodeksining 109-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart.

Qonun bilan mustahkamlangan, mehnatga layoqatli voyaga yetgan bolalarning o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilish majburiyati, birinchi navbatda, bolalarning ma'naviy burchi va vazifasi hisoblanadi. O'zbek xalqida ota-onalarga g'amxo'rlik qilish bolalarning muqaddas burchi hisoblanadi. Bu majburiyatni bolalar o'z xohishlari bilan bajarib kelmoqdalar.

Moddiy yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-ona foydasiga aliment undirilishi vaqtida ota-onaning ham, bolalarning ham moddiy, oilaviy sharoitlari, shuningdek, taraflarning e'tiborga loyiq barcha holatlari hisobga olinishi lozim.

Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onaga aliment to'lash to'g'risidagi da'vo oiladagi barcha mehnatga layoqatli voyaga yetgan bolalarga nisbatan qo'zg'atilishi mumkin.

Oila kodeksining 111-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko'ra qilinadigan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart. Bu qoida qonunchilikda yangilikdir. Har bir voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatiladigan qo'shimcha xarajatlarni qoplash summasini belgilashda ularning moddiy sharoitlari hisobga olinadi.

Umuman, amaldagi qonunlarga ko'ra, aliment sudga murojaat qilingan kundan boshlab sudning hal qiluv qarori bilan undiriladi. Ammo Oila kodeksining 112-moddasiga binoan, aliment undirish to'g'risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar sudya shu nizo bo'yicha undan belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Bunda moddiy ta'minot

sudning ajrimi bilan, ta'minot berishi gumon qilinayotgan shaxsdan ma'lum summada undirilishi mumkin.

3-§. Er-xotinning aliment huquq va majburiyatlari

Er-xotinning aliment huquq va majburiyatlari, ya'ni bir-birlariga moddiy ta'minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlar turlaridan biri hisoblanadi. Bu masala bo'yicha jinsiy holat hech qanday imtiyoz belgilamaydi.

Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari Oila kodeksining 15-bob, 117 — 121-moddalari bilan tartibga solinadi.

Agar er va xotin xohlasalar, Oila kodeksining 31-moddasiga muvofiq nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish bo'yicha huquq va majburiyatlar belgilashi yoki aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin (Oila kodeksining 130-moddasi).

Oila kodeksining 117-moddasida er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berish majburiyatlari belgilangan. Unga muvofiq, «Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek, xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan 1-guruh nogironi bo'lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotin (er) dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega».

Er yoki xotining beriladigan ta'minot mablag'ining miqdori sud tomonidan ta'minot to'lovchining va oluvchining moddiy va oilaviy ahvolini hisobga olgan holda, har oyda to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi. Biroq bu summa qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmashligi lozim.

Er yoki xotining aliment, agar umuman yashashi uchun mablag'i bo'lmaganda, shuningdek, mablag'i bo'lsa ham, muhtoj bo'lsa tayinlanishi mumkin.

Ushbu turdagi nizolarni ko'rishda sud quyidagi holatlarni aniqlashi lozim, chunonchi, muhtoj er (xotin)ning yashashi uchun mablag'ga ega yoki ega emasligini va bu mablag' uning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli yoki yetarli emasligini; er (xotin)ning bolalari va boshqa boqimandalari bor-yo'qligini; muhtoj er (xotin)ning voyaga yetmagan bolalaridan moddiy yordam olish yoki olmasligini va shu kabi boshqa holatlarni aniqlaydi.

Aliment to'lovchi yoki oluvchi er yoki xotinning moddiy va oilaviy ahvolidagi o'zgarish ularning hayotiga katta ta'sir etishi mumkin. Bu esa manfaatdor er yoki xotinga sudga murojaat etib aliment miqdorini o'zgartirish yoki uni kamaytirishni talab qilish huquqini beradi.

Er yoki xotinni ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish yoxud bu majburiyatni ma'lum muddat bilan cheklash sudning hal qiluv qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Sud hal qiluv qarorini chiqarishda: nikohda qisqa vaqt turgan bo'lsalar; o'ziga nafaqa talab qilayotgan er yoki xotin oilada o'zini nomunosib tutgan bo'lsa; agar yordamga muhtoj er yoki xotin spirtli ichimliklar, narkotik moddalarni suiiste'mol qilish yoki qasddan jinoyat sodir etib, uch yildan kam bo'lmagan muddatga sud tomonidan hukm qilingan bo'lsa, bunday holatlarni nazarga olish mumkin. Er yoki xotinni ta'minot berishdan ozod etish yoki bu majburiyatni muddat bilan cheklash uchun yuqorida keltirilgan shartlardan bittasi bo'lishi lozim. Ammo bunday holatlar mavjud bo'lganda ham har bir vaziyatda sud ishning aniq holatiga qarab da'voni qondirishi yoki uni rad etishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Aliment kimlarga nisbatan to'lanadi?
2. Oila kodeksining 99-moddasiga binoan voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment miqdori qancha?
3. Sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari qanday?
4. Aliment to'lovchi shaxs muomalaga layoqatsiz deb topilsa, aliment majburiyati bekor bo'ladimi?
5. Aliment qanday va qay asosda undiriladi?

12-BOB. OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH

1-§. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari tushunchasi va huquqiy belgilari

Falsafaning umumiy qonuniyatlariga ko'ra, har bir narsada mantiq yotadi. Uning kategoriyalaridan biri sabab va oqibat bo'lib, unga ko'ra har bir oqibat muayyan shart-sharoitlardan, sabablardan vujudga keladi. O'z navbatida, sabab va shart-sharoitlar muayyan oqibatlar tug'diradi.

Bilishning mazkur dialektik qonuniyatlariga asoslanadigan bo'lsak, ota-onalik huquqidan mahrum qilish qator huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Aslini olganda, huquqiy oqibatlarsiz ham ota-onalik huquqidan mahrum qilishning o'ziyoq naqadar ayanchlidir. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlashni istardik, mazkur masala haqida gap ketganda, G'arb va Sharq mamlakatlaridagi, xususan, o'zbek millati mentalitetidagi o'ziga xosliklar ham e'tiborga molikdir.

Ma'lumki, oila huquqi bola manfaatlarini ustuvor deb biladi. Shu ma'noda, oiladagi muhit, sharoit bola manfaatlariga zid bo'lsa, yuqorida aytganimizdek, qonunchilik uni ushbu oilada, sharoitda qolishiga yo'l qo'ymaydi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlik tufayli vujudga keladigan huquqiy oqibatlar va bunda asosiy e'tibor bolalarning huquq va qonuniy manfaatlari nima bo'ladi, ularning taqdiri qanday bo'ladi, degan savollarga muayyan javob berishdan iboratdir.

Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, uning manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari himoya qilinishi huquqiga ega. Shu ma'noda bolalarning

huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onalari zimmasiga yuklatiladi. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki biz so'zlayotganimizdek, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Vasiylik va homiylik organlari mahalliy organlar bo'la oladi. Vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan yosh bolalarga nisbatan — xalq ta'limi bo'limlariga; ruhiy kasal va aqli zaiflarga nisbatan — sog'liqni saqlash bo'limlariga; vasiylikka oluvchilarning boshqa toifalariga nisbatan esa — ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatiladi¹.

Ma'lumki, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi², Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya³larda aytilganidek, «... barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar».

Ushbu xalqaro hujjatlarda bolaning himoyaga bo'lgan huquqi alohida normalanadi. Voyaga yetmagan bola, qonunga muvofiq, to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, tabiiyki, u o'z huquq va majburiyatlarini, shuningdek, himoya huquqini mustaqil amalga oshira oladi. Bola ota-onalar tomonidan qilinadigan suiiste'molliklar (masalan, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, jismoniy kuch ishlatish, ruhiy ta'sir ko'rsatish, bolaning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilish kabilar)dan himoyalaniş huquqiga ega. Aynan Oila kodeksining 79-moddasi 4-xatboshisida «ota-ona ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatilsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin»ligi normalangan.

Shunisi muhimki, bolaning huquq va qonuniy manfaatlari

¹ Zokirov I. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. —T.: Adolat, 1996. 42-b.

² Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill to'plamida. —T.: Adolat, 5-b.

³ Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya. *Human right fact sheet 10, the rights of the child to'plami*. —T.: Adolat. 1996.

buzilganda, shu jumladan, ota-ona (yoki ulardan biri) bolaning ta'lim-tarbiyasida o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganida yo bo'lmasa ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganida bola o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, 14 yoshga to'lgandan keyin esa, mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega. Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi yoki sud bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yuzasidan tegishli choralar ko'rishi shart.

Hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlari, xususan, G'arbiy Yevropada, AQSHda bolalarning shaxs sifatida kamol topish jarayoni tezlashmoqda. Bu holat, ayniqsa, bolalarning ma'naviy dunyosida individualizm (har bir masala bo'yicha o'z qarashlariga egalik, boshqalarning ta'sirida bo'lmaslikka intilish, ma'lum ma'noda xudbinlik, boshqalar manfaatini hisobga olmasdan o'z manfaatlarini ustuvor qo'yish) xususiyatlarining yaqqol kuchayishida namoyon bo'lmoqda. Bu holat ham ijobiy, ham salbiy jihatlarga ega. Salbiy jihati shundan iboratki, bunda asriy bahs — otalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat chuqurlashadi, bolalarning kattalar ta'siridan chiqishi kutilmagan va ba'zan mudhish oqibatlarga olib keladi. Ijobiy tomoni shundaki, bolalar kattalar, ayniqsa, ota-onalari ularga nisbatan o'z huquqlarini suiiste'mol qilishlariga yo'l qo'ymaydilar. Masalan, so'nggi yillarda Angliyada o'zlariga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lgan ota-onalarni sudga bergan bolalar soni ancha ko'paydi. Albatta, G'arb bilan Sharq mentaliteti, qadriyatlari o'ziga xos farqlarga ega. Biroq, inson huquqlari nuqtayi nazaridan olganda bolalarni o'z ota-onalari, vasiy, homiylari va boshqa qonuniy vakillari bilan nizolashish imkoniyatlari mavjudmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Umumiy qoida bo'yicha bola va ota-ona o'rtasidagi munosabatlarni kuzatib borish mahalla, maktab, qo'ni-qo'shni, uchastka militsiya noziri tomonidan amalga oshiriladi. Agar bu munosabatlarda normal tabiiy-insoniy mezonlar buzilsa, birinchi galda yuqoridagi subyektlar bong uradilar. Bola huquqlarining himoyasi haqidagi masalani vakolatli davlat idoralari (militsiya, sud, prokuratura)

oldiga qo'yadilar. Bolaning o'zi ham yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga va idoralarga himoya so'rab murojaat etishga haqli. Biroq, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqimiz bolajon xalq, ota-ona uchun farzand aziz, bola manfaatlari hamma narsadan ustun. Shu sababli ota-onalar o'z bolalarini qarovsiz tashlab qo'yishi, shafqatsiz munosabatda bo'lishi hollari kam uchraydi. Ko'p hollarda, ota-onaning bolani tergashi, nazorat qilishi (masalan, muayyan shaxslar bilan muloqotda bo'lmaslik, turli xil ziyofatlar, ulfatchiliklarga qatnashishni taqiqlash va h.k.) bola manfaatlari nuqtayi nazaridan, uni halol, barkamol inson bo'lib kamol topishini ko'zlab amalga oshiriladigan harakatlardir¹.

2-§. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish hozirgi kunda o'ta dolzarb va yechimini kutayotgan muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Hayotda uchraydigan salbiy voqea-hodisalar ham ayrim hollarda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratiladi.

Voyaga yetmagan bolalarning huquqlari O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2007-yil 23-noyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2007-yil 1-dekabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni bilan himoya qilinishi alohida e'tiborga loyiqdir.

Yuqorida voyaga yetmagan bolalarni ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan deb topish asoslari xususida to'xtalib o'tgan edik. Xo'sh, ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsalar ham bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hisoblanadilarmi? Shuningdek, ota-onalar ota-onalik huquqidan qaysi asoslarda mahrum qilinadilar? Bolalarning huquqlari himoya ostiga qanday olinadi degan savollarga javob berish mavridi keldi.

¹ *Zokirov I., Baratov M.* Voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari /Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari to'plami. —T.: O'zbekiston, 2000. 121-b.

Oila kodeksining 79-moddasiga binoan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish holatlari belgilangan.

Ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan, undan ta'minot olish, shuningdek, bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) bundan keyin bola bilan birgalikda yashash-yashamaslik masalasi sud tomonidan uy-joy to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Ota-onasi (ulardan biri) o'ziga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bola, agar u farzandlikka olingan bo'lmasa, turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek, ota (ona) si va boshqa qon-qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan barcha mulkiy huquqlarini, jumladan, meros olish huquqini saqlab qoladi.

Bolani ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo'lmagan yoki ota-onaning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilingan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga olib beriladi.

Ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda bolani farzandlikka olishga ota-ona (ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori chiqarilgan kundan keyin kamida olti oy o'tgach yo'l qo'yiladi.

Sudning qaroriga asosan, ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan ota-onalar qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan mahrum bo'ladilar. Ushbu huquqlar uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:

- o'z bolalarini shaxsan tarbiyalash;
- bola bilan ko'rishib turish;

- bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- kelajakda voyaga yetgan bolalaridan ta'minot olish huquqi;
- vafot etgan bolasidan qonun bo'yicha meros olish.

Ikkinchi guruhga davlat tomonidan shaxsan ota-onalarga beriladigan quyidagi imtiyozlar kiradi:

- dam olish kunlari mehnatga jalb qilishni cheklash;
- qo'shimcha ta'til berish, belgilangan imtiyozli mehnat rejasini qo'llash;
- bola uch yoshga to'lgunicha uni parvarish qilish uchun beriladigan ta'tildan foydalanish;
- bolaga 14 yoshga to'lgunga qadar belgilangan to'liq bo'lmagan ish kuni yoki ish haftasini qo'llash;

— besh va undan ko'p bola tuqqan va tarbiyalagan onalarga imtiyozli pensiyalar berish va davlat tomonidan belgilangan boshqa imtiyozlar.

Uchinchi guruh tarkibiga bolalari bo'lgan ota-onalar uchun davlat tomonidan beriladigan turli nafaqa va yordamlar kiradi. Bular:

- bolalari bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam va nafaqalar;
- bola ikki yoshga to'lguncha mehnat bilan band bo'lgan ayollarga bolalari uchun beriladigan nafaqalar;
- 15 yoshga to'lmagan bolaning kasalligi bilan bog'liq vaqtincha mehnatga yaroqsizlik bo'yicha beriladigan nafaqa va boshqalar kiradi¹.

Yuqorida keltirilgan oqibatlar sababli ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan bolalar o'zlariga tegishli huquq va manfaatlarining himoya qilinishini va amalga oshirilishini tegishli tartibda saqlab qoladilar.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ota-onalarning noqonuniy harakati qaysi voyaga yetmagan bolaga nisbatan sodir qilingan bo'lsa, faqat shu bolaga taalluqli bo'ladi. Boshqa voyaga

¹ Qarant: Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. —T.: Adolat, 2000.

yetmagan bolalarga nisbatan esa ota-onalik huquqi to'la saqlanib qoladi.

Ota-onalik huquqi bolalar voyaga yetguniga qadar ota-ona tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan huquq hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona, avvalo, shu voyaga yetmagan bolaga nisbatan shaxsan uni tarbiyalash huquqidan mahrum bo'ladi, shuningdek, bolani tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan vakolatlardan, bolali fuqarolarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turli xil imtiyozlardan, nafaqa va moddiy yordam olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona, keksayib qolganda, mehnatga qobiliyatsiz va yordamga muhtoj bo'lib qolganda voyaga yetgan bolalaridan ta'minot talab qilish huquqini ham yo'qotadi.

Ma'lumki, ota-onalik huquqi ota-onalarning majburiyatlari bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki bolalarni tarbiyalash va ularga ta'minot berish bo'yicha ota-onalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi ular tomonidan ota-onalik huquqlarining amalga oshirilishi hisoblanadi. Ammo, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, mazkur ota-onaning aybi va noqonuniy harakati oqibatida bo'lgani sababli, ular ota-onalik majburiyatidan to'liq ozod qilinmaydilar. Voyaga yetmagan bolalarni ta'minlab turish majburiyati, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning bo'ynida saqlanib qoladi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona o'z bolalariga ta'minot berish majburiyatidan ozod bo'lmaydi. Chunki bu majburiyatning maqsadi voyaga yetmagan bolani ta'minlashdan iboratdir.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning bola bilan birgalikda bir joyda yashash yoki yashamasligi masalasi ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishni ko'rgan sud tomonidan hal qilinadi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona bilan voyaga yetmagan bolaning birga yashashi bolaning tarbiyalanishiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi, degan xulosaga kelgan sud masalani ota yoki ona foydasiga ijobiy hal qilishi mumkin. Ota-onalik huquqidan ota va onaning har ikkalasi mahrum

qilinganida yoki voyaga yetmagan bolani ota-onalik huquqi saqlanib qolgan ota yoki onasiga berishning imkoniyati bo'lmagan hollarda bola vasiylik va homiylik organining qaramog'iga uni tegishli joyga joylashtirish masalasini hal qilish uchun beriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish bunday ota-onaning uy-joyga bo'lgan huquqiga taalluqli emas. Ammo qonunda belgilangan ayrim hollarda bunday ota yoki ona uy-joydan ko'chirilishi mumkin. Bunday hollarda uy-joydan ko'chirish manfaatdor tarafning yoki prokurorning talabi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslar bolalarni farzandlikka olish, vasiy yoki homiy bo'lish huquqlaridan mahrumdirlar.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning bolasi farzandlikka olinmagan bo'lsa, otasi yoki onasining turar joyiga bo'lgan o'zining mulkiy huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi.

Farzandlikka olinmagan bola, shuningdek, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan otasi yoki onasiga va tug'ishganlik faktiga asoslangan boshqa qarindoshlarga nisbatan bo'lgan barcha mulkiy huquqlarni, shu jumladan, meros olish huquqini saqlab qoladi.

Ayni vaqtda oila qonunchiligi juda «beshafqat emas». Aksincha, oila qonunchiligining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oilani uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Shu ma'noda oila qonunchiligi ota-onalik huquqini tiklash institutini ham normalaydi.

Ota-ona (ulardan biri) o'z xulq-atvorini, turmush tarzini (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan sud

tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi ishlar vasiylik va homiylik organining, shuningdek, prokurorning ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Ota-onaning (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vosi bilan birga bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish to'g'risidagi talabi ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Agar ota-onalik huquqining tiklanishi bola manfaatlariga zid bo'lsa, sud bolaning fikrini hisobga olgan holda ota-onaning (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vosini qanoatlantirishni rad qilishga haqlidir.

O'n yoshga to'lgan bolaga nisbatan ota-onalik huquqining tiklanishiga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Bola farzandlikka olingan va farzandlikka olish bekor qilinmagan bo'lsa, ota-onalik huquqini tiklashga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilishning ma'lum bir muddati belgilanmaydi, u muddatsiz hisoblanadi. Qonun bo'yicha ota-onalik huquqidan mahrum qilish bilan oilada huquqiy munosabat tugatiladi. Ammo ota-onalik huquqini tiklash ham qonunda nazarda tutilgan. Bu hol, albatta, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning o'z xulq-atvorini tuzatishiga qaratiladi. Ota yoki onaning bola bilan aloqasi uzilmaydi, u bilan ko'rishib turish, muloqotda bo'lish, unga moddiy yordam berib turish uchun harakat to'xtamaydi, man etilmaydi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning xulq-atvorida bola tarbiyasiga nisbatan jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligi aniqlansa, bunday hollar, albatta, ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi talablarning asoslilikini ko'rib chiqishni talab qiladi.

Ma'lumki, ota-onalik huquqidan faqat sud qarori bilan mahrum qilinadi. Shu sababdan, ota-onalik huquqini tiklash faqat sud tartibida amalga oshirilishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi ishlar da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladi. Da'vogar sifatida ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona, javobgar sifatida esa, bolaning kimning homiyligida turishiga qarab, ota-onalik huquqi saqlangan

ota yoki ona, shuningdek, vasiylik va homiylik organi bo'lishi mumkin. Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning da'vo arizasiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi, shuningdek, prokurorning ishtirokida ko'rib hal qilinadi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning xulq-atvori tuzalganligiga, uning hayotida jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lganligiga ishonib, unga bola tarbiyasini ishonish mumkin degan xulosaga kelgan sud, ota-onalik huquqini tiklash haqida hal qiluv qarori chiqaradi. Shu bilan birga bolani ota-onasiga qaytarish to'g'risidagi masalani hal qiladi.

Boshqa shaxslar tomonidan farzandlikka olingan bolalarga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning huquqi tiklanishi mumkin emas. Bu, albatta, voyaga yetmagan bolaning manfaatini ko'zlab amalga oshiriladi. Chunki farzandlikka olingan bolaning tarbiyasini o'z zimmasiga olgan farzandlikka oluvchining manfaatlariga ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning manfaatini qarshi qo'yish bilan, yangi oilada tarbiya topgan munosabatlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Farzandlikka olish bekor qilinmasdan turib ota-onalik huquqini tiklash mumkin emas. Ota-onalik huquqini tiklash bola manfaatiga zid bo'lmasligi kerak va, albatta, bolaning fikri hisobga olinishi shart. O'n yoshga to'lgan bolaning fikri hisobga olinishi kerak. O'n yoshga to'lgan bolaning roziligi bo'lmasa, ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vo sud tomonidan qanoatlantirilmamasligi mumkin.

Umuman olganda, qonun hujjatlaridagi holatlar va turmushdagi voqealiklardan kelib chiqib, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatilgan.

Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek, bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Vasiylik va homiylik organidan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar borligidan xabardor bo'lgan muassasalar (maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim muassasalari, davolash va boshqa muassasalar)ning mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bu haqda bolalar turgan joydagi vasiylik va homiylik organiga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday xabar olgan kundan boshlab uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi shart bo'lib, bunda bola ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligini aniqlasalar, uni joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi shart bo'lib hisoblanadi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik yoki homiylik belgilanishi yoxud tutingan oila) ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash muassasalar) ga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga yoki tarbiyalash muassasalariga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar vasiylik (homiylik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Demak, xulosa shundayki, inson va uning manfaatlari bizning mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. To'g'ri, bu o'rinda davlatning ham mavqeyini pasaytirmaymiz. Nazariyotchilar aytganidek, davlatning asosiy ijtimoiy vazifasi uning hududida istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar, millatlar va elatlar, ijtimoiy va etnik guruhlar jipsligini ta'minlashdan iborat ekan, davlat bu sohadagi o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonunchilik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilash uchun ularning ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlanishi lozim. Xo'sh, qachon bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hisoblanadi? O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 148-moddasiga binoan quyidagi hollar bunday oqibatga olib keladi:

- ota-ona vafot etganda;
- ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganda yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda;
- ota-onasi kasal bo'lganda;
- ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa;
- ota-onasi bedarak yo'qolganda;
- ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan, ota-ona tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'xshash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek, boshqa zarur hollarda.

3-§. Voyaga yetmagan bolalarni ota-ona qaramog'idan mahrum etgan deb topish asoslari

Voyaga yetmagan bolalarni ota-ona qaramog'idan mahrum etgan deb topish asoslari bir qancha bo'lib, bu holatlarning har biriga alohida izoh berib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ota-ona vafot etganda. Ma'lumki, bolani tarbiyalash ota-ona vazifasidir. Bolaning o'z ota-onasidan tarbiya olish huquqini davlat ota-onasi vafot etib qarovsiz qolgan bolaga vasiy yoki homiy tayinlash orqali ta'minlaydi.

Bu yerda shunday savol tug'ilishi tabiiy. Xo'sh, qachon tarbiya shakli sifatida vasiy tayinlanadi? Boshqa tarbiya shakllari bilan o'xshashligi nima, xususan, patronat bilan? U yoki bu tarbiya shaklini tanlash bevosita bolaning doimiy yoki vaqtinchalik ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan yoki bo'lmaganligiga bog'liq

holda doimiy yoki vaqtincha joylashtirish masalasi hal bo'ladi. Agar vaqtinchalik ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lsa (uzoq muddatli kasallik, davomli komandirovka va boshqalar), qachonki bola muayyan muddatda oilasiga qaytishiga asos bo'lsa, ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum qilish ularning hozirgi holatda ham, kelajakda ham bolaga nisbatan huquqlari poymol bo'lishiga yo'l qo'yilishi noto'g'ri. Ushbu holatlarda bola farzandlikka olinmasligi kerak. Shu holatda bolani oldingi oilasida qoldirib, yaqinlaridan vasiy tayinlash lozim bo'ladi. Agar buning imkoni yo'q bo'lsa, ota-ona yo'q bo'lgan muddatga maktab-internatga joylashtirish kerak.

Ota-ona vafot etganda yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan hollarda yoxud ota-onaning qayerdaligi noma'lum bo'lsa va bola ularga qaytarilishiga asosli holatlar yo'q bo'lsa, bolani doimiy joylashtirish masalasi tug'iladi. Bunday holatlarda farzandlikka olish bola manfaatlaridan kelib chiqadi. Farzandlikka olish masalasi tez hal bo'lmaydi. Shuning uchun unga nisbatan vasiy tayinlanadi. Agar bola tarbiyasi talablariga javob bera oladigan oila topilmasa, u holda bola Mehribonlik uyiga topshirilishi kerak. Masalan, fuqaro A. o'zining o'g'lini ota-onasi bilan birga tarbiya qilar edi, bolaning onasi alohida yashar edi. Fuqaro A. sodir etgan jinoyati uchun sudlanib va ozodlikdan mahrum qilingandan keyin bolaning bobosi uning onasiga da'vo qo'zg'atadi. Da'vo mohiyati bola tarbiyasi uchun aliment undirish to'g'risida bo'lgan. Bolaning onasi uni qaytarib berish to'g'risida qarshi da'vo qiladi. Tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, bolaning yashashi va tarbiyasi uchun yetarli sharoitni ikki tomon ham yaratib bera olmaydi, 10 yoshga to'lgan bola esa onasiga qaytishga qattiq qarshilik qiladi. Sudda prokuror fikri va vasiy xulosasiga ko'ra, ikkala taraf da'vosini qaytarish va bolani internatga joylashtirish, internat to'lovlarini ona hisobidan undirish to'g'risida qaror chiqaradi¹.

O'z-o'zidan ota-ona va bola alohida yashasa vasiy tayinlanadimi, degan savol tug'iladi. Birinchidan, shuni e'tiborga olish

¹ Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanlararo fuqarolik sudining arxividan. 2002-yil 10-sentabr.

kerakki, ota-ona va bola alohida yashashi ular ota-onalik vazifalarini bajarmayapti, degani emas. To'g'ri, tarbiyalovchilar tarbiyalanuvchi bilan shaxsiy muloqotda bo'lishi va bolaning harakatlarini kuzatib turishi orqali umumiy holatda tarbiya amalga oshiriladi. Ammo ayrim hollarda katta yoshdagi bolalar ota-onasidan alohida yashasa, vasiy tayinlanishi shart emas. Masalan, 16 — 17 yoshga to'lgan o'smir ishga yoki kollejga joylashsa, unga nisbatan vasiy tayinlanishi mumkin emas. Ammo ushbu holatda o'smirda umuman ota-ona yo'q bo'lsa, homiy tayinlanishi kerak.

Ushbu qoida ma'lum shartlarda xohlagan yoshdagi bolaga tatbiq qilinishi mumkin. Masalan, ota-ona geolog bo'lib, davomli ekspeditsiyaga ketadi va bolasini bobo-buvisiga qoldirib ketadi. Bu holatda vasiy yoki homiy tayinlash rasmiy bo'lib, bolaga nisbatan munosabatni o'zgartirmaydi. Ko'pchilik shunday hollarda ota-ona va bolaning alohida yashashidan bola ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligi kelib chiqmaydi. Bunda vasiylik organlari tomonidan vasiy yoki homiy tayinlanmasligi ham mumkin bo'ladi. Ushbu holatda farzand yetarli sharoitlarda, ota-onalar ota-onalik huquqlarini amalga oshirib tursalar, ota-onaning alohida yashashlari uzoq muddat davom etsagina bolaga nisbatan vasiy tayinlanishiga yo'l qo'yiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bunday oilalarni doimo nazoratga olib turish lozim. Qonunchilikda vasiy tayinlanmasdan turib bolaning alohida yashash muddati ham belgilangan. Umumiy qoidaga ko'ra, ushbu muddat 6 oydan oshmasligi kerak. Shu muddatdan uzoq vaqtga ota-ona bolasini qarovsiz qoldirsagina uning voyaga yetmagan farzandi uchun ma'lum bir muddatga vasiy tayinlanishi mumkin.

Ikkinchidan, qonunchilikda alohida yashash sabablariga e'tibor qaratilmog'i darkor. Ko'pgina holatlarda bu obyektiv sabablarga bog'liq bo'lishi ham mumkin. Masalan, uzoq muddatga komandirovkaga ketish, uzoq muddatga kasalxonaga joylashish va boshqalar. Ushbu hollarda voyaga yetmagan bolalar uchun vasiy tayinlanishi majburiy hol bo'lib hisoblanadi. Ota-onaning

qayerdaligi haqida ma'lumot bo'lmasa ham bolaga, albatta, vasiy tayinlanishi lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, obyektiv sabablar bilan birga, subyektiv sabablarga ko'ra ham ota-ona boladan alohida yashashlari mumkin. Ushbu holat bo'yicha Vasiylik va homiylik to'g'risidagi Nizomda «ota-ona bilan bolani boshqa oilada yashashi yaxshi deb o'ylab boshqa oilaga tarbiyaga berilishi mumkin» deyilgan. Ushbu holatlar bo'yicha bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan shaxslar vasiyligi (homiyligi) rasmiylashtirilib qo'yilishi kerak. Ota-onalar bolalarni shaxsan o'zlari boqish huquqiga egalar, ammo bu huquq bir holatda majburiyat ham hisoblanadi. Bu huquqni o'zlari ixtiyoriy ravishda boshqa shaxslarga berishlari ham mumkin, lekin buni majburiyat sifatida rad eta olmaydilar.

Ota-onalar o'zlarining bolalariga vasiy tayinlanishini so'rab vasiylik va homiylik organlariga murojaat qilishlari mumkin. Lekin buni talab qila olmaydilar.

Agar ota-onalar muomalaga layoqatli bo'lib, ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan bo'lsalar va bu holatda obyektiv to'sqinliklar bolani tarbiyalashga xalaqit bermasa, vasiylik va homiylik organlari oldida ota-onani bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga majbur qilish masalasi qo'yiladi. Ammo masalaning bir tomoni, agar ota-ona bolani tarbiyalashga qarshi bo'lsa-yu, lekin ularga bola tarbiyasi majbur qilib belgilansa, bolaning normal hayot tarzi uchun yetarli sharoitlar yaratiladimi, degan tabiiy savol tug'iladi. Ushbu holat ham qonunchiligimizda batafsilroq yoritib qo'yilsa, bola manfaatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi.

Oila huquqining asosiy tamoyillaridan biri ota-onalik huquqining himoya qilinishidir. Chunonchi, ota-onalar o'z bolalari haqida g'amxo'rlik qilishlari, ularga ta'lim-tarbiya berishlari zarur. Ota-onalarning voyaga yetmagan bolalariga nisbatan mas'uliyati yanada ham yuqori bo'lishi nafaqat ularning qiziqishida, balki davlatning ham majburiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Aksari yuridik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, voyaga yetmagan bolaning tarbiyasi uchun ona mas'ul bo'lib hisoblanadi. Amalda

bo'lgan qonunchiligimiz bolaga tarbiya berishda ota yoki onaga kengroq imkoniyat yaratib bermaydi. Aksincha, ular voyaga yetmagan bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlarini amalga oshirishda teng huquqqa ega ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan. Shunday vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, ish sud tartibida ko'rilib, asosli xulosalarga binoan, bolaning manfaatlaridan kelib chiqib nizo hal qilinadi¹, deb ta'kidlaydi Y.E. Pesin.

Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda. Oila kodeksining 79-moddasida ota-ona (ulardan biri) ni ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

— ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi²da tushuntirilishicha, ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik, ota-onalik burchlarini uzluksiz ravishda bajarmaslik o'z bolalariga qanday bo'lmasin g'amxo'rlik qilmasliklarini anglatadi. Tabiiyki, bunday harakat (harakatsizlik) bolani halokatga olib kelishi mumkin;

— uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa. Bu holat «tug'uruqxona va bolalarni davolash profilaktoriysi va o'quv-tarbiya muassasasi komissiyalari tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim»³. Oila huquqining umumiy asoslaridan kelib chiqib, ota-onaning roziligisiz voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi. Asosiy maqsad bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratiladi. Chunki yangi

¹ *Песин Я.Е.* Семейно-правовые и процессуальные гарантии прав женщин в СССР. — Алма-Ата: 1972. Автореф. дисс. на соискание уч. степени д.ю.н. С. 25.

² «Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori //Qonun nomi bilan. 1998. №3. 34-b.

³ O'sha manba.

oilada ota-ona bolaning qonuniy vakillari, vasiy (homiylar)i, farzandlikka oluvchi shaxslar hisoblanadilar¹;

— ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatasa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa. Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilish deganda, bu huquqlardan bolalarning manfaatlariga zid ravishda foydalanishni, masalan, o'qishga, jamoat topshiriqlarini bajarishga to'sqinlik qilishni, tilanchilikka undashni, uni spirtli ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qilishga o'rgatish, jinoyat qilishda, jinoiy yo'l bilan daromad topishda voyaga yetmaganni jalb qilishni tushunmoq kerak, deyiladi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida;

— muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsa. Bunday asos bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilish javobgarning muomalaga layoqati cheklangan deb tanilganidan qat'i nazar amalga oshirilishi mumkin;

— o'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini) ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqining cheklanishi sud tomonidan bolaning manfaatlari hisobga olingan holda, ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilinmay turib, bola ota-onadan yoki ularning biridan olinishi to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilishi bilan amalga oshiriladi. Oila qonunchiligiga binoan, agar ota-ona ota-onalik huquqi cheklangandan so'ng o'z xulq-atvorini o'zgartirmasa, vasiylik va homiylik organi sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida da'vo taqdim etadi.

Ota-onasi kasal bo'lganda. Ushbu sabab ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lishning obyektiv sababi hisoblanadi (ota-ona vafoti, ozodlikdan mahrum qilish kabi). Og'ir dardga chalingan ota-ona farzandining tarbiyasi bilan shug'ullanishga imkon topmagach, bolaning hayoti, sog'lig'i uchun xavf tug'ila boshlaydi. «Bunday hollarda vasiylik va homiylik organi bolaning ota-onasi

¹ Худаяров Б.Т. Защита прав и интересов детей по семейному праву Республики Таджикистан. Автореф. на соиск. уч. степ. д.ю.н. Душанбе: 2000. С. 21.

tomonidan ko'rsatilgan shaxsni vasiy yoki homiy etib tayinlashi lozim»¹ bo'ladi deb ta'kidlaydi M.V.Antokolskaya. Bu fikrga qo'shilgan holda, shuni ham aytib o'tmoqchimizki, kasal bo'lib qolgan ota-ona jismonan bolasiga g'amxo'rlik qila olmaydi. Boshqa jihatdan esa, o'z harakatlari oqibatlarini to'liq anglab yetadi va kimlar farzandiga munosib tarbiya bera olishini biladi.

Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda. Bunday hollarda ota-onaning o'ziga homiylik tayinlanishi lozim bo'ladi. Bolalar ota-onalaridan olinib, vasiylik va homiylik organining qaramog'iga topshiriladi, chunki ota-ona ixtiyorida qoldirish bola uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Ota-onasi olti oydan ortiq muddat bo'lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlar uchun zarur bo'lsa amalga oshirilishi mumkin. «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bola o'z ota-onasi bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga egadir. Ammo hayotda ba'zi sabablarga ko'ra bola ota-onasi g'amxo'rligidan ma'lum muddatga mahrum bo'lib qolishi mumkin. Odatda, vasiylik va homiylik qisqa muddatga emas, balki bola ma'lum yoshga yetgunga qadar tayinlanadi. Ushbu holat umumiy qoidadan mustasno bo'lib, bolaga nisbatan qisqa muddatga uning ota-onasi qaytguniga qadar muddatga vasiy va homiy tayinlanishini nazarda tutadi. Lekin ota-ona bolalarini qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari ixtiyoriga qoldirsalar, bolalarga vasiylik yoki homiylik tayinlash shart emas.

Ota-onasi bedarak yo'qolganda. Bedarak yo'qolgan deb topish instituti ham fuqarolik huquqi sohasining o'rganish predmetiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33-moddasiga binoan, agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin. Bu yerda «bir yil» muddatning belgilanishi ushbu holat yuzasidan oqilona muddat hisoblanadi. Zero, Fuqarolik kodeksining

¹ Антокольская М.В. Семейное право. — М.: Юрист, 2000. С. 307.

9-moddasida «halollik, oqilonalik va adolat» bilan harakat qilinishi nazarda tutiladi. «Yashash joyi» tushunchasi ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda jiddiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga ko‘ra, «fuqaroning doimiy yoki asosiy yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi. O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi». Yashash joyi huquq va muomalaga layoqatli fuqarolarning o‘zi tomonidan belgilanadi. Yashash joyini tanlash huquqi faqat qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdagina, masalan, ozodlikdan mahrum qilingan hollarda maxsus ijozat olish yo‘li bilan joylashish mumkin bo‘lgan hududlarda cheklanishi mumkin, deyishadi sivilist olimlar¹. Manfaatdor shaxslar kimlar bo‘lishi mumkin? Manfaatdor shaxslar bedarak yo‘qolgan deb gumon qilinayotgan shaxsning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari, vasiylari yoki kreditorlari bo‘lishi mumkin. Sir emaski, so‘nggi paytlarda firibgar fuqarolar juda ko‘p uchramoqda. Ayniqsa, ular tomonidan ko‘plab fuqarolarning sarmoyalari olinib, evaziga muayyan vaqtdan keyin allaqanday pul summolari yoki qandaydir buyum yoki avtomobil va‘da qilinib, «muayyan vaqt» kelganda esa, «ul zot»ni topib bo‘lmaydi. Oradan bir qancha oylar, hatto yillar o‘tadi. Darhaqiqat, qonunchilik bunday beqarorlikka befarq qarab tura olmaydi. Ular ana shunday fuqarolik-huquqiy vositalar bilan tartibga solinadi². Mazkur munosabatlarni ko‘rib, mazmunan hal qilish mamlakatimizda sud vakolatiga tegishlidir. Ushbu turkumdagi ishlarni ko‘rish alohida tartibda ko‘riladigan ishlar sirasiga kiradi³. Bolalarning oilalarda tarbiyalanishining katta ahamiyatga ega

¹ Zokirov I., Oqyulov O., Baratov M. Fuqarolik huquqi: savollar va javoblar. T.: TDYI, 2003. 39-b.

² Zokirov I., Baratov M. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va muomala layoqati. —T.: Adolat, 1998. 36-b.

³ Shorahmetov Sh. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. —T.: Adolat, 2001. 339—341-b.

ekanligi tufayli tarbiya berishning farzandlikka olish va vasiylik (homiylilik) tayinlash shakllari keng tarqalgan. Biroq farzandlikka olish uchun bir necha shartlar mavjud bo'lganligi bois, uni amalga oshirish murakkabroq kechadi. Ba'zi hollarda esa (ota-onalarning vaqtincha boladan uzoqda bo'lishi) bolalarni joylashtirishning bunday shaklini tanlash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bolalar tarbiyasi uchun qonun yoki maxsus hujjat bilan mas'ul shaxs bo'lishi talab qilinadi ekan, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hamda hali bolalar muassasalariga joylashtirilmagan bolalarga vasiy (homiylilik) tayinlanishi lozim bo'ladi. Vasiy (homiylilik) tayinlanishi bilan ushbu shaxsga bola tarbiyasi bo'yicha huquq va majburiyatlar beriladi. Ko'rinib turganidek, vasiylik (homiylilik) bolalarni oilada tarbiyalashning eng qulay shaklidir. Ba'zan esa bolani vasiylik (homiylilik)ka olgan shaxslar bilan bola o'rtasida juda yaqin munosabatlar paydo bo'lib, vasiy (homiylilik) bolani farzandlikka olgan hollar ham uchraydi.

Ota-onaning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga to'lanadigan alimentlarni undirishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Ayrim sabablarga ko'ra ota-onalarga ota-onalik huquqlarini amalga oshirishlari chegaralab qo'yilishi mumkin. Lekin qonun nuqtayi nazaridan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onalar voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash majburiyatini saqlab qoladilar.

Ota-onalarning har ikkalasi ham ota-onalik huquqidan mahrum qilinsalar, voyaga yetmagan bolalar vasiylik va homiylilik organiga beriladi. Ota-onasiz qolgan voyaga yetmagan bolalarga to'lanadigan aliment ularning vasiy yoki homiylariga, oilaga qabul qilingan ota-onalariga to'lanadi¹.

Demak, ota-ona o'z bolasiga tarbiya berish kabi vazifasini bajara olmasa yoki bajarmasa vasiylik va homiylilik organlari bu bolaga nisbatan vasiylik (homiylilik) belgilab, uning oilada tarbiyalanishini ta'minlab berishi lozim.

¹ Логунов Д.А. Взыскание алиментов. Взыскание алиментов на детей, оставшихся без попечения родителей //Юридический мир. 2000. №2. С. 58 — 59.

Vasiylik va homiylik fuqarolik huquqi instituti sifatida namoyon bo'lganda ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zan fuqarolik-huquqiy munosabatida ishtirok etishi lozim bo'lgan ayrim fuqarolar to'la muomala layoqati yoshiga yetgan bo'lsalar-da, o'zlarida mavjud bo'lgan ba'zi bir aqliy va ruhiy kamchiliklar tufayli muomalaga layoqatsiz bo'ladilar. Shuning uchun bunday shaxslar fuqarolik-huquqiy munosabatda ishtirok etadigan bo'lsalar, o'zlarining xatti-harakatlarini lozim darajada yurita olmaydilar, chunki ular normal harakat qila olmaydilar, o'z ishlari yuzasidan munosib hisob bera olmaydilar, shuningdek, manfaatlariga ziyon yetkazilayotganligini anglay olmaydilar. Bunday hollarda ularga nisbatan boshqalarning g'amxo'rlik qilishi kerak bo'ladi. Bunday fuqarolar ustidan tegishli nazorat olib borish, ularga yordam berish va vasiylik qilish uchun maxsus kishilar hamda muassasalar jalb qilinadi.

Sistematik ravishda ichkilikka berilish va giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish tufayli o'ziga qarashli mulkni behuda isrof qiluvchi va oila a'zolarini tirikchilik mablag'laridan mahrum etuvchi shaxsning muomala layoqati sud tartibida cheklanishi mumkin. Ularga nisbatan homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni o'zi mustaqil tuzishga haqli bo'lib, boshqa barcha mulkiy xarakterdagi bitimlarni tuzish, shu jumladan, ish haqini ham tasarruf etish uchun homiysining roziligini olishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxslarning qonuniy vakillari bo'lib birinchi navbatda ota-onalari va farzandlikka oluvchilari, vasiylari va homiylari bo'lishi mumkin. Farzandlikka oluvchilari, vasiylikka va tarbiyaga olgan ota-onalari to'la muomala layoqatiga ega bo'lishlari qonun asosida talab qilinadi. Bolani ota-onasidan olib qo'yish, ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish va boshqa holatlar bolaning uy-joyga nisbatan bo'lgan mulk huquqini bekor qilmaydi. Ota-onaning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolaning yashash joyi vasiylik va homiylik organi orqali hal qilinadi¹.

¹ Бескалов Ю. Определение места жительства ребенка // Российская юстиция. 2000. №2. С. 28 — 29.

Homiy tayinlashda homiylikka oluvchining xohishini e'tiborga olish shart¹. Vasiy tayinlashda esa vasiylikka oluvchining roziligi talab qilinmaydi, agar ular o'z xohishini erkin ifoda eta olmasalar (kichik yoshdagilar, muomalaga layoqatsiz shaxslar). Shuni alohida ko'rsatish lozimki, 10 yoshga to'lgan bolaga vasiy tayinlanayotganda uning roziligi olinishi lozim deb hisoblaymiz.

Vasiylik yoki homiylikni belgilash tartibi ham amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizomga binoan, vasiylik va homiylik vasiy yoki homiy tayinlashga muhtoj bo'lgan shaxs yashayotgan joydagi tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiy yoki homiy bo'lishni istovchi shaxslar vasiylik (homiylik) ka olishni rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

— vasiylikka yoki homiylikka oluvchilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan beri turganligi va ularning birga yoki alohida yashashi, oilada farzandlar bo'lsa, ularning soni va yoshi, vasiylik (homiylik)ka oluvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, shuningdek, vasiylik yoki homiylikka olish asoslari ko'rsatilgan ariza;

— shaxsni tasdiqlovchi hujjat;

— turar joyidan oila a'zolari ko'rsatilgan ma'lumotlar;

— nikoh guvohnomasi (nikohdan ajralganlik guvohnomasi) nusxasi;

— ish joyidan ish haqi ko'rsatilgan ma'lumotnoma;

— ish joyi yoki turar joyidan tavsifnoma;

— vasiy yoki homiy bo'lishni istovchi shaxslarning sog'lig'i to'g'risidagi tibbiy maslahat komissiyasining xulosasi, ruhiy va narkologik muassasalari, teri-tanosil dispanserini ma'lumotnomalari.

Vasiylik va homiylik organi esa, o'z navbatida, vasiylik (homiylik)ka berilayotgan shaxs to'g'risida quyidagi hujjatlarni tayyorlaydi:

¹ *Mualliflar jamoasi*. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari. Ommabop yuridik ma'lumotnoma. —T.: O'zbekiston, 2000. 323-b.

— tug'ilganlik haqidagi guvohnoma nusxasi;

— ota-onasining o'limi haqidagi guvohnomalar nusxasi yoki ota-onasining (ulardan birining) ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi haqida sud qarori;

— ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdan va ta'minotidan bo'yin tovlaganligi haqidagi hujjatlar, ichki ishlar, davolash muassasalari va shunga o'xshash boshqa muassasalarning bolalar ota-onasiz qolganliklari to'g'risidagi dalolatnomalari;

— salomatligi to'g'risida tibbiy muassasaning xulosasi;

— vasiylik yoki homiylik belgilanayotgan shaxsning turar joyi, mol-mulki to'g'risidagi ma'lumotnoma;

— vasiylik va homiylik organining bolani vasiylik yoki homiylikka olishni xohlayotgan oilaning maishiy turmush sharoitlari, oila a'zolarining salomatligi va oilaning boshqa sharoitlari to'g'risidagi tekshiruv dalolatnomasi.

Oila kodeksining 177-moddasiga ko'ra, bolaning ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan ota-onasi bo'lib, vasiylik va homiylik organlari uning:

— ota-ona tarbiyasida qolishi bola manfaatlariga javob bermasligini;

— hayoti va sog'lig'i uchun bevosita xavf borligini aniqlasa, unga vasiy yoki homiy tayinlaydi. Ushbu moddada bolani ota-ona ixtiyoridan favqulodda hollarda olib qo'yish asoslari ko'rsatilgan¹. Bunday hollarda bola fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining tegishli hujjati asosida zudlik bilan ota-onasidan yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan olib qo'yiladi. Ya'ni bunday vaziyatlarda vasiy yoki homiy tayinlash uchun bir oylik muddatni qisqartirish mumkin.

Ma'lumki, fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish hamda muomala layoqatini cheklash sud qarori asosida amalga oshiriladi.

¹ Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. —T.: Adolat, 2000. 329-b.

Shuningdek, bunday shaxslarga kimlar vasiy (homiyl) etib tayinlanishi sud muzokarasi o'tkazilayotgan paytda hal etiladi. Masalan, fuqaro S.D. 1997-yil 23-noyabr kuni sudga o'z onasi S.E. 1996-yildan beri bir necha marta ruhiy-asab kasalliklari shifoxonasida davolanganligini va u surunkali ruhiy kasallikka duchor bo'lganligi to'g'risida ariza berib, onasiga akasini yoki o'zini vasiy qilib tayinlashni so'raydi. «Sud fuqaro S.E.ni muomalaga layoqatsiz deb topib, unga vasiy qilib o'zining o'g'li S.D.ni tayinlash haqida qaror chiqaradi»¹.

Vasiylik (homiyl) belgilanishi lozim bo'lgan O'zbekiston fuqarosi chet elda istiqomat qilayotganda yoki chet el fuqarosi yoxud fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekistonda yashab turgan vaqtda unga vasiylik (homiyl) belgilashga asoslar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda, ya'ni vasiylik va homiyl munosabatlari chet el elementi bilan murakkablashganda, xalqaro xususiy huquq me'yorlari tatbiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1168-moddasiga ko'ra jismoniy shaxs qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lsa, shu mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi; fuqaroligi bo'lmagan shaxs qaysi mamlakatda doimiy yashab turgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. O'zbekiston hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari — muomalaga layoqatsizlar yoki muomala layoqati cheklangan voyaga yetgan shaxslar qaysi mamlakatda yashab turgan bo'lsa, o'sha davlatning tegishli qonunlariga binoan sud tomonidan vasiylik yoki homiyl tayinlanadi. Bu haqda FKning 1174-moddasida shunday deyilgan: voyaga yetmaganlar, muomalaga layoqatsizlar yoki muomala layoqati cheklangan voyaga yetgan shaxslar ustidan vasiylik (homiyl) sud qaysi mamlakatga tegishli bo'lsa, o'sha mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi va bekor qilinadi.

Bunda farzandlarga va «Vasiylik va homiyl to'g'risida»gi Nizomning «v» bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslarga pensiya ular

¹ Zokirov I., Baratov M. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va muomala layoqati. — T.: Adolat, 1998. 35-b.

boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganligidan qat'i nazar tayinlanadi. Marhum qaramog'ida turgan deb hisoblash uchun ushbu oila a'zolarining marhumning to'liq boquvida bo'lishi yoki undan yordam olib turgan bo'lishi hamda asosiy kun kechirish mablag'ining bo'lishi lozim. Shunisi e'tiborliki, o'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar;

— ota-onalar yoki boshqa yaqin qarindoshlaridan olinadigan alimentlari;

— sug'urta tashkilotlari tomonidan vafot etgan shaxsning merosxo'riga to'lanadigan sug'urta pullari (agar sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa).

Bunda shaxsiy sug'urta shartnomasi qo'llanilishi mumkin. Ushbu shartnoma bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqt-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi (FKning 921-modda 1-qismi);

— vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga tegishli mulk yoki mulkdan keladigan daromadlari. Masalan, bunday shaxslarning mulki ijaraga berilganda yoki pul mablag'larining bank muassasalariga omonat saqlash shartnomasi bo'yicha topshirilishi oqibatida olinadigan daromadlari va boshqalar kiradi;

— vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning stipendiya yoki ish haqlari;

— turli muassasa, tashkilot va xayriya jamg'armalaridan xayriya tariqasida oladigan va boshqa mablag'lari hisobiga qoplanadi.

Shu bilan birga, vasiy (homiy) bu mablag'larning oqilona sarflanishini ta'minlashi shart.

Vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning mablag'i bo'lmaganda yoki mavjud mablag'lari o'zining ta'minoti uchun yetarli bo'lmagan hollarda vasiylik va homiylik organi ushbu mablag'larni qoplaydi.

Nazorat savollari

1. Bolalar qachon ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan hisoblanadilar?
2. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslarni aniqlash va joylashtirish shakllariga nimalar kiradi?
3. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini qaysi organ himoya qiladi?
4. «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiya qachon va qayerda qabul qilingan?

13-BOB. FARZANDLIKKA OLISH

1-§. Farzandlikka olish tushunchasi va uning huquqiy tabiati

Farzandlikka olish haqida siz qayerdadir, kimdandir eshitgan bo'lishingiz kerak. Darhaqiqat, bugungi kishilik jamiyatiga hamji-hatlik, jipslik, oqillik, insof va adolat xosdir. Ushbu ma'naviy-axloqiy negizlar bilan inson boshqa mavjudotlardan keskin farq qiladi. Shuningdek, unda aql-idrok, tafakkur bor. Shu ma'noda olganda, farzandlikka olish haqida so'z ketganda, albatta, davlat va jamiyat erishgan yutuqlar va milliy manfaatlar, xususan, oila va bolalar manfaatlaridan kelib chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hisoblanib, ushbu holatni qayd etish fuqarolik holati hujjatlarini yozish (FHDY) organlariga topshirilgandi. Mazkur kodeksga 1998-yil 25-dekabrda kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, farzandlikka olish alohida turdagi fuqarolik holati hujjatlari sirasidan chiqarilib, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralish kabi fuqarolik holati hujjatlarida ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan ifodalanishi belgilandi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va yetim bolalar, ayni vaqtda faqat voyaga yetmagan bolalarnigina ularning manfaatlarini ko'zlab farzandlikka olinadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan hamda vasiylik va homiylik organi (xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot bo'limlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari — vasiylik va homiylik organlaridir) tavsiyasiga ko'ra tuman (shahar) hokimi qarori bilan rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli Qarori bilan

tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidolari»da belgilanishicha, FHDY organi qabul qilingan hujjatlar asosida tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartishlarni kiritadi va tug'ilganlik haqida yangi guvohnoma beradi. Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilishi qayd etilgan daftarga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lmagan farq bilan o'zgartirilishi mumkin. Agar bola o'n yoshdan oshmagan bo'lsa, tug'ilgan joyi ham O'zbekiston Respublikasi doirasida o'zgartirilishi mumkin.

Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Quyidagi shaxslar farzandlikka oluvchilar bo'lmaydilar:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

- qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganlar;

- asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;

- farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;

- qasddan sodir qilingan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar.

Qonun o'gay ota va o'gay ona tomonidan farzandlikka olish hollaridan tashqari holatlarda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o'n besh yoshdan kam bo'lmasligini shart qilib qo'yadi¹.

Farzandlikka olinuvchining qarindoshlari, farzandlikka olinuvchi oilasida yashayotgan shaxs, aka-uka, opa-singillarni ular o'rtasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar, o'gay ota va o'gay ona, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan

¹ Otaxo'jayev F.M. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. — T.:TDYI, 2005. 279-b.

ajralgan shaxslar farzandlikka olishda ustunlik huquqiga egadirlar. Qoida tariqasida, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi. Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi. Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, bunday hollarda xotin (er)ning roziligi ham talab etiladi. Shuningdek, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi ham talab etiladi. Ammo quyidagi hollarda ota-onaning roziligisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi:

- ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;
- ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi. Ayni vaqtda farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (shuningdek, qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

10 yoshga to'lishi bilan bola bo'layotgan ishga o'z erkini ongli ravishda izhor qilishi mumkin. Bu maqsadlarni nazarda tutib, vasiylik va homiylik organlarining vazifasi tushunarli asosda farzandlikka olishning mohiyatini va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni: bola va farzandlikka oluvchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, ularning qarindoshlari, ota-onalari (akakalari, opa-singillari va bobo-buvilari) o'rtasidagi munosabatlarning tugallanishi; familiya, ota ismini, ota-onalar to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni o'zgartirishdan iborat.

Farzandlikka oluvchining shaxsiyati to'g'risida bola shaxsan xabardor bo'lishi kerak.

Oila kodeksining 156-moddasiga muvofiq, agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa va ularni o'z ota-onasi deb e'tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligisiz amalga oshirilishi mumkin.

Bu qoida bolani kutilmagan his-tuyg'u va ruhiy ta'sirlardan xoli qilib, farzandlikka olinayotganning tug'ishgan o'g'il (qiz) sifatida o'sayotganligiga ta'sir etadi.

Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinmayotgan bo'lsa, bunga xotin (er)ning roziligi talab etiladi (Oila kodeksining 157-moddasi 1-bandi). Ko'pincha, amaliyotda er-xotinlarning ikkalovlari tomonidan bolalar farzandlikka olinadi.

Farzandlikka oluvchilar o'z zimmalaridagi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajar-mayotgan bo'lsalar, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lsalar, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, farzandlikka olish bekor qilinadi.

Shuni ham eslatish o'rinliki, farzandlikka olish fuqarolarning mutlaq erki hisoblanib, farzandlikka olishga majbur qilinmaydi. Shuningdek, farzandlikka olish sirini oshkor qilish tegishli ra-vishda jinoyat qonunchiligi bilan ta'qib qilinadi.

Nazorat savollari

1. Farzandlikka olish tushunchasi va ahamiyati.
2. Farzandlikka olishda ustun bo'lgan shaxslar kimlar?
3. Farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinayotgan voyaga yetmagan bolalar o'rtasidagi farq necha yoshdan kam bo'lmashligi lozim?
4. Farzandlikka olish qachon va qaysi organ tomonidan haqiqiy emas deb topiladi?

14-BOB. VASIYLIK VA HOMIYLIK

1-§. Vasiylik va homiylik tushunchasi, uni qo'llash tartibi

Vasiylik va homiylik fuqarolarga ularni ta'minlash, tarbiyalash, ta'lim berish maqsadida, shuningdek, ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanar ekan, vasiy va homiylarning huquqlari mana shu vazifalardan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 173-moddasiga binoan, vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan — xalq ta'limi bo'limlariga, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan — sog'liqni saqlash bo'limlariga, sog'lig'ining yomonligi sababli homiy tayinlashga muhtoj muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan — ijtimoiy ta'minot bo'limlariga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 181-modda 4-qismida vasiy va homiylarning huquqlari bayon etilgan. Vasiy (homiy) lar o'z vasiyligi (homiyli) dagi bolaga nisbatan ota-onalik huquqini amalga oshiradilar. Vasiy (homiy) lar huquqlarining ota-onalarnikidan farqi faqat ularning torroq hajmdaligi hamda vasiylik va homiylik organlarining nisbatan qattiqroq nazoratiga olinganligidadir¹. Shu sababli ham ular o'z qaramog'idagi

¹ Антокольская М.В. Семейное право. —М.: Юрист, 2000. С. 309.

bolani tarbiyalash hamda tarbiyalash usulini mustaqil ravishda belgilashga haqli bo'ladilar, ya'ni vasiy (homiy)lar bolani qanday o'quv muassasasiga joylashtirish, qayerda dam olishi va shu kabilarni o'zlari hal qiladilar. Ma'lumki, qonunchiligimizda tarbiya berishning aniq shakllari ko'rsatilmagan bo'lib, ularning ifodasi bolalarning ma'naviy kamol topishida, ularning shaxs sifatida shakllanishida, jamiyatdagi o'rni va boshqalarda ko'rinadi. Ammo tarbiya usulini tanlashda bolaning fikri hamda vasiylik va homiylik organining tavsiyalari e'tiborga olinishi lozim. Bolaning fikrini e'tiborga olishda uning yoshining ahamiyati yo'q, muhimi, bola o'z fikrini erkin ifodalay olsin. Vasiylik va homiylik organining fikri ko'proq tavsiyaviy shaklda bo'lib, bolani tarbiyalashning maqbul usullarini tanlashga yordam beradi.

Oila kodeksining 181-modda 4-qismi 2-bandiga ko'ra, vasiy (homiy) o'z qaramog'idagi bolani qonuniy asoslar bo'lmay turib, o'zida saqlab turgan har qanday shaxslardan, shu jumladan, bolaning yaqin qarindoshlaridan sud tartibida qaytarib berishni talab qilishga haqli. Vasiy (homiy)lar o'z majburiyatlarini shaxsan amalga oshirishi lozimligi sababli, ular bu huquqdan o'z vasiylik (homiylik) muddati tugagunga qadar foydalanishlari mumkin.

Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga binoan, voyaga yetmagan bolalar nafaqat shaxsiy huquqlarga, balki mulkiy huquq va majburiyatlarga ega ekanliklari ham belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilanishicha, ota-ona va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida mulkiy chegaralar o'rnatilgan. Shu bilan birgalikda, bola ota-onasi tirikligi vaqtida uning mulkiga nisbatan mulkdor bo'la olmasligi va, o'z navbatida, ota-ona bolaning mulkiga nisbatan ham mulkdor bo'la olmasliklari belgilab qo'yilgan. Lekin oilaning boshqa a'zolari (aka-ukalar, opa-singillar va boshqalar) bilan munosabatlari berilmagan. Ota-ona va bolalar o'rtasida bir-birlarining mulkiga egalik qilish va foydalanish o'zaro rozilik bilan amalga oshiriladi. Fuqarolik kodeksida belgilanishicha, olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirish huquqiga ega ekanliklari ko'rsatilgan. Ya'ni:

- mayda maishiy bitimlar tuzishga;
- tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni;
- qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxslar tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar¹ni vasiy yoki homiysining rozilgisiz amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Barcha turdagi boshqa bitim va shartnomalarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari, vasiy yoki homiylari tuzadilar. Aksari hollarda, qonunda belgilanganidek, voyaga yetmagan bolalarning nomidan ota-onalarining shartnomalar tuzishlari uchun vasiylik va homiylik organining roziligi talab qilinadi. Ammo rozilik bo'lishi bilan birgalikda boshqa hollarga ham e'tibor qaratiladi. Vasiylik va homiylik organining roziligi bo'lsa ham bola mulkiy zarar yetkazsa, shartnoma haqiqiy emas deb topilishi mumkin².

Kichik yoshdagi bolalar yetkazgan zararlari uchun javob bermaydilar. Shu bilan birgalikda, ular o'zlari tuzgan shartnomalar uchun ham javobgar bo'lmaydilar. Bular yuzasidan javobgarlik ota-ona, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylar zimmasida bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar o'z ayblari yo'qligini isbotlay olsalar, bu yerda hech kim javobgar bo'lib hisoblanmaydi³.

Voyaga yetmaganlar tuza oladigan bitimlardan boshqa bitim va shartnomalar ota-ona roziligi bilan tuzilishi mumkin. Ammo ayrim bitimlarni tuzish uchun ota-onalar roziligi vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Masalan, mulkni ayirboshlash yoki hadya qilish, ijaraga berish, tekin foydalanish va garovga qo'yish, mulkni bo'lish yoki boshqa mulk bilan bog'liq bo'lgan barcha xatti-harakatlar.

¹ *Левушкин А.Н. Правовое регулирование некоторых имущественных прав несовершеннолетних детей по законодательству Российской Федерации //Юрист, 2000. №10. С. 13 — 14.*

² *Бюллетень Верховного суда Российской Федерации. 1998. №2. С. 5.*

³ *Левушкин А.Н. О'sha manba.*

Ota-onaning roziligini talab qilish bola huquq va manfaatlariga rioya qilinishining asosi sifatida qaraladi¹.

Vasiylik va homiylik organi ruxsati ham bitim sifatida tavsif qilinmaydi. Bu o'zini o'zi boshqarish organining haqiqiy bo'lmagan akti hisoblanadi.

Ota-onalar bitim tuzish uchun vasiylik va homiylik organi ruxsat bermasligi bo'yicha, agar:

— qonunga nomuvofiq bo'lsa;

— bolaning fuqarolik huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa sudga murojaat qilishlari mumkin.

Bola mol-mulkleri shakllanishining yana bir manbayi — bu tadbirkorlik faoliyatidir. Ayrim olimlar agar voyaga yetmagan shaxs tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishni 14 yoshdan boshlasa, emansipatsiya qilinishi kerak, deyishadi². Ammo tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish ham o'ziga xos tashkiliy qiyinchiliklardan iborat. Shu ma'noda, bunday tavakkalchilik bilan bog'liq bitimlarni tuzish uchun, o'z navbatida, ota-ona, vasiy yoki homiyni yozma roziligi talab qilinadi. Ular ushbu huquqlari bilan voyaga yetmaganlar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatini kuzatishlari mumkin.

Spirtili ichimliklar yoki narkotik moddalarni iste'mol qilganligi sababli muomala layoqati cheklangan shaxslar ham mustaqil ravishda mayda maishiy bitimlar tuza olishlari mumkinligi Fuqarolik kodeksining 31-moddasida belgilab qo'yilgan³. Bunday shaxslar, shuningdek, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar yirik summadagi oldi-sotdi shartnomalarini faqat homiysi, ota-onalari yoki farzandlikka oluvchilar roziligi bilangina tuza olishlari ko'rsatib qo'yilgan⁴. Fuqarolik kodeksining

¹ *Левушкин А.Н.* Правовое регулирование некоторых имущественных прав несовершеннолетних детей по законодательству Российской Федерации //Юрист, 2003. №10. С. 13–14.

² *Гражданское право. В 2-х томах. Т.1. Учебник./Отв. ред. Суханов Е.А.* —М.: БЕК, 2001. С. 37.

³ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. —T.: Rasmiy nashr, 2003. 17-b.

⁴ *Mualliflar jamoasi.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. —T.: Adolat, 1999. 9-b.

29-moddasi 2-qismi 2-bandiga asosan, olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidir. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar o'zlari mustaqil ravishda hadya qiluvchi va hadya oluvchi sifatida qatnashib, shartnomani o'z stipendiyalari, ish haqlari va qonunda nazarda tutilgan boshqa daromadlari miqdorida tuzishlari mumkin. Lekin ular mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ashyolarni tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Bunday bitimlarni amalga oshirishlari uchun ular o'zlarining qonuniy vakillarining roziliklarini olishlari lozim. Chunki hadya ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi, yashirin daromadlarga ega bo'lishga olib kelishi, pirovardida ularning huquqlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Ayrim shaxslarga hadya shartnomasini tuzishda rad qilish va chegaralash qo'yilgan. Umrhod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasida: mulkni oluvchi fuqaro muomala layoqatiga ega bo'lgan, asraluvchi shaxsni umrhod moddiy ta'minlash, parvarishlash va zarur bo'lgan boshqa yordamlar berib turish majburiyatini bajara oladigan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin. Biroq vasiylar va homiylar o'z nazorati ostidagi shaxslar bilan bunday shartnoma tuza olmasliklari fuqarolik qonunchiligidan ma'lum.

Fuqarolik kodeksining 993-moddasida ko'rsatilganidek, yosh bolalar tomonidan yetkazilgan zarar uchun ularning ota-onalari yoki vasiylari yoxud zarar yetkazilishi paytida mazkur yosh bola qaysi tarbiya muassasasi, o'quv yoki davolanish muassasasi nazoratida bo'lsa, shu tashkilot javobgar bo'ladi. Agar 15 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki vasiylari zarar ularning aybi bilan yetkazilganligini isbotlay olmasalar, bu holda ular o'n besh yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bola tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladilar. O'smirlar, ya'ni o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun ularning homiylari yoki ular ustidan nazorat olib borishga majbur bo'lgan

tashkilotning javobgarligi mavjud. FKning 994-moddasida ko'rsatilishicha, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, voyaga yetmagan o'smirlar o'zi tomonidan yetkazilgan zarar uchun umumiy asoslarda javobgar bo'ladi. Agar yetkazilgan zararni to'lash uchun voyaga yetmagan o'smining yetarli mulki bo'lmasa, zararni to'laligicha yoki uning yetmagan tegishli qismi ota-onalari yoki vasiysi tomonidan, agar ular zarar o'zlarining aybi bilan yetkazilmaganligini isbotlay olmasalar, to'lanishi lozim. Ammo bunday hollarda maktablar, kasalxonalar va shu kabi tashkilotlar javobgarlikka tortilmasligi fuqarolik qonunchiligida belgilab qo'yilgan.

2-§. Vasiylik va homiylik ostida bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari va majburiyatlari

Vasiylik va homiylik nazoratida bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari shaxsiy va mulkiy huquqlarga bo'linadi.

Shaxsiy huquqlariga:

- vasiy (homiy) oilasida tarbiya olish;
- vasiy (homiy) tomonidan g'amxo'rlik olish huquqi;
- vasiy (homiy) bilan birga yashash huquqi. Alohida hollarda, vasiylik va homiylik ostida bo'lgan shaxs 16 yoshga to'lganda, vasiylik va homiylik organlari vasiylik va homiylik ostidagi shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish va tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatmaydi deb hisoblasa, alohida yashashga ruxsat berishi mumkin;

- ota-ona va boshqa qarindoshlar bilan muloqotda bo'lish huquqi, quyidagi holatlarni istisno qilganda, ya'ni ota-ona ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinganda. Agar ota-onalar ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsalar, vasiy va homiyilar ota-ona bilan muloqotda bo'lishlari bola manfaatlariga zid keladi deb hisoblasa, ota-ona bilan ko'rishib turishga yo'l qo'ymasligi mumkin;

- bolaning manfaatlariga tegishli bo'lgan har qanday masala hal qilinayotganda o'zining fikrini bayon qilish huquqi, shu bilan birgalikda, sud yoki ma'muriy tartibda ish yuritilayotgan bo'lsa, ularda qatnashish huquqlari kiradi.

Mulkiy huquqlariga esa quyidagilar kiradi:

- bolalarga beriladigan aliment, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarga nisbatan huquqlar;

- turar joyga nisbatan mulk huquqi yoki turar joydan foydalanish huquqi;

- navbatdan tashqari turar joy olish huquqi vasiy va homiy nazoratiga yetib kelgan, agar ilgari vasiy va homiy nazorati ostida bo'lgan shaxsda turar joyga nisbatan mulk huquqi yoki foydalanish huquqi bo'lmasa;

- vasiylik va homiylik ostidagi shaxslar tomonidan ishlab topilgan, hadyaga olingan, meros tariqasida o'tgan va boshqa mulklarga nisbatan bo'lgan huquq;

- bola egaligida bo'lgan mulkka nisbatan tasarruf etish kabi huquqlar kiradi.

Bolaning ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ularning ota-onalik huquqi cheklangan yoxud ular muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganligi oqibatida bolaga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlangan bo'lsa, ushbu homiy yoki vasiy bolani noqonuniy ushlab turgan ota-onasidan sud orqali talab qilib olishga haqlidir.

Vasiy yoki homiyning qaramog'idagi bola ularning rozilgisiz biron sababga ko'ra bolalar muassasasiga tushib qolgan bo'lsa ham vasiy yoki homiy bolaning qaytarib berilishini sud tartibida talab qilishga haqli.

Oila kodeksining 66-moddasiga ko'ra, vasiylik yoki homiylikdagi bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishib turish huquqiga ega. Bola ota-ona qaramog'idan qanday sabablarga ko'ra mahrum bo'lganidan qat'i nazar o'ziga berilgan huquqni saqlab qoladi. Ammo bunday ko'rishish bola manfaatlariga zid bo'lganda vasiy (homiy) vasiylik va homiylik organiga murojaat qilishi mumkin. Bu boradagi muammolar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal qilinadi.

Oila kodeksining 61-moddasi bilan homiylarga yana bir huquq berilgan. Bu moddaga binoan bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash

to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Oila kodeksining 184-moddasi «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizomda vasiyning vasiylik va homiylik organlarining roziligi bilan qilishi mumkin bo'lgan harakatlari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

- vasiylikdagi shaxs nomidan notarial tartibda tasdiqlanishi lozim bo'lgan bitim (shartnoma) lar tuzish;

- vasiylikdagi shaxsga qarashli bo'lgan mol-mulkni taqsimlash, bir yildan ortiq muddatga garovga qo'yish yoki ijaraga berish;

- vasiylikdagi shaxs nomidan meros va (yoki) hadya olishdan voz kechish. Qonunchiligimizda vasiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasi tuzishga yo'l qo'yilmaydi, deb belgilangan bo'lsa-da, lekin amalda yillar davomida shakllangan odat huquqi normalari asosida vasiylikdagi shaxslar nomidan ijtimoiy ta'minot organlari, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, xayriya tashkilotlari va ko'ngilli jamiyatlar tomonidan huquqiy harakatlar amalga oshiriladi. Amaldagi oila qonunchiligida ana shunday xayrli, milliy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bajarish uchun alohida qoida belgilanishi lozim. Shuningdek, qonunchilikda alohida belgilangan (vasiylikdagi shaxs nomidan hadya shartnomasi tuzish) ushbu harakatning yuqoridagi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi qonunga xilof hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi harakatlar ancha miqdordagi mulkni tasarruf qilish bilan bog'liq va ularning oqibatlari jiddiy bo'lishi mumkin. Shu sababli bunday harakatlar faqat vasiylik organining roziligi bilangina qilinishi mumkin. Turli tushunmovchilik va nizolarning oldini olish maqsadida bunday rozilik yozma shaklda berilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 194-moddasiga ko'ra, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan, tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish tartibi va shartlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish uchun shartnomada ko'rsatilgan voyaga yetmagan bolalar bo'lishi lozim. Vasiy (homiy)lar tutingan ota-onalardan farq qilib, vasiylik va homiylik organlari bilan shartnoma munosabatlarida bo'ladilar.

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish odatiy bolalar uyidan unda bolalarning kam sonligi bilan farq qiladi. Bu esa unda jamoat tarbiyasidan farq qilib oilaviy tarbiyani ta'minlaydi, ota-onalarga bolalar bilan bevosita munosabatda bo'lishi uchun imkon yaratadi.

Nazorat savollari

1. Vasiylik va homiylik tushunchasi, maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Qaysi organlar vasiylik va homiylik organlari bo'lib hisoblanadilar?
3. Kimlarga nisbatan vasiy, kimlarga nisbatan homiy belgilanadi?
4. «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom qachon qabul qilingan?
5. Bolalarni oilaga tarbiyaga berish (patronat) bilan vasiylik va homiylik o'rtasidagi farq nimada namoyon bo'ladi?
6. Bolalar qachon oilaga tarbiyaga beriladilar?
7. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar qachon oilasiga qaytariladi?

15-BOB. BOLALARNI OILAGA TARBIYAGA OLISH (PATRONAT)

1-§. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish tushunchasi va ahamiyati

Yuqoridagi mavzularimizda farzandlikka olish, vasiylik va homiylik masalalari xususida batafsil to'xtalib o'tgan edik. Ushbu mavzuyimizda bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Ma'lumki, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllarini farzandlikka berish, ularga nisbatan vasiylik va homiylik belgilash, shuningdek, tutingan oilaga tarbiyaga olish (patronat) tashkil etadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan voyaga yetmagan bolalarni joylashtirish shakllari o'z mazmun-mohiyati hamda tarbiya berish shakli bo'yicha tubdan farq qiladi.

Oila huquqida bolalarni oilaga tarbiyaga olish patronat deb yuritilib, u O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solinadi. Ushbu Nizom bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) yuridik faktini vujudga keltiruvchi va amalga oshiruvchi maxsus huquqiy asos bo'lib, u ikki bo'lim, o'n olti banddan iboratdir.

Ushbu nizomga ko'ra, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, tarbiya va davolash muassasalari, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ixtiyoriy bo'lib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o'rtasida tuziladigan maxsus shartnoma asosida amalga oshiriladi. Oila kodeksining 195-moddasiga ko'ra, ushbu shartnomada bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shartnomani bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatilishi kerak.

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila a'zolarining sog'lig'i tekshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yo'la kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa, oilaga tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turadi.

Oilaga bolani tarbiyaga olish shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma esa vasiylik va homiylik organlari hamda bolani oilaga olmoqchi bo'lgan tutingan ota-onalar (er-xotinlar, alohida fuqarolar bo'lishi mumkin) o'rtasida tuziladi.

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish uchun shartnomada ko'rsatilgan bolalar voyaga yetmagan bo'lishlari lozim. Vasiy (homiy) lar tutingan ota-onalardan farq qilib, vasiylik va homiylik organlari bilan shartnoma munosabatlarida bo'ladilar¹.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olayotgan tutingan ota-onalar, albatta, voyaga yetgan va muomalaga layoqatli bo'lishlari shart. Shartnoma tuzish vaqtida tutingan ota-onalarning ma'naviy-axloqiy qiyofalari, moddiy-maishiy sharoitlari, yoshi va boshqa sharoitlari hisobga olinadi. Yoshidan qat'i nazar, bolalar shartnoma tuzish vaqtida ishtirok etmaydilar.

Mazkur shartnoma tutingan ota-onaning tashabbusi bilan quyidagi sabablar tufayli muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:

¹ Otaxo'jaye'v F.M. O'zbekiston Respublikasining Oila huquqi.—T.: TDYI, 2005. 225-b.

- kasalligi tufayli;
- oilaviy yoki mulkiy ahvolining o'zgarishi bois;
- bolalar bilan o'zaro bir-birini tushunmaslik kabilar.

Vasiylik va homiylik organining tashabbusi bilan yoki bolalar ota-onalariga qaytarilgan yoinki ular farzandlikka olinganda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

2-§. Oilaga tarbiyaga olingan bolalar va tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatlari

Oila kodeksining 197-moddasiga ko'ra, oilaga tarbiyaga berilgan bolalar quyidagi huquqlarga egadir:

- o'zlariga tegishli bo'lgan aliment, shuningdek, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni olish;
- uy-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki uy-joylardan foydalanish;
- qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy olish.

Shuningdek, oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o'z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ham egadirlar. Oilada bolaning manfaatiga daxldor har qanday masala hal qilinayotganda u o'z fikrini bildirishga haqlidir.

Vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib boradilar.

Oila kodeksining 198-moddasiga ko'ra, voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-ona bo'lishlari mumkin.

Ayni vaqtda quyidagi shaxslar qonunga ko'ra tutingan ota-ona bo'la olmaydilar:

- sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar;
- qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

— ilgari farzandlikka bola olgan, lekin keyinchalik o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlagan yoki ularni lozim darajada bajarmaganlik uchun sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar;

— qasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;

— sog'lig'ining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Oila kodeksiga ko'ra, tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tutingan ota-ona, odatda, tarbiyaga olingan bolaga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.

Mazkur masala oila, ota-onalik va bolalar bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarning nozik qirrasi bo'lib, bunda bolalarni mehr-muhabbat, samimiy insoniy his-tuyg'ular bilan tarbiyalash talab etiladi. Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o'z huquqlaridan g'araz maqsadlarda, o'z tarbiyasidagi bolalarga zarar keltirgan holda foydalansalar, ularni nazoratsiz hamda zarur moddiy yordamsiz qoldirsalar, bunday hollarda vasiylik va homiylik organlari bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo'zg'atishga haqli bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi.
2. Oilaga tarbiyaga olingan bolalar hamda tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
3. Kimlar qonunga ko'ra tutingan ota-ona bo'lolmaydilar?
4. Qanday hollarda bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarni javobgarlikka tortish masalasi qo'zg'atiladi?

16-BOB. FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARINI QAYD ETISH

1-§. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tushunchasi va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgach, uning hayotida muhim tarixiy voqealar, jamiyatning rivojlanishida va davlat qurilishida yangi bosqichga o'tishdan dalolat beruvchi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

1998-yilda Oila kodeksining qabul qilinishi O'zbekistonda oilaga nisbatan davlat tomonidan muntazam va alohida e'tibor berilayotganidan, g'amxo'rlik qilinayotganligidan dalolat beradi. Oilaning mustahkam bo'lishi, uning huquqiy himoya qilinishi, sog'lom avlodning kamol topishi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zamindir.

Fuqarolik holati dalolatnomalari hisoblanadigan hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- tug'ilish;
- nikoh tuzish;
- nikohdan ajratish;
- o'lim.

Shuningdek, otalikni belgilash, farzandlikka olish, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish kabi holatlar ushbu hujjatlarga tegishli o'zgartishlar kiritish orqali rasmiylashtiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalari, asosan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDY) organlarida, fuqarolik yig'inlari va O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi konsullik muassasalarida qayd etiladi. Ushbu organlar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari, Konsullik ustaviga muvofiq amalga oshiradilar.

Ushbu huquqiy hujjatlar orasida Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari muhim ahamiyatga ega. Qoidalarda belgilanishicha, fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik hujjatlar bo'lib, ikki nusxada tuziladi va FHDY organlarida qayd etilgan paytdan boshlab 75 yil mobaynida saqlanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning huquqiy ahamiyati haqida to'xtalib shuni aytish kerakki, kishilarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoyalash, shuningdek, bunda davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olish muhimdir. Fuqarolik holatlari ushbu holat qayd etilgan muayyan guvohnoma berish orqali rasmiylashtiriladi. Deylik, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma bolaning tug'ilganligini, uning ota-onasi kim ekanligini tasdiqlovchi yagona hujjatdir.

Yoki bo'lmasa nikohni qayd etish haqidagi guvohnoma nikohdan o'tuvchi shaxslar o'rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga kelishini ifodalovchi hujjatdir.

Tug'ilganlikni qayd etish ham davlat uchun, ham jamiyat uchun, ham oila uchun muhim ijtimoiy-siyosiy voqelik hisoblanadi. Ushbu qayd orqali yangi tug'ilgan chaqaloq muayyan huquqlarga, yana ham aniqrog'i, huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Tug'ilganlikni qayd etish bola tug'ilgan joydagi yoki ota-onasidan birining doimiy yashash joyidagi FHDY organida amalga oshiriladi. Tug'ilganlik haqidagi ariza bola tug'ilgandan boshlab bir oy ichida berilishi zarur. Ammo belgilangan muddatning o'tib ketganligi ham tug'ilganlikning qayd etilishiga to'sqinlik qila olmaydi. Tug'ilganlikni qayd etish uchun bola tug'ilganligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma, ota-onalarning pasportlari yoki ularning o'mini bosuvchi hujjatlar, nikoh tuzilganligi to'g'risidagi gerbli guvohnoma yoki otalikni belgilash haqidagi ariza taqdim etiladi.

Tibbiyot muassasasi tomonidan beriladigan ma'lumotnomada onaning familiyasi, ismi, ota ismi, yashash joyi, bolaning tug'ilgan vaqti va sanasi, jinsi, berilgan vaqti to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

Agar chaqaloqning ota-onalari o'rtasida nikoh qayd etilmagan bo'lsa, (tug'ilishni qayd etishda otasi ishtirok etmagan taqdirda) bolaning otasi haqidagi yozuv otaning notarial yoki tibbiy muassasa tomonidan tasdiqlangan arizasi bo'yicha amalga oshiriladi. Shuningdek, o'lik tug'ilgan bolaning tug'ilganligini va o'limini qayd etish tibbiy muassasa arizasiga binoan shu hududdagi FHDY organi tomonidan 24 soat ichida amalga oshiriladi.

Shuni aytish kerakki, tug'ilishni qayd etishning barcha hol-larida bola tug'ilgan ma'muriy hudud uning tug'ilgan joyi sifatida yoziladi.

Kezi kelganda shuni ham aytish o'rinliki, amaliyotda ba'zan tug'ilganlikni qayd etishda bolaning ism-sharifi pala-partish, o'ta qo'pol yoziladi. Masalan, Ergashev o'rniga Irgashov, Ortiqov o'rniga Artikov singari. Qanchalik kulgili holat. Bunga sira ham yo'l qo'yib bo'lmaydi, bunday hol bilan kelishib ham bo'lmaydi.

Nikohni qayd etish fuqarolik holati dalolatnomalaridan biri hisoblanadi.

Amaldagi oila qonunchiligiga binoan, nikoh tuzish ixtiyoriy hisoblanib, u nikohlanuvchilarning o'zaro roziligiga asoslanadi. Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Alohida hollarda nikohga kiruvchilarning iltimosiga ko'ra tuman, shahar hokimining qarori bilan nikoh yoshi ko'pi bilan 1 yilga kamaytirilishi mumkin. Nikohga kirishni xohlovchilar bu to'g'risida ulardan birining yashash joyidagi FHDY organiga ariza bilan murojaat etgan kundan bir oy o'tgach qayd etiladi. Ushbu arizani berishda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, ya'ni pasport, harbiy билет, ofitser yoki praporshikning shaxsiy guvohnoma si ko'rsatilishi kerak.

Nikoh faqat nikohlanuvchi shaxslar ishtirokida qayd etiladi. Nikohning ishonch qog'ozi yoki vakil orqali qayd etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nikohni qayd etishda nikohlanuvchilar o'z xohishlariga ko'ra ikkalasidan birining familiyasini umumiy familiya sifatida tanlashlari yoki o'zlarining nikohgacha bo'lgan familiyalarida qolishlari

mumkin. Er-xotinning har ikkalasining familiyasini qo'sh familiya qilib tanlashga qonun yo'l qo'ymaydi.

Muhimi, mamlakatimiz qonunchiligi yakka nikohni tan oladi, e'tirof etadi. So'nggi paytlarda ko'p xotinlilik masalasi bot-bot tilga olinmoqda. Chunonchi, hayotda ham shunday fikrlovchilar, bunga xayrxohlik bildiruvchilar yo'q emas. Hatto bu haqda biron-bir ijobiy yangilik bormi, deb murojaat ham qilib turishadi. Joylarda, aholi orasida bunday masalalar yuzasidan FHDY xodimlari profilaktik tadbirlarni olib borishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qayd etilishi lozim bo'lgan fuqarolik holati dalolatnomalaridan yana biri — *nikohdan ajratishdir*. Oila qonunchiligiga ko'ra, nikohdan ajratish ikki tartibda — sud tartibida va FHDY organida ko'riladi. FHDY organi mulkiy nizolar bo'lmagan va voyaga yetmagan, farzandlari (shu jumladan, farzandlikka olinganlari) bo'lmagan er-xotinlarning nikohini ajratish masalasini ko'radi. Ish bu haqda mazkur organga ariza berishdan boshlanadi. Arizada er-xotin ajrashishga o'zaro rozi ekanligi, voyaga yetmagan bolalari yo'qligi ko'rsatiladi. Shuningdek, ulardan biri nikohdan ajratish qayd etilishi belgilangan kunda FHDY organiga kela olmasa, nikohdan ajratishning uning ishtirokisiz qayd etilishiga roziligi tasdiqlanadi. Nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi bo'lgani holda umumiy mulk haqida yoki mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning ta'minoti haqida nizolar bo'lsa, u holda nikohdan ajratish sud tartibida hal etiladi. Ariza FHDY organiga berilganidan keyin uch oy o'tgach qanoatlantiriladi va sobiq er-xotinlarning har biriga nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beriladi.

Oila qonunchiligiga ko'ra, er-xotindan biri sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilsa, sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari bor-yo'qligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra FHDY organlarida nikohdan ajratish qayd etiladi.

O'limni qayd etish ham muhim fuqarolik holati dalolatnomalaridan biri bo'lgan holatdir, o'limni qayd etish marhumning yashash joyi yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi. O'limni qayd etish to'g'risidagi ariza o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnoma berilgan vaqtdan boshlab 3 kundan kechikmay taqdim etilishi kerak. Chet elda vafot etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'limini qayd etish marhum yashab turgan yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi qonunchilik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bir so'z bilan aytganda, fuqarolik huquqi dalolatnomalari yozuvlari aniq, qonunga muvofiq bo'lishi lozim. Har bir dalolatnoma yozuvi ortida inson taqdiri borligini doimo yodda tutmoq kerak. Pirovardida, fuqarolar kimlarningdir aybi bilan turli noaniqliklarga, ayrica munosabatlarga tushib qolmasligi lozim.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning mohiyati nimadan iborat?
2. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga nimalar kiradi?
3. «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish to'g'risida»gi Nizom qachon qabul qilingan?
4. Qaysi holatlarda FHDY organlarida nikohdan ajratish qayd etiladi?

17-BOB. CHET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR ISHTIROKIDAGI OILAVIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH

1-§. Chet el fuqarolari bilan oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi haqida so'z yuritishdan avval, chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushunchalariga to'xtalib o'tish joiz.

Chet el fuqarolari deyilganda, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan, lekin O'zbekistonda yashab turuvchi va boshqa davlat fuqarosi ekanligini isbotlovchi dalillari bor shaxslar tushuniladi. Milliy pasport va uning o'rnini bosuvchi hujjatlar bunday dalillar bo'lib hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar deganda, O'zbekiston Respublikasida yashovchi O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'lmagan va o'zining qaysi davlat fuqaroligiga mansub ekanligini isbotlovchi dalillari bo'lmagan shaxslar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida yashab turuvchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston qonunlari va Xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollardan tashqari teng huquq va majburiyatlardan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasiga binoan, boshqa davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikohdan o'tish yoki nikohni bekor qilish yoxud bir oila bo'lib yashash shaxsning fuqaroligini o'zgartirish uchun asos bo'la olmaydi.

Masalan, fuqaroligi bo'lmagan erkak yoki ayolning O'zbekiston yoki boshqa chet davlat fuqarosi bo'lgan ayol yoki erkak bilan

nikohdan o'tishi, turli davlat fuqarolarining nikohlanishi holatlarida er yoki xotinning fuqaroligi o'z-o'zidan o'zgarishiga sabab bo'lmaydi¹.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari xorijiy davlat fuqarolari bo'lgan shaxslar bilan xorijiy davlatda yoki O'zbekiston Respublikasida ushbu davlatlarning qonunchiligiga rioya qilgan holda nikohdan o'tsalar, ushbu holat er yoki xotinning fuqarolik holatiga aslo ta'sir qilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida»gi Qonuniga binoan, bo'lajak er yoki xotinlardan biri mansub bo'lgan davlat fuqaroligiga o'tishni xohlasa, ushbu holat umumiy asoslarda hal qilinadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Germaniya fuqarosi bilan O'zbekiston Respublikasida nikoh munosabatini qayd ettirsa, albatta, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan ushbu holat hal qilinadi. Fuqarolik masalasi esa, yuqorida ko'rsatilgan qonunga binoan, fuqarolikni qabul qilishni xohlagan shaxsning talabiga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 234-moddasida chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning oilaviy munosabatlardagi huquq va majburiyatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanish va teng majburiyatlarga egadirlar.

Chet el fuqarolari O'zbekiston hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kabi bir xil huquq va majburiyatlarga egadirlar. Nikohga kirish, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar aniqlangan taqdirda, nikohdan ajralish, nikoh haqiqiy emas deb topilgan va boshqa holatlar bo'yicha teng ravishda huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. O'z mamlakatida ikki yoki undan ortiq xotin olishga huquqi bo'lgan holda ham O'zbekiston hududida uning ikkinchi nikohi qayd etilmaydi. Shuning uchun ham

¹ Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. —T.: Adolat, 2000. 216-b.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan chet el fuqarosi o'rtasida nikoh tuzishda nikohga monelik qiluvchi holatlarning yo'qligi aniqlanadi, chet el fuqarosidan nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatning yo'qligini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi. Bu talab chet el fuqarosi bilan nikohga kiruvchi O'zbekiston fuqarosining va bu nikohdan tug'iladigan bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Chet el fuqarolarining o'zaro nikoh tuzish shartlari nikoh tuzuvchilar davlatining qonunlari bilan belgilanadi. Chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan nikoh tuzishda Oila kodeksining tegishli normalarida nazarda tutilgan shartlarga amal qilishlari kerak.

Nazorat savollari

1. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar deganda kimlar nazarda tutiladi?
2. Chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy maqomi qanday?
3. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi oilaviy munosabatlar qanday va qaysi qonun bilan tartibga solinadi?

18-BOB. FHDY ORGANLARINING TIZIMI VA VAKOLATLARI

1-§.FHDY organlarining tizimi

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tuman va shaharlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish, otalikni belgilash esa shaharcha, qishloq va ovullarda fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) tomonidan ham qayd etilishi mumkin.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish borasidagi harakatlari o'zlari turadigan hududlardagi tegishli fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarining nazorati ostida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish konsul tomonidan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq (O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, 203-modda) amalga oshiriladi.

Konsul vaqtincha bo'lmaganda fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan tayinlangan konsullikning mansabdor shaxsi tomonidan qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari bo'lmagan xorijiy davlatlarda fuqarolik holati dalolatnomalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan belgilangan boshqa xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasi tomonidan qayd etiladi.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi organlar tizimi qanday tuzilgan?
2. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi organlarning vakolatlariga nimalar kiradi?

19-BOB. TUG'ILISHNI QAYD ETISH

1-§. Tug'ilishni qayd etish tartibi

Bolaning tug'ilishini qayd etish majburiy bo'lib, bola tug'ilgan joydagi yoki ota-onasidan birining doimiy yashash joyidagi FHDY organida amalga oshirilishi lozim.

Ota-onaning istagiga ko'ra FHDY organi bolaning tug'ilganligini qayd etishni tantanali vaziyatda o'tkazishi mumkin. Tug'ilganlik haqidagi ariza bola tug'ilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida berilishi zarur.

Bola tug'ilganligi to'g'risidagi ariza ota-onasi yoki ulardan biri, alohida hollarda esa qarindoshlari, qo'shnilari, tibbiyot muassasalari ma'muriyati, ichki ishlar yoki vasiylik va homiylik organlari tomonidan berilishi mumkin.

Belgilangan muddatning o'tib ketganligi tug'ilganlikning qayd etilishiga to'sqinlik qila olmaydi. Agar tug'ilganlikni qayd etish to'g'risidagi ariza belgilangan muddatdan o'tkazilib berilgan bo'lsa, tug'ilish tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnomalarni qayd etish joriy ro'yxatga olish daftariga qayd etiladi, bola to'g'risidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi, dalolatnoma yozuvi tartib raqami, sanasi bolaning haqiqiy tug'ilgan yilidagi hamda shu yilgi yuritilgan Alfavit daftarlariga yozib qo'yiladi. Bunday hollarda zaruratga qarab, FHDY organi tug'ilish haqidagi hujjatga qo'shimcha ravishda boshqa hujjatlar talab qilishi mumkin. 16 yoshdan oshgan, tug'ilishi qayd etilmagan shaxslarning tug'ilganligini qayd etish yo'qolgan dalolatnoma yozuvlarini tiklash tartibi va qoidalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Tug'ilganlikni qayd etish uchun tibbiyot muassasasining bola tug'ilganligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomasi, ota-onalarining pasportlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar, nikoh

tuzilganligi to'g'risidagi gerbli guvohnoma yoki otalikni belgilash haqidagi ariza taqdim etiladi. Tibbiyot muassasasi tomonidan beriladigan tug'ilganlik to'g'risidagi ma'lumotnomada:

- onaning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi;
- bolaning tug'ilgan vaqti va sanasi, jinsi;
- berilgan vaqti to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur.

Ma'lumotnoma tibbiyot muassasasi mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi va gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Tug'uruqxonalaridan tashqari joylarda va tibbiy yordamsiz tug'ilgan bolaning tug'ilganligini qayd etish uning shu onadan tug'ilganligiga guvohlik beruvchilar imzolagan va uchastka shifokori yoki feldsherining imzosi bilan tasdiqlangan dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Ota-onalardan birining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo'lmagan alohida hollarda FHDY organi tug'ilganlikni qayd etishni rad qilishi mumkin emas. Bunda hujjatlari bo'lmagan ota yoki ona haqida ma'lumotlar nikoh yoki avvalgi bolalarining tug'ilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvlari asosida ko'rsatiladi.

Ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmaganda bolaning tug'ilganligini qayd etish tibbiyot muassasasi ma'muriyatining yoki vasiylik va homiylik organining arizalariga asosan amalga oshiriladi.

Ota-onasi nikohda bo'lgan bolaning tug'ilishi to'g'risidagi dalolatnomani yozish shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar va nikoh tuzilganligi to'g'risidagi guvohnoma asosida amalga oshiriladi. Bola tug'ilgunga qadar uning otasi vafot etgan vaqtdan, ota-onasi nikohi bekor qilinganligidan yoki ota-onasining nikohi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgandan keyin 300 kundan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa, otasi to'g'risidagi ma'lumotlar xuddi shunday tartibda yoziladi.

Bunday hollarda ariza beruvchi tomonidan nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma, sudning nikohdan ajratish haqidagi qaroridan ko'chirma (nusxa) yoki nikohni haqiqiy emas deb topganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan qaroridan ko'chirma (nusxa) yoki otasi o'limi haqidagi guvohnoma taqdim etilishi kerak.

Dalolatnoma yozuvining «Belgilar uchun» ustunida nikohdan ajralish yoki o'limning qayd etilgan joyi va sanasi, dalolatnoma yozuvining tartib raqami, qarorni chiqargan sudning nomi va qarorning sanasi ko'rsatiladi. Bolaning nasl-nasabi xususidagi barcha nizolar sud tartibida hal qilinadi.

Agar ota-onalari o'rtasida nikoh qayd etilmagan bo'lsa (tug'ilishni qayd etishda onasi ishtirok etmagan taqdirda), bolaning otasi haqidagi yozuv onaning notarial yoki tibbiy muassasa tomonidan tasdiqlangan arizasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Bolaning tug'ilganligini qayd etishda unga familiya ota-onasining kelishuviga ko'ra ota yoki onaning familiyasi, bobolaridan birining yoxud otaning ismi bo'yicha beriladi. Kelishuv bo'lmagan taqdirda nizolar vasiylik va homiylik organi, konsullik okrugida esa konsul tomonidan hal etiladi.

Bolaga ism ota-onaning roziligiga ko'ra beriladi. Bolaga qo'sha-loq ism berishga yo'l qo'yiladi (Masalan, Saidahmadxo'ja, To'xtamurodjon, Gulira'no, Mirzaolim, Mirzo Ulug'bek, Roza-Mariya).

Bolaning ota ismi uning otasining ismiga ko'ra beriladi. Agar otasining ismi qisqartirilib, erkalagan holda, imlo xatolari bilan yozilgan bo'lsa, u holda ota ismi to'g'ri, to'liq yoziladi. Otasi haqida ma'lumotlar, tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi va guvohnomada yozuvlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'zgartirishsiz yoziladi.

Tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi qayd etilgach, ariza beruvchiga tug'ilganlik haqida guvohnoma hamda sug'urta kassasiga topshirish uchun ma'lumotnoma beriladi.

Ota-onasining pasportlariga bolasi to'g'risidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi, ota ismi, jinsi, tug'ilgan vaqti yozib qo'yiladi.

Egizak (ikkita va undan ortiq) bolalar tug'ilganda ularning har biri uchun tug'ilganlik haqida tibbiy ma'lumotnoma taqdim etilishi kerak, ular asosida tug'ilganlik haqida alohida-alohida dalolatnoma yozuvlari, tartib raqamlari kasr chizig'i orqali (masalan, Po'latova Zuhra Asad qizi — d/y 545/546, Po'latov Hasan Asad o'g'li — d/y 546/545) yozilgan holda qayd etilib,

ularning har biriga tug'ilganlik haqida alohida gerbli guvohnomalar beriladi.

Topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug'ilganligini qayd etish ichki ishlar bo'limi, vasiylik va homiylik organlari, bola joylashgan muassasa ma'muriyati yoki tibbiyot muassasasining arizasiga binoan amalga oshiriladi. Bolani topib olgan shaxs bu haqda yigirma to'rt soat ichida ushbu tumandagi ichki ishlar bo'limiga yoki vasiylik va homiylik organiga xabar berishi kerak.

Topib olingan (tashlab ketilgan) bolaning tug'ilganligini qayd etish haqidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

a) ichki ishlar bo'limi yoki vasiylik va homiylik organining bolaning topib olingan vaqti, joyi va topib olingan paytdagi holati to'g'risidagi dalolatnomasi;

b) tibbiy muassasaning topib olingan yoki tashlab ketilgan bolaning yoshi va jinsini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi.

Uning ota-onasining familiyasi, ismi va millati to'g'risidagi ma'lumotlar bolaning tug'ilishi haqidagi dalolatnoma yozuviga mazkur Qoidalarining 27-bandida sanab o'tilgan organlarning ko'rsatmalari asosida kiritiladi. Bunday holda bolaning va bolaning ota-onasi sifatida ko'rsatilgan shaxslarning familiyasi bir xilda yoziladi.

«Belgilar uchun» ustuniga «Bola topilgan» yoki «Tashlab ketilgan» deb yoziladi va ota-onasi haqidagi ma'lumotlar kimning ko'rsatmasiga asosan yozilganligi ko'rsatiladi.

O'lik tug'ilgan bolaning tug'ilganligini, shuningdek, hayotining birinchi haftasida o'lgan (perinatal o'lim) bolalarning tug'ilganligi va o'limini qayd etish tibbiy muassasa arizasiga binoan shu hududdagi FHDY organi tomonidan 24 soat ichida amalga oshiriladi.

O'lik tug'ilgan bolani qayd etish perinatal o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnoma asosida faqat tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvlarini ro'yxatdan o'tkazish daftarida amalga oshiriladi va tug'ilganlik to'g'risidagi Alfavit daftariga kiritiladi.

Agar bola tug'ilgandan keyin vafot etsa, hatto u bir necha daqiqa yashasa ham, tug'ilishi hamda o'limi haqidagi ikkita yozuvdan iborat dalolatnomalar tuziladi.

Bunday hollarda tug'ilish haqidagi dalolatnoma yozuvi tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma asosida, o'lganligi haqidagi dalolatnoma yozuvi esa perinatal o'lim haqidagi tibbiy guvohnoma asosida amalga oshiriladi. Bunda tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvida onasi to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq keltiriladi, «Belgilar uchun» ustunida esa o'lganligi qayd etilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvining tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi. Bunday hollarda bolaning tug'ilganligi haqida (o'lik tug'ilganda ham) sug'urta kassasiga va qabriston uchun ma'lumotnoma beriladi. Zarur hollarda ota-onasining iltimosiga ko'ra (tirik tug'ilib, so'ng vafot etgan bola uchun) o'limi haqida guvohnoma berilishi mumkin.

Bolaning otasi bilan nikohda bo'lmagan ona vafot etgan taqdirda, shuningdek, onaning yashash joyi noma'lum bo'lganda va otalikni belgilash haqidagi ariza berilmaganda bolaning tug'ilishini qayd etish mazkur Qoidalarining 27-bandida sanab o'tilgan organlarning arizasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqlaridan mahrum qilish haqidagi ma'lumotlar sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan tug'ilish haqidagi dalolatnoma yozuvining «Belgilar uchun» ustunida ko'rsatiladi, dalolatnoma yozuvida ota-ona haqidagi ma'lumotlar chizib tashlanmaydi va hech qanday o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Bunday hollarda otalik-onalik huquqlaridan mahrum qilingan shaxslarga bolalarining tug'ilganligi haqida takroriy guvohnoma berilmaydi.

Takroriy guvohnoma voyaga yetmagan bolaning vasiysi yoki homiysiga berilishi mumkin.

Sudning ota-onalik huquqlarini tiklash to'g'risida qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga «Ota-onalik huquqlari tiklandi» degan belgi qo'yiladi.

Tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga kiritilgan otasi haqidagi ma'lumotlar har qanday holda ham faqat sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga asosan bekor qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq, tug'ilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanishi

mumkin bo'lgan bolaning tug'ilganligini qayd etish bola tug'ilgan yoki uning ota-onasi doimiy yoki vaqtincha yashab turgan o'sha konsullik okrugidagi konsul tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining havo yoki suv kemasida tug'ilgan bolaning tug'ilganligini qayd etish havo kemasi yerga qo'ngan joyda yoki suv kemasi portga yetib kelgan joyda konsullik muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bu holda bolaning tug'ilganligini qayd etish havo kemasi komandiri yoki dengiz kemasi kapitani va guvohlar ishtirokida tuzilgan dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

Tug'ilganlikni konsullik muassasasida qayd etishda ota-onasining pasportlari yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlarga bola haqidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi, ota ismi, tug'ilgan kuni, oyi va yili yoziladi, bolaning fotosurati yopishtiriladi, ular konsullik muassasasi mansabdor shaxsining imzosi va gerbli muhr bilan tasdiqlanadi.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet elda tug'ilgan va uning tug'ilganligi konsullik muassasasi tomonidan qayd etilmagan taqdirda, tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi ota-onaning yoki ulardan birining O'zbekiston Respublikasida yashab turgan joyidagi FHDY organi tomonidan qayd etilishi mumkin.

Tug'ilishni qayd etishning barcha hollarida bola tug'ilgan ma'muriy hudud uning tug'ilgan joyi sifatida yoziladi.

Nazorat savollari

1. Tug'ilishni qayd etish tushunchasi va huquqiy asoslari.
2. Tug'ilishni qayd etishni rasmiylashtirish tartibi qanday amalga oshiriladi?
3. Egizak farzandlar tug'ilganda tug'ilganlikni rasmiylashtirish tartibi qanday amalga oshiriladi?
4. Ota-onasi noma'lum bo'lgan bolalarning tug'ilganligini qayd etish tartibi.

20-BOB. NIKOHDAN AJRALISHNI QAYD ETISH

1-§. Nikohdan ajralish tushunchasi

Voyaga yetmagan farzandlari bo'lmagan er-xotinlarni ularning o'zaro roziligiga ko'ra nikohdan ajratishni qayd etish. Oila kodeksining 42- va 218-moddalariga muvofiq, FHDY organi mulkiy nizolari hamda voyaga yetmagan farzandlari (shu jumladan, farzandlikka olinganlari) bo'lmagan er-xotinlardan nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani qabul qiladi.

Alohida yashovchi er-xotinni nikohdan ajratishni qayd etish ularning birgalikda bergan arizalariga asosan ulardan birining yashash joyidagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar er-xotindan biri nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani berish uchun FHDY organiga kela olmasa, u holda er-xotin nomidan birgalikda yozilgan arizani ulardan biri topshirishi mumkin. Kela olmagan er yoki xotinning arizadagi imzosi notarial tartibda yoki er-xotin yashab turgan joydagi FHDY organi mudiri tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Arizada er-xotin ajralishga o'zaro rozi ekanliklari, voyaga yetmagan bolalari yo'qligi, shuningdek, ulardan biri nikohdan ajratish qayd etilishi belgilangan kunda FHDY organiga kela olmasa, nikohdan ajratishning uning ishtirokisiz qayd etilishiga roziligi tasdiqlanadi.

Arizani qabul qilishda arizachining shaxsini tasdiqlovchi hujjatda voyaga yetmagan farzandlari to'g'risida belgi bor-yo'qligi tekshirilishi lozim.

Agar nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi bo'lgani holda umumiy mulk haqida yoki mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning ta'minoti haqida nizolar bo'lsa, u holda nikohdan ajratish sud tartibida hal etiladi.

Nikohdan ajratishni qayd etish er-xotinning yoki ulardan birining ishtirokida nikohdan ajratish haqida FHDY organiga ariza berganlaridan keyin uch oy o'tgach amalga oshiriladi va sobiq er-xotinlarning har biriga nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beriladi.

Er yoki xotindan birining nikohgacha bo'lgan familiyasiga qaytishi to'g'risidagi istagi nikohdan ajratish haqidagi arizasida ko'rsatilishi kerak.

Nikohdan ajratish qayd etilganidan so'ng nikoh tuzilganligi to'g'risidagi guvohnomaga uning tugatilganligi haqida belgi qo'yiladi va u arizachilarga qaytariladi.

Nikohdan ajratishni qayd etishda, er va xotinning o'zaro kelishuviga ko'ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Er yoki xotindan birining ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etishda davlat boji to'liq miqdorda undiriladi.

Er yoki xotindan birining arizasi asosida nikohdan ajratish
Oila kodeksining 43- va 219-moddalariga muvofiq:

- sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;
- sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;
- sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari bor-yo'qligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra FHDY organlarida nikohdan ajratish qayd etiladi.

Bunday hollarda arizaga qo'shimcha ravishda quyidagilar ilova qilinadi:

- er (xotin)ning muomalaga layoqatsiz yoxud bedarak yo'qolgan deb topilganligi to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sud qarori;

- er (xotin)ning uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida qonuniy kuchga kirgan sud hukmidan ko'chirma, shuningdek, sudlangan er (xotin)ning nikohdan ajratishga o'rtada bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo'qligi to'g'risidagi roziligi.

Bolalari to'g'risida, birgalikdagi umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minoti uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, nikohdan ajratish sud tartibida amalga oshiriladi.

Sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, jazoni ozodlikdan mahrum etish joyida o'tayotgan shaxs bilan nikohdan ajralishni xohlovchi er (xotin) o'z arizasida sudlangan shaxsning jazoni o'tayotgan joy manzilini ko'rsatishi lozim.

Arizani qabul qilgan FHDY organi shu kuniyoq bu to'g'risida jazoni ijro etish muassasasiga xabarnoma jo'natadi. Muassasa ma'muriyati xabarnomani olgach, 2 hafta mobaynida mahkumning arizachi bilan o'rtada bolalar va mol-mulk to'g'risida nizosi yo'qligi haqida yozma ravishda bildirishnomasini tasdiqlab, FHDY organiga jo'natadi.

Mahkumning nikohdan ajratishga roziligi olingach va o'rtada bolalar va mol-mulk yuzasidan nizolari yo'q bo'lganda, FHDY organi ariza beruvchi ishtirokida nikohdan ajratishni qayd etadi.

O'zaro bolalari va mulkiy nizolari bo'lmagan va 3 yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni nikohdan ajratish er-xotinning o'zaro roziligiga ko'ra umumiy qoidalar asosida FHDY organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sudning er-xotindan birining bedarak yo'qolgan deb topilganligi to'g'risidagi qarori bo'yicha nikohdan ajratish er yoki xotindan birining turar joyidagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxs qaytib kelganda uning murojaati bo'yicha FHDY organi unga ham nikohdan ajralganlik haqida guvohnoma beradi.

2-§. Sud qarori bilan nikohdan ajratishni qayd etish

Oila kodeksining 47-moddasiga 2010-yil sentabr oyida kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratilganlik ro'yxatga olingan kundan boshlab tugatilishi normalanadi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun ichida sud nikoh tuzilganligi

ro'yxatga olingan joydagi FHDY organiga ushbu qarordan ko'chirma yuborishi shart.

FHDY organi sud qarori asosida nikoh qayd etilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga nikoh tugatilganligi haqida belgi qo'yadi va dalolatnoma yozuvining ikkinchi nusxasiga belgi qo'yish uchun FHDYning yuqori turuvchi tegishli arxiviga yuboradi.

Mazkur qoida Oila kodeksi amalga kiritilgandan keyin, ya'ni 1998-yil 1-sentabrdan keyin qonuniy kuchga kirgan sud qarorlariga nisbatan qo'llaniladi.

Respublika sudlarining 1998-yil 1-sentabrgacha qonuniy kuchga kirgan qarorlari bo'yicha nikohdan ajratishni qayd etish, nikohdan ajratish to'g'risidagi qarorni chiqargan sud joylashgan hududdagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda nikohdan ajratishni qayd etishgacha FHDY organi er yoki xotindan birining nikohdan ajratilganligi rasmiylashtirilganligini tekshiradi.

Tekshiruv sud qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab, murojaat etilgan kungacha nikohdan ajratish to'g'risidagi Alfavit daftari bo'yicha va nikoh tuzilganligi haqidagi dalolatnoma yozuvi (nikoh bekor qilinganligi haqida belgi qo'yilganligi yoki yo'qligi) bo'yicha o'tkaziladi.

Agar nikohdan ajratish FHDY organida tomonlardan birining arizasiga ko'ra qayd etilgan bo'lsa, u holda dalolatnoma yozuvi ikkinchi tomon to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladi va nikohdan ajratganlik to'g'risida guvohnoma beriladi.

MDH mamlakatlari sudi tomonidan qonuniy kuchga kirgan qaror asosida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan tuzilgan nikohni bekor qilish (qaror qachon chiqqanidan qat'i nazar), agar davlatlararo bitimda boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, arizachining turar joyidagi FHDY organida qayd etiladi.

Nazorat savollari

1. Nikohdan FHDY organida ajratish tartibi.
2. Sud tartibida nikohdan ajratish qanday amalga oshiriladi?
3. Nikohdan ajratishning huquqiy oqibatlari.

21-BOB. O‘LIMNI QAYD ETISH

1-§. O‘limni qayd etish tartibi

O‘limni qayd etish marhumning yashash joyi yoki o‘lim sodir bo‘lgan joydagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘limni qayd etish to‘g‘risidagi ariza o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy guvohnoma berilgan vaqtdan boshlab 3 kundan kechikmay berilishi kerak.

O‘limni qayd ettirish to‘g‘risida marhumning qarindoshlari yoki yaqin kishilari, shuningdek, tibbiy muassasa ma‘muriyati murojaat etishlari mumkin, ular o‘lim to‘g‘risida tibbiy guvohnoma va marhumning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etadilar.

O‘limni qayd etishda taqdim etilgan tibbiy guvohnoma dalolatnoma yozuvi ikkinchi nusxasi chap tomonining yuqori qismiga qistirib qo‘yiladi.

Chet elliklar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning o‘limini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi. Chet elda vafot etgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining o‘limini qayd etish marhum yashab turgan yoki o‘lim sodir bo‘lgan joydagi konsullik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar o‘limni qayd etish marhumning yashash joyidan boshqa okrugda amalga oshirilsa, u holda o‘limni qayd etgan konsullik muassasasi marhum hisobda turgan konsullik muassasasiga uning familiyasi, ismi, otasining ismi, o‘lgan sanasi, shuningdek, o‘lim haqidagi dalolatnoma yozuvining raqami va o‘lim qayd etilgan sana ko‘rsatilgan xabarnoma yuboradi.

Agar o‘limni qayd etishda marhumning homiysiz qolgan voyaga yetmagan bolalari borligi ma‘lum bo‘lsa, u holda konsul shu kunning o‘zidayoq bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Konsullik boshqarmasiga xabar beradi.

O'lim qayd etilgandan keyin marhumning hujjatlari diplomatik pochta orqali O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasiga jo'natiladi.

Marhumning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatining yo'qligi o'limni qayd etish uchun to'siq bo'la olmaydi, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasi xabardor qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasalarida vafot etgan shaxslarning o'limini qayd etish mazkur muassasa ma'muriyatining xabariga ko'ra, vafot etgan kishining ozodlikdan mahrum qilingunga qadar doimiy yashagan joyidagi yoki jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Sudning fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'g'risidagi qarori bilan o'limni qayd etish yoki o'limi qonunda belgilangan muddatlarda qayd etilmagan shaxslarning o'limi umumiy asoslarda qayd etiladi. Bunday holda marhum haqidagi ma'lumotlar o'lim qayd etilgan yildagi va o'lim sodir bo'lgan yildagi Alfavit daftarlariga kiritiladi.

O'limni qayd etishda marhumning pasporti, harbiy bileti, 16 yoshgacha vafot etganlarning esa tug'ilganlik haqida guvohnomasi taqdim qilinadi. Bunda FHDY organi xodimi (konsul) hujjatlarning birinchi sahifasiga o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvining raqami va sanasini yozadi.

Vafot etganlarning pasportlari va 50 yoshgacha vafot etganlarning harbiy biletleri har oyda bir marta, ro'yxat bo'yicha IIB va mudofaa ishlari bo'limiga topshiriladi, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalar esa har chorakda bir marta, dalolatnoma asosida yo'q qilinadi.

Agar o'limni qayd etishda vafot etgan shaxsning pasporti va harbiy bileti taqdim qilinmagan bo'lsa, u holda bu haqda o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvining «Belgilar uchun» ustunida ko'rsatiladi.

O'lim haqidagi dalolatnoma yozuvi qayd etilgandan so'ng o'lim haqida gerbli guvohnoma yoziladi va arizachiga taqdim etiladi. Ayni bir vaqtda sug'urta kassasiga va qabristonga taqdim etish uchun tegishli shakldagi ma'lumotnomalar beriladi.

O'lim haqidagi dalolatnoma yozuvlarini qayta tiklash tuman, shahar sudlarining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Agar sud qarorida marhumning o'lgan sanasi ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda sud qarori kuchga kirgan sana marhumning o'lgan kuni hisoblanadi.

Temiryo'l yoki avtomobil transportida sodir bo'lgan o'limni qayd etish o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnomaga asosan yaqinroq joydagi FHDY organi yoki marhumning doimiy yashagan joyidagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Havo yoki dengiz kemasida sodir bo'lgan o'limni qayd etish havo kemasi qo'ngan joydagi yoki dengiz kemasi to'xtagan portdagi FHDY organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Shaxsi aniqlanmaganlarning o'limini qayd etish sog'liqni saqlash tizimi tibbiy muassasasining o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnomasiga asosan shu muassasa joylashgan hududdagi FHDY organi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday hollarda o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvidagi barcha ma'lumotlar o'lim to'g'risidagi tibbiy guvohnoma asosida ko'rsatiladi va faqat qabristonga taqdim etish uchun ma'lumotnoma beriladi.

O'lim haqidagi gerbli guvohnoma faqat dalolatnoma yozuvidagi yetishmaydigan ma'lumotlar to'ldirilgandan keyingina beriladi.

FHDY organi qo'shimcha tibbiy ma'lumotnoma yoki murdaning tanib olinganligi to'g'risidagi prokuratura xabarnomasini olgach, dalolatnoma yozuviga yetishmaydigan ma'lumotlarni kiritadi va dalolatnoma yozuvining ikkinchi nusxasiga zarur o'zgartirishlar kiritish uchun FHDYning yuqori arxiviga xabar-noma jo'natadi.

Nazorat savollari

1. O'limni qayd etuvchi davlat organlari va ularning vakolatlari.
2. O'lim haqidagi guvohnomalarni qayta tiklash qanday amalga oshiriladi?
3. Jazoni ijro etish muassasalarida o'lgan shaxslar o'limini qayd etish.

22-BOB. FAMILIYA, ISM, OTA ISMINI O'ZGARTIRISH

1-§. Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish

Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi 16 yoshga to'lgach, turar joyidagi FHDY organi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Agar 16 yoshga to'lgan shaxs pasport yoki pasport o'rnini bosuvchi shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat olgunga qadar familiyasi, ismi, ota ismini o'zgartirish haqida ariza bersa, unda arizaga tug'ilganlik haqida guvohnoma va tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi nusxasi ilova qilinadi.

Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi arizalar:

— «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga binoan;

- agar familiya, ismi va ota ismi eshitalishda yoqimsiz bo'lsa;
- agar familiya, ismi va ota ismi millatiga to'g'ri kelmasa;
- xohishga qarab nikohgacha bo'lgan familiyaga (nikohda turgan davrida ham, nikohdan ajratilgandan keyin ham) qaytishda;
- oilada bir xil familiyada bo'lish istagi paydo bo'lganda (agar nikoh tuzish paytida er-xotin umumiy familiyani tanlamagan bo'lsa), FHDY organi tomonidan uzrli deb topilgan boshqa asoslarga ko'ra ko'rib chiqiladi.

Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi arizaga quyidagilar:

- a) ariza beruvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi;
- b) agar ariza beruvchi nikohda turgan bo'lsa, u holda nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomasi, agar nikohdan ajratilgan bo'lsa, nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnomasi;
- d) agar ariza beruvchining voyaga yetmagan bolalari bo'lsa, u holda bolalarning tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari;

e) ariza beruvchining pasportidan yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatidan ko'chirma;

f) agar ariza beruvchi voyaga yetmagan yoki sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, u holda ota-onasining yoxud vasiy yoki homiyniing arizasi;

g) 1 dona (3x4 o'lchamli) fotosurat ilova qilinadi.

O'zgartirishlar kiritilishi uchun zarur bo'lgan dalolatnoma yozuvlari yo'qolgan taqdirda, familiya, ism, ota ismini o'zgartirish ular tiklanganidan keyin amalga oshiriladi.

Qabul qilingan ariza maxsus daftarga kiritiladi.

FHDY bo'limi mudiri taqdim etilgan hujjatlar asosida, zarur hollarda esa boshqa FHDY organlaridan o'zining talabi bo'yicha kerakli dalolatnoma yozuvlari nusxalarini olganda yig'ilgan hujjatlarni yig'majildga tikadi va tegishli tekshiruv o'tkazish uchun ichki ishlar bo'limiga jo'natadi.

Ichki ishlar bo'limi taqdim qilingan hujjatlarni 30 kun mobaynida o'rganib chiqadi, ariza beruvchining familiyasi, ismi, ota ismini o'zgartirishi xususida asoslangan xulosa tuzadi va FHDY organiga taqdim qiladi.

Ichki ishlar bo'limining xulosasini olgandan keyin FHDY organi taqdim etilgan hujjatlar asosida familiya, ism, ota ismini o'zgartirish yoki rad qilish to'g'risida asoslangan xulosa tuzadi.

Familiya, ism, ota ismi o'zgarganligi to'g'risida ichki ishlar bo'limiga 7 kun mobaynida, agar ariza beruvchi harbiy xizmatga majbur bo'lsa, mudofaa ishlari bo'limiga xabarnoma yuboriladi.

Xulosa asosida tug'ilganlik to'g'risida, nikohni qayd etish yoki nikohdan ajratish to'g'risida, bolalarining tug'ilganligi to'g'risidagi dalolatnoma yozuvlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi va yangi guvohnoma beriladi. Eski guvohnomalar yig'majildga tikib qo'yiladi.

Agar o'zgartirish kiritish talab etiladigan dalolatnoma yozuvi boshqa joyda bo'lsa, u holda FHDY organi dalolatnoma yozuviga o'zgartirish kiritish to'g'risida xabarnoma yuboradi.

FHDY organi xabarnomaga binoan dalolatnoma yozuviga tegishli o'zgartirishlar kiritadi va yangi guvohnomani to'ldiradi va uni ariza beruvchiga topshirish uchun uning yashash joyidagi

FHDY organiga yuboradi, shuningdek, dalolatnoma yozuvining ikkinchi nusxasiga ana shunday o'zgartirishlarni kiritish uchun tegishli FHDY arxiviga xabarnoma yuboradi.

O'zaro qonuniy nikohda turgan er yoki xotindan birining familiyasi o'zgartirilishi ikkinchisining ham familiyasi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

Ota-onalar yoki ulardan birining familiyasini o'zgartirganligi ularning voyaga yetgan bolalarining familiyasi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

Ota-onalardan har ikkalasining familiyasi o'zgartirilishi 16 yoshga to'lmagan bolalar familiyasining ham o'zgartirilishiga sabab bo'ladi.

Agar ota-onadan biri familiyasini o'zgartirsa, ularning voyaga yetmagan bolalarining familiyasini o'zgartirish masalasi ota-onalarning kelishuviga binoan, bunday kelishuv bo'lmaganda esa vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Otaning ismini o'zgartirishi voyaga yetmagan bolalarning ota ismi o'zgarishiga olib keladi. Voyaga yetgan bolalarning ota ismi faqat ularning arizalariga ko'ra o'zgartiriladi.

Agar nikohga kirish paytida o'zining nikohgacha bo'lgan familiyasini saqlab qolgan shaxs keyinchalik erining familiyasini qabul qilsa, shuningdek, nikohga kirish paytida qabul qilgan familiyasini nikohgacha bo'lgan familiyasiga o'zgartirsa, u holda o'zgartirish faqat nikoh tuzilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga kiritiladi.

Agar nikohdan ajratilgandan keyin nikohdagi familiyasini saqlab qolgan shaxs uni nikohgacha bo'lgan familiyasiga o'zgartirsa, u holda o'zgartirish faqat nikohdan ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga kiritiladi.

16 yoshga to'lgan shaxslar tomonidan familiyasi, ismi, ota ismi o'zgartirilgan barcha hollarda o'zgartirish faqat tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvining «bola to'g'risida ma'lumotlar» ustuniga kiritiladi. Ota-ona to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgarishsiz qoldiriladi.

O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolarining arizalari konsul tomonidan ko'rib chiqiladi. Arizaga mazkur Qoidalarining 167-moddasida ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinishi lozim. Zarur hollarda konsul arizachining iltimosi asosli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni va o'zgartirish kiritilishi lozim bo'lgan dalolatnoma yozuvlarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali tegishli organlardan talab qilib oladi.

Yig'ilgan hujjatlar asosida konsul Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasining yoki ariza beruvchi yashab turgan davlatning vakolatli organlaridan ariza beruvchining familiyasi, ismi, ota ismini o'zgartirishiga ruxsat berilganligi haqidagi xulosani olishi zarur.

Ushbu xulosa asosida konsul familiya, ism, ota ismini o'zgartirish haqida asoslangan xulosa tuzadi va uni yig'majild bilan birga o'zgartirish kiritilishi lozim bo'lgan dalolatnoma yozuvi saqlanib turgan FHDY organiga yuboradi.

Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi ariza 45 kun mobaynida ko'rib chiqilishi kerak. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirganlik uchun belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Nazorat savollari

1. Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish tartibi qanday?
2. Voyaga yetmagan shaxsning ismini o'zgartirishga yo'l qo'yiladimi?
3. Familiya, ism, ota ismi o'zgarganligining huquqiy oqibatlari.

23-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK HUQUQINING TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI, TIZIMI VA MANBALARI

1-§. Fuqarolik huquqi tushunchasi

Fuqarolik huquqi O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo‘lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish davrida fuqarolar va boshqa subyektlarning moddiy, ma‘naviy ehtiyojlarini tobora to‘laroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish, mustahkamlashga qaratilgan huquq normalari yig‘indisidan iboratdir. Sodda qilib aytganda, fuqarolik huquqi yuridik jihatdan teng bo‘lgan subyektlar o‘rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda mustahkamlaydigan huquqiy normalar yig‘indisidir. Fuqarolik huquqining huquq sohaları tizimida tutgan o‘rnini anglash uchun, dastavval, ushbu huquq sohasi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarni tahlil etish lozim.

Fuqarolik huquqi shaxslarning maishiy, savdo-sotiq, kommunal, transport xizmati ko‘rsatish sohasidagi munosabatlarini tartibga solib turadi. Bu munosabatlar mulkiy va shaxsiy munosabatlarga bo‘linadi.

Mulkiy munosabatlar mol-mulkning muayyan shaxslarga tegishli ekanligi, mol-mulkning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mulkiy munosabatlarning birinchi guruhiga mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish sohasidagi munosabatlar kiradi. Mulkiy munosabatlarning ikkinchi guruhiga, avvalo, ko‘pdan ko‘p shartnoma munosabatlari (maxsulot yetkazib berish shartnomasi, pudrat shartnomasi, yuklarni

tashish shartnomasi munosabatlari) kiradi. Biroq bu munosabatlar shartnoma asosida paydo bo'lmashligi ham mumkin. Xususan yetkazilgan zararining o'rmini qoplashda, asossiz ravishda qo'lga kiritilgan yoki saqlangan mol-mulkni qaytarib berishda, meros mulkining merosxo'rga o'tishida ko'rish mumkin.

Shaxsiy nomulkiy munosabatlar mulkiy munosabatlardan shunisi bilan farq qiladiki, ular qiymat bilan ifodalanmaydi, shaxs bilan chambarchas bog'liq bo'lib, undan ajralmasdir. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar fuqarolar o'rtasida ham, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o'rtasida ham kelib chiqishi mumkin. Shaxsiy nomulkiy munosabatlar mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lishi va bog'liq bo'lmashligi ham mumkin. Birinchi holda biror kishi shaxsiy nomulkiy munosabatlarining poymol qilinishi unga ma'lum miqdorda moddiy zarar yetkazishi ham mumkin. Masalan, kishining oladigan qalam haqi uning asar muallifi deb tan olingan yoki tan olinmaganiga bog'liq bo'ladi.

Mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan nomulkiy munosabatlarga, shuningdek, tasviriy san'at asarini (agar unda boshqa shaxs tasvirlangan bo'lsa) e'lon qilish, nusxa ko'chirish va tarqatish tufayli vujudga keladigan munosabatlar kiradi. Umumiy qoidaga ko'ra bu ish faqat uning roziligi bilan, uning vafotidan keyin esa farzandlari va turmush o'rtog'ining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Lekin shuni ham nazarda tutish kerakki, bunday shaxsiy nomulkiy munosabatlar fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadi, bunday holda u qonunda bevosita nazarda tutilgan bo'lishi yoki shaxsiy nomulkiy munosabat mohiyatidan kelib chiqishi lozim.

2-§. Fuqarolik huquqining tamoyillari va tizimi

Fuqarolik huquqining tamoyillari xususida to'xtalishdan avval, tamoyil so'zining ma'nosiga ahamiyat qaratish lozim. «Tamoyil» qonun hujjatlariga singdirilgan boshlang'ich asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi.

Har bir huquq sohasi o'z tamoyillariga ega bo'lib, mazkur tamoyillar ushbu huquq sohasini tartibga solishda mustahkamlovchi vosita vazifasini bajaradi.

O'z navbatida, tamoyillar ishlab chiqilar ekan, ushbu tamoyillar bevosita O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari asosida takomillashtiriladi.

Fuqarolik huquqining ham quyidagi tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi taraflarning teng huquqliligi;

2. Barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy tomondan bab-baravar muhofaza qilinishi;

3. Mulkiy munosabatlarning mafkuraviy munosabatlardan ajratilganligi;

4. Qonunda nimaiki taqiqlanmagan bo'lsa, ruxsat berilishi;

5. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshirilishi;

6. Qonuniy asoslarga ega bo'lmasdan turib, hech kim fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarning xususiy ishlariga o'zboshimchalik bilan aralashishga haqli emasligi;

7. Fuqarolik huquqlarining to'sqinliksiz amalga oshirilishi (FKning 1-moddasi);

8. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari buzilgan huquqlarining tiklanishi (FKning 1-moddasi);

9. Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari huquqlarining sud orqali himoya qilinishining ta'minlanishi (FKning 1-moddasi);

10. Shartnoma tuzish erkinligi (FKning 1 — 354-moddalari);

11. Bozor munosabatlari sharoitidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan fuqarolik huquqi tamoyillaridan yana biri — O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larning erkin harakatda bo'lishidir (FKning 1-moddasi).

Shu o'rinda ayrim tamoyillar xususida ham to'xtalib o'tish lozim. Jumladan, o'n birinchi tamoyil bozor iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan moddiy ne'matlarning erkin harakatlanishi hisobiga tovar-pul munosabatlari tezlashishini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanish va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning geografik joylashishi muayyan turdagi tovarlar taqsimotining nomutanosibligiga sabab bo'ladi. Mazkur tamoyil

ana shu nomutanosiblikni bartaraf etishda yetakchi o'rinni egallaydi.

3-§. Fuqarolik huquqining tizimi

Fuqarolik huquqi muayyan tizimlashtirilgan, ayni vaqtda, u xususiy huquq tizimiga kiradi.

Bunday tizimlashtirish tarkibiy qismlarga ajratish uchun asos bo'lib, butun tarmoq uchun xos bo'lgan asosiy, umumiy qoidalar — Umumiy qismni ajratish hisoblanadi. Fuqarolik huquqining Umumiy (birinchi) qismi fuqarolik huquqlari tushunchasi, ularning vujudga kelishi, amalga oshirilishi va himoya qilinishi, fuqarolik muomalasi subyektlari, obyektlari, shuningdek, muddatlar to'g'risidagi asosiy qoidalarni hamda barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlarga qo'llaniladigan umumiy tartibdagi boshqa ba'zi normalarni o'z ichiga oladi. Ushbu holatlar tizimi fuqarolik huquqi tizimini shakllantirish, o'quv-nazariy va, ayni vaqtda, huquqni qo'llash bo'yicha muhim ahamiyatga ega, chunki Umumiy (birinchi) qism tarkibiga kiruvchi qoidalar boshqa barcha fuqarolik-huquqiy normalarni qo'llashda u yoki bu darajada hisobga olinadi.

Bugungi kunda fuqarolik-huquqiy normalarni beshta kichik tarmoqlarga bo'lish qabul qilingan. Bular jumlasiga:

a) mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar (ba'zi adabiyotlarda uni ashyoviy huquq deb ham ataydilar). Ushbu kichik tarmoq mulkiy munosabatlar ishtirokchilariga ashyolar (mol-mulk) tegishliligini, mansubligini rasmiylashtiradi, bu tegishlilik esa mulkiy muomalaning sharti yoxud natijasi (oqibati) sifatida namoyon bo'ladi;

b) mulkiy muomalaning o'zini rasmiylashtiruvchi majburiyat huquqi. Majburiyat huquqi ham, o'z navbatida, shartnomalar huquqi va delikt huquqi kabi kichik tarmoqlarga bo'linadi. Ularning har ikkalasi uchun ham yagona, umumiy bo'lgan Umumiy qism mavjud. Shartnoma majburiyatlari ham, o'z navbatida, mol-mulkni ashyoviy huquq asosida topshirish, foydalanish uchun berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, birgalikdagi faoliyat

bo'yicha majburiyatlarga bo'linadi. Majburiyatlar ichida bir tomonlama harakatlar (bitimlar)dan kelib chiqadigan majburiyatlar ham alohida ajralib turadi. Buzilgan huquqni muhofaza qilishga qaratilgan majburiyatlar delikt (zarar yetkazishdan kelib chiqadigan) majburiyatlarga va asossiz boyishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga bo'linadi. Umuman olganda, majburiyat huquqi fuqarolik huquqining eng puxta tizimlashtirilgan qismi hisoblanadi. Ushbu qism o'z hajmi bo'yicha ham beqiyosdir. U FKning 20-bobidan to 58-bobiga qadar bo'lgan normalarni (234 — 1030-moddalar) qamrab olgan;

d) mutlaq huquqlar deb atalmish kichik tarmoq intellektual mulk bo'yicha normalar majmuyini tashkil etadi. Uning tarkibiga ijodiy faoliyat mahsullari (ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, integral mikrosxemalar topologiyasi, kompyuter dasturlari, mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari — fan, adabiyot, san'at asarlari va ularning ijrolari, tijorat sirlari, shu jumladan, nou-xau)ga nisbatan huquqlarni rasmiylashtirish, fuqarolik muomalasida ularning amal qilishi, ushbu nomoddiy obyektlardan foydalanish huquqiy rejimini belgilovchi fuqarolik-huquqiy normalar kiradi. Ayni vaqtda, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni shaxsiylashtirish (individuallashtirish) vositalariga nisbatan huquqlarning vujudga kelishi, amal qilishi bekor bo'lishi va huquqiy himoya qilish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik-huquqiy me'yorlar ham ushbu kichik tarmoq tarkibiga kiradi. Bunday individuallashtirish vositalari bo'lib firma nomi, tovar belgisi, tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan huquqlar hisoblanadi;

e) fuqaro vafot etgan taqdirda uning mol-mulki va mulkiy huquqlari boshqa shaxslarga (ya'ni vasiyat bo'yicha yoki qonun bo'yicha uning merosxo'rlariga) o'tishini tartibga soluvchi normalar majmuyidan iborat bo'lgan vorislik huquqi;

f) so'nggi vaqtlarda nomoddiy ne'matlarni (shaxsiy nomulkiy huquqlarni) himoya qilishni tartibga soluvchi normalar majmuyi ham fuqarolik huquqining kichik tarmog'i sifatida qaralishi to'g'risida

nuqtayi nazarlar ham ilgari surilmoqda¹. Ushbu kichik tarmoq jismoniy va yuridik shaxslarning sha'ni, qadr-qimmatini va ishbilarmonlik obro'si, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, shaxsiy daxlsizligi, ularning xususiy hayoti, erk-muxtoriyatini ta'minlovchi huquqlar va shu kabilarning vujudga kelishi, ularni amalga oshirish, huquqiy muhofaza qilish bo'yicha fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shartli ravishda bu turkumga kiruvchi huquqlarni shaxsiy huquqlar deb nomlash o'rinli bo'lur edi.

Fuqarolik huquqi tizimida kichik tarmoqlar, o'z navbatida, institutlarga bo'linadi. Huquq instituti deganda, unchalik yirik bo'lmagan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisi majmuyi tushuniladi. Har bir kichik tarmoq, o'z navbatida, huquq institutlariga bo'linadi. Masalan, majburiyat huquqi kichik tarmog'i alohida shartnomalar majburiyatlari institutlariga — oldi-sotdi, ijara, pudrat va shu kabilarga bo'linadi. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar kichik tarmog'i ham, o'z navbatida, mulk huquqi, cheklangan ashyoviy huquqlar, ularni himoya qilishning ashyoviy-huquqiy usullari institutlariga bo'linadi.

Fuqarolik-huquqiy institutlar ham, o'z navbatida, yanada bo'laklarga bo'lingan holda muayyan qismlarga tizimlashadi. Ushbu qismlar subinstitutlar deb ataladi. Ayni vaqtda, subinstitutlar ham tartibga soluvchi munosabatlari bir xilligi va yagonaligi bilan ajralib turadi. Masalan, shartnomaviy majburiyatlar institutlari ularning alohida ayrim turlari to'g'risidagi qoidalarini qamrab oladi (masalan, oldi-sotdi shartnomasi instituti quyidagi subinstitutlarga bo'linadi — chakana oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, ulgurji oldi-sotdi; ijara shartnomasi quyidagi institutlarga bo'linadi — prokat, transport vositalari ijarasi, korxonalar ijarasi, lizing (moliya ijarasi) va h.k.). Fuqarolik-huquqiy institutlar va subinstitutlari ham o'zlarining umumiy qoidalariga ega. Bu esa ularni tashkil etuvchi normalarning yuridik jihatdan bir xilligidan dalolat beradi.

¹ Гражданское право. Т.1. //Под ред. Суханова А.Е. —М.: Бек, 1998. С. 12.

4-§. Fuqarolik huquqining manbalari

Fuqarolik huquqining manbalari — bu fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisidir. Fuqarolik huquqining manbalari bo'lish uchun ularning matbuotda e'lon qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Qonun hujjatlarining matbuotda e'lon qilinishi ularning amalga kiritilishi degan tushunchani beradi.

Fuqarolik huquqining manbalarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Asosiy manba;
2. Rahbariy manba;
3. Maxsus manba;
4. Qo'shimcha manba;
5. Xalqaro shartnoma va konvensiyalar;
6. Odat huquqi normalari.

Ayrim fuqarolik huquqining manbalari xususida quyidagilarni ta'kidlab o'tish lozim.

Fuqarolik huquqining asosiy manbasi bo'lib O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi barcha qonunchilik uchun, jumladan, fuqarolik qonunchiligi uchun rahbariy manba hisoblanadi. Konstitutsiya u yoki bu munosabatni umumiy holda, konstitutsiyaviy darajada normalaydi, fuqarolik huquqiga doir qonunlar esa uni to'ldiradi, aniqlashtiradi. Konstitutsiyaning 18, 27, 36, 42, 53, 54, 56-moddalari bevosita fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 18-moddasida teng huquqlilik to'g'risida, 27-moddasida inson sha'ni, qadr-qimmatining qadrlanishi to'g'risida so'z boradi. 36-moddada esa har bir shaxsning mulkdor bo'lishi mustahkamlab qo'yilgan. 42-moddada ijod erkinligi o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning 53-moddasida: O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etishi; iste'molchilar huquqlarining ustuvorligi; iqtisodiy faoliyat; tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish va mehnat qilish erkinligi; barcha mulk shakllarining tengligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza

etilishi; xususiy mulkning boshqa mulk shakllari kabi daxlsizligi va davlat muhofazasida ekanligi; mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkinligi kabi qoidalari belgilangan.

Rahbariy manbaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohani tartibga soluvchi bir qator farmonlari, farmoyishlari, qarorlarini kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasida: «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi», — deb belgilangan. Prezident tomonidan chiqariladigan farmonlar qonun osti hujjatlari deb yuritiladi. Prezident farmonlari turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda kechiktirib bo'lmaydigan munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlash ehtiyojidan kelib chiqadi. Ularning aksariyati fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solayotganligi uchun fuqarolik huquqining manbayi bo'lib hisoblanadi.

Maxsus manbaga O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi ham konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan holda bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keladigan mexanizmni yaratishga qaratilgan. U fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda alohida o'rinni egallaydi.

«Qabul qilinadigan qonunlar va qonunchilikka oid hujjatlar o'zaro bog'langan bo'lishi va ijtimoiy yo'naltirilgan yaxlit bozor mexanizmining huquqiy tizimini jadallik bilan yaratishga ko'maklashishi kerak»¹, — deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Bozor munosabatlarining butun tizimini birlashtirishga va uning ichki uyg'unligini ta'minlashga xizmat² qiladigan, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan, bozor iqtisodiyoti

¹ Karimov I.A. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. — T.: O'zbekiston, 1993. 70-b.

² O'sha manba.

munosabatlari talablariga qaratilgan kodifikatsiyalashtirilgan qonun — Fuqarolik kodeksidir.

Amaldagi Fuqarolik kodeksi shaxslarning mulkiy huquqlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yangicha hal qildi. Unda:

— xilma-xil fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzishda keng erkinlik va imkoniyatlar berilganligi;

— fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini keng tartibga solish;

— fuqarolarning huquq layoqati kengaytirilganligi, ular yollanma mehnatdan foydalanish, xususiy mulkka, jumladan, xususiy korxonalarga ega bo'lishi, mulk shakllarining tengligi va uning himoyasi kafolatlanganligi;

— fuqarolik-huquqiy munosabat subyekti bo'lgan yuridik shaxslarga o'z faoliyatlarini amalga oshirishda, xo'jalik ishlarini yuritishda keng imkoniyatlar berilganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik huquqiga ta'rif bering.
2. Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar.
3. Fuqarolik huquqining nechta asosiy tamoyillari mavjud?
4. Fuqarolik huquqining tizimi nimaga asoslanadi?

24-BOB. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT

1-§. Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi

Mazkur huquqlar va vazifalar muayyan subyektlarga, ya'ni qonun bilan ana shunday munosabatlarga kirishish imkoni berilgan shaxslarga yuklanganligi sababli subyektiv huquq va vazifalar deb ataladi. Shuning uchun uning qatnashchilari fuqarolik huquqi normalarida ko'zda tutilgan yoki ruxsat etilgan subyektiv huquq va vazifalarning ijrochilari sifatida maydonga chiqadigan munosabat ham fuqarolik-huquqiy munosabat deb ataladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir: subyektlarning keng doirasi; obyektlarning ko'p sonli ekanligi; tomonlarning kelishuviga binoan bir qator huquqiy munosabatlarining mazmunini belgilash imkoniyati; huquqiy munosabatlarining paydo bo'lishi, o'zgarishi va to'xtatilishi asoslarining xilma-xilligi; fuqarolik huquqlarini, fuqarolik-huquqiy javobgarlik chora-tadbirlarini amalga oshirish usullarining o'ziga xos tomonlari.

Fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining tarkibi o'zgarishi mumkin, bu hol huquqning qabul qilinishi tufayli sodir bo'ladi. Huquqning qabul qilinishi deganda, huquqlarning bir shaxsdan (oldingi huquq egasidan) ikkinchi shaxsga (huquqni qabul qilgan kishiga) o'tishi tushuniladi. U oldingi huquq egasining o'rniga huquqiy munosabatlarga kirishadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar bir necha turga bo'linadi:

1) mulkiy xarakterdagi va mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy-huquqiy munosabatlar. Mulkiy xarakterdagi munosabatlar deganda, muayyan iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, masalan, mulk yuzasidan belgilanadigan, mulkni sotish, ijaraga qo'yish va boshqacha shaklda qo'ldan qo'lga

o'tkazish, umuman, mulkiy muomala bilan bog'liq huquqiy munosabatlar anglashiladi.

Mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar shaxs (fuqarolar va yuridik shaxslar) ning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'lgan, o'z sohibidan begonalashtirilishi va birovga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan shaxsiy huquqlar, chunonchi, shaxsning mualliflik nomi, qadr-qimmati va boshqa shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqlardan iborat;

2) mutlaq va nisbiy-huquqiy munosabatlar. Mutlaq-huquqiy munosabatlarda subyektiv huquq egalari o'z huquqlarining buzilmasligini har kimdan va hammadan talab qila oladilar. Mutlaq huquqlar noma'lum har bir kimsa tomonidan buzilishi mumkin bo'lgani sababli har kimdan qo'riqlanadi. Ularga mulk, mualliflik huquqlari, shaxsiy huquq kabilar kiradi.

Nisbiy-huquqiy munosabatda esa faqat bir shaxs (yoki shaxslar)gina huquq yoki majburiyat oladi. Nisbiy huquqlar zimmasiga majburiyat olgan ma'lum shaxs (yoki shaxslar) ga nisbatangina kuchda bo'ladi. Shartnomaga asoslangan barcha huquqlar nisbiy huquqlar jumlasidandir. Nisbiy huquqlarga asoslangan talablarning amalga oshirilishini, majburiyatlarning bajarilishini, qarzga olingan pulning to'lanishini o'z zimmasiga shartnoma asosida majburiyat olgan shaxsdangina talab qilish mumkin bo'ladi;

3) mulkiy-huquqiy va majburiyat-huquqiy munosabatlar. Mulkiy-huquqiy munosabatlar, yuqorida qayd etilganidek, mutlaq-huquqiy munosabat bo'lib, mulkiy xarakterga ega hamda ashyoni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etishga qaratiladi. Mulkiy-huquqiy munosabatlarda huquq egasi bo'lgan shaxslar boshqa shaxslarning ijobiy harakatlariga muhtoj bo'lmay, o'z huquqlarini o'zlari bevosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Majburiyat-huquqiy munosabatlar nisbiy munosabat bo'lib, mulkiy-huquqiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lsa ham, hamma vaqt moddiy narsa (ashyo) bilan bog'liq bo'lmاسligi mumkin. Bunday munosabatlar, odatda, fuqarolik muomalasi natijasida

vujudga keladi. Chunonchi, muayyan ishlarni bajarish, xizmat ko'rsatilishi yoki yetkazilgan zararning to'latilishiga qaratilishi mumkin. Barcha shartnomalar, bironvga zarar yetkazish, mulkni asossiz olish yoki tejash bilan bog'liq munosabatlar majburiyat munosabatlari hisoblanadi.

Bozor munosabatlari tizimida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning yangi turi — **korporativ-huquqiy munosabatlar** (4) ham vujudga keldi. Subyektlarning yuridik shaxs belgilariga ega bo'lgan tashkiliy-huquqiy tuzilmalar — korporatsiyalarda a'zoligi (ishtiroki) asosida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardir. Bunday huquqiy munosabatlar mazmunini korporativ huquq tashkil etadi. Korporativ-huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari turlicha bo'lib, ular jumlasiga:

- ta'sis shartnomasida qatnashish;
- kooperativga a'zo bo'lib kirish;
- aksiyalarni sotib olish va sh.k.lar kiradi.

Korporativ huquq tufayli korporatsiya ishtirokchilari (xo'jalik shirkatlari, jamiyatlari, kooperativlar va sh.k. a'zolari) korporatsiyani va uning mol-mulkini turli shakllarda boshqarishda qatnashadilar. Korporativ huquqlarini amalga oshira borib, korporatsiya qatnashchilari fuqarolik huquqining mustaqil subyekti — yuridik shaxs hisoblangan ushbu korporativ tuzilma erki-irodasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bunday vaziyat fuqarolik-huquqiy tartibga solish uchun tipik hol emas, chunki umumiy qoidaga ko'ra fuqarolik muomalasida subyektlar mustaqil va bir-biriga bog'liq emas, shu sababli kontragentlar erki-irodasining shakllanishida bevosita qatnasha olmaydi.

Korporativ huquqlarni amalga oshirish bevosita yoxud bilvosita bunday huquq sohiblari mulkiy manfaatlarini qanoatlantirish maqsadini ko'zda tutadi. Shu sababli ham korporativ huquqlarni mulkiy huquqlar jumlasiga mansub deb hisoblash mumkin;

5) imtiyozli (afzallik) huquqiy munosabatlar. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda muayyan huquq subyektiga imtiyoz, afzallik beruvchi huquqlar mazmunini o'z ichiga olgan alohida guruhdagi huquqiy munosabatlar mavjud. Masalan, ulushli mulkda umumiy

ulushli mulkdagi ulush sotilganda sherik mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqiga ega (FKning 224-moddasi). Yopiq aksiyadorlik jamiyati a'zosi ham o'z aksiyalarini sotganda, boshqa a'zolar sotib olishda imtiyozga ega. Garovga oluvchi garov predmeti sotilganda, uning qiymati hisobidan o'z talablarini qanoatlantirishda boshqa kreditorlarga nisbatan imtiyozga ega. Ushbu huquqlar o'ziga xos bo'lib, fuqarolik-huquqiy munosabatlari subyektlari teng huquqliligi doirasidan tashqari chiqadi. Shu sababli ham imtiyozli huquqiy munosabat faqat qonunda belgilangan asoslar bo'yicha va maxsus doiradagi subyektlar uchungina vujudga keladi. Imtiyozli huquqlar mustasno xarakterga ega bo'lib, faqat vakolatli subyektgina undan voz kecha oladi. Imtiyozli huquqlarni buzuvchi har qanday yuridik harakatlar o'z-o'zidan haqiqiy sanalmaydi.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik-huquqiy munosabat nechta elementdan tashkil topadi?
2. Mulkiy xarakterdagi va mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy-huquqiy munosabatlar.
3. Mutlaq va nisbiy-huquqiy munosabatlar.
4. Korporativ-huquqiy munosabatlar.
5. Imtiyozli (afzallik) huquqiy munosabatlar.

25-BOB. FUQAROLAR – FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA

1-§. Fuqarolik huquqining subyektlari tushunchasi

Fuqarolik-huquqiy munosabatga kiruvchi subyektlar bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, ayrim hollarda davlat ham huquqiy munosabat ishtirokchisi hisoblanadilar.

Fuqarolarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishuvining huquqiy asosi fuqarolarning huquqiy qobiliyati hisoblanadi, bunday huquqiy qobiliyat deyilganda, fuqarolarning huquq va vazifalarga ega bo'lish qobiliyati tushuniladi. Fuqarolarning huquqiy qobiliyati teng ravishda har bir fuqaroga tatbiq etiladi, bunda uning yoshi, salomatligi, millati, jinsi va shu kabilar hisobga olinmaydi. Har bir fuqaro: katta yoshdagi kishi ham, bola ham, sog'lom va ruhiy xasta bola ham fuqarolik huquqlari va vazifalariga ega bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonunlari bir qator hollarda bolaning ham fuqarolik huquqlarini tan oladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 17-moddasiga asosan barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etilishi, fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga kelishi hamda vafot etishi bilan tugallanishi normalanadi. Har bir shaxs fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqatiga molik bo'lmay turib, fuqarolik huquqining subyekti bo'la olmaydi. Bu qoida, odatda, yuridik shaxslarga taalluqli bo'lsa-da, jismoniy shaxslar uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Fuqarolarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishuvining huquqiy asosi fuqarolarning huquq layoqati hisoblanadi. Chet el fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham

huquq layoqatiga ega hisoblanadilar (garchi ba'zi bir cheklashlar bilan bo'lsa ham). Lekin bir qator hollarda bu huquq ilgariroq, xususan, shaxsning noma'lum tarzda yo'q bo'lganligi sud tomonidan e'tirof etilgan, vafot etgan deb hisoblangan hollarda ham tugashi mumkin.

Huquq layoqatining mazmuni fuqarolik qonunlariga binoan shaxs ega bo'lishi mumkin bo'lgan fuqarolik huquqlari va burchalari majmuyidan iboratdir.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas.

Davlat hayotning moddiy sharoitlariga qarab fuqarolarning huquq layoqati, ya'ni muayyan huquq va burchlarga ega bo'lish layoqatini belgilaydi. Huquq layoqatining xarakteri va mazmuni jamiyatlardagi ishlab chiqarish munosabatlaridan kelib chiqadi.

Fuqarolik huquq layoqati fuqarolarga o'zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishishning yuridik imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida aytilganidek, O'zbekiston Respublikasidagi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Ushbu qoidaga asoslangan holda fuqarolik huquqida fuqarolar huquq layoqatida teng hisoblanadi. Ya'ni barcha fuqarolarga bir xildagi huquq va burchlar belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari huquq layoqatining mazmuni Konstitutsiyaning «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» nomli ikkinchi bo'limidagi qator moddalarda keng ta'riflangan va mustahkamlangan. Ularda fuqarolarning mol-mulkka ega bo'lishi, meros olishi, meros qoldirishi, kasb va turar joy tanlash, fan, adabiyot, san'at asarlari yaratish, tadbirkorlik faoliyati bilan va umuman qonunda taqiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish, shuningdek, boshqa keng mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishlari mumkinligi aytilgan va asosiy qonun darajasida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning fuqarolik huquq layoqati mazmuni FKning 18-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga asosan fuqarolar: mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo'lishlari; mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg'armalarga ega bo'lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo'jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo'yilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; o'zlari mustaqil ravishda yoki boshqa fuqarolar va yuridik shaxslar bilan birgalikda yuridik shaxslar tashkil etishlari; qonunga zid bo'lmagan har qanday bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda qatnashishlari; boshqa shaxslar tomonidan yetkazilgan zararning to'lanishini talab qilishlari; mahsulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san'at asarlarining, ixtirolarning, qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo'lishlari; shuningdek, boshqa mulkiy va shaxsiy huquqlarga ega bo'lishlari mumkin.

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas. Fuqaroning huquq va muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi haqidagi, shuningdek, o'z huquq va muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas deb hisoblanadi (qonun yo'l qo'ygan hollardan tashqari, FKning 23-moddasi). O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasi ayrim fuqarolik huquqlaridan, chunonchi, xizmat bo'yicha cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish hollarini ko'zda tutadi. Jinoyat qonunida huquqdan mahrum qilish vaqtincha chora sifatida ko'zda tutiladi¹.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45-moddasida ko'rsatilganidek, muayyan huquqdan mahrum qilish bir yildan besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin. Bu muddat o'tgach, fuqaro yana o'zi mahrum qilingan o'sha huquqni qonuniy asoslarda qo'lga kiritishi mumkin bo'ladi.

Huquq layoqatining boshlanishi va tamom bo'lishi. Huquq layoqati kishi tug'ilganidan to o'limigacha undan ajralmaydi, u

¹ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. —T.: Adolat, 2001. 21-b.

bilan birga bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ham har xil huquqlarga, chunonchi, yashash huquqi, ovqatlanish huquqi, erkin bo'lish huquqi kabi qator tabiiy huquqlarga, shu jumladan, ota-onalardan tarbiya olish va boshqa huquqlarga ega bo'ladi. Aqli zaif va ruhiy xastalar ham huquq subyekti bo'lib hisoblanadi. Ular, xususan, davolanish, pensiya olish va boshqa huquqlarga ega. Ularning mulkiy huquqlari to'liq hajmda saqlanadi.

Kishi tug'ilishi bilan uning hayoti boshlanganidek, tug'ilishi bilan huquq subyekti sifatida yashashi ham boshlanadi. Kishining tug'ilish fakti muhim yuridik ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli bolaning tug'ilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limida (FHDY) davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Ro'yxatdan o'tkazilmaslik tug'ilgan bolaning huquqiga ta'sir etmaydi, faqat uning huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur harakatlarni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradi.

Kishining huquq layoqati uning tug'ilishi bilan boshlansa ham, qonun ba'zi hollarda hali tug'ilmagan bolaning — kelgusidagi huquq subyektining manfaatlarini ham e'tiborga oladi va qo'riqlaydi. Masalan, qonunga asosan meros qoldiruvchi vafot etgan, ya'ni qonun belgilagan tartibda meros ochilganidan so'ng tug'ilgan bolalari ham voris bo'la oladilar (FKning 1118-moddasi). Uy-joy kodeksida ko'rsatilganidek, fuqarolarga uy-joy berilganida, turar joy hajmini belgilashda oilada homilador ayollarning bo'lishi ham hisobga olinadi.

Huquq layoqati kishi, ya'ni huquq subyekti vafot etishi bilan tamom bo'ladi. O'lgan kishining to o'limiga qadar ixtiyorida bo'lgan huquq va zimmasidagi majburiyatlarning bir qismi (mulkiy, shaxsiy huquq va majburiyatlari) bekor bo'ladi, shu bilan birga ba'zi mulkiy huquqlar vorislarga o'tadi. O'lim qator huquqiy oqibatlar tug'diradigan faktdir. Shuning uchun o'lim ham tug'ilish singari fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi (FHDY) da oila qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

Normal tartibda guvohlantirilgan o'lim hollaridan tashqari, qonun fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish va vafot etgan deb e'lon qilish institutini ham belgilaydi.

Fuqarolarning muomala layoqati. Muomala layoqati fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlarini olish, amalga oshirish, o'zlari uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir (FKning 22-moddasi). Muomala layoqatini yuridik harakatlar qilish, ya'ni qonun bo'yicha ma'lum huquqiy oqibatlar qilish layoqati deb ham ta'riflash mumkin (masalan, shartnomalar tuzish, yetkazilgan zararni to'lash va hokazolar).

Muomala layoqatining huquq layoqatidan farqi shuki, barcha fuqarolar ham muomala layoqatiga ega bo'lavermaydilar. Muomala layoqatiga ega bo'lishning sharti shundan iboratki, muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o'z harakatlarining oqibatlarini tushunib harakat qiladilar. Ma'lumki, yangi tug'ilgan bola to'la huquq layoqatiga ega bo'lsa ham, o'z harakatlari bilan bironta huquq va majburiyat olmaydi. Ongli harakatlar qilish layoqati faqat ma'lum yoshga yetgandan keyingina boshlanadi. Binobarin, fuqarolik muomala layoqatining fuqaro to'la hajmda voyaga yetish bilan vujudga kelishini ko'rsatadi. Voyaga yetish 18 yoshga to'lish bilan boshlanadi. Bu yoshga yetish bilan kishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, jumladan, mulkiy munosabatlarda to'la qatnashuvchigina bo'lib qolmay, siyosiy huquqlar bilan birga, boshqa fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini ham oladi.

Qonun voyaga yetish yoshini belgilash bilan bir qatorda, voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'lishini ham belgilaydi (FKning 22-moddasi).

Voyaga yetgan fuqarolar teng darajada muomalaga layoqatli hisoblanadilar. Fuqarolarning muomala layoqati faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Fuqaroning muomala layoqatini cheklashga qaratilgan bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emas (FKning 23-moddasi).

To'la muomala layoqati, yuqorida ko'rsatilganidek, o'n sakkiz yoshga yetgan fuqarolarga berilgani sababli bu yoshga to'lmagan shaxslarning huquqiy holatini belgilashda ular ikkiga bo'linib,

o'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan va o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar muomala layoqati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) to'la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblana-dilar.

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar:

- mayda maishiy bitimlar;
- tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
- qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni amalga oshirishga haqlidirlar (FKning 29-moddasi).

O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ularning nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzadilar.

Birovga yetkazilgan zararlari uchun ham kichik yoshdagi bolalar javobgar bo'lmaydilar. Ular uchun ota-onalari yoki boshqa nazoratchilari javobgardir. O'n to'rt yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning banklarga omonat qo'yish va ularni tasarruf qilish huquqlari qonun bilan belgilanadi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (o'smirlar) qisman muomalaga layoqatli bo'lib, qonuniy vakillari (ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylari)ning roziligi bo'lgan taqdirda o'z harakatlari bilan huquq va majburiyatlar olishlari mumkin.

O'smirlar bitimlarni ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining roziligi bilan tuzadilar. Ammo ular mustaqil ravishda o'zlarining ish haqlari yoki stipendiyalarini tasarruf qilishga, o'z asarlari, ixtirolariga bo'lgan mualliflik hamda ixtirochilik huquqlarini, o'z kashfiyotlariga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga, kredit muassasalariga mablag'lar qo'yish va ularni tasarruf etishga, shuningdek, mayda maishiy bitimlarni tuzishga haqlidirlar. Ular 16 yoshdan xususiy korxonalarga a'zo bo'lib kirishlari mumkin.

Yetarli asoslar mavjud bo'lganida sud qonuniy vakillari yoxud vasiylik va homiylik organining iltimosnomasiga ko'ra o'smirning o'z ish haqi yoki stipendiyasini mustaqil tasarruf qilish huquqini cheklashi yoki bu huquqdan mahrum etishi mumkin (FKning 27-moddasi 8-bandi).

O'smirlar boshqa shaxslarga yetkazilgan zararlari uchun FK bilan belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Ruhiy kasallar va aqli zaiflar to'la hajmda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar. Ongli harakatlar qilish va o'z harakatlarning yuridik oqibatlarini hisobga olish layoqati (muomala layoqati)ga, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli ega bo'lmagan fuqaro muomala layoqatiga ega emas deb topilishi mumkin. Har qanday ruhiy kasallik yoki aqli zaiflik fuqaroni ongli harakatlar qilish va fuqarolik muomalasida qatnashish layoqatidan mahrum qilmaydi. Ruhiy holat buzilishi faktining o'zigina kishini muomalaga layoqatsiz deb topishga asos bo'lmaydi. FKda ko'rsatilishicha, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlarning ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin, shu munosabat bilan unga nisbatan vasiylik belgilanadi (FKning 30-moddasi).

Ruhiy kasalni yoki aqli zaif kishini sud tomonidan tayinlangan psixiotor (ruhshunos)larning ishtiroki bilan bo'ladigan maxsus komissiya tomonidan ko'rib tekshirish va uning natijalari haqida dalolatnoma tuzish sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topish haqida hal qiluv qarori chiqarish uchun asos bo'ladi. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni ularning vasiylari tuzadilar.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo'lgan asoslar bekor bo'lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va belgilangan vasiylikni bekor qiladi (FKning 30-moddasi). Qonun ba'zi hollarda voyaga yetgan fuqarolarning muomala layoqatini cheklash hollarini nazarda tutadi, chunonchi, FKning 31-moddasida ko'rsatilishicha, spirtli ichimliklarni yoki giyohvand vositalarni iste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga

solib qo'yayotgan fuqaroning muomalaga layoqati Fuqarolik-protsessual kodeksida belgilangan tartibda sud tomonidan cheklab qo'yilishi mumkin. Bunday holda u mayda maishiy bitimlarni istisno qilganda, qolgan bitimlarni homiyning roziligisiz tuza olmaydi. Agar fuqaro spirtli ichimliklarni yoki giyohvand vositalarni iste'mol qilsa va bu bilan o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'ysa, fuqarolik qonunlarida uning muomala layoqatini cheklash imkoniyati ko'zda tutilgan. Bunday shaxslarning muomala layoqatini sud cheklaydi. Fuqaro spirtli ichimlikni suiiste'mol qilishni va giyohvandlikni to'xtatgan taqdirda sud muomala layoqatining cheklanishini bekor qilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Fuqarolarning huquq va muomala layoqati.
2. Huquq va muomala layoqatining cheklanishi.
3. Voyaga yetmagan shaxslarning huquq va muomala layoqati.

26-BOB. FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTALARI

1-§. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi

Huquqiy munosabatlarning obyekti huquq subyektlarining harakatlari qaratilgan, huquq va majburiyatlar uning ustida belgilangan narsalardir.

O'zbekiston Respublikasi FKning 81-moddasiga asosan fuqarolik huquqlarining obyektlari jumlasiga:

- ashyolar;
- mol-mulklar;
- pullar va qimmatli qog'ozlar;
- ishlar va xizmatlar;
- intellektual faoliyat natijalari;
- shaxsiy nomulkiy huquqlar kiradi.

Umumiy holda fuqarolik huquqining obyektlarini ikki turga, ya'ni moddiy va nomoddiy ne'matlarga bo'lish mumkin.

Boshqacha aytganda, jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishi va tasarruf etishini amalga oshira oladigan, erkin suratda olish, sotish huquqi va odob-axloq normalari bilan cheklanmagan yoki taqiqlanmagan har qanday moddiy narsalar va moddiy qiymatliklar, qadriyatlar boylik hisoblanib, fuqarolik huquqining obyekti bo'la oladi.

Nazorat savollari

1. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi.
2. Fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida ashyolar, mol-mulklar va boshqalar.

27-BOB. FUQAROLIK HUQUQIDA BITIMLAR

1-§. Bitimlar tushunchasi va bitimlarning bozor munosabatlarida tutgan o'рни

Ma'lumki, bitimlar shaxslar o'rtasidagi fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlari natijasida yuzaga keladi. Bitim tushunchasi FKning 101-moddasida o'z ifodasini topgan. Bitimlarning huquqiy maqomi fuqarolik huquqi, qolaversa, xususiy huquqning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Bu tasodif bo'lmay, aksariyat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishida ushbu fuqarolik-huquqiy institutning o'рни beqiyos. Har qanday bitim shaxslarning erk-irodasi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir huquqiy oqibat tug'dirishga qaratiladi va muayyan shaklda izhor etiladi. Bitimlarni tuzuvchilar fuqarolik huquqining subyekti bo'lib, ularda ushbu bitimni tuzish erkinining mavjudligi va bu erk ma'lum huquqiy oqibatlar tug'dirishga qaratilganligi hamda ma'lum shaklda izhor qilinganligi mazkur tushunchani bitim deb baholashga sabab bo'ladi.

Bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi (FK, 101-modda).

Bitim va shartnoma o'rtasida muayyan bir farqlar mavjud. Bitim to'g'risida FKning 101-moddasida berilgan ta'rifda u bitim tuzuvchilarning harakatlaridan iborat ekanligi belgilangan. Shartnoma esa, FKning 353-moddasiga asosan, ikki yoki bir necha shaxsning kelishuvi natijasida yuzaga keladi. Demak, shartnoma va bitim o'rtasidagi farqlardan biri bitim harakatdan kelib chiqsa, shartnomada ushbu harakatning o'zi kifoya bo'lmay, ikki yoki undan ortiq shaxsning kelishuvi ham talab etiladi.

Bitim o'zining muayyan bir huquqiy oqibat tug'dirishi, ma'lum bir huquqiy natijaga erishishi bilan boshqa yuridik faktlardan farqlanadi va shu sabab bitimni erk bayonnomasi deb ham atash mumkin. To'g'ri, davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham muayyan huquqiy oqibat, natija keltiruvchi hujjatlar qabul qiladi, lekin ularda aynan erk muxtoriyati — ishtirok etuvchilarning umumiy xohish-irodasining mavjud emasligi bitimlardan ajralib turishiga sabab bo'ladi va ularga nisbatan bitimlar to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llanilmaydi.

Bitimlar fuqarolik huquqi fanida ma'lum bir belgilari bo'yicha turkumlanadi. Masalan, erkning ifodalanishiga qarab bir, ikki yoki ko'p tomonlama bitimlarga bo'linsa, muqobil ijroning bo'lish-bo'lmasligiga qarab, haq baravariga va tekinga tuziladigan bitimlarga bo'linadi, qay paytdan e'tiboran tuzilgan, deb hisoblanishiga qarab esa konsensual va real bitimlarga bo'linadi. Ushbu bitimlarning turkumlanishi ichida biz uchun eng muhimi erkning ifodalanishiga qarab turkumlanishi bo'lib, ushbu turi bitim va shartnomaning muayyan darajada farqlarini ko'rsatib beradi. Bu yerda farq umumiy ma'noda emas, aksincha, shartnoma ham bitimning bir turi, lekin mazkur turkumlash orqali boshqa bitim turlaridan shartnomaning ajralib turuvchi xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Bitimlar bo'lishi uchun mezon erk-irodaning ifodalanishi bo'lsa, shartnomalarda bo'lish uchun asosiy mezon huquq va majburiyatlarning ifodalanishiga qarab belgilanadi. Bitim faqat bir tomonning erki bilan vujudga kelishi mumkin, shartnoma esa bir tomonning erki bilan vujudga kelmaydi, aksincha, bu yerda albatta kelishuv bo'lishi talab etiladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti ham shartnomaviy munosabatlarning yangidan yangi turlarini vujudga keltirmoqda. Masalan, hozirgi amaldagi FKdan tashqari, boshqa qonunlarda konsessiya, mahsulot taqsimotiga oid bitim kabi yangi shartnomalar nazarda tutildi. Elektron vositalar orqali shartnomalar tuzish, birjalarda shartnomalar tuzish bo'yicha yangidan yangi normalar vujudga keldi. Lekin shunga qaramay, mamlakatimizda hozirda mavjud bo'lgan

barcha fuqarolik qonun hujjatlari shartnomalarning hamma turlarini qamrab olgan deb bo'lmaydi. Masalan, notijorat hamkorlik, birgalikdagi faoliyat bo'yicha, distributerlik shartnomalari, ayrim turdagi litsenziya shartnomalari, tolling, konsignatsiya, logistika, fyuchers bitimlarining huquqiy asoslari mamlakatimiz qonunchiligida anchayin zaif yoxud deyarli ishlab chiqilmagan. Biroq mamlakatimizda bunday shartnomalar tuzilishi, ijro etilishiga hech qanday monelik yo'q. Mamlakatimiz qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomalar bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilishni so'rab taraflar sudlarga murojaat qilishga haqlidirlar. Bunda vujudga keladigan nizolar umumiy tartibda hal etiladi. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik lozimki, qonunda nazarda tutilmagan shartnomalarni tuzish huquqi mutlaqo chegarasiz emas, u muayyan doiraga ega.

Bitimlar uchun quyidagi shartlarning bo'lishi muhimdir:

a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanishi;

b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki bo'lishi va bu erk ma'lum huquqiy oqibatlar tug'dirishga qaratilgan bo'lishi;

d) shaxsning erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o'zining tashqi ifodasini topishi, ya'ni ma'lum shaklda izhor qilingan bo'lishi kerak.

2-§. Bitimlarning turlari va ularning tasniflanishi

Fuqarolik huquqi fanida bitimlar o'zlarining belgilari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi (klassifikatsiya qilinadi):

1. Bitimlar erkning ifodalanishiga qarab bir, ikki va ko'p tomonlama bitimlarga bo'linadi. Ushbu holat FKning 102-moddasida belgilangan bo'lib, unda bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnomalar) bo'lishi mumkinligi, bitim tuzish uchun qonun hujjatlariga yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanishi, shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko'p

taraf (ko'p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo'lishi kerakligi belgilangan.

Bir taraflama bitim qoidalari FKning 103-moddasida o'z ifodasini topgan. Bir tomonlama bitimdan faqat bir tomonninggina erki ifodalanadi, huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo'yichagina vujudga keladi, o'zgaradi yoki bekor bo'ladi. U boshqa shaxslar uchun qonunlarda yoki bu shaxslar bilan kelishuvda belgilangan hollardagina burchlar keltirib chiqarishi mumkin. Bir taraflama bitimlarga nisbatan, basharti qonun hujjatlariga, bitimning tabiati va mohiyatiga zid bo'lmasa, majburiyatlar va shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalar tegishlicha qo'llaniladi.

Bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun majburiyatlar keltirib chiqaradi. Bir taraflama bitimda unda ishtirok etuvchi bir tarafning erki bayon etilishining o'zi kifoya. Bir taraflama shartnomalarda ishtirok etuvchi taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi. Ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat mavjud bo'ladi. Masalan, FKning 732-moddasida belgilangan qarz shartnomasiga ko'ra, bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi. Bunda bir taraf bo'lgan qarz beruvchida faqatgina shartnomada belgilangan qarz summasini berish huquqi mavjud xolos, u qarz berishga majbur emas. Shu sabab ham qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Bu kabi bitimlarga yana hadyani ham kiritish mumkin. Hadya bir tomonlama, real, tekinga tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Shubhasiz, hadya bir tomonlama bitim bo'lib, taraflarning o'zaro kelishuviga asoslanadi. U hadya oluvchining taklif qilingan mulkiy huquqni qabul qilishga rozilik berishida ifodalanadi, aynan shu belgisi bilan hadya qarz shartnomasidan farq qiladi¹.

¹ Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. II qism. —T.: Ilm Ziya, 2008. 114-b.

Renta shartnomasi ham bir tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi. Ya'ni renta oluvchida faqat renta to'lovini o'z vaqtida to'lashni va mol-mulkdan oqilona doirada foydalanishni talab qilish huquqi, renta to'lovchida renta to'lovlarini o'z vaqtida to'lab borish majburiyati mavjud bo'ladi.

Shuningdek, tekin foydalanish, bank omonati, ommaviy tanlov, mukofotni oshkora va'da qilish, vasiyatnoma, ishonchnoma bilan bog'liq bitimlar bir tomonlama bitim hisoblanadi.

Ikki tomonlama bitimlar har ikki tomonning erkiga muvofiq tuziladi. Bunday bitimlar — shartnomalardir. «Ikki tomonlama» iborasi bitimda ishtirok etuvchi taraflarning sonini belgilab bermaydi. Masalan, qarz shartnomasida o'z-o'zidan ikki taraf — qarz beruvchi va qarz oluvchilar ishtirok etsa-da, u bir tomonlama shartnoma hisoblanadi. Ikki tomonlama bitimning mohiyati har ikki tarafda ham huquq va majburiyatning mavjudligi orqali belgilanadi, ya'ni bir tarafning huquqi ikkinchi tarafga majburiyat bo'lib o'tadi yoki aksincha. Aynan shu holatni oldi-sotdi shartnomasi misolida tushuntirishga harakat qilamiz. Ma'lumki, oldi-sotdi shartnomasida ikki taraf — sotuvchi va sotib oluvchi ishtirok etadi. FKning 386-moddasiga muvofiq, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyatini oladi.

Ushbu normadan ko'rinib turibdiki, sotuvchining mol-mulkni sifatli, o'z vaqtida shartnomada kelishilgan shartlar asosida topshirish majburiyati sotib oluvchida, aksincha, shu holat — mol-mulkni sifatli, o'z vaqtida shartnomada kelishilgan shartlar asosida topshirilishini talab qilishga bo'lgan huquqni keltirib chiqaradi. Shuningdek, sotib oluvchining sotib olinayotgan tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyati sotuvchiga tovarni qabul qilishni va uning uchun belgilangan pul summasini o'z vaqtida kelishilgan shartlar asosida to'lashni talab qilish huquqini beradi.

Ko'p tomonlama bitimlarda uch va undan ortiq shaxslarning erklari ifodalanadi. Ko'p tomonlama bitimga oddiy shirkat (birgalikdagi faoliyat) shartnomasi misol bo'ladi. Ko'p tomonlama bitimlar ham ikki tomonlama bitimlar singari o'zaro kelishuvlar, ya'ni shartnomalardir.

Ayrim hollarda bitimlar ham bir tomonlama, ham ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bunda bitimning holatiga qarab uni bir yoki ikki tomonlama bitimlar turkumiga kiritiladi.

Masalan, sug'urta shartnomasi tuzilishi jarayonida sug'urta badalining bir yo'la to'lanishi bilan sug'urta qildiruvchida majburiyat qolmasligini nazarda tutib uni bir tomonlama va konsensual shartnomalar turkumiga ham mansub bo'ladi, deb hisoblaydilar¹. Sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi haqida xabar berish majburiyatining saqlanib qolinishi sug'urta shartnomasining ikki tomonlama shartnoma sifatidagi xususiyatini o'zgartirmaydi².

Shuningdek, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi mazmunidan kelib chiqib, ushbu shartnoma bir tomonlama xarakterga ega. Biroq, shartnoma yuzasidan ishonchli boshqaruvchiga haq to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, bu shartnomani ikki tomonlama, deb hisoblash ham mumkin³.

Bitim shakllari. Bitim tuzishda erkni ifodalash usuliga bitim shakli deb aytiladi. Bitimlar og'zaki va yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuziladi (FKning 105-moddasi 1-bandi).

FKning 106-moddasiga binoan, qonun hujjatlarida yoki tараflarning kelishuvida yozma tasdiqlangan shakl belgilab qo'yilmagan, jumladan, u tuzilayotgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan bitim og'zaki tuzilishi mumkin. Shaxsning xatti-harakatidan uning bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan holda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi.

Jeton, patta yoki, odatda, qabul qilingan boshqa belgi berish

¹ Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Договоры о выполнении работ и оказании услуг. —М.: Статут, 2002. С. 572.

² Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. II qism. —T.: Ilm Ziya, 2008. 526-b.

³ O'sha manba, 475-b.

bilan tasdiqlangan bitim, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, og'zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi.

Yozma shaklda tuzilgan shartnoma bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo'lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og'zaki tuzilishi mumkin.

Qonunda indamasdan, sukut saqlash orqali ham bitim tuzilishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bu holda xalqimizning qadimdan mavjud «sukut — rozilik alomati» qoidasi amal qiladi. Biroq bunday usulda bitim tuzishga faqat cheklangan hollardagina yo'l qo'yiladi. FKning 105-moddasiga asosan sukut saqlash qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodaning ifodasi hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, shaxsning xulq-atvori, xatti-harakatlaridan bitim tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan hollarda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi. Bu usulda tuzilgan bitimlarning nomi lotincha «konkludo» so'zidan olingan bo'lib, «tuzaman» degan ma'noni anglatadi. Konkludent harakatlar shunday harakatlarki, ular og'zaki shaklda ham, yozma shaklda ham ifoda etilmagan bo'lsa-da, shaxsning niyati, maqsadi haqida o'z-o'zidan guvohlik berib turadi. Yozma shaklda tuziladigan bitimlar ikki turga:

a) oddiy yozma;

b) notarial idoralarda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa organlarda tasdiqlanadigan bitimlarga bo'linadi.

Oddiy yozma bitim deb, bitimning shartlarini o'z ichiga olgan va taraflar (yoki bir taraf) tomonidan imzolangan hujjatga aytiladi. Bitimlar quyidagi hollarda oddiy yozma shaklda tuziladi:

1) yuridik shaxslarning o'zaro va fuqarolar bilan tuziladigan bitimlari (chunki yuridik shaxslar mavzusida aytganimizdek, yuridik shaxslarning mulki va mablag'lari uning balansida aks ettirilishi kerak. Binobarin, yuridik shaxsning turli bitimlar tuzish orqali ko'rgan daromadi yoxud zarari ham buxgalteriya balanslarida rasmiylashtirilishi kerak);

2) fuqarolar o'rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat'i nazar boshqa bitimlar.

Yozma bitim uni tuzuvchilar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanishi kerak. Agar fuqaro jismoniy kamchiligi, kasalligi yoki boshqa biror sabablar tufayli bitimni imzolay olmasa, bu holda uning topshirig'iga binoan boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Bu fuqaroning imzosi bitim tuzuvchi ishlab yoki o'qib turgan tashkiloti va yashash joyidagi uy boshqarmasi yoki u davolanayotgan muassasaning ma'muriyati yoxud notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim. Bunday hollarda bitim tuzgan shaxsning o'zi qanday sabab bilan bitimni imzolay olmaganligi, albatta, ko'rsatilishi kerak.

Nazorat savollari

1. Bitim nima?
2. Bitim turlari.
3. Bitimning qanday shakllari mavjud?
4. Bitimning boshqa yuridik faktlardan farqi.

28-BOB. VAKILLIK VA ISHONCHNOMA

1-§. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va belgilanish asoslari

Vakillik deb, bir shaxsning ikkinchi shaxs nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirishi tushuniladi.

Vakillikdan fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham keng foydalanadilar. Harakatlar shaxsning shaxsan o'zi amalga oshirishi mumkin bo'lgan hollarda (vasiyat qilish, nikohdan o'tish) vakillikka yo'l qo'yilmaydi.

Vakillikning mohiyati shundan iboratki, vakil ish olib boradi, huquq va vazifalar vakil yuborgan kishida bo'ladi. Vakillik qonun bo'yicha (ota-onalar, vasiylar) va topshiriq asosida bo'lishi mumkin. Topshiriq maxsus hujjat-ishonchnomada bir shaxs ikkinchi shaxsga uchinchi shaxs oldida vakillik qilishi uchun beriladigan yozma vakolatda qayd etilishi lozim.

Vakillikning mohiyati shundaki, bunga asoslanib tuzilgan bitimlar faqat vakolat beruvchi uchungina muayyan huquq va majburiyatlarni tug'diradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Vakilning shaxsan o'zi esa, bitimlar yuzasidan hech qanday huquq va majburiyatlar olmaydi. Kishining shaxsi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan bitimlarni vakil orqali tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, nikoh shartnomasiga kirishish alimentlarni undirish yoki to'lash bilan bog'liq majburiyatlardir.

Vakillik orqali huquq layoqatini amalga oshirish, ya'ni huquqlar olish va majburiyatlarni bajarish mumkin bo'lmaganligi sababli vakillarning xizmatiga fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham muhtoj bo'ladilar. Chunonchi, fuqaro o'ziga qarashli uy-joyni vakil orqali boshqarishi yoki sotishi, tashkilotlar esa vakillari orqali bir-birlari bilan har turli shartnomalar tuzishlari mumkin.

Muomalaga layoqatli fuqarolargina vakil bo'lishlari, vakillik qilishlari mumkin. Istisno sifatida ayrim hollarda o'n olti yoshga to'lib, pasport olgan fuqaro ham vakil bo'lishi mumkin. Fuqarolarning faqat bir-birlari uchungina emas, ba'zi hollarda tashkilotlar uchun ham vakil bo'lishlariga qonun yo'l qo'yadi. Masalan, savdo va ta'minot bo'limlarining agentlari, mahsulot tayyorlovchi vakil va boshqa xodimlar tashkilotlarning vakillari sifatida ish bajaradilar.

Yuridik shaxs faqat o'z ustavida nazarda tutilgan hollarda yoki o'z faoliyatining xarakteriga muvofiq bo'lgandagina fuqarolarning vakili yoki boshqa yuridik shaxs vakili sifatida harakat qilishi mumkin.

Tashkilotlarning mulkiy huquqlarini, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlash maqsadida qonun kimlarning vakil sifatida harakat qila olmasligini belgilaydi. Jumladan, tashkilotning bosh buxgalteriga o'zi ishlab turgan tashkilot uchun bankdan va moliya organlaridan naqd pul, shuningdek, boshqa tovar, moddiy boyliklar olishga yo'l qo'yilmaydi. Savdo korxonalari va boshqa tashkilotlar o'zlaridan olingan vakolatnomalar yuzasidan hisobot bermagan mansabdor shaxslarni tovar, boshqa ashyolarni olish uchun vakil qila olmaydi.

Sudda voyaga yetmagan shaxslar, vasiylik va homiylik ostidagi shaxslar fuqarolarning vakillari sifatida qatnasha olmaydilar. Sudyalar, tergovchilar, prokurorlar qonuniy vakil sifatida (otonalalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar), shuningdek, tegishli sud yoki prokuraturaning vakili sifatida qatnashish hollaridan tashqari, sudda vakil bo'la olmaydilar (FPKning 51-moddasi).

Vakolat beruvchi har qanday shaxs muomalaga layoqatli va muomalaga layoqatsiz fuqarolar ham, shuningdek, yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

2-§. Vakolat va uning turlari

Vakil o'zida bo'lgan vakolatga binoan o'zini vakil qiluvchiga nisbatan muayyan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi,

o'zgartiradi va bekor qiladi. Binobarin, vakolat deb vakilning boshqa shaxs nomidan muayyan yuridik harakatlar qilishiga va shu bilan u uchun huquqiy oqibatlarni vujudga keltirishiga qaratilgan huquq tushuniladi. Vakilning vakolatlari qonunga, sud qaroriga, vakil qilingan davlat organlarining hujjatiga yoki ishonchnomaga asoslangan bo'lishi mumkin.

Vakil o'z vakolatini vakolat beruvchining manfaatlarini ko'zlabgina amalga oshirishga majbur. Binobarin, vakil o'ziga vakolat bergan shaxs nomidan, shaxsan o'ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtda vakili bo'lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas (tijorat vakilligi bo'lgan hollar bundan mustasno, FKning 129-moddasi 3-bandi).

Agar oshkora shaxs nomidan harakat qilish uchun hech qanday vakolat bo'lmasa yoki vakolatli bo'lsa ham uning doirasidan chetga chiqilgan bo'lsa, bu holda tuzilgan bitimlar bo'yicha kim nomidan harakat qilgan bo'lsa, mazkur shaxs uchun huquq va majburiyatlar vujudga kelmaydi.

FKning 132-moddasida ko'rsatilganidek, boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlardan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergan shaxs keyinchalik ma'qullagan taqdirdagina uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergan shaxs bitimning ijroga qabul qilinganligidan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham bunday bitim ma'qullangan hisoblanadi.

Vakil qiluvchi tomonidan bitimning kelgusida ma'qullanishi u tuzilgan vaqtdan e'tiboran haqiqiy deb hisoblashga huquq beradi.

Bitimlar tuzishda vakil o'z erki bilan harakat qiladi. Bu holda u o'ziga berilgan vakolatning hajmiga, amaldagi huquqiy normalarning qoidalariga, vakil qiluvchining bergan ko'rsatmalariga asoslanib ish tutadi. Bitim tuzilishida vakilning erki ham vakolat doirasida ifodalanganligi sababli vakilning jiddiy ravishda yanglishishi, aldanishi, qo'rqitilishi yoki zo'rlik ta'sirida tuzilgan bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Vakil komissionerdan farq qiladi. Agar vakil bitim tuzishda boshqa shaxs nomidan harakat qilsa, komissioner boshqa bir

shaxs — komitent topshirig'i bo'yicha va uning hisobiga harakat qilsa ham bitimni o'z nomidan tuzadi.

Vakil vakil qiluvchi tomonidan yuridik harakatlar qilish vakil qiluvchi uchun muayyan fuqarolik huquqlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish niyatida bo'lganligini o'zi bilan bitim tuzuvchi shaxslarga ochiq-ravshan bildirishi lozim. Vakilning bunday niyatda bo'lganligi vakil harakat qilib turgan vaziyatning o'zidan ham ko'rinib turishi mumkin. Masalan, chakana savdo korxonasidagi sotuvchi, kassir va boshqalarning harakatlari ularning muayyan bir tashkilot vakillari bo'lishlarini bildiradi.

Vakil bilan vakolat beruvchi o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardan vakilning yuridik harakatlari tufayli, jumladan, u tomonidan tuzilgan bitim tufayli, vakolat beruvchi bilan uchinchi shaxslar o'rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatni ajratish kerak. Agar vakil bilan vakolat beruvchi o'rtasidagi munosabat (ichki munosabat) shartnomaga, masalan, topshiriq yoki mehnat shartnomasiga asoslangan yoxud boshqa turdagi yuridik faktlarga, chunonchi, tug'ilganlik, vasiylik, farzandlikka olish faktlariga asoslangan vakolat beruvchi bilan uchinchi shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabat (tashqi munosabat) vakilning uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimi asosida vujudga keladi.

Vakolat qanday asoslardan vujudga kelishiga qarab, vakillik ikki turga: qonun bo'yicha vakillik va shartnoma bo'yicha, ya'ni ixtiyoriy vakillikka bo'linadi.

Vakillik va uning vakolati normativ akt bilan belgilangan holda bunday vakillik muomalaga layoqatsiz shaxslar: yosh bolalar, ruhiy kasallar, aqli zaiflarning huquq va manfaatlari qo'riqlanishini ta'minlashga qaratiladi. Sud organlarida vakillik qilish to'g'risidagi qoidalar tegishli qonunlar bilan belgilanadi.

Ota-onalar, farzandlikka oluvchilar va vasiylar FKning 131-moddasida belgilanganidek, qonuniy vakillar hisoblanadilar.

Shartnomali, ya'ni ixtiyoriy vakillikda vakil va uning vakolati vakil qiluvchining erki bilan belgilanadi. Bunday vakillikda vakil va uning vakolati vakil qiluvchi tomonidan ko'rsatiladi.

Shartnoma bo'yicha vakillikda mehnat shartnomasiga binoan tashkilot nomidan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi xizmatchi, masalan, tashkilotlarning yurist maslahatchilari, ta'minot vakillari va boshqalar vakil bo'lib hisoblanadilar.

Topshiriq shartnomasiga binoan berilgan vakolatnomaga asosan harakat qiluvchi shaxslar ham shartnoma bo'yicha vakil bo'la oladilar.

Korxona rahbari korxona nomidan boshqa subyektlar bilan munosabatlarga kirishganda maxsus yozma vakolatnomasiz ish yuritishga haqli.

3-§. Ishonchnoma muddati va shakli

O'zbekiston Respublikasi FKning 134-moddasida ta'riflanishicha, ishonchnoma deb, bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun beriladigan yozma vakolatga aytiladi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi. Ishonchnomaning berilishi vakil uchun vakolat belgilashga qaratilgan bir tomonlama bitim sifatida ko'riladi. Ishonchnoma topshiriq shartnomasi, mehnat shartnomasi, ekspeditsiya shartnomasi va boshqa shartnomalar asosida beriladi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek, yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (Nizomida) ko'rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo'lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin (FKning 134-moddasi 2-bandi).

Ishonchnoma bir shaxs, shuningdek, bir necha shaxslar nomidan bir yoki bir necha shaxslar nomiga ham berilishi mumkin. Chunonchi, uy-joy qurish kooperativining vakili kooperativ a'zolarining barchasi tomonidan yoki umumiy majlisning vakolatiga binoan bir necha shaxs tomonidan imzolangan ishonchnoma olishi mumkin.

Ishonchnoma vakilning uchinchi shaxslar bilan huquqiy munosabatlarda bo'lishi uchun tayinlanadi. Ishonchnomaning mazmunidan uning qanday vakolatlarga ega ekanligi, qanday yuridik harakatlar qilishga haqli bo'lishi ko'rinib turadi. Binobarin,

vakil ishonchnomada ko'rsatilgan vakolat doirasida harakat qilib, uchinchi shaxslar bilan shartnoma tuzgan bo'lsa, vakil qiluvchi bu shartnomani bajarishdan bosh torta olmaydi.

Ishonchnoma umumiy va maxsus turlarga bo'linadi.

Umumiy ishonchnomada har xil bitimlar va boshqa yuridik harakatlar qilish, masalan, yuridik va jismoniy shaxslarning filiallarini idora etish yoki fuqaroga qarashli mulkni boshqarish uchun berilgan vakolat ko'rsatiladi.

Maxsus ishonchnoma bir turdagi bitimlarni qilish, masalan, fermer xo'jaliklari va ularning a'zolaridan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish bo'yicha bitimlar tuzish uchun vakolat belgilanadi. Faqat biron-bir bitimnigina tuzish, masalan, sotib olib ajratib qo'yilgan tovarni olish uchun berilgan ishonchnoma maxsus ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchnomada uning qachon berilganligi ko'rsatilishi lozim, aks holda u haqiqiy sanalmaydi. Ishonchnoma ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o'z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko'rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas (FKning 139-moddasi).

Tashkilotlar tomonidan tovarlar va boshqa moddiy boyliklar olish uchun beriladigan ishonchnomalarda ularning amalda bo'lish muddati albatta ko'rsatilishi kerak.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma idora tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak. FKning 136,137,138-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasnodir (FKning 135-moddasi 2-bandi).

Ishonchnomalarning notarial idoralardan tashqari boshqa tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi FKning 136,137-moddalari bilan belgilanadi. Chunonchi, xat-xabarlar, shu jumladan, pul va posilkalar olish uchun beriladigan vakolatnoma, ish haqi hamda mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa to'lovlarni, muallif va ixtirochilarga beriladigan haqlarni, pensiyalar, yordam pullari va stipendiyalari, shuningdek, xalq banklaridan tegishli summalarni olish uchun beriladigan ishonchnoma fuqarolar yashab

turgan joydagi o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan, ishlab turgan yoki o'qib turgan tashkilot tomonidan, turar joydagi uyga xizmat ko'rsatuvchi uy-joydan foydalanish tashkiloti tomonidan, davolanib turgan joyida esa davolanish muassasasining ma'muriyati tomonidan, harbiy xizmatchi tomonidan ishonchnoma berilganida tegishli harbiy qism qo'mondonligi tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarga beriladigan ishonchnoma tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olishi yoki topshirishi uchun beriladigan ishonchnoma ushbu yuridik shaxsning bosh buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi (FKning 138-moddasi).

Vakillik shaxsiy ishonchga bog'liq bo'lganligi tufayli vakolat olgan shaxs qanday harakatlarni qilishga vakil qilingan bo'lsa, ularni shaxsan o'zi bajarishi lozim. Vakil olgan vakolati yuzasidan bu harakatlarni bajarishni faqat ishonchnomada ko'rsatilgan hollarda yoki vakolat beruvchining manfaatlarini qo'riqlash uchun ma'lum bir sharoitlar tufayli birovga topshirishga majbur bo'lsagina boshqa shaxsga topshirishga haqli. Vakolatning vakil tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkinligi nazarda tutilgan ishonchnoma notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Ishonchnoma FKning 141-moddasida ko'rsatilganidek, quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- muddatning tugashi;
- ishonchnoma beruvchi tomonidan bekor qilinishi;
- vakolat olgan shaxsning vakillikdan bosh tortishi;
- nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning bekor bo'lishi;

— nomiga ishonchnoma bergan yuridik shaxsning bekor bo'lishi;

— ishonchnoma beruvchi fuqaroning o'limi;

— muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan deb tanilishi yoki bedarak yo'qolgan deb tanilishi;

— ishonchnoma olgan shaxsning o'lishi bilan bekor qilinadi.

Iшонchnoma beruvchi xohlagan paytida uni bekor qila oladi, ishonchnoma oluvchi ham undan bosh torta oladi.

Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning tugashi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda, bunday vazifa vakolat beruvchining huquqini oluvchi shaxslarga ham yuklatiladi. Vakolat beruvchining vafot etishi tufayli ishonchnoma bekor qilingan holda esa bu vazifa uning vorislariga yuklatiladi.

Iшонchnoma bergan shaxs uning bekor qilinganligi to'g'risida ishonchnoma bergan shaxsni, shuningdek, ishonchnoma yo'naltirilgan uchinchi shaxslarni ham xabardor qilishi kerak. Nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs bekor bo'lgan, ishonchnoma bergan fuqaro vafot etgan, muomalaga layoqatsiz deb topilgan singari holatlarda ishonchnoma bekor bo'lgani haqida xabardor qilish ishonchnoma bergan shaxs huquqi qabul qilib oluvchilar zimmasiga yuklanadi.

Iшонchnoma bekor qilinganidan so'ng vakolat olgan shaxs tomonidan qilingan harakatlar to'g'risida FKning 142,144-moddalarida mulkning yo'qolishi yoki zararlanishi sababli ko'rilgan ziyonlarni jabrlanuvchiga to'laydi. Iшонchomaning bekor qilinganligi bilguniga yoki bilishi lozim bo'lguniga qadar ishonchnoma bergan shaxs tomonidan uchinchi shaxslarga nisbatan qilingan harakatlar ishonchnoma beruvchi uchun yoki uning huquqlarini oluvchilar uchun o'z kuchini saqlab qoladi.

Iшонchnoma olgan shaxs tomonidan uning ishonchnoma bekor qilingan yoki tugatilganini bilganidan yoki bilishi lozim bo'lgan vaqtdan so'ng qilingan harakatlar vakolatnoma beruvchi uchun huquq va majburiyat tug'dirmaydi. Iшонchnoma bekor qilinganidan so'ng vakolat olgan shaxs yoki uning vorislari (huquq

va majburiyat oluvchilar) ishonchnomani darhol qaytarishlari lozim.

Ishonchnomaning bekor qilinishi bilan bu ishonchnoma yuzasidan boshqa shaxslarga topshirilgan vakolat (o'tkazilgan vakolat) ham o'z kuchini yo'qotadi.

Nazorat savollari

1. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va belgilanish asoslari.
2. Vakolat nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Ishonchnoma va uning muddati.

29-BOB. MUDDATLAR. DA'VO MUDDATI

1-§. Muddat tushunchasi

Fuqarolik huquqida muddat deb aniq belgilangan vaqtga aytiladi. Muddatning o'tishi ma'lum yuridik fakt hisoblanadi, chunki uning o'tkazib yuborilishi natijasida, qonunda nazarda tutilgan hollarda, muayyan huquqiy oqibatlar vujudga keladi, biron-bir huquq va majburiyat olinadi, o'zgartiriladi yoki yo'qotiladi.

N.Imomov muddatlar tushunchasi xususida to'xtalar ekan, uni aniq belgilangan, o'tishining boshlanishi va tamom bo'lishi muayyan huquqiy oqibatlarni vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqlarini vujudga keltiradigan, fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishga qaratilgan paytlar va vaqt davrlariga aytilishini ta'kidlab o'tadi¹. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi qonunning 25-moddasi mazmuniga ko'ra, tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik uchun tovar yetkazib beruvchi sotib oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida pena to'laydi. Shunisi muhimki, penani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. Bu zararni to'la hajmda qoplash tamoyilidan kelib chiqadi.

Vaqt majburiyat huquqiga oid munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'zaro shartnoma tuzgan shaxslar ma'lum vaqt ichida biron-bir harakatni qilishlari: shartnoma narsasi bo'lgan ashyoni topshirishlari, muayyan ishni bajarishlari; pul

¹ Imomov N.F. Fuqarolik huquqida muddatlar va da'vo muddati. —T.: TDYI, 2005. 7-b.

to'lashlari, ikkinchi taraf tomonidan qilingan ijroni qabul qilishlari lozim bo'ladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda muddatlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida tatbiq etilishi bu munosabatlarda qatnashuvchilarning huquqlarini qo'riqlashda, qonunchilikni ta'minlashda, tashkilotlar o'rtasida munosabatlarda esa xo'jalik hisobini mustahkamlashda, korxonalarning normal ishlashida, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishda, muhimi, shartnoma intizomiga amal qilishda katta rol o'ynaydi.

Muddatlar kim tomonidan belgilanishiga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi: qonuniy muddatlar; shartnomaviy muddatlar; sudlar tomonidan belgilanadigan muddatlar.

Qonuniy muddatlar huquq normalarida belgilangan muddatlardir. Bu muddatlar huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning o'zaro kelishuvlari bilan umumiy qoida bo'yicha o'zgartirilishi mumkin emas. Bunday muddatlarga misol qilib fuqarolarning to'la yoki qisman muomala layoqatiga ega bo'lishlari muddatlari (FKning 22 — 27-moddalari), ishonchnoma muddati (FKning 139-moddasi), umumiy da'vo muddati (FKning 150-moddasi)ni ko'rsatish mumkin.

Shartnomaviy muddatlar FKning 357-moddasida ko'rsatilgan bitimlar bilan belgilanadigan shartnomali muddatlarning bir turi hisoblanadi. Bu muddatlar shartnoma tuzuvchi shaxslarning o'zaro kelishuvlari bo'yicha belgilanishi, o'zgartirilishi, qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin. Ular, masalan, imoratlar qurilishida, ta'mirlashda, uy-joylar ijaraga berilishida tuziladigan shartnomalarda keng qo'llaniladi.

Sudlar tomonidan belgilanadigan muddatlar biron-bir huquq yoki majburiyatlarni olish, o'zgartirish yoxud bekor qilish to'g'risida tayinlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha turdagi muddatlarga rioya qilish buyurtma topshiriqlarini bajarish yuzasidan tuziladigan mahsulot yetkazib berish, kapital qurilishga oid pudrat, yuk tashish va boshqa shartnomalarning o'z vaqtida bajarilishini, shartnoma tuzuvchi

tashkilot va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarning qat'iyligini ta'minlashda, qonun bilan belgilangan shartnoma intizomiga rioya qilishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Muddatlar huquqiy oqibatlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

Da'vo muddatlari buzilgan huquqning himoya qilinishi uchun qonun bilan belgilangan muddatlar. Masalan, qarz olgan fuqaro olgan qarzini qaytarmasa, unga nisbatan uch yil mobaynida da'vo qilinishi mumkin. Agar bu muddat davomida uzrsiz da'vo qilinmasa, da'vo narsasiga bo'lgan huquq yo'qotilishi mumkin.

E'tiroz bildirish muddatlari. Shartnomalar bo'yicha olingan majburiyatlar qarzдор tomonidan butunlay bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda tashkilotlarning bir-birlariga talablarini bildirish uchun belgilangan muddatlar. Tashkilotlar o'rtasidagi ko'pchilik huquqiy munosabatlarda nizolarni hal qilish uchun e'tiroz bildirish tartibi belgilangan. Masalan, temiryo'l korxonasiga tashish uchun topshirilgan yuk yo'qotilsa, unga nisbatan olti oylik muddat davomida e'tiroz bildirilishi mumkin. E'tiroz bildirish muddatining o'tkazib yuborilishi, qonunda nazarda tutilgan hollarda, talablarning xo'jalik sudi tomonidan qondirilmasligiga asos bo'ladi.

Kafolat muddatlari. Bu muddatlar davomida sotib olingan yoki buyurtma qilingan ashyoda yoxud bajarilgan ishda kamchiliklar topilgan taqdirda, oluvchi yoki buyurtmachi mazkur nuqsonlarning tekinga yo'qotilishini yoki ashyoning almashtirilishini yoxud qayta olib, buning uchun to'langan pulning qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Kafolat muddatining o'tkazib yuborilishi oluvchi yoki buyurtmachini yuqorida ko'rsatilgan huquqlardan mahrum qiladi. Masalan, 6 oylik kafolat muddati belgilangan soatni olgan fuqaro mazkur muddat davomida unga bo'lgan kamchiliklar to'g'risida arz qilmasa, keyinchalik uni almashtirish yoki pulini olish huquqini yo'qotadi.

Majburiyatlarni bajarish va huquqlarni amalga oshirish vaqtini belgilaydigan muddatlarga misol qilib qarz shartnomasi bo'yicha 15-aprelda olingan qarzning qarzдор tomonidan ikki oydan so'ng,

ya'ni 15-iyunda qaytarish majburiyati olinganligini ko'rsatish mumkin. Mazkur muddat bir tomondan majburiyat vaqtini belgilasa, ikkinchi tomondan kreditor uchun huquqni amalga oshirish vaqti kelganligini bildiradi.

Huquqiy oqibatiga ko'ra muddatlar huquqni vujudga keltiruvchi, huquqni o'zgartiruvchi va huquqni bekor qiluvchi muddatlarga bo'linadi¹.

Huquqni vujudga keltiruvchi muddatlarning o'tishi natijasida fuqarolik huquqlari vujudga keladi. Bunda huquqning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi ahamiyatga ega emas. Masalan, oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq tovarga nisbatan mulk huquqi sotuvchiga tovar topshirilishi muddati natijasida vujudga keladi (FKning 389-moddasi).

Huquqni o'zgartiruvchi muddatlar o'tishining boshlanishi yoki o'tib ketishi fuqarolik huquq va burchlarining o'zgarishiga olib keladi. Huquqni o'zgartiruvchi muddatlar o'z tabiatiga ko'ra shartnomaviy munosabatlarda keng qo'llaniladi va, odatda, bunday muddatlarning o'tishi natijasida shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari u yoki bu darajada o'zgaradi. Masalan, pudrat shartnomasiga muvofiq, buyurtmachining bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortishi ishni topshirish kechikib ketishiga sabab bo'lsa, tayyorlangan (qayta ishlangan) ashyoning tasodifan nobud bo'lish xavfi ashyo topshirilishi lozim bo'lgan paytdan buyurtmachiga o'tgan deb hisoblanadi (FKning 646-moddasi). Bunda ashyoning tasodifan nobud bo'lish xavfi avval pudratchida bo'lgan bo'lsa, belgilangan muddatning o'tishi natijasida bu xavf buyurtmachiga o'tadi.

Huquqni bekor qiluvchi muddatlarning ro'y berishi fuqarolik huquq va majburiyatlarning bekor bo'lishiga olib keladi. Masalan, umumiy mulkdagi ulushni sotishda, agar qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqidan voz kechsalar yoki bu huquqni xabar qilingan kundan e'tiboran ko'chmas mulkka nisbatan bir oy davomida, boshqa mol-mulkka nisbatan esa o'n kun davomida amalga oshirmasalar, ular imtiyozli sotib olish huquqini yo'qota-

¹ Гражданское право. Учебник. Т 1./Под. ред. Сергеева А.П., Толстого Ю.К. — М.: Проспект, 1998. С. 295 .

dilar va mulkdor o'z mulkini istagan shaxsga sotish huquqiga ega bo'ladi (FKning 224-moddasi).

Bunday muddatlarning o'tishi oqibatida fuqarolik huquqlari bekor bo'lishi qonunchilikda to'g'ridan to'g'ri belgilab qo'yilishi mumkin. Huquqni bekor qiluvchi muddatlar muayyan munosabat ishtirokchilarining faqatgina shu munosabatlariga doir huquqlari yoki majburiyatlarini bekor qiladi.

Muddatlar o'zlarining aniqlanish tavsifiga ko'ra imperativ va dispozitiv, mutlaq aniq, qisman aniq va noaniq, umumiy va maxsus hamda boshqa muddatlarga ajratiladi.

Imperativ muddatlar qonunda aniq belgilanib, taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilmaydi. Bunday muddatlar imperativ bo'lib, qonunda belgilangan barcha muddatlar uchun bu hol majburiy ahamiyatga ega emas. Faqatgina qonun hujjatlarida qat'iy belgilangan va huquqiy munosabat ishtirokchilariga o'zgartirish imkoniyati berilmagan muddatlarga imperativ muddat hisoblanadi hamda huquqiy munosabat ishtirokchilari bu muddatlarga og'ishmay amal qilishlari lozim. Masalan, uch yillik umumiy da'vo muddatini taraflar ikki yilga kamaytirishlari yoki to'rt yilga uzaytirishlari mumkin emas.

Dispozitiv muddatlar qonunda belgilangan bo'lsa-da, taraflar kelishuvga muvofiq mavjud vaziyat taqozosidan kelib chiqib qisqartirish yoki uzaytirish huquqiga ega bo'ladilar. Masalan, majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki shartnoma mohiyatidan anglashilmasa qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi lozim (FKning 242-moddasi), biroq taraflar o'zaro kelishuv asosida ijro darhol yoki biroz muddat o'tgach amalga oshirilishini belgilashlari mumkin.

Mutlaq aniq muddatlar aniq paytni yoki yuridik oqibat bilan bog'liq vaqt oralig'ini ifodalaydi. Ularga kalendar sanasi yoki aniq vaqt davri bilan belgilanadigan muddatlar misol bo'lishi mumkin. Masalan, ishning natijalari 1-maygacha topshirilishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lsa, bunday muddatlar mutlaq aniq muddat hisoblanadi.

Qisman aniq muddatlar aniq davr yoki vaqt oralig'i bilan bog'liq bo'lsa-da, ular o'zlarining belgilanishi holatidan kelib chiqib, mutlaq aniq muddatlarga qaraganda kamroq aniqlikka ega bo'ladilar. Qisman aniq muddatlar jumlasiga ro'y berishi muqarrar bo'lgan hodisa bilan belgilanadigan muddatlar ham kiradi. Masalan, daryo muzlari erishi yukni yetkazib berish bilan bog'liq muddatlar.

Noaniq muddatlar qonun yoki shartnomada biron-bir vaqt belgilanmagan bo'lsa-da, lekin shu munosabatda vaqt chegarasi mavjudligi bilan ifodalanadi. Huquqiy munosabatdagi vaqt chegarasi garchi taraflarning huquqiy munosabatga kirishayotgan paytlarida belgilanmasa-da, keyinchalik taraflardan biri tomonidan belgilanishi talab qilinishi mumkin. Masalan, ashyo muddat ko'rsatilmadan tekin foydalanishga topshirilganda shartnomaning amal qilish muddati aniq belgilanmaydi.

Umumiy muddatlar barcha subyektiv fuqarolik huquqlariga va deyarli bir xildagi holatlarga taalluqli bo'ladi. Masalan, ishonchnomaning amal qilish muddati uch yil qilib belgilangan (FKning 139-moddasi).

Maxsus muddatlar umumiy qoidalardan alohida belgilanadi va faqatgina qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan hollarda amal qiladi. Maxsus muddatlarga misol qilib notarius tomonidan tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan, amal qilish muddati ko'rsatilmagan ishonchnoma uni bergan shaxslar tomonidan bekor qilenguncha o'z kuchini saqlashini keltirish mumkin.

Bundan tashqari, fuqarolik huquqida fuqarolik huquqlarini amalga oshirish muddatlarining quyidagi turlari mavjud: fuqarolik huquqlarining amalda bo'lish vaqtini belgilaydigan muddatlar; cheklovchi (prekluziv) muddatlar; yaroqlilik muddati; tovarning xizmat qilish muddati; tovardan foydalanish; tovarni saqlash va boshqa muddatlar mavjud¹. Muddatlarni hisoblash usullari har xil bo'lishi mumkin. FKning 145 — 147-moddasida ko'rsatilganidek, muddatlar:

¹ Qarang: *Imomov N.F.* Fuqarolik huquqida muddatlar va da'vo muddati. —T.: TDYI, 2005. 132-b.

- birinchidan, kalendar sana bilan;
- ikkinchidan, yillar, oylar, haftalar, kunlar yoki soatlar bilan;
- uchinchidan, barqaror sodir bo'lishi lozim bo'lgan hodisalar havola qilinishi yo'li bilan belgilanishi mumkin.

Odatda, muddatlar aniq kalendar sana bilan belgilanadi, masalan, turar joy haqi o'tgan oy uchun yangi oyning 10-kunidan kechiktirmasdan to'lanishi ko'rsatiladi.

Yillar va oylar bilan hisoblanadigan vaqt davrining o'tishiga misol qilib umumiy da'vo (FKning 150-moddasi) va qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlarini (FKning 151-moddasi) ko'rsatish mumkin. Kunlar bilan vaqt davrini hisoblash, ko'pincha, transport korxonalari faoliyatiga taalluqlidir. Energiya quvvati korxonalarida, asosan, soat bilan belgilanib hisoblanadi.

FKning 145-moddasida aytilganidek, muddat muqarrar yuz berishi kerak bo'lgan voqeani ko'rsatish bilan ham belgilanishi mumkin.

2-§. Muddatlar o'tishining boshlanishi va tamom bo'lishi

Muddat o'tishining boshlanish vaqtini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, muddat tamom bo'lish vaqtini to'g'ri aniqlab olish imkonini beradi. Bu esa yuridik fakt, ya'ni ma'lum huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan yoki bekor qiladigan holatlar bilan bog'liq.

Muddatning tamom bo'lishini aniqlash to'g'risida to'xtalib, shuni aytish kerakki, yillab hisoblanadigan muddat, shu muddatning oxirgi yili, tegishli oyi va kunida tamom bo'ladi. Muddatning boshlanishiga to'g'ri kelgan kun e'tiborga olinmaganligi sababli muddatning boshlanishi va tamom bo'lishi kunlari tegishlicha qo'shiladi.

Oylab hisoblanadigan muddat, shu muddat oxirgi oyining tegishli kunida, agar oylab hisoblanadigan muddatning tamom bo'lishi tegishli kuni bo'lmagan oyga to'g'ri kelib qolsa, bu holda muddat shu oyning oxirgi kunida o'tadi. Ba'zi muddatlar yarim

yil yoki yarim oy qilib ham belgilanishi mumkin. Bunda hisoblash tartibi quyidagicha belgilanadi: yarim yil qilib belgilangan muddatga oylab hisoblanadigan muddatlarga doir qoidalar qo'llanib, yarim oy qilib belgilangan muddat esa kunlab hisoblanadigan muddat qatorida ko'rib, o'n besh kunga baravar bo'ladi (FKning 147-moddasi 5-bandi).

Haftalar bilan o'lchanadigan muddat shu muddatning oxirgi haftasidagi tegishli kunda tugaydi (FKning 147-moddasi 7-bandi). Agar muddatning oxirgi kuni ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelib qolsa, muddatning tamom bo'lishi bundan keyingi ish kuni hisoblanadi.

Muddatning tamom bo'lishini belgilash to'g'risida to'xtab yana shuni aytish kerakki, agar rus tilida yozilgan hujjatlarda oxirgi muddat, masalan, «до 5-го января» deb yozilgan bo'lsa, 5-yanvar kuni hisobga o'tmaydi, agar «по 5-е января» deb yozilgan bo'lsa, bu kun hisobga olinadi.

Muddatning oxirgi kunida harakat qilish tartibi FKning 148-moddasida ko'rsatilgan. Bu qonunda aytilishicha, agar muddat biron-bir harakatni amalga oshirish uchun tayinlangan bo'lsa, bu harakat muddatning oxirgi kunida soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi mumkin. Masalan, qarzdor shartnomada qarzini qaytaradigan kun 5-yanvar deb belgilangan bo'lsa, olingan qarz shu 5-yanvar soat yigirma to'rtgacha to'lansa, qarzdor majburiyatini o'z vaqtida bajargan bo'ladi. Agar majburiyatni bajarishga qaratilgan harakat tashkilotda qilinishi lozim bo'lsa, muddat shu tashkilotlarda belgilanadigan qoidalar bo'yicha tegishli operatsiyalar (ishlar) tamom bo'ladigan oxirgi soatda tugaydi.

Tegishli tashkilotlarga yuboriladigan barcha yozma hujjat (ariza, bildirish)lar muddatning oxirgi kuni soat yigirma to'rtga qadar aloqa bo'limiga yoki telegrafga topshirilgan bo'lsa, muddat o'tmagan hisoblanadi. Bu qoida umumiy xarakterga ega bo'lib, sud, xo'jalik sudi, prokuratura va boshqa tashkilot hamda muassasalarga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, fuqaro o'z da'vo arizasini muddat tamom bo'ladigan kun soat yigirma to'rtga qadar aloqa bo'limiga topshirgan bo'lsa, da'vo muddati

o'tmagan hisoblanadi. Bu qoida yana tashkilotlar o'rtasida tuziladigan yetkazib berish, yuk tashish singari shartnomalar yuzasidan bo'ladigan da'vo, talab va shikoyatlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

3-§. Da'vo muddati va turlari

Da'vo muddati deb shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'ladigan muddatga aytiladi.

FKning 10-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar va shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik sudi yoki xolislari sudi tomonidan himoya qilinadi. Binobarin, huquqlari buzilgan shaxs (fuqaro yoki tashkilot)lar yuqorida ko'rsatilgan sud, xo'jalik sudi yoki hakamlar sudiga da'vo arizasi berib, buzilgan huquqlarining himoya qilinishi to'g'risida da'vo qo'zg'atishlari mumkin.

Da'vo muddati subyektiv huquq va majburiyatlarini himoya etishi uchun shaxsga beriladigan so'nggi imkoniyat. Bu vaqt oralig'ida shaxs o'z huquqlarining amalga oshirilishini talab qilmasa, ularni yo'qotadi¹.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi (FKning 153-moddasi).

Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddat davomida berilgan bo'lsa, sud, xo'jalik sudi yoki hakamlar sudi tomonidan da'vo ishini ko'rib, ishning mazmuni bo'yicha da'voni qondirish yoki qondirmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddatni o'tkazib berilgan bo'lsa, sud, xo'jalik sudi yoki hakamlar sudi muddatning o'tkazilish sababini muhokama qiladi, agar da'vo muddati uzrsiz sabablar bilan o'tkazilganligi aniqlansa, o'tkazilgan muddat tiklanishi va ishning mazmuni bo'yicha qaror chiqarilishi mumkin.

¹ *Imomov N.* Da'vo muddati instituti //Hayot va qonun. 2004. №1. 23 — 24-b.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solishda da'vo muddatlari qonun bilan belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Da'vo muddatining belgilanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga, qarzning undirilishi, majburiyatning bajarilishi to'g'risidagi talablar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga, tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblar qilinishini tezlatishga, shartnoma va moliya intizomiga rioya etilishini ta'minlashga, xo'jalik hisobini mustahkamlashga yordam beradi. Da'vo muddatlarining belgilanishi fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, da'voni belgilangan muddatda to'g'ri hal qilish uchun fuqarolik ishi yuzasidan dalillar to'plash va ularni chuqur tekshirish lozim. Ammo nizoli huquqiy munosabat vujudga kelgan paytdan boshlab uzoq muddat o'tgan bo'lsa, dalillarni to'plash ancha qiyinlashadi. Chunki ishning sudda ko'rilishi vaqtida ba'zi guvohlarning bo'lmasligi (ko'chib ketgan, vafot etgan bo'lishi), ba'zilari esa bo'lgan voqealarni, faktlarni unutgan bo'lishlari yoki bu faktlarni buzib tasvirlashlari, ish to'g'ri hal qilinishi uchun zarur hujjatlar yo'qotilgan bo'lishi mumkin va hokazo. Agar da'vo muddati qonun bilan belgilanmagan bo'lsa, bitim tuzgan yoki birovning biron-bir huquqini buzgan shaxs doimo uzoq vaqt davomida, o'ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan da'vo qilinishi xavfi ostida bo'lar edi.

Nazorat savollari

1. Muddat tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. Da'vo muddati nima?
3. Umumiy da'vo muddati nima?
4. Maxsus da'vo muddati nima?

30-BOB. MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIIY HUQUQLAR

1-§. Mulk huquqining umumiy qoidalari. Mulk huquqi tushunchasi

Jamiyatning iqtisodiy negizi mavjud mulkchilik munosabatlariga asoslanadi. Shu sababli mulk nafaqat yuridik mazmunga, balki iqtisodiy ma'noga ham ega. Kishilar mehnati bilan yaratilgan yoki tabiat tomonidan insonlarga o'ziga xos tarzda «taqdim etilgan» boyliklar har doim mulk bo'lib kelgan. Mulk egasi bo'lish yoki bo'lmazligiga qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqeyi, aniqrog'i, ijtimoiy-iqtisodiy maqomi vujudga keladi. Mulkiy munosabatlarsiz iqtisodiy munosabatlar, ishlab chiqarish jarayoni o'z mazmuniga ega bo'lmaydi.

Mol-mulk deyilganda, ayrim narsa-buyumlar yoki ularning jami tushuniladi. Ba'zi hollarda mol-mulk qimmatli qog'ozlar, pul, shuningdek, talab qilish huquqidan (xaridordan) iborat bo'ladi. Ba'zan bu atama mulkiy huquqlar yoki mulkiy huquqlar va vazifalar majmuyi sifatida ham ishlatiladi.

Asosan, mol-mulk bilan bog'liq fuqarolik qonunlari, avvalo, «narsa-buyumlarga bo'lgan huquqlar»ni mustahkamlaydi. Narsa-buyumlar mulk huquqi, garov huquqi, oldi-sotdi, mol yetkazib berish, shartnoma tuzish, ayirboshlash, in'om etish, zayom, mulkiy yollash, garovga olish, saqlash huquqlari obyekti hisoblanadi. Narsa-buyumlar tabiat buyumlari yoki mehnat natijalaridir.

G'oyatda xilma-xil narsa-buyumlarni qonun muayyan tizimga soladi, ularni guruhlarga birlashtiradi, ularning har biriga oddiy huquqiy tartib belgilaydi. Narsa-buyumlar ishlab chiqarish vositalariga va iste'mol vositalariga bo'linadi, ular iste'mol

qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan, bo'linadigan va bo'linmaydigan, alohida va birgalikda olingan, asosiy narsalar va ashyolar bo'ladi.

Iste'mol qilinadigan narsalar deb, bir marta foydalaniladigan narsalarga aytiladi, garchi ular yedirilsa ham, o'zining sifatini ozmi-ko'pmi uzoq muddat saqlab qoladi (uy-joylar, mashinalar, dastgohlar, kitoblar).

Bo'linadigan narsalar shunday narsalarki, ularni mazkur narsa-buyum uchun xo'jalik jihatidan zarar keltirmagan holda qismlarga bo'lish mumkin, lekin ularning har biri qimmati va xo'jalik ahamiyatini saqlab qoladi.

Bo'linmaydigan narsalar qismlarga bo'lish vaqtida xo'jalik ahamiyati va qimmatini yo'qotadi.

Narsalar yig'indisi umumiy xo'jalik yoki xilma-xil narsa-buyumlar majmuyidan iborat bo'lib, kishilar ro'zg'orida yagona bir butun, yaxlit narsa deb qaraladi, lekin tabiatan ular o'zaro birlashtirilmagan bo'ladi (kutubxonalar, mebellar garnituras). Narsalar yig'indisini topshirishi lozim bo'lgan qarzdor (agar qonunda boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa) uni o'zgartira olmaydi.

Ashyo asosiy narsa-buyumga xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lib, unga umumiy xo'jalik vazifasi bilan bog'langan bo'ladi. Asosiy narsa-buyum mustaqil ahamiyatga, ashyo esa bog'liq ahamiyatga egadir.

Narsa-buyumlarning alohida turi pul va qimmatli qog'ozlardir. Pul shunday narsalar jumlasiga kiradiki, ular o'ziga xos belgilardan xoli bo'lib, ularni miqdor ajratib turadi. Pul zarur to'lov hisoblanadi.

2-§. Mulk huquqining vujudga kelishi va to'xtatilishi

Yuridik faktlar mulk huquqining vujudga kelishi va to'xtatilishiga asos bo'lishi mumkin. Normal tovar oborotida bitta shaxsning konkret mol-mulkiga doir mulk huquqining paydo bo'lishi boshqa shaxsning bu mulkka bo'lgan mulkchilik huquqining to'xtatilishini bildiradi. Shuni nazarda tutish kerakki,

ayni bir yuridik faktlar, odatda, mulk huquqining paydo bo'lishiga ham, uning to'xtatilishiga ham asos bo'lib qoladi.

Mulk huquqining paydo bo'lishi va to'xtatilishi asoslari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish faoliyati natijasida yangi narsa-buyumlarning yaratilishi; mevalar va daromadlarga mulkchilik huquqining qo'lga kiritilishi; sotib oluvchining narsaning egasi yoki uni begonalashtirishga vakil etilgan shaxs bilan shart-noma tuzishi (oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish); bir tomonlama bitimlar (vasiyat).

Maxsus asoslarga egasiz mol-mulkni talab qilib olinmagan topilma, xazinani musodara qilish, uning davlat mulkiga o'tishi kiradi. Asoslarning bu turi faqat qonun bilan qat'iy belgilangan mulk egalarida mulkchilik huquqi vujudga kelishiga imkon beradi.

Narsa-buyumlar turli usullar bilan berilishi mumkin: sotib oluvchining o'ziga topshirish yo'li bilan, ularni sotib oluvchi ko'rsatgan manzilgohga yuborish uchun pochtaga topshirish yo'li bilan, taqsimlash hujjatini (konosamentni) topshirish yo'li bilan.

Mulkchilik huquqining to'xtatilishi asoslari mulk egasiga bog'liq va bog'liq bo'lmagan asoslarga bo'linadi. Bog'liq asoslar: mol-mulkni musodara qilish bo'yicha yoki pul mablag'larini sarflash bo'yicha bitimlar; narsa-buyumlar iste'mol qilish; narsa-buyumlarni yo'q qilishdir.

Mulkchilik huquqini to'xtatishning mulk egasiga bog'liq bo'lmagan asoslariga quyidagilar kiradi: mulkni majburiy sotish yoki mulk egasidan unga jarima solish tarzida tortib olish; tabiiy ofat tufayli mol-mulkning zarar ko'rish; mulk egasining xohishidan qat'i nazar mol-mulkning vijdonli xaridor tomonidan sotib olinishi.

Qonun mulkchilikni asosiy shakllari sifatida xususiy va ommaviyga bo'ladi.

Mulk huquqi tizimi quyidagilardan tashkil topadi:

— respublika fuqarolarining xususiy mulki huquqi va xorijiy fuqarolarning mulkchilik huquqi;

— ommaviy mulk huquqi, mahalla mulki huquqi va yuridik shaxslarning mulkchilik huquqi;

— O‘zbekiston Respublikasi davlat mulkchilik huquqi va ma‘muriy-hududiy tuzilmalar davlat mulkchilik (kommunal mulkchilik) huquqi;

— xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning mulkchilik huquqi, xorijiy davlatlar yuridik shaxslarining mulkchilik huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi «Mulkchilik to‘g‘risida»gi Qonuni-ning 24- va 26-moddalari quyidagi tushunchalarni kiritadi:

1. To‘la xo‘jalik yuritish huquqi va davlat mulkini tezkorlik bilan boshqarish huquqi;

2. Begonalarning mol-mulkiga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishga doir mutlaq vakolatlardan iborat bo‘lib, mulk egasining huquqlaridan kelib chiqadi va uning xohishi bilan (yoki qonunning bevosita ko‘rsatmasi bilan) vujudga keladi, mulk huquqiga nisbatan cheklangan mazmunga ega bo‘lsa ham, u bilan barobar qonun bilan himoya qilinadi.

To‘la xo‘jalik yuritish huquqi ishlab chiqarish korxonalariga, tezkorlik bilan boshqarish huquqi davlat muassasalariga beriladi. Tezkorlik bilan boshqarish huquqi to‘la xo‘jalik yuritish huquqiga nisbatan birmuncha cheklangan bo‘ladi.

Xususiy mulk mol-mulkka xususiy egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish natijasidir. Xususiy mulk, mulk egasining shaxsiy mehnatiga va yollanma mehnatni tatbiq etishga, ya‘ni mehnatni tashkil etishning majbur etuvchi shaklini emas, balki mulk egasi bilan erkin shartnomaga asoslangan mehnat negizida tashkil topishi mumkin.

Qonunda ko‘zda tutilishicha, ayrim obyektlar xususiy mulk bo‘lishi mumkin emas. Bunday obyektlarning ro‘yxati qonun bilan belgilab berilgan.

Jamoa mulki iqtisodiy tushuncha sifatida moddiy ne‘matlar (mulk)ning jamoaga tegishli ekanligini, ya‘ni o‘zlashtirishning yakka tartibdaligini emas, balki jamoa shaklini bildiradi.

Umumiy mulk huquqi uchun o‘zlashtirish subyektlarining ko‘p sonli ekanligi, ya‘ni qatnashchilarning birlashgan mulkiga nisbatan bitta mulk huquqining bir necha subyektlari bo‘lishi xosdir.

Yuridik shaxsning mulk huquqi o'zlashtirish subyektlarining birligi bilan ajralib turadi, chunki yuridik shaxs shu shaxslarning oddiy yig'indisi emas, balki yangi mustaqil tashkiliy tuzilma hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning boshqa moddiy huquqlariga to'liq xo'jalik yuritish huquqi va tezkorlik bilan boshqarish huquqi kiradi.

Mahalla mulk huquqining subyektlari mahalla aholisidir, mahalla qo'mitalari bu mulkka to'la xo'jalik yuritish huquqi asosida egalik qiladilar, foydalanadilar, tasarruf etadilar. Mulk huquqi subyektlari respublika fuqarolari jamoalari yoki birlashmalari, jamoa, diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va boshqa birlashmalari hisoblanadi.

Ma'lumki, mulk umumiy mulk bo'lishi ham mumkin. Mol-mulk umumiy mulk deyilganda, moddiy ne'matlarning mansubligidagi shunday munosabatlar tushuniladiki, bunda mol-mulk huquqiy asosda bir vaqtning o'zida bir necha kishiga tegishli bo'ladi.

Umumiy ulushli mulk shu tomoni bilan ajralib turadiki, bunda aniq bir mol-mulkka bo'lgan mulkchilik huquqi ulushlar bo'yicha birgalikda bir necha shaxslarga tegishli bo'ladi, ya'ni mol-mulk bo'linmaydi, balki mulkchilikning huquqi bo'linadi.

Mol-mulkka bo'lgan huquq ulushi turli bitimlarning mavzusi (oldi-sotdi, in'om qilish, meros tariqasida berish) bo'lishi, shuningdek, qarz beruvchilar da'volarining obyekt bo'lishi mumkin, shuning uchun ham mulk egasi umumiy mulkdagi o'z ulushidan mustaqil ravishda foydalanishga haqlidir.

Qimmatli qog'oz mulkiy huquqdan guvohlik beruvchi shunday bir hujjatki, uning asl nusxasini ko'rsatgan taqdirdagina bu huquqni amalga oshirish mumkin. Bu o'rinda shunday qoida amal qiladi: hujjat bo'lsa — huquq bo'ladi, hujjat yo'qmi — demak, huquq ham yo'q.

Qimmatli qog'ozlar nomi yozilgan, order shaklidagi taqdim etiladigan qog'ozlar bo'lishi mumkin. Taqdim etiladigan qimmatli qog'ozda taqdim etuvchining nomi yozilmaydi va uni unga ega bo'lgan har kim taqdim etishi mumkin (lotereya bileti). Nomi yozilgan qimmatli qog'ozda shaxsning nomi qayd etilgan bo'lib,

u hujjatda mustahkamlangan mulkiy huquqni amalga oshirishga vakolatli hisoblanadi.

Order shaklidagi qimmatli qog'oz birinchi marta xarid qilgan muayyan shaxs nomiga tuzilib, «uning buyrug'iga binoan» deb ko'rsatiladi. Bu qimmatli qog'ozda ko'rsatib o'tilgan shaxsning, o'z navbatida, qarz oluvchi mazkur qog'ozni bo'yicha kimga to'lashi lozimligi ko'rsatiladi (chek, konosament).

Qimmatli qog'ozlarga quyidagilar kiradi:

— **obligatsiyalar** qimmatli qog'oz bo'lib, uni saqlovchining obligatsiyani chiqaruvchi shaxsdan obligatsiyaning unda ko'rsatilgan nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentni ko'rsatib o'tilgan muddatda olish huquqini tasdiqlaydi. Obligatsiya uni saqlovchiga unda qayd etilgan nominal qiymat fondini olish huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarni beradi. Obligatsiyalar taqdim etiluvchi yoki nomi yozilgan obligatsiyalar bo'ladi, ular erkin muomalada yoxud muomala doirasi cheklangan bo'lishi mumkin;

— **chek** — qimmatli qog'oz. U, chek beruvchining chekni saqlovchiga unda ko'rsatilgan summani to'lashi haqida bankka bergan va hech kimga bog'liq bo'lmagan yozma faoliyatini o'z ichiga oladi. Chek qonunda belgilangan muddatda to'lash uchun ko'rsatilmog'i lozim;

— **veksel** — qimmatli qog'oz. U, veksel beruvchining yoki vekselida ko'rsatilgan boshqa to'lovchining unda nazarda tutilgan muddati yetib kelishi bilan veksel egasiga (veksel beruvchiga) muayyan summani to'lash bo'yicha hech kimga bog'liq bo'lmagan majburiyatini tasdiqlaydi. Birinchi holda veksel oddiy, ikkinchi holda, o'tkaziluvchi veksel deyiladi;

— **aksiya** — qimmatli qog'oz. U, aksiyaning saqlovchining (hissadorning) hissadorlik (aksionerlik) jamiyati foydasining bir qismini dividend sifatida olishga, hissadorlik jamiyati ishini boshqarishda ishtirok etishga, jamiyat tugatilgandan so'ng uning qolgan mulkining bir qismini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi. Aksiyalar ham nomi yozilgan va taqdim etuvchiga mo'ljallangan, erkin muomalada yoki cheklangan doirada muomalada bo'ladigan aksiyalar bo'ladi;

— **konosament** tovarni tasarruf qilish hujjati bo'lib, uni saqlovchining hujjatda ko'rsatilgan yukni tasarruf qilish va tashib bo'lingandan so'ng yukni olish huquqini tasdiqlaydi; jamg'arma sertifikat pul mablag'lari qo'yilganligi haqida bankning beradigan yozma guvohnomasi bo'lib, pul qo'yuvchining belgilangan muddati tamom bo'lgach, omonat summasini va undagi foiz miqdorini mazkur bankning har qanday bo'limidan olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi. Sertifikat muddatidan oldin haq to'lash uchun taqdim etilgan taqdirda pasaytirilgan miqdor bo'yicha hisoblangan omonat summasi va foizlar to'lanadi. Jamg'arma sertifikatleri nomi yozilgan va taqdim etuvchiga mo'ljallangan bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Mulk huquqi tushunchasi.
2. Ashyoviy huquqlar nima?
3. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari.
4. Qimmatli qog'ozlarning qanday turlarini bilasiz?

31-BOB. MAJBURIYATLAR TO'G'RISIDA UMUMIY QOIDALAR. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK VA MAJBURIYATNING BEKOR BO'LISHI

1-§. Majburiyat va majburiyat huquq tushunchalari

Majburiyat bu fuqarolik-huquqiy munosabatlar bo'lib, ular mol-mulkni topshirish, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, zarar keltirish yoki mol-mulkni asossiz ravishda qo'lga kiritish bilan bog'liq holda qaror topadi, bu munosabatlar natijasida bitta tomon boshqasidan muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishni yoki qandaydir xatti-harakatlardan o'zini tiyishni talab qilishga haqli bo'ladi.

Majburiyatning taraflari kreditor va qarzdor sifatida bir yoki bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

Majburiyatlar vujudga kelish asoslariga binoan shartnomaviy va shartnomadan tashqari majburiyatlar (bir tomonlama bitimlar, ma'muriy hujjatlar, zarar yetkazish, mol-mulkni asossiz ravishda qo'lga kiritish yoki saqlab turish) bo'ladi. Tomonlar o'rtasida huquqlar va vazifalarning taqsimlanishiga ko'ra oddiy va o'zaro majburiyatlarga bo'linadi.

Oddiy majburiyatlarda bitta tomon faqat huquqlarga, ikkinchi tomon majburiyatlarga ega bo'ladi, o'zaro majburiyatlarda esa har bir tomon huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi. Huquqiy aloqalarning miqdoriga qarab majburiyatlar oddiy va murakkab majburiyatlarga bo'linadi. Oddiy majburiyatlarda bitta huquqqa bitta majburiyat to'g'ri keladi, ikkinchi, ya'ni murakkab majburiyatda bir nechta huquq va majburiyatlar to'g'ri keladi.

Shuningdek, majburiyatlar muqobil va fakultativ majburiyatlarga, asosiy va qo'shimcha majburiyatlarga bo'linadi. Muqobil

majburiyatda qarzdor ko'zda tutilgan bir necha majburiyatdan bittasini amalga oshirishi lozim. Fakultativ majburiyatda qarzdorga majburiyatni almashtirish (ishni bajarishni mol-mulkni topshirish bilan almashtirish) huquqi beriladi.

Asosiy va qo'shimcha majburiyatlar bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Asosiy majburiyatning to'xtatilishi qo'shimcha majburiyatni ham tugatadi.

Majburiyatlar orasida regress majburiyatlar ham keng tarqalgan bo'lib, shunday majburiyatlar nazarda tutiladiki, ular tufayli kreditor qarzdordan o'ziga u uchinchi shaxsga bergan mol-mulkni topshirishni talab qilishga haqli bo'ladi.

Majburiyatlarning vujudga kelishi uchun asoslar: bitimlar; ma'muriy hujjatlar; boshqa shaxsga zarar yetkazish; yetarli asos bo'lmagan holda boshqa shaxs hisobidan mol-mulkni sotib olish yoki saqlash hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa xatti-harakatlari hisoblanadi.

Bitimlar orasida shartnomalar muhim o'rin egallaydi. Ayrim majburiyatlar bir tomonlama bitimlardan kelib chiqadi (yodgorlik o'rnatish uchun loyiha yaratishga tanlov e'lon qilish, vasiyat bo'yicha merosxo'rga bir necha shaxslardan bittasining foydasiga qandaydir majburiyatni bajarish topshiriladi).

Umumiy qoidaga ko'ra majburiyatda ikki tomon bo'ladi: kreditor va qarzdor. Lekin shunday majburiyatlar ham borki, unda tomonlarning soni ikkitadan ortiq bo'ladi, ular ko'p shaxsli majburiyatlar deb ataladi. Ular ulushli va birdamlik majburiyatlariga bo'linadi.

Kreditorlar ko'p sonli bo'lganda (faol ko'pchilik) har bir qarz beruvchi qarzdordan o'z foydasiga qonunda belgilangan yoki shartnomada ko'zda tutilgan umumiy majburiyatdagi ulushini bajarib berishni talab etish huquqiga ega bo'ladi.

Ulushli majburiyat (agar qonunda boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa) ko'p shaxslar ishtirok etadigan har qanday majburiyat bo'lishi mumkin.

Birdamlik majburiyatlari uch turga bo'linadi: bitta kreditor — bir necha qarzdor (birdamlik majburiyati); bitta qarzdor — bir

necha kreditor (birdamlik talabi); bir necha qarzdor va bir necha kreditor (aralash birdamlik).

Birdamlik majburiyatlaridan eng ko'p tarqalgani birinchi turdagi majburiyatdir, bunda kreditor barcha qarzdorlardan birgalikda, shuningdek, ularning har biridan alohida majburiyatlar bajarishni ham to'liq, ham qarzning qismlarini talab qilishga haqli bo'ladi.

Qonun majburiyatdagi kreditorni ham, qarzdorni ham almashtirishni (huquqiy vorislik) nazarda tutadi. Lekin shunday majburiyatlar ham borki, ular qat'iy shaxsiy tusda bo'ladi (rassomning rasm ishlab berish uchun olgan majburiyati).

Talabni yon berish kreditor bilan yangi shaxs o'rtasida bu shaxsga qarzdordan talab qilish huquqini berish haqidagi bitimdir. Bunday bitim qonunga, shartnomaga yoki mazkur talabning shaxsiy xususiyatiga zid kelmasa amalga oshishi mumkin. Qarzdorning ana shunday bitimga roziligi talab qilinmaydi, chunki uning manfaatlariga daxl qilinmaydi, lekin u bo'lib o'tgan bitimdan xabardor etilishi lozim.

Burchni o'tkazish deganda, kreditor qarzdor va uchinchi shaxs o'rtasida qarzdorni bu shaxs bilan almashtirish haqidagi bitim tushuniladi. Kreditorning bitimda ishtirok etishi zarur shartdir, chunki unga qarzdor kim bo'lishi befarq emas. Burchni boshqaga o'tkazish va talabni yon berish haqidagi bitim yozma ravishda amalga oshirilgan bitimga asoslangan bo'lib, yozma shaklda bo'lishi lozim.

Majburiyatda qarzdor tomonida ishtirok etgan shaxslardan biriga kreditor bildirgan talablarning haqiqiy emasligi, shuningdek, bunday shaxsga talab qo'yishga doir da'vo muddati o'tib ketganligi kreditorning qolgan shaxslarga bo'lgan talablariga o'zicha daxl etmaydi.

Agar taraflar shartnomaga binoan bir-birlariga nisbatan majburiyatli bo'lsa, taraflardan har biri boshqa taraf oldida uning foydasiga nima qilishi shart ekanligi jihatidan uning qarzdori va ayni bir paytning o'zida undan nima talab qilishga huquqli ekanligi jihatidan uning kreditori hisoblanadi.

Majburiyat unda taraflar sifatida qatnashmagan shaxslar (uchinchi shaxslar) uchun burchlar hosil qilmaydi.

Qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda majburiyat uchinchi shaxslar uchun majburiyatning bir tarafi yoki har ikkala tarafiga nisbatan huquq vujudga keltirishi mumkin.

Shartnoma intizomini ta'minlashning muhim sharti majburiyatining bajarilishi hisoblanadi. **Majburiyatning bajarilishi** deyilganda, qarzdorning undan kreditor talab qilishga haqli bo'lgan harakatni amalga oshirishi tushuniladi. Majburiyatlarning bajarilishi muayyan talablarga javob berishi lozim. U lozim darajada va haqiqiy bo'lishi kerak. Lozim darajada bajarish majburiyatning qonunda, shartnomada bildirilgan talablarga muvofiq ravishda ado etilishini bildiradi. Lozim darajada bajarish buyumning sifat va miqdoriy tavsiflariga og'ishmay rioya etilishini, majburiyatlarning muddatida, muayyan joyda, muayyan usulda (umuman yoki qismlarga bo'lib) bajarilishini nazarda tutadi.

Majburiyatni haqiqiy bajarish uni tabiiy tarzda bajarishni ko'zda tutadi. Ijro etishning mumkin emasligi boshlanishi bilan haqiqiy bajarish talabi bekor bo'ladi.

Kreditor qarzdorning shartnomani aniq va o'z muddatida bajarishiga ishonchi komil bo'lmagan taqdirda qonun shartnomani ta'minlash vositalariga murojaat qilish imkonini yaratib beradi, bu vositalarga neustoyka, bay puli, kafillik va garov kiradi.

Majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak.

Agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo'ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Pul majburiyatida u so'mlar bilan chet el valutasidagi muayyan summaga ekvivalent bo'lgan summada yoki shartli pul birliklari

bilan (ekyu, maxsus qarz olish huquqlari va boshqalar) to'lanishi lozimligi nazarda tutilishi mumkin. Bunday hollarda so'mlar bilan to'lanishi lozim bo'lgan summa tegishli valutaning yoki shartli pul birliklarining to'lov kunidagi rasmiy kursi bo'yicha belgilanadi, bosharti uni belgilashning boshqacha kursi yoki boshqa sanasi qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida belgilab qo'yilgan bo'lmasa.

O'zbekiston Respublikasi hududida majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish chog'ida chet el valutasidan, shuningdek, chet el valutasidagi to'lov hujjatlaridan foydalanishga qonun hujjatlarida belgilangan hollar, tartib va shartlar asosida yo'l qo'yiladi.

Agar majburiyatni bajarish joyi qonun hujjatlari yoki shart-noma bilan belgilab qo'yilmagan bo'lsa va majburiyatning mohiyatidan yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablardan anglashilmasa, ijro quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

— ko'chmas mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo'yicha mol-mulk turgan joyda;

— tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo'yicha tovarni kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida;

— qarzdorning tovarni yoki boshqa mol-mulkni topshirish yuzasidan o'zga majburiyatlari bo'yicha — mol-mulkni tayyorlash va saqlash joyida, bosharti majburiyatning kelib chiqishi paytida bu joy kreditorga ma'lum bo'lgan bo'lsa;

— pul majburiyati bo'yicha — majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo'lsa uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan yerida, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o'z yashash joyini yoki joylashgan yerini o'zgartirgan bo'lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo'lsa, ijro etish joyi o'zgartirilishi bilan bog'liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan yerida;

— boshqa barcha majburiyatlar bo'yicha — qarzdorning yashash joyida, agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, uning joylashgan yerida.

Qarzdor to'lashi lozim bo'lgan pul yoki qimmatli qog'ozlarni notariusning depozitiga, qonunda belgilangan hollarda esa sudning depozitiga qo'yishga haqli, bosharti majburiyat qarzdor tomonidan quyidagilar tufayli bajarilishi mumkin bo'lmasa: majburiyat bajarilishi lozim bo'lgan joyda kreditor yoki ijroni qabul qilib olish uchun u vakil qilgan shaxs bo'lmasa; kreditor muomalaga layoqatsiz bo'lsa va uning vakili bo'lmasa yoki vakil rozi bo'lmasa; majburiyat bo'yicha kim kreditor ekanligi xususida aniqlik yo'qligi ko'rinib turgan bo'lsa, xususan, bu haqda kreditor bilan boshqa shaxslar o'rtasida nizo chiqqanligi munosabati bilan; kreditorning ijroni qabul qilishdan bo'yin tovlashi yoki uning tomonidan boshqacha yo'l bilan kechiktirilishi munosabati bilan.

Pul summasini yoki qimmatli qog'ozlarni notarius yoxud sudning depozitiga qo'yish majburiyatni bajarish hisoblanadi. Depozitiga pul yoki qimmatli qog'ozlar qo'yilgan notarius yoxud sud kreditorni bundan xabardor qiladi.

Agar qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini qilishi yoxud kreditorga bir yoki boshqa mol-mulkni topshirishi lozim bo'lsa, bosharti qonun hujjatlari, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, tanlash huquqi qarzdor ixtiyorida bo'ladi.

Taraflardan biri shartnomaga muvofiq boshqa tarafning o'z majburiyatlarini bajarishiga bog'liq qilib qo'yilgan majburiyatni bajarishi muqobil bajarish hisoblanadi.

Burchli taraf shartnomada belgilab qo'yilgan majburiyatni bajarmagan yoki majburiyat belgilangan muddatda bajarilmasligini ochiq ko'rsatib turgan vaziyat mavjud bo'lgan taqdirda, muqobil ijroni o'z zimmasiga olgan taraf o'z majburiyatini bajarmay turishga yoki bu majburiyatni bajarishdan bosh tortishga va ko'rilgan zararni to'lashni talab qilishga haqli.

Agar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat to'la hajmda bajarilmagan bo'lsa, muqobil ijroni o'z zimmasiga olgan taraf o'z majburiyatining ikkinchi tarafning to'la hajmda bajarilmagan majburiyatiga mos keladigan qismini bajarishni to'xtatib qo'yishga yoki bajarishdan bosh tortishga haqli.

Agar bir taraf shartnomada belgilab qo'yilgan o'z majburiyatini bajarmagan bo'lishiga qaramay, ikkinchi taraf majburiyatning muqobil ijrosini amalga oshirgan bo'lsa, birinchi taraf o'z majburiyatini bajarishi shart.

2-§. Neustoyka — majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usuli sifatida

Qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashi shart bo'lgan pul summasi **neustoyka** hisoblanadi. Neustoyka to'lash haqidagi talab bo'yicha kreditor o'ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas. Neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta'minlanadi.

Agar qarzdor majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmasa, kreditor neustoyka to'lashni talab qilishga haqli emas.

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi.

Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va qoida tariqasida, qat'iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka **jarima** hisoblanadi.

Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka **pena** hisoblanadi.

Neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak.

Neustoyka to'lash taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat'i nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka)ni to'lashni talab qilishga haqli.

Qonuniy neustoykaning miqdori, agar qonun taqiqlamasa, taraflarning kelishuvi bilan ko'paytirilishi mumkin.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni, majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi **garov** hisoblanadi. Qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan taqdirda garov tufayli garovga qo'yilgan mulkning qiymatidan

qanoat hosil qilishga haqlidir. Garovga qo'yilgan mulkning qiymatidan kreditor talabining qondirilishi (agar qonunda boshqa narsa belgilanmagan bo'lsa) sudning, xo'jalik sudining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

3-§. Garov huquqi

Garov — bu bir shaxs boshqa shaxsga mol-mulkini yoki unga bo'lgan huquqni majburiyatlarni ta'minlash uchun berishidir.

Garovga qo'yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan hosil, mahsulot va daromadlarga garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda joriy qilinadi.

Butun korxona yoki boshqa mulkiy kompleks ipotekasida garov huquqining tarkibiga kiruvchi ko'chmas va ko'char mol-mulkning hammasiga, shu jumladan, talab qilish huquqi va mutlaq huquqlarga, shu bilan bir qatorda ipoteka davrida olingan huquqlarga ham, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, joriy qilinadi.

Bino yoki inshoot ipotekasiga ayni bir vaqtning o'zida o'sha shartnoma bo'yicha shu bino yoki inshoot joylashgan yer uchastkasini yoxud bu uchastkaning garovga qo'yilayotgan obyekt ishlashini ta'minlaydigan qismini yoki garovga qo'yuvchiga qarashli bo'lgan ushbu uchastkani yoxud uning tegishli qismini ijaraga olish huquqini bir vaqtda ipotekaga qo'ygan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Yer uchastkasini ipotekaga qo'yishda garov huquqi, agar shartnomada boshqacha shart nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yuvchining ushbu uchastkada bo'lgan yoki qurilayotgan binolari va inshootlariga joriy qilinmaydi.

Agar garovga qo'yuvchiga emas, balki boshqa shaxsga qarashli binolar yoki inshootlar joylashgan yer uchastkasiga ipoteka belgilangan bo'lsa, garovga oluvchi undiruvni ushbu uchastkaga qaratganida va u kim oshdi savdosida sotilganida garovga qo'yuvchining ushbu shaxsga nisbatan huquq va burchlari uchastkani sotib oluvchiga o'tadi.

Garov to'g'risidagi shartnomada, qonun asosida paydo bo'ladigan garovga nisbatan esa, qonunda garovga qo'yuvchi kelajakda

ega bo'ladigan ashyolarni va mulkiy huquqlarni garovga qo'yish nazarda tutilishi mumkin.

Agar shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki garovning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo'yuvchi garov narsasidan uning vazifasiga ko'ra foydalanishga, shu jumladan, undan hosil va daromadlar olishga haqli.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa va garovning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo'yuvchi faqat garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa shaxsga berishga, uni ijaraga yoki bepul foydalanish uchun boshqa shaxsga topshirishga yoxud uni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan mol-mulkni vasiyat qilib qoldirish huquqini cheklaydigan kelishuv o'z-o'zidan haqiqiy emasdir.

Garovga oluvchi o'ziga topshirilgan garov narsasidan shartnomada nazarda tutilgan hollardagina foydalanishga haqli bo'lib, garovga qo'yuvchiga undan foydalanish to'g'risida muntazam hisobot berib turadi.

Shartnomaga muvofiq, garovga oluvchi zimmasiga asosiy majburiyatni bajarish maqsadida yoki garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab, garov narsasidan hosil va daromadlar olish burchi yuklab qo'yilishi mumkin.

Shartnoma shartlariga ko'ra, garovga oluvchiga o'ziga topshirilgan garov narsasidan foydalanish huquqi berilgan hollarda u boshqa shaxslardan, shu jumladan garovga qo'yuvchidan ham, o'z huquqining har qanday buzilishini bartaraf etishni, garchi bu buzilishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, talab qilishi mumkin.

4-§. Majburiyatlarning bekor bo'lishi tushunchasi

Har qanday huquqiy munosabat kabi majburiyat ham muayyan asoslar, ya'ni muayyan yuridik faktlar mavjud bo'lgan vaqtda bekor bo'ladi. Majburiyatning bekor bo'lishi deganda,

vujudga kelgan yuridik fakt tufayli majburiyat ishtirokchilari huquq va burchlarining bekor bo'lishi tushuniladi.

Majburiyat Fuqarolik kodeksida, boshqa qonunlarda yoki shartnomada nazarda tutilgan asoslarga ko'ra to'liq yoki qisman bekor bo'ladi.

Majburiyatni taraflardan birining talabi bilan bekor qilishga qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi (FKning 340-moddasi). Amaldagi qonunchilikka ko'ra, majburiyat quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

- 1) majburiyatning bajarilishi bilan;
- 2) voz kechish haqini berish bilan;
- 3) hisobga o'tkazish bilan;
- 4) talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bilan;
- 5) qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib qolishi bilan;
- 6) majburiyat yangilanishi bilan;
- 7) qarzdan voz kechish bilan;
- 8) bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli;
- 9) davlat organi hujjati asosida;
- 10) fuqaroning vafot etishi bilan;
- 11) yuridik shaxs tugatilishi bilan.

Yuqorida ko'rsatilgan umumiy asoslardan tashqari, majburiyatlarni bekor qiladigan yana ba'zi asoslar ularning ayrim turlarini tartibga soladigan tegishli boblarida nazarda tutilgan. Jumladan, mulkni ijaraga oluvchi shartnomani istagan vaqtida bir tomonlama bekor qila olishi mumkinligi ko'rsatiladi.

Nazorat savollari

1. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va belgilanish asoslari.
2. Neustoyka — majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usuli sifatida.
3. Garov huquqi nima?
4. Majburiyatlarning bekor bo'lishi tushunchasi.

32-BOB. SHARTNOMA TO'G'RIDA UMUMIY QOIDALAR. SHARTNOMANI TUZISH, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

1-§. Shartnoma to'g'risida umumiy qoidalar. Shartnoma tuzish, o'zgartirish va bekor qilish

FKning 8-moddasi talabiga ko'ra, shartnomalar taraflar o'rtasida fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asoslaridan biridir. Shubhasiz, bugungi kunda shartnomalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Chunki shartnomalarda boshqacha yuridik faktlarga qaraganda, taraflarning erk-irodasi to'la ifodalanadi. Shartnomaga kirishuvchi shaxslar kim bilan, qancha, qachon shartnoma tuzishni u tufayli yetkazib berilishi lozim bo'lgan pul, tovar, ashyolarni qaysi muddatlarda, qanday transportlarda yetkazilishini, to'lov amaldagi qanday shakllarda bo'lishini mutlaqo o'zlari, mustaqil hal qiladilar. Ular shartnomalar tuzishda erkindirlar, shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmaydi¹. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, shartnomalar tuzishning erkinligi, undan taraflarning o'zaro manfaatdorligi, shartnomada shartnoma intizomining mustahkamligi (ya'ni xalq tili bilan aytganda, «shartnomaning puldan qimmatligi») unda ma'muriy-buyruq-bozlikka asoslangan javobgarlikdan ko'ra, mulkiy javobgarlikning

¹ Ammo bu holatdan ayrim istisnolar bor. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi «Umumiy foydalanishdagi havo, temiryo'l, ichki suv va avtomobil transporti yo'lovchilarining majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, parvoz vaqtida yoki aeroport, shohbekat, bekat, bandargohda ro'y berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarda davlat majburiy sug'urtasidan o'tkazilishi kerak bo'lgan havo, temiryo'l, ichki suv va avtomobil transporti yo'lovchilari muqarrar tarzda sug'urtalanadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborot-nomasi. 1993. 6-son. 250-modda. O'zbekistonning yangi qonunlari. 8-son. —T.: Adolat, 1994.

keng belgilanishi xo'jalik yurituvchi subyektlarni tobora ushbu huquqiy vositadan (shartnomadan) to'laroq foydalanishga jalb qilmoqda. Shartnomalarning ahamiyatini keng tushuntirish mumkin. Ammo ularning sarasi shartnomalar to'lov intizomini kuchaytiradi, taraflarning faoliyatini har tomonlama rag'batlantiradi, o'z navbatida, taraflarning mas'uliyatini oshiradi, xo'jalikning debitorlik va kreditorlik holatini yaxshilaydi, pirovardida taraflarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda tovarlar, xizmatlar va kapitallarning mo'l-ko'lligiga garovdir.

Shu ma'noda sohaning tezkor va ta'sirchan huquqiy mexanizmini yaratish, shartnomalar tuzish va bajarishni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida qonun¹ qabul qilindi, shartnomalarni tuzish va bajarish monitoringi yuritilmoqda. Bular, o'z navbatida, tuzilgan shartnomalarning tezroq va realroq ishlashiga xizmat qilmoqda.

Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvdir.

Shartnoma atamasi uch ma'noda: yuridik fakt; biron-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy yoki moddiy manfaatlar to'g'risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) nima to'g'risida o'zaro kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi hujjat ma'nosida ishlatiladi. Bu yerda u o'zining birinchi ma'nosi — yuridik fakt sifatida ko'riladi va o'rganiladi.

Yodingizda bo'lsa, yuridik fakt tushunchasi «Fuqarolik-huquqiy munosabat» mavzusida batafsil berilgan edi. Unda yuridik faktlar mazmuni jihatidan ikki asosiy toifaga: yuridik hodisalar va harakatlarga bo'lingan edi. Yuridik harakatlar, o'z navbatida, huquq yo'l qo'ygan harakatlar sifatida bir tomonlama va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) etib ko'rsatilgan edi. Ikki tomonlama

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998. 9-son. 170-modda. O'zbekistonning yangi qonunlari. 20-son. —T.: Adolat, 1999.

bitimlarning hammasi (oldi, sotdi, ijara, qarz va boshqalar) shartnoma hisoblanadi. Bir tomonlama bitim, masalan, vasiyatnoma shartnoma bo'la olmaydi. Binobarin, har qanday shartnomani bitim deyilsa ham, ammo har qanday bitimni shartnoma deb atab bo'lmaydi.

Demak, shartnoma bitimning bir ko'rinishi hisoblanar ekan, unga nisbatan bitimga oid qoidalar, jumladan, FKning 9-bobidagi qoidalar tatbiq etiladi. Shu bilan birga shartnoma o'ziga taalluqli bo'lgan boshqa maxsus normalar bilan ham, masalan, «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilish monitoringini olib borish tartibi to'g'risida»gi Nizom¹ bilan ham tartibga solinadi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar qonunlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, FKda belgilangan majburiyatlar haqidagi umumiy qoidalar (FKning 234 — 352-moddalari) qo'llaniladi.

Ikkidan ortiq taraflar tuzadigan shartnomalarga ham, agar bunday shartnomalarning ko'p taraflamalik xususiyatiga zid bo'lmasa, shartnoma to'g'risidagi umumiy qoidalar qo'llaniladi.

Shartnoma huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo shartnomaning harakati bu bilan cheklanmaydi. Agar boshqa yuridik faktlar umumiy qoida bo'yicha huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish bilan tugallansa, shartnoma mazkur yuridik faktlardan farq qilib, huquqiy munosabatni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishdan tashqari yana huquq normalari bilan belgilangan doiralarda huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning xatti-harakatlarini tartibga soladi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini belgilaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrda 383-sonli Qaroriga 1-ilova // «Norma» Yuridik axborot tizimi. 2004-yil 1-aprelgacha bo'lgan versiyasi.

Shartnoma bilan vujudga keltirilgan huquqiy munosabat davomida shartnoma taraflarning xatti-harakatlari qanchalik qonunga muvofiq bo'lgan-bo'lmaganligini ham tekshirish imkoniyatini beradi¹.

Shartnoma tushunchasida asosiy belgi, asosiy shart — taraflarning muayyan natijaga erishishga qaratilgan o'zaro kelishuvlaridir. Taraflarning har qaysisi tomonidan shartnoma bo'yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo'lsa ham, ular oqibatda yagona huquqiy natija beradi, masalan, biron-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o'tkaziladi yoki biron-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi va h.k.

Taraflarning kelishuvlari natijasida erishiladigan bevosita aniq natijani mazkur shartnoma tuzishda taraflarning o'z oldilariga qo'yilgan asosiy maqsaddan ajratish kerak. Masalan, metallurgiya zavodi mashinasozlik zavodi bilan muayyan miqdordagi, shart qilingan nav va markali po'latni yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzadi. Bu yerda taraflar o'zaro kelishuvlarining bevosita natijasi metallurgiya zavodi tomonidan mashinasozlik zavodiga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda va muayyan shartlarga binoan ma'lum miqdorda po'lat yetkazib berish hisoblanadi. Shartnomaning maqsadi esa har ikki taraf uchun umumiy bo'lib, taraflarning har qaysisi shartnomaning barcha ko'rsatkichlarini bajarishdan, pirovardida foyda (daromad) olishdan iborat bo'ladi. Binobarin, har ikki taraf ham shartnomani lozim darajada bajarishni o'zlarining burchlari deb biladilar.

Fuqarolik-huquqiy shartnoma, asosan, mulkiy munosabatlarni rasmiylashtirish uchun tuziladi. Ba'zi hollarda shartnoma shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarni ham rasmiylashtiradi. Bu adabiyot, fan va san'at asarlarini yaratish sohasidagi ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar, chunonchi, nashriyot shartnomasi, sahna asari, kinossenariylar va boshqa shartnomalar uchun xosdir.

¹ Рахманкулов М. Роль и сущность гражданско-правового договора в условиях рыночной экономики. —Т.: Фан, 1994. С. 113 — 114.

Bunday shartnomalar taraflarning mulkiy huquqlari va burchlarinigina, chunonchi, mualliflik haqi to'g'risidagi shartlarni, muddatlarni buzganlik uchun javobgarliknigina belgilamay, balki shaxsiy nomulkiy huquqlarni ham, masalan, muallif o'z asarini nomini ko'rsatib yoki anonim tarzda chiqarishi, asari matniga o'zgartirish kiritishga ruxsat berish-bermaslik singari nomulkiy huquqlarni ham belgilaydi.

2-§. Shartnomalarning turlari

Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab **bir tomonlama**, **ikki tomonlama** va **ko'p tomonlama** shartnomalarga bo'linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat bo'ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarz beruvchi o'z vaqtida qarzdordan talab qilish huquqiga ega.

Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo'ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma bo'yicha sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga ega bo'lib, sotilgan ashyoni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa, olayotgan ashyoning bahosini to'lashi zarur bo'lib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga haqli.

Fuqarolik muomalasi tuziladigan shartnomalarning ko'pchiligi ikki tomonlama bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan oldi-sotdi shartnomasidan tashqari, mahsulot yetkazib berish, mulk ijarasi, pudrat va boshqa shartnomalardan iborat.

Ko'p tomonlama shartnomalar ham mavjud bo'lib, unda taraflar uch va undan ortiq bo'ladi. Ularda bir paytning o'zida har bir tarafda muayyan huquq va majburiyatlar bo'lishi xarakterlidir. Masalan, franshizing, lizing shartnomalari.

Shartnomalar **haq baravariga** va **tekinga** tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Haq baravariga tuziladigan shartnomalarda bir taraf topshirgan mulki, qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan

haq oladi. Masalan, bir taraf — vaqtinchalik foydalanish uchun, mulkni ijaraga oluvchi undan foydalangani uchun ijara haqi to'lashga majbur bo'ladi. Bunday haq baravariga tuziladigan shartnomalarga oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqa ko'plab shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Agar qonun hujjatlaridan boshqacha qoida kelib chiqmasa, shartnomaning mazmun-mohiyatidan o'zgacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma deb hisoblanadi.

Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga haq olmay, biron-bir mulkni topshirish, biron ishni bajarishi mumkin. Masalan, hadya shartnomasi bo'yicha mulk egasi o'z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Tekin foydalanish, foizsiz qarz shartnomalari ham bepul tuziladigan shartnomalarga kiradi.

Shartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab **konsensual** va **real** shartnomalarga bo'linadi.

Konsensual shartnomalar huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirganlari zahoti tuzilgan hisoblanadi. «Konsensual» so'zi lotincha «konsensus» so'zidan olingan bo'lib, «kelishuv» ma'nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga misol qilib oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko'rsatsa bo'ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.

Real shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlar taraflar o'zaro kelishgan va shartnoma narsasi — ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.

«Real» so'zi lotincha «res» so'zidan olingan bo'lib, «ashyo» ma'nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, tekin foydalanish shartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar umumiy qoida bo'yicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Ayrim hollarda shartnoma uchinchi shaxs foydasiga qaratilib

ham tuzilishi mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomaga misol qilib sug'urta shartnomasini ko'rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf bo'lib hisoblanmaydi. Biroq FKning 362-moddasida ko'rsatilganidek, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas. Shartnoma tuzgan shaxs shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishini shart qilgan bo'lsa, bu haqda shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatning bajarilishini shartnomani tuzgan shaxs ham, foydasiga majburiyatning bajarilishi ko'rsatilgan uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin.

Agar uchinchi shaxs o'ziga shartnoma bo'yicha berilgan huquqdan voz kechsa, shartnoma tuzgan shaxs, agar shartnomaning mazmuniga xilof kelmasa, bu huquqdan o'zi foydalanishi mumkin.

Shartnomalar, shuningdek, ommaviy shartnoma, qo'shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma kabi turlarga ham bo'linadi.

Tashkilot tarafidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, jamoat transportida yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, elektr quvvati bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmon-xona xizmati va boshqalarni) belgilab qo'yadigan shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari).

Tovarlar, ishlar, xizmatlarning bahosi, shuningdek, ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi. Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berishi, xizmatlar ko'rsatishi, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi. Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan

asossiz bosh tortganida xaridor (mijoz) uni sud orqali shartnoma tuzishga majbur qilish imkoniyatiga (FKning 358-moddasi) ega. Maishiy pudrat, yo'lovchi tashish, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari ommaviy shartnomalardir.

Shartlarini taraflardan biri formularlar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo'shilish yo'li bilan qabul qilishi mumkin bo'lgan shartnoma **qo'shilish shartnomasi** deyiladi. Bunday shartnomalarga misol qilib havo va temiryo'l transportida yuk va yo'lovchilar tashish shartnomalarini ko'rsatish mumkin. Odatda, bunday shartnomalar mazmuni hamma uchun deyarli bir xil bo'lib, oldindan belgilab qo'yiladi va, binobarin, mijoz uning shartlarini boshqacha tuzishni taklif etish imkoniyatiga ega emas. Biroq qo'shilish shartnomasi mijozning o'z ixtiyori, erki va irodasi bilan shartnomaga qo'shilishini bildiradi. Bunday shartnomalarni aslo bir tomonlama bitim deb hisoblash mumkin emas. Qo'shilish shartnomasini bekor qilish yoki shartnomalarini o'zgartirish asoslari FKning 360-moddasida nazarda tutilgan.

Dastlabki shartnoma bo'yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatini oladilar.

Dastlabki shartnoma asosiy shartnoma uchun belgilangan shaklda, bordi-yu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bo'lsa, yozma shaklda tuziladi. Dastlabki shartnomaning shakli to'g'risidagi qoidalarga rioya qilmaslik uning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini, shuningdek, boshqa muhim shartlarini belgilab qo'yish imkonini beradigan shartlar bo'lishi kerak. Dastlabki shartnomada asosiy shartnomani tuzish muddati ko'rsatilgan bo'lishi lozim, agar ko'rsatilmagan bo'lsa, dastlabki shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab bir yil ichida tuzilishi shart (FKning 361-moddasi). Birjalarda tuziladigan turli xil shartnomalar, jumladan, forward, fyuchers, opsiyon bitimlar — dastlabki shartnomalardir.

3-§. Shartnomaning mazmuni

Shartnomaning mazmunini uning bandlari (shartlari, rekvizitlari) tashkil etadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma shartlari (bandlari) muhim, odatdagi va tasodifiy shartlarga bo'linadi. Shartnomaning narsasi to'g'risidagi shartlar qonun hujjatlarida bunday turdagi shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar, shuningdek, taraflardan birining arizasiga ko'ra kelishib olinishi zarur bo'lgan hamma shartlar muhim shartlar hisoblanadi. Ba'zi shartnomalar uchun xos muhim bandlar qonun bilan belgilanadi. Chunonchi, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasida, «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilish monitoringini olib borish tartibi to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrdagi 383-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomning II bandiga muvofiq, shartnomalarda quyidagilar ko'rsatiladi:

- shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (hajmi), sifati, narxi (turlari bo'yicha);
- shartnomaning umumiy summasi;
- tomonlarning huquqlari va o'zaro majburiyatlari;
- mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) punktlari va davrlari (muddatlari);
- idishga, markirovka qilishga, o'rash-joylashga qo'yiladigan talablar;
- hisob-kitoblar tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jo'natish rekvizitlari;
- shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;

— nizolarni, fors-major holatlarni hal etish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning sorti va miqdori ham ko'rsatiladi.

Odatdagi shartlar muayyan majburiyatga oid munosabatni tartibga soladigan dispozitiv normalar bilan belgilanadigan shartlar hisoblanadi. Bunday shartlar odatdagidek nazarda tutiladi. Masalan, mulk ijarasi shartnomasida mulkni mayda (joriy) ta'mirlash shart qilib ko'rsatilsa ham, ko'rsatilmasa ham bo'ladi, chunki bu shart to'g'risida qonunchilikda (dispozitiv xarakterdagi) ko'rsatma berilgan.

Tasodifiy shartlar umumiy huquq me'yorlari bilan tartibga solinmagan masalalar bo'yicha o'zaro kelishuv sifatida ko'riladi. Chunonchi, ijaraga olingan mulkni ta'mirlash muddati to'g'risidagi masala tasodifiy shartlardan biri hisoblanadi.

Shartnomada uning ayrim shartlari tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan namunaviy shartlar bilan belgilanishi nazarda tutilishi mumkin. Shartnomada namunaviy shartlarga havola qilinmagan hollarda bunday namunaviy shartlar taraflarning munosabatlariga ish muomalasi odatlari sifatida qo'llaniladi (FKning 359-moddasi).

4-§. Shartnoma tuzish

Shartnomaning tuzilishi FKning 354-moddasida ko'rsatilganidek, agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha talab qilinadigan shaklida kelishuvga erishilgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnomaning umumiy tartibda tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi. Birinchi davr — shartnoma tuzishga taklif qilish davri, bunga oferta, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa oferent deb ataladi.

Ikkinchi davr — shartnoma tuzish to'g'risida taklifni qabul qilish, bu aksept, taklifni qabul qiluvchi akseptant deb ataladi.

Shartnoma tuzishning umumiy tartibiga oid qoidalar FKning 364 — 381-moddalarida berilgan. Bu qoidalarda aytilishicha, agar shartnoma tuzish to'g'risidagi taklif (oferta) javob uchun muddat tayinlab qilingan bo'lsa, bu holda shartnoma ikkinchi taraf (akseptant) tomonidan taklifning qabul qilinganligi to'g'risidagi javob shu muddat ichida taklif qiluvchi (oferent) tomonidan olingan holdagina tuzilgan hisoblanadi. Oferta yo'llagan shaxs uning akseptini olgan paytdan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma tuzilishi uchun taraflarning o'zaro kelishuvining o'ziga kifoya emas. Bu kelishuv tegishli shaklda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Shartnomalarning shakli FKning 366-moddasida belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lishi shart. Unga asosan, agar qonunda muayyan turdagi shartnomalar uchun ma'lum bir shakl belgilab qo'yilmagan bo'lsa, shartnoma bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro'yxatdan o'tkazilishi zarur bo'lganda esa, shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo'lsalar, garchi qonunda bu turdagi shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo'lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan, shuningdek, pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo'li bilan tuzilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Shartnoma to'g'risida umumiy qoidalar. Shartnoma tuzish, uni o'zgartirish va bekor qilish.
2. Shartnomalarning qanday turlarini bilasiz?
3. Shartnomaning mazmuni.
4. Shartnoma tuzish qanday amalga oshiriladi?

33-BOB. MAJBURIYATLARNING TURLARI

1-§. Oldi-sotdi shartnomasi

Oldi-sotdi shartnomasi uzoq rivojlanish tarixiga ega bo'lgan fuqarolik huquqining odatdagi muhim institutlaridan hisoblanadi. Rim klassik huquqida ham konsensual shartnoma *emptio-venditio* sifatida yuzaga keladi. Bunda shunday shartnoma nazarda tutiladiki, buning vositasida bir tomon — sotuvchi (*venditor*) ikkinchi tomon — sotib oluvchi (*emptor*)ga ashyo, tovar (*merx*) ni topshirish majburiyatini, ikkinchi tomon — xaridor ko'rsatilgan tovar uchun muayyan narx (*premium*)ni to'lash majburiyatini oladi. Rim huquqida kelgusi hosilning oldi-sotdi shartnomasi mavjud edi, bunday hollarda kelajak yoki kutilayotgan ashyoni sotish shartnomasi (*rei futurae sivi speratae*) qo'llanilgan, oldi-sotdi esa kechiktirish sharti bilan amalga oshirilgan, deb hisoblangan.

Oldi-sotdi shartnomasi boshqa bir qator shartnomalar uchun (oldi-sotdi shartnomasining alohida ko'rinishlari) asos tushuncha hisoblanib, unga ko'ra bir shaxs boshqa shaxsga biron-bir ashyolarni mulk qilib berish majburiyatini olsa, ikkinchi shaxs bu mulkni qabul qilish va muayyan pul summasini (narx) to'lash majburiyatini oladi.

Oldi-sotdi shartnomasining alohida ko'rinishlari deb quyidagi shartnomalar tan olinadi: chakana oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot yetkazib berish, kontraktatsiya, energiya ta'minoti, ko'chmas mulk oldi-sotdisi, korxona oldi-sotdisi. Yuqoridagi oldi-sotdi shartnomasi turlarining bir guruhga birlashtirilishidan maqsad o'xshash huquqiy munosabatlarni oson va optimal tartibga solishdir. Bundan shunday qoida kelib chiqadiki, oldi-sotdi shartnomasini tartibga soluvchi FKning umumiy qoidalari subsidiar ravishda qo'llaniladi.

Ushbu shartnomalar oldi-sotdi shartnomasining alohida ko'rinishlari sifatida qonunchilik tomonidan tartibga solinar ekan, ularga nisbatan nafaqat oldi-sotdi shartnomalarining qoidalari, balki ularni oldi-sotdi shartnomasidan farqlash uchun o'ziga xos belgilarini belgilash talab etilgani tufayli ularni tartibga soladigan qoidalar o'rnatilgan. Lekin, shu bilan bir qatorda, bu shartnomalarni umumlashtirish mumkin bo'lgan qoida-talablar belgilanmagan, oldi-sotdi bilan yaqinligi ham yaqqol belgilab berilmagan.

Ba'zi bir holatlarda qonunchilik oldi-sotdi shartnomalar muayyan alohida turlariga nisbatan subsidiar ravishda oldi-sotdi shartnomalari boshqa turlarining qoidalari qo'llanilishini belgilab beradi. Misol uchun:

— kontraktatsiya shartnomasi yuzasidan vujudga kelgan, lekin normalar bilan tartibga solinmagan munosabatlarga nisbatan mahsulot yetkazib berish shartnomasi qoidalari qo'llaniladi;

— ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi qoidalari korxona oldi-sotdisi shartnomasiga nisbatan ham qo'llaniladi, chunki o'zgacha holatlar korxona oldi-sotdi shartnomasi to'g'risidagi normalarda aks ettirilmagan.

Ushbu holatlardan kelib chiqib shunday xulosalarga kelish mumkin, ya'ni yuqoridagi shartnomalar oldi-sotdi shartnomasining alohida turlari emas, balki oldi-sotdi shartnomasining boshqa turlarini namoyon qiluvchi shartnoma ko'rinishlaridir (misol uchun, kontraktatsiya — mahsulot yetkazib berish shartnomasining ko'rinishi; korxona oldi-sotdisi — ko'chmas mulk oldi-sotdisi shartnomasining ko'rinishi).

Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, yuqoridagi holatlar qonunchilik texnikasi talablaridan kelib chiqqan, shuning uchun bu oldi-sotdi shartnomasini tur va ko'rinishlarga bo'lishimizga asos bo'la olmaydi. Aynan shu sabablarga ko'ra oldi-sotdi shartnomasining alohida ko'rinishlari uchun qo'llaniladigan qoidalar boshqa oldi-sotdi turlari uchun qo'llanilishiga yo'l qo'yuvchi normalar ushbu oldi-sotdi turlarining sonini ko'paytirishga yo'l qo'ymaydi. Misol uchun, energiya ta'minoti shartnomasining normalari bilan tartibga solinadigan gaz bilan ta'minlash, neft va neft mahsulotlari, suv

bilan ta'minlash shartnomalarini oldi-sotdi shartnomasining alohida ko'rinishlari sifatida e'tirof etish mumkin emas.

Oldi-sotdi munosabatlari qadim zamonlardan oq kishilar o'rta-sidagi tovar almashinuvinin huquqiy vositasi sifatida amalda bo'lgan. Dastlab oldi-sotdi munosabatlari o'zaro tovar almashinuvi shaklida vujudga kelgan bo'lsa, pul ixtiro qilinishi bilan oldi-sotdi shartnomasi tovar-pul almashinuvi munosabati sifatida namoyon bo'la boshladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to'lash majburiyatini oladi (FKning 386-moddasi).

Odatda, oldi-sotdi shartnomasi turmushda eng ko'p qo'llaniladigan shartnoma hisoblanadi. Oldi-sotdi shartnomasining maqsadi tovarga nisbatan mulk huquqini haq evaziga bir shaxsdan (sotuvchidan) ikkinchi shaxs (sotib oluvchi)ga o'tkazish hisoblanadi. Bunda sotuvchi sotilayotgan tovarning mulkdori yoki mulkdor tomonidan vakil qilingan shaxs bo'lishi lozim.

Oldi-sotdi shartnomasining huquqiy belgilari quyidagilardir:

1. Oldi-sotdi shartnomasi ikki tomonlama shartnoma hisoblanadi. Shartnomada taraflarning har birida huquq va majburiyat mavjud bo'ladi. Jumladan, sotuvchi tovarni topshirish majburiyati bilan birga tovar haqini talab qilish huquqiga ega bo'lsa, sotib oluvchi tovarni talab qilish huquqi bilan birga tovar haqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Masalan, do'kondan fotoapparat sotib olayotgan sotib oluvchi fotoapparat haqini to'lash majburiyatini bajarishi va pul to'langanidan so'ng fotoapparatni o'ziga topshirilishini talab qilishi mumkin. Aynan shu taxlitda sotuvchi ham dastavval fotoapparat haqini talab qilishi mumkin, keyin esa u fotoapparatni sotib oluvchiga topshirishi lozim.

2. Oldi-sotdi shartnomasi konsensual shartnomalar jumlasiga kiradi. Oldi-sotdi shartnomasi yuzasidan sotuvchida tovar haqini talab qilish huquqi va tovarni topshirish majburiyati, sotib oluvchida tovar haqini to'lash majburiyati va tovarni talab qilish huquqi

tarafilar o'rtasida kelishuvga erishilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

3. Muqobil ijroning mavjudligiga ko'ra, oldi-sotdi shartnomasi haq baravariga tuziladigan shartnoma bo'lib, unga ko'ra shartnoma yuzasidan sotuvchi amalga oshirgan harakat (topshirgan tovari) uchun sotib oluvchi shartnomada belgilangan haqni to'lashi zarur.

Tovarni sotib oluvchiga topshirish tuzilgan va kuchga kirgan oldi-sotdi shartnomasining sotuvchi tomonidan bajarilishini ko'rsatadi. Agarda shartnomaning kuchga kirish payti uni topshirish vaqtiga to'g'ri kelsa, unda u tuzilgan paytdan bajarilgan hisoblanadi.

Oldi-sotdi shartnomasi haq evaziga va ikki tomonlama shartnoma bo'lib hisoblanadi. Bu sinallagmatik shartnoma hisoblanadi, chunki sotib oluvchining pulni to'lash majburiyatini bajarishi, sotuvchi tomonidan ashyoni topshirish majburiyatining bajarilishiga bog'liq qilib qo'yilgan. Boshqacha qilib aytganda, agarda sotuvchi ashyoni topshirish majburiyatini bajarmagan bo'lsa, sotib oluvchi shartnoma summasini to'lashi kerak emas.

Agarda oldi-sotdi shartnomasi tovar narxini oldindan to'lash sharti bilan tuzilgan bo'lsa, sotuvchi qarshi ijro subyekti bo'lib hisoblanadi, ya'ni sotib oluvchi ushbu shartnomaga muvofiq summani to'lamasa, sotuvchi unga tovar topshirishga majbur emas. Oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq, har qanday ko'char, ko'chmas, individual, muayyan va turga xos alomatlari bilan farqlanuvchi ashyolar tovar sifatida hisoblanadi.

Tovar oldi-sotdisi umumiy qoidalari, agar boshqa hol mulkiy huquqlar xususiyatidan kelib chiqmasa, ularga nisbatan ham qo'llaniladi. Shartnoma kelajak tovarlar oldi-sotdisi yuzasidan ham tuzilishi mumkin, ya'ni keyinchalik sotuvchi tomonidan yaratiladigan yoki xarid qilinadigan tovarlar.

Oldi-sotdi shartnomasining maqsadi tovar sifatida xizmat qiluvchi ashyoga bo'lgan mulk huquqini boshqa shaxsga — sotib oluvchiga o'tkazishdir. Umumiy qoidaga ko'ra, shartnoma bo'yicha sotib oluvchida ashyoga bo'lgan mulk huquqi ashyo unga topshirilgandan boshlab yuzaga keladi, agarda qonun yoki shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa.

Mol-mulkni o'zlashtirish davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab etganda esa, xaridorda mulk huquqi ushbu ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilgandan keyin yuzaga keladi, agarda qonunchilikda boshqacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa. Agar sotib oluvchi sifatida o'ziga tegishli mol-mulkdan mulk huquqiga ega bo'lmasdan foydalansa, sotuvchi tomonidan mulkning topshirilishi (tegishli holatlarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazilishi) sotib oluvchida cheklangan ashyoviy huquqning vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Quyidagi oldi-sotdi shartnomalari davlat ro'yxatidan o'tkazilishi orqali rasmiylashtiriladi:

- ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi;
- korxona oldi-sotdisi mulkiy kompleks sifatida;
- turar joy, uy, kvartiralar yoki boshqa binolar oldi-sotdisi.

Umumiy qoidaga asosan mulkdor tomonidan boshqa shaxslar uchun mulkni begonalashtirish ular uchun mulk huquqining bekor bo'lishiga olib keladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha mulk huquqi tovar sifatida ko'rilayotgan mulk, ashyo sotib oluvchiga topshirilgan paytdan yoki sotib oluvchining huquqlari tegishli ravishda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bekor bo'ladi. Istisno tariqasida muayyan shart bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi hisoblanadi, misol uchun kechiktirilgan to'lov sharti bilan, ya'ni mulk huquqi sotuvchida saqlanib turish sharti bilan mulk qilib berish.

Ushbu holatda, agarda oluvchi mulkning pulini to'lamagan taqdirda sotuvchi mol-mulkini qaytarib berishni talab qilishi mumkin. Qonun yoki shartnomaga asosan, sotuvchi ashyo, mulkni topshirish majburiyatini bajargan deb topilgan taqdirda, ushbu mulkning kutilmaganda nobud bo'lish yoxud buzilish xavfi sotib oluvchida bo'ladi.

2-§. Oldi-sotdi shartnomasi taraflari

Oldi-sotdi shartnomasining taraflari (subyektlari) bo'lib **sotuvchi va sotib oluvchi** hisoblanadi. Umumiy qoidalarga ko'ra,

sotuvchi tovar mulkdori yoki ushbu ashyoga nisbatan cheklangan ashyoviy huquq asosida uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lishi lozim (misol uchun xo'jalik yuritish asosida).

Qonun shartnomada belgilangan holatlarda mulkni tasarruf etishga huquq layoqatini ashyoviy (mulk) huquq yoxud cheklangan ashyoviy huquq subyekti bo'lmagan shaxsga ham o'tkazishi mumkin. Xususan:

- aukسیونlar orqali oldi-sotdi amalga oshirilganda shartnoma sotib oluvchi va aukسیون o'tkazuvchi tashkilot o'rtasida tuziladi va buni tashkil etgan tashkilot sotuvchi deb topiladi;

- komissiya shartnomasini ta'minlash uchun mulk oldi-sotdisi shartnomasini sotib oluvchi bilan komissioner tuzadi va o'z nomidan harakat qiladi;

- aynan shu tartibda oldi-sotdi shartnomalari tuziladi, ya'ni agent o'z nomidan harakat qilib, prinsipial topshirig'iga ko'ra va agentlik shartnomasiga muvofiq harakat qiladi;

- o'z nomidan shartnomalar tuzish huquqi (xususan, sotish) ishonchnomali boshqaruvchiga ham shartnomaga muvofiq berilishi mumkin.

Oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra, sotib oluvchi bo'lib fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'la oladigan (muomalaga layoqatli) har qanday shaxslar tan olinadi. Oldi-sotdi shartnomasi asosida tovar, ashyoni sotib olgandan keyin sotib oluvchi uning mulkdoriga aylanadi.

Istisno tariqasida, birinchidan: davlat va munitsipal unitar korxonalar (xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqi asosida) hamda tashkilot, muassasalar (operativ boshqarish huquqi subyektlari) hisoblanadi. Ya'ni ular cheklangan ashyoviy huquq asosida foydalanadilar. Ikkinchidan, yuqorida aytib o'tilgan qonun yoki shartnoma asosida sotib oluvchi topshirig'iga muvofiq o'z nomidan shartnoma tuzuvchi shaxslar.

Oldi-sotdi shartnomalari ichida shunday shartnomalar mavjudki, unga ko'ra oluvchi va sotuvchi o'z oldi-sotdi munosabatlarini maxsus tadbirkorlik faoliyati asosida amalga oshiradi.

3-§. Oldi-sotdi shartnomasi predmeti

Oldi-sotdi shartnomasining predmeti bo'lib sotuvchining tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish bo'yicha harakatlari va shundan kelib chiqadigan sotib oluvchining ushbu tovarni qabul qilish va narxini to'lash harakatlari hisoblanadi.

Oldi-sotdining quyidagi obyektlari mavjud:

1) moddiy obyekt — topshirilishi lozim bo'lgan mulk va to'lanishi kerak bo'lgan summa;

2) yuridik obyekt — taraflarning mulkni topshirish va summani to'lashga qaratilgan harakatlari;

3) irodaviy obyekt — sotuvchi va sotib oluvchining shartnoma tuzishga bo'lgan individual erk-irodasi.

Oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar ikki turdagi obyektga ega: majburiyatli shaxsning harakatlari va shu harakatlar natijasida topshirilishi kerak bo'lgan ashyo.

Shartnoma predmeti oldi-sotdi shartnomasining eng muhim sharti hisoblanadi. Shunday qilib, oldi-sotdi shartnomasini tuzilgan deb topish uchun taraflardan faqat shartnoma hujjatida tovarlarning miqdori va turi to'g'risidagi shartlarni to'g'ri, aniq ko'rsatish talab etiladi.

Shartnoma predmetiga taalluqli boshqa shartlar FK normalari dispozitsiyasi bilan tartibga solinadi. Lekin ularning bajarilishi sotuvchi tomonidan ham, sotib oluvchi tomonidan ham muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Misol uchun sotuvchi o'zga mamlakatdagi sotib oluvchiga tovarni topshirayotganda unga o'zining jo'natish rekvizitlarini xabar qilishi talab etiladi.

4-§. Oldi-sotdi shartnomasining mazmuni va ijro etilishi.

Sotuvchining tovarni belgilangan muddatda topshirish majburiyati

Tovarni shartnomada belgilangan muddatlarda topshirish, agar bunday muddatlar belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatli majburiyat qoidalaridan kelib chiqib topshirish sotuvchining asosiy

majburiyati hisoblanadi. Agarda, shartnomada boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lsa, sotuvchi tovar bilan birga unga tegishli (xos) ashyolarni, shuningdek, tovarga tegishli hujjatlarni (texpasport, sertifikat va boshqalar) ham, qonun yoki shartnoma bilan belgilab berilganidek, bir paytning o'zida topshirishi lozim.

Oldi-sotdi shartnomasi qat'iy belgilangan muddatda bajarilishi sharti bilan tuzilishi mumkin. Bu holat shundan kelib chiqadiki, agarda ijro muddati buzilsa, sotib oluvchi tovarga bo'lgan va shartnomaga bo'lgan qiziqishi, xohishini yo'qotadi. Sotuvchi bu shartnomani, agarda muddati kelmagan yoki o'tib ketgan bo'lsa, sotib oluvchining roziligisiz amalga oshira olmaydi.

Bunday shartnomalarga misol qilib, Yangi yil archasini sotib olish shartnomasini keltirishimiz mumkin. Chunki Yangi yil bayramlaridan tashqari, bu shartnoma ahamiyatga ega emas.

Sotuvchi tomonidan tovarni sotib oluvchiga topshirish majburiyatini bajarish paytini quyidagi uch ko'rinishda belgilash mumkin:

— birinchidan, agarda shartnomada sotuvchining tovarni yetkazib berish majburiyati to'g'risidagi shart mavjud bo'lsa, tovarning oluvchiga topshirilish payti;

— ikkinchidan, agarda shartnomaga ko'ra tovarni joylashgan joyda oluvchiga topshirish sharti mavjud bo'lsa, tegishli joyda tovarni sotib oluvchining qo'liga topshirish payti;

— boshqa hamma hollarda — tovarni transport yoki aloqa tashkilotiga topshirish payti.

Shunday qilib, majburiyatni bajarish sanasi deb, maxsus hujjatda belgilangan, ya'ni transport yoki aloqa tashkilotiga tovarni sotib oluvchiga yetkazish uchun topshirilgan payt tan olinadi.

Tovarni belgilangan muddatlarda topshirmaslik yoki kechiktirib topshirish shartnoma shartlari, majburiyat muddat va qoidalarining buzilishi hisoblanadi hamda majburiyatni buzganlik uchun nazarda tutilgan javobgarlikni vujudga keltiradi. Xususan, sotib oluvchi yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Agarda, shartnomaga muvofiq, sotuvchi individual-muayyan ashyo (ashyolar)ni topshirishga majbur bo'lgan bo'lsa, sotib oluvchi

shartnoma shartlari asosida ushbu ashyoni sotuvchidan olib qo'yilishini va o'ziga topshirilishini talab qilish huquqiga ega. Shartnomada sotuvchining tovarni sotib oluvchiga topshirish majburiyatini bajarmaganligi tufayli boshqa javobgarlik holati ham belgilanishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Oldi-sotdi shartnomasi taraflari kimlar?
2. Oldi-sotdi shartnomasi predmeti nima?
3. Oldi-sotdi shartnomasining mazmuni va ijro etilishi.
4. Sotuvchining tovarni belgilangan muddatda sotib oluvchiga topshirish majburiyati.

34-BOB. KONTRAKTATSIYA SHARTNOMASI

1-§. Kontraktatsiya shartnomasi tushunchasi

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish shartnomalari respublikamizning qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklari bilan bu mahsulotlarni xarid qiluvchilar, iste'molchilar o'rtasida tuziladi. Shunga ko'ra, kontraktatsiya shartnomasi ta'rifi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 465-moddasida ifoda etilgan. Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash yoki sotish uchun bunday mahsulotni xarid qiladigan shaxsga, tayyorlovchiga shartlashilgan muddatda topshirish majburiyatini oladi, tayyorlovchi esa bu mahsulotni qabul qilish, uning haqini shartlashilgan muddatda, muayyan bahoda to'lash majburiyatini oladi.

Mana shu ta'rifdan ma'lumki, kontraktatsiya shartnomasi subyektlari bo'lib, bir tomonda mahsulot yetishtiruvchi xo'jaliklar, qishloq xo'jaligi shirkati, fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa xo'jaliklar ishtirok etsa, ikkinchi tomonda mahsulot tayyorlovchi tashkilot, mahsulotni qayta ishllovchi korxonalar va boshqa iste'molchilar qatnashadi. Tomonlar shartnoma bo'yicha olgan o'z majburiyatlarini maromiga yetkazib bajarishga majbur bo'lishadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish, yuqorida aytib o'tilganidek, kontraktatsiya shartnomalarini tuzish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 465-moddasi ikkinchi qismida ko'rsatilishicha, kontraktatsiya shartnomasiga oid munosabatlarga davlat ehtiyojlari uchun tovarlar yetkazib berishga doir davlat kontrakti to'g'risidagi qoidalar ham qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish shartnomalarining boshqa turlariga nisbatan fyuchers shartnomasi birmuncha afzalliklarga ega. Jumladan, fyuchers shartnomasi, uni tuzish paytida belgilangan narx bo'yicha, tovarlar oldi-sotdisi va operatsiyalarning muayyan vaqt oralig'ida bajarilishini ifodalovchi muddatli shartnoma hisoblanadi. Fyuchers shartnomasi xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish uchun bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga birjalarda va yarmarka savdolarida tuziladi. Bu shartnomaning yana bir afzallik tomoni shundaki, xo'jalik yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarinigina emas, balki shartnomaning o'zini ham birjada sotishga haqli.

Mahsulotning narxlari ko'tarilib yoki tushib ketganida ham taraflar zarar ko'rmaydi. Chunki, shartnoma tuzilgan vaqtda xaridor xo'jalikka u rasmiylashtirilganidan so'ng o'n kun ichida tomonlar kelishilgan qiymatning kamida o'n besh foizi miqdorida yoki undan ko'proq o'tkazadi. Olingan summaga soliq solinmaydi va ushbu mablag' debitor, kreditor qarzlar hisobiga, shuningdek, shartnoma to'liq bajarilguniga qadar va uning butun summasi xo'jalikning roziligisiz bank ssudalari bo'yicha qarzlar hisobiga to'lanmaydi. Bu mablag'dan xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirish, urug'lik, mineral o'g'itlar, yoqilg'i, mashina va texnika, ehtiyot qismlar sotib olish uchun foydalanishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi kooperativ (shirkat) xo'jaligi, fermer, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi boshqa xo'jaliklarga bu turdagi shartnomaning afzalligi shundaki, ular o'zlari yetishtiradigan mahsulotlarga avvaldan haq olib, uni ishlab chiqarishga sarf etadi. Bu bir tomondan ana shu xo'jalikda o'z mahsulotlarini sifatli qilib tayyorlashga omil bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, har bir xo'jalik hali ekishni boshlamasidanoq qancha mahsulot tayyorlashi va kimga yetkazib berishi, qancha foyda, daromad olishi mumkinligini hisob-kitob qilib chiqishiga imkoniyat yaratiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish uchun avvaldan haqini to'lab qo'yish to'g'risidagi shartnoma ana shu jihatlari bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga ma'qul va manzur bo'lib bormoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish shartnomasining bu turiga, yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlarni hisobga olib, tushuncha berish mumkin. Chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlarining avvaldan qiymatini to'lab qo'yish sharti bilan tuziladigan shartnomaga muvofiq, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qiluvchi mahsulotlarning qiymatini avvaldan to'lab qo'yish va shartnomada belgilangan muddatda yetkazib berilgan mahsulotni qabul qilish majburiyatini oladi, qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini qabul qiluvchi shaxsga topshirish majburiyatini oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish shartnomasining bu turi, davlat buyurtmasiga muvofiq tuziladigan davlat kontrakti yoki taraflarning o'zaro kelishuvi bilan tuziladigan oldi-sotdi shartnomasi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ayirboshlash shartnomalaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Uning farqi, avvalo, shu shartnomaning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar uchun qulayligi bilan, mahsulotning turi, sifati, miqdori bo'yicha buyurtma berilishi va avvaldan shu buyurtma qiymatining to'lab qo'yilishi bilan izohlanadi.

Ana shu xususiyatlarini hisobga olib, bu shartnomani qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish shartnomalarining alohida turi deb hisoblash mumkin. Va bu shartnoma xususida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi majburiyatlarning turlari uchinchi kichik bo'limining oldi-sotdi nomli yigirma to'qqizinchi bobi beshinchi paragrafi — kontraktatsiyadan keyin alohida paragraf kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soha mutaxassislari fikricha, bu paragraf quyidagicha moddalardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymatini avvaldan to'lash (fyuchers) shartnomasi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymatini avvaldan to'lash (fyuchers) shartnomasiga muvofiq, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish maqsadida xarid qiluvchi — tayyorlovchi yoki iste'mol uchun shunday mahsulotlarni xarid qiluvchi shaxsga shartlashilgan muddatda topshirish (topshirib turish) majburiyatini

oladi, tayyorlovchi-iste'molchi esa, bu mahsulotlarning qiymatini shartnoma tuzilgan paytda to'liq yoki uning bir qismini to'lab, qolgan qismini esa shartnoma tuzilgan paytdagi narxda mahsulot topshirilganidan so'ng hisob-kitob qilish majburiyatini oladi.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlovchining majburiyati.

Agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, tayyorlovchi-iste'molchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi joylashgan yerda undan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qabul qilishi (qabul qilib turishi) va olib ketishi (olib ketishni ta'minlab turishi) shart.

Taraflarning kelishuviga binoan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlovchi-iste'molchi joylashgan yerda yoki u ko'rsatgan boshqa joyda qabul qilinadigan bo'lsa, tayyorlovchi-iste'molchi tuzilgan shartnomaga muvofiq va shartlashilgan muddatda, mahsulot yetishtiruvchi tomonidan keltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qabul qilishdan bosh tortishga haqli emas.

3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchining majburiyati.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi-iste'molchiga avvaldan qiymatini to'lash (fyuchers) shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va turda topshirishga (topshirib turishga) majbur.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymatini avvaldan to'lash (fyuchers) shartnomasi ishtirokchilarining javobgarligi. Tayyorlovchi-iste'molchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olib ketishni yoki qabul qilib olishni ta'minlamagan taqdirda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining to'langan qiymatini qaytarib olishga haqli emas.

Agar shartnomada, mahsulot bahosining bir qismini mahsulot topshirilgan paytda to'lash belgilangan bo'lsa, shu qiymatni ham, mahsulotlarni tashib keltirish xarajatlarini ham to'lashi shart. Agar mahsulot yetishtiruvchining qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qiymatini avvaldan to'lash (fyuchers) shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va assortimentda topshirish (topshirib turish) majburiyatini bajara olmasligi oldindan ma'lum bo'lib qolganida, tayyorlovchi-iste'molchi shartnomani bekor qilishni va zararlarni qoplashni talab qilishga haqli.

Mazkur shartnoma bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (Umumiy qism, 132-bob) Nizomi bilan tartibga solinadi.

Nazorat savollari

1. Kontraktatsiya shartnomasi nima?
2. Kontraktatsiya shartnomasi subyektlari kimlar?
3. Kontraktatsiya shartnomasiga oid munosabatlarga FKning 465-moddasiga ko'ra qanday qoida qo'llaniladi?
4. Kontraktatsiya shartnomasining afzalligi nimada?

35-BOB. AYIRBOSHLASH SHARTNOMASI

1-§. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti

Ayirboshlash tovar va pul munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyotida ham muayyan ahamiyatga ega. Shu boisdan u amaldagi fuqarolik qonun hujjatlarida o'zining huquqiy asoslarini topgan. Ayirboshlash barter deb ham yuritiladi.

Ayirboshlash deb shunday shartnomaga aytiladiki, unga ko'ra shartnomada qatnashuvchi har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi (FKning 497-moddasi). Uning mohiyati shundaki, shartnoma predmeti bo'lgan biron-bir tovar ikkinchi tarafga, odatdagidek, mazkur tovar qiymatiga umumiy ekvivalent bo'lgan yoki unga deyarli teng keladigan boshqa bir tovarga ayirboshlanadi. Demak, mazkur huquqiy munosabat odatdagi shartnomalar, aytaylik, oldi-sotdi, mahsulot yetkazib berish kabi shartnomalarga o'xshab, tarafdarga bu orqali kelishi mumkin bo'lgan muayyan pul summalariga talab-ehtiyojlardan kelib chiqmay, balki bevosita mazkur shartnoma predmeti bo'lgan tovarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqadi. Biroq bu shartnoma ko'p hollarda subyektlar hisob-kitoblari yo'lga qo'yilmagan yoki o'zaro ishonch bo'lmagan inflatsiya sharoitida keng qo'llaniladigan shartnomalardan biri bo'lib qolmoqda. Rivojlangan bozor tizimida u ahyon-ahyonda qo'llaniladi.

Shartnomaning yana bir xususiyati shundaki, shartnomaning mazmunidan boshqacha hol anglashilmasa, ayirboshlanayotgan tovarlar teng qiymatli deb taxmin qilinadi. Ayni paytda tovarni topshirish va uni qabul qilish xarajatlarini har bir holda tegishli majburiyatlarni bajaradigan taraf amalga oshiradi. Shubhasiz, boshqa

shartnomalarda bo'lgani singari ayirboshlashda ham uning predmeti hisoblangan tovarning bahosi muayyan ahamiyatga ega. Ba'zan amaliyotda ayirboshlash predmetining qiymati bir xil bo'lmaydi. Bunday hollarda bahosi ayirboshlashga taqdim qilinayotgan tovar bahosidan past bo'lgan tovarni topshirayotgan taraf, agar shartnomada haq to'lashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, tovar yoki tovarni tasarruf qilish hujjatlari topshirilgandan so'ng kechiktirmasdan baholardagi farqni to'lashi lozim bo'ladi. FKning 242-moddasiga ko'ra, agar qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan uni darhol bajarish vazifasi angla-shilmasa, qarzdor hisoblangan taraf bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Ayrim hollarda tovarlar o'rtasidagi yuqorida tilga olingan farq doimo konkret belgilanavermaydi. Fuqarolik qonunchiligining mazmunidan anglashilishicha, bunday hollarda shartnomani bajarganlik uchun xuddi shunga o'xshash vaziyatlarda, odatda, shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baholar — haq to'lanishi kerak. Aynan bunday hollarda ish muomalasi odatlari, ya'ni odat huquqi normalari qo'llaniladi (FKning 6-moddasi).

Ayirboshlash shartnomasi quyidagi huquqiy belgilari bilan xarakterlidir: birinchidan, ayirboshlash konsensual shartnoma hisoblanadi, ya'ni, unga ko'ra, taraflarning huquq va burchlari shartnoma qonun talablari doirasida rasmiylashtirilgan paytda vujudga keladi; ikkinchidan, ayirboshlash haq evaziga tuziladigan shart-nomadir, ya'ni shartnoma bo'yicha taraflar zimmasiga muqobil ijro majburiyatlarini bajarish yuklangan, ya'ni tovarlarni o'zaro ayirboshlash, shuningdek, tovarlar qiymati teng bo'lmaganda, qiymat o'rtasidagi farqni pul shaklida to'lash; uchinchidan, ayirboshlash ikki tomonlama shartnomalar turkumiga kiradi. Shartnoma ishtirokchilarining har biri bir vaqtning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi hisoblanadilar. Demak, bunga ko'ra har ikki taraf ham huquqqa, ham burchga ega bo'ladi. Bu shartnomaning mohiyatidan, yanada aniqrog'i, taraflar o'rtasidagi o'zaro huquqdorlik va burchdorlik; to'rtinchidan, shartnomaning

begilaridan yana biri — ayirboshlanadigan mulkning egasidagi unga nisbatan bo'lgan mulk huquqi (egallash, foydalanish, tasarruf etish) ikkinchi tarafga o'tishini yuzaga chiqaradi va aksincha.

Shartnomaning muhim jihatlaridan biri ayirboshlanadigan tovarlarga bo'lgan mulk huquqining ikkinchi tarafga qachondan boshlab o'ta boshlashidir. Odatda, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ayirboshlanadigan tovarlarga mulk huquqi ayirboshlash shartnomasiga muvofiq, sotib oluvchi hisoblanadigan tarafdagi har ikki taraf tegishli tovarlarni topshirish majburiyatini bajargandan so'ng o'tadi (FKning 500-moddasi). Ayirboshlash shartnomasining predmeti muayyan moddiy qiymatga ega bo'lgan hamda iqtisodiy munosabatning predmeti bo'la oladigan, ayni paytda kishilarning u yoki bu ehtiyojlarini qondira oladigan narsalar, ya'ni ashyolar bo'la oladi. Ashyolar ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ko'rinishida, ko'char va ko'chmas mulk shakllarida bo'lishi mumkin. Biroq bu yerda muhimi, ashyolarning fuqarolik muomalasida bo'lishi masalasidir. FKning 82-moddasiga ko'ra, fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin.

Ayirboshlash shartnomasining predmeti bo'lishi uchun ashyolar mulk huquqi asosida mulkdorlarning haqiqiy egaligida, foydalanuvida va tasarrufida bo'lmog'i ham kerak (FKning 164, 207-moddalari). Masalan, fuqaro M. 1997-yil 1-sentabrda fuqaro N. bilan ayirboshlash shartnomasini tuzdi. Shartnomaga muvofiq, N. hovlisini M. hovlisining 1/3 qismiga almashdi. M.ning qizi A. 1997-yil 1-dekabrda sudga murojaat qilib, uyning yarmi o'ziga tegishli ekanligini va uning roziligisiz otasi hovlining bir qismini almashtirganligini ko'rsatib, mazkur shartnomani bekor qilishni so'radi. U o'z talabini asoslash uchun uyning bir qismi onasidan meros bo'lib, hali otasi bilan bo'lib olmaganligi sababli, uyni

almashtirish natijasida egalik huquqining buzilganligini ko'rsatadi. Albatta, bunday hollarda sud fuqaro A.ning talabini qondirishi lozim. Yoki quyidagi misolni ko'raylik: fuqaro K. egasiz turar joyga halol, oshkora va uzluksiz holda 1998-yil 1-aprel kunigacha, ya'ni 12 yil davomida egalik qilgan. FKning 187-moddasi talablariga ko'ra, bu muddat 15 yilni tashkil etishi lozim edi. Demak, fuqaro K.da hali bu uy-joyga nisbatan mulk huquqi vujudga kelmagan, binobarin, u mazkur obyekt yuzasidan shartnomada taraf sifatida ishtirok eta olmaydi.

2-§. Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari

Yuqorida aytilganidek, shartnomada qatnashuvchi taraflarning har biri bir vaqtning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi hisoblanadilar. Bu bilan ayirboshlash oldi-sotdi shartnomasiga o'xshab ketsa-da, biroq undan farq qiladi. Farqi shundaki, bunda bir mulk ikkinchisiga pulsiz almashtiriladi. Ayni paytda ayirboshlash oldi-sotdiga o'xshashligi tufayli, unga nisbatan baho va xarajatlar haqidagi qoidalaridan tashqari, oldi-sotdini tartibga soluvchi barcha qoidalar qo'llanaveradi. Shartnomada sotuvchi va oluvchi bo'lib fuqarolik huquqining barcha subyektlari, shu jumladan, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlat tuzilmalari ishtirok etishlari mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida ba'zi hollarda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar bilan iste'molchilar o'rtasida fuqarolik-huquqiy munosabatlarini vujudga keltiruvchi asoslardan biri sifatida ayirboshlash (barter) shartnomasi qo'llanadi. Barter inglizcha «barter» so'zidan olingan bo'lib, bevosita tovar almashuvi ma'nosini bildiradi. U, ayniqsa, bozor tizimiga o'tish davrida o'zaro hisob-kitoblar yaxshi yo'lga qo'yilmagan davr uchun birmuncha xarakterlidir. Valuta beqaror bo'lgan hozirgi zamon xalqaro savdosida yanada keng tarqalmoqda. Barter bitimi vaqtida pul to'lovlarining yo'qligi tovar yetkazib berish baholarini va ularni pul shaklida hisobga olishni istisno qilmaydi. Barter bitimi tushunchasi ayirboshlash shartnomasi tufayli vujudga keluvchi

majburiyatlar mazmunini to'liq qamrab ololmaydi, unga to'liq javob berolmaydi, degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Bir qator olimlarning, xususan, Sh. Ro'zinazarovning tadqiqotlarida barter haqida salmoqli fikr yuritiladi. Nazarimizda, barter tushunchasi ayirboshlash shartnomasini o'zida aks ettira oladi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, shartnomada taraflar sifatida jismoniy va yuridik shaxslar qatnashishi mumkin. Shartnomada qatnashuvchi taraflar bir paytning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi sifatida qatnashadi. Shuning uchun ham shartnomada qatnashuvchi taraflar deyarli bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Ayirboshlash shartnomasi bo'yicha taraflar:

— birinchidan, ayirboshlanayotgan tovarni o'z vaqtida, kelishilgan tartibda qabul qilib olish;

— ikkinchidan, qabul qilingan tovar evaziga ayirboshlanishi lozim bo'lgan tovarni o'z vaqtida topshirish;

— uchinchidan, topshirilayotgan tovarlarning sifati, assortimenti yaxshi bo'lishini ta'minlash kabi majburiyatlarga egadirlar.

Taraflar, ayni paytda, quyidagi huquqlarga egadirlar:

— birinchidan, shartnoma majburiyatlarini muqobil ravishda bajargan taraflar ikkinchi tarafdin tovarning topshirilishini talab qilishga haqli;

— ikkinchidan, shartnoma shartlari qo'pol ravishda buzilgan bo'lsa, xususan, sifatsiz tovar ayirboshlangan, tovarni topshirish muddati uzrsiz uzoq muddatga kechiktirilgan hollarda bir taraf shartnomani bekor qilishga haqli;

— uchinchidan, ayirboshlash shartnomasi shartlari har ikki taraf tomonidan to'liq bajarilgan bo'lsa, har ikkisi ham tovarlarga nisbatan mulk huquqi vujudga keladi.

3-§. Shartnomaning shakli, muddati. Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi

Ayirboshlash shartnomasi, odatda, fuqarolar o'rtasida tuzilganda va shartnoma predmetining bahosi respublikada o'rnatilgan eng kam oylik ish haqining o'n baravarigacha bo'lgan hollarda og'zaki shaklda tuzilishi mumkin. Shuningdek, yozma shaklda

tuzilgan shartnomani bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonun hujjatlari va shartnomaga zid bo'lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og'zaki tuzilishi mumkin (FKning 106-moddasi 3-bandi). Qolgan hollarda, ya'ni yuridik shaxslarning o'zaro va fuqarolar bilan tuzgan ushbu turkumdagi bitimlari, fuqarolar o'rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlari yozma shaklda tuziladi. Ba'zi hollarda shartnomaning predmeti yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mulklar bo'lganda, bunday bitimlar notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadi (FKning 110—111-moddalari). Shubhasiz, shartnoma shakliga doir yuqoridagi talablarga rioya qilmaslik bir qancha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (FKning 109, 112-moddalari).

Ayirboshlash shartnomasining muddati bevosita taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi. Shartnoma bo'yicha javobgarlik oldi-sotdi shartnomasidagi javobgarlikka juda o'xshab ketadi. Umumiy holda FKning 393-moddasiga ko'ra, sotuvchi tovarni sotib oluvchiga uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan ozod holda topshirishi shart, deb belgilab qo'yilgan. Qonunda agar topshirilgan tovarni sotib oluvchidan uchinchi shaxslar olib qo'yadigan bo'lsa, sotuvchi tarafning bevosita javobgarligi belgilab qo'yilgan. Ya'ni FKning 501-moddasiga ko'ra, ayirboshlash shartnomasi bo'yicha olgan tovarini uchinchi shaxslar olib qo'ygan taraf, FKning 395-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, boshqa tarafdan ayirboshlash asosida olingan tovarni qaytarishni yoki zararni qoplashni talab qilishga haqli. Ko'rinib turibdiki, ayirboshlanayotgan tovarni uchinchi shaxslar huquqidan ozod qilmasdan ayirboshlash keyinchalik bunday harakatni amalga oshirgan tarafning javobgarligini keltirib chiqarar ekan. Biroq shuni esda tutish kerakki, sotib oluvchi uchinchi shaxslarning huquqlari bo'lgan tovarni qabul qilishga rozilik bergan hollar bundan mustasnodir.

Shartnoma bo'yicha ayirboshlanayotgan tovarlar miqdori, assortimenti, uning sifati, tovar butligi muhim unsur hisoblanib, ularni shartnomada kelishilganidek bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik tegishlicha taraflarning javobgarligini keltirib chiqaradi.

Xususan, tovarni topshiruvchi shartnoma shartlarini buzib, tovarni qabul qilib oluvchiga shartnomada belgilangan miqdordan kam tovar topshirgan bo'lsa, tovarni qabul qilib oluvchi, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarning yetishmayotgan miqdorini topshirishni talab qilishga yo topshirilgan tovardan va uning haqini to'lashdan bosh tortishga, bordi-yu uning evaziga kelishilgan tovar topshirilgan bo'lsa, oldin topshirib qo'yilgan tovarni qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Umuman, ayirboshlash shartnomasi bo'yicha ko'p hollarda oldi-sotdiga doir qoidalar qo'llanilgani bois, bu haqdagi normalar batafsilroq oldi-sotdiga bag'ishlangan bobda keltirildi. Shuni aytish kerakki, qonunda belgilanganidan tashqari, to'g'ridan to'g'ri shartnoma bo'yicha ayirboshlash natijasida ham javobgarlikning boshqa turlari nazarda tutilishi mumkin. Ayirboshlash shartnomasi bo'yicha javobgarlik faqat bir tomonda emas, har ikki tomonda ham yuzaga kelishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi, shartnomalar tizimida tutgan o'lni va huquqiy belgilari.
2. Ayirboshlash shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari.

36-BOB. HADYA SHARTNOMASI

1-§. Hadya shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti

Hadya deb shunday shartnomaga aytiladiki, unga ko'ra bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradi yo berish majburiyatini oladi yoxud uni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoyinki ozod qilish majburiyatini oladi (FKning 502-moddasi). Uning mohiyati shundaki, bunda mulk tekin topshiriladi, ya'ni hadya qiluvchining tasarrufida bo'lgan ashyo hadya oluvchiga mol-mulk qilib o'tkaziladi.

Bozor munosabatlari tobora chuqurlashib borgani sari shartnomalarning mazmuni, doirasi, ko'lami ham kengayib bormoqda. Chunonchi, 1963-yilgi fuqarolik qonunchiligida hadya shartnomasi deganda, bir taraf (hadya qiluvchi) mulkni ikkinchi tarafning (hadya oluvchining) egaligiga tekinga topshirishi normalangan edi. Amaldagi FKda esa bu holat sezilarli takomillashtirildi. Buning natijasida yuqoridagi hadya predmeti doirasi kengaytirilib, u o'z ichiga quyidagilarni olishi mumkin bo'ldi:

— birinchidan, bir taraf boshqa tarafga tekinga mol-mulk qilib beriladigan ashyolarni;

— ikkinchidan, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi)ni beradigan yo berish majburiyatini olgan hollarda mulkiy huquqni;

— uchinchidan, bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi)ni o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan

ozod qiladigan yoxud ozod qilish majburiyatini olgan hollarda ham mulkiy huquqni.

Ko'rinib turibdiki, har bir holatda ham mustaqil ikki tushuncha qo'llanilgan: ashyoni topshiradi yoki topshirish majburiyatini oladi, mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoki ozod qilish majburiyatini oladi. Bu mazkur shartnomagagina xos bo'lgan xususiyatdir.

Shartnoma real bo'lsa-da, ayni payda hadya qiluvchi hadya oluvchiga kelgusida hadya qilish majburiyatini oladi. Ammo hamma hollarda ham hadya shartnomasi vujudga kelavermaydi. Aytaylik, ashyo yoki huquq muqobil berilganida yo bo'lmasa, muqobil majburiyat mavjud bo'lganida shartnoma hadya, deb tan olinmaydi (FKning 502-moddasi 2-qismi). Bunday shartnomalarga FKning 250-moddasi, 124-moddaning 2-qismi qoidalari qo'llaniladi.

Shuningdek, yuqoridagi uch holatga to'rtinchi mustaqil holatni ham kiritish mumkin. Ya'ni biron-bir shaxsga ashyoni yoki mulk huquqini tekinga berish yoki biron-bir shaxsni majburiyatdan ozod etishni va'da qilish (hadya etishni va'da qilish), agar va'da tegishli shaklda berilgan bo'lsa va kelajakda aniq shaxsga ashyo yoki mulkiy huquqni tekinga berish yoki uni mulkiy majburiyatdan ozod qilish maqsadi aniq ko'rinib turgan bo'lsa, hadya shartnomasi, deb tan olinadi (FKning 502-moddasi 3-qismi). Hadya bir tomonlama, real, tekinga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Shubhasiz, hadya bir tomonlama bitim bo'lib, taraflarning o'zaro kelishuviga asoslanadi. U hadya oluvchining taklif qilingan mulkiy huquqni qabul qilishga rozilik berishida ifodalanadi, aynan shu belgisi bilan hadya qarz shartnomasidan farq qiladi.

Fuqarolik qonunchiligida hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi shartnoma tan olinmaydi. Bunday hadyaga nisbatan vasiyatnoma to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi. Hadyaning vasiyatnomadan farqi shundaki, mulk hadya qiluvchining tirikligida topshiriladi, bu uning mulki kamayishiga olib keladi, vasiyatnoma esa insonning hayotligida uning mulkiy huquqlarida aks etmaydi. Vasiyatnoma bekor qilinishi, o'zgartirilishi mumkin, hadya esa qoida tariqasida orqaga qaytmaydi.

Hadyani shartnoma deyish mumkin, vasiyatnoma esa, odatda, bir tomonlama bitim bo'lib ko'riladi.

Hadya shartnomasining predmeti fuqarolik muomalasidagi obyektlar, ashyolar, mulkiy huquqlar, ko'char va ko'chmas mulklar bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda shartnoma hadya qiluvchining o'zi yoki uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qilish yoki ozod qilish majburiyatini olish orqali amalga oshiriladi. Bunday holda shartnomaning tuzilish vaqti mulk huquqining o'tish davri bilan mos kelmasligi mumkin.

Bunda majburiyat huquqiy munosabatlari vujudga keladi, uning mazmunida hadya qiluvchining o'z mulkini kamaytirish hisobidan hadya oluvchini boyitish yotadi. Shartnomada hadya predmeti aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Noma'lum ashyoni hadya qilishga yo'l qo'yilmaydi, binobarin, ular hech qanday huquqiy ahamiyatga ega emas. Hadya oluvchini qarzdin ozod qilish haqida qilingan va'dada ham ushbu qarz summasini aniq ko'rsatish lozim bo'ladi.

Hadya shartnomasining shakli uning mazmunidan kelib chiqadi. Umumiy holda hadya qilish, ya'ni hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ko'pincha, hadyani topshirish, uni taqdim qilish ramziy topshirish (masalan, yangi kvartirani yoki avtomobil kalitini topshirish) yoki mulkiy huquqni guvohlantiruvchi biron-bir hujjatni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ko'char mulklar bo'yicha quyidagi hollarda hadya shartnomasi yozma shaklda tuziladi:

- hadya qiluvchi yuridik shaxs bo'lganida;
- fuqarolar o'rtasida eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq summaga shartnoma tuzilayotganida;
- shartnoma bo'yicha kelajakda hadya qilish va'da qilingan hollarda.

Ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Hadya shartnomasi odatdagi shartnomalardan ba'zi huquqiy belgilariga ko'ra farq qiladi. Aytaylik, buni mazkur turdagi shartnomaning haqiqiy sanalmasligi hollarida ham ko'rish mumkin. Bitimlarning haqiqiy sanalishi uchun odatdagi qo'yiladigan shartlardan tashqari, hadyada,

birinchidan, ashyo, mulk huquqi yoki mulkiy majburiyatdan ozod qilish shaklidagi hadya ashyosini (predmetini) aniq ko'rsatish kerak; ikkinchidan, hadya predmeti hadya oluvchiga hadya qiluvchining tirikligida topshirilishi kerak. Shuningdek, yuqoridagi uch holat bo'yicha tuzilgan shartnomalar, albatta, oddiy yozma shaklda tuzilishi, ko'chmas mulklarni hadya qilish esa, ayni paytda, notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi ham kerak.

Haqiqiy sanalmaslik holati hadya oluvchining nomi va narsasi ko'rsatilmagan hadyani vakil tomonidan amalga oshiriluvchi ishonchnomalarga ham taalluqli.

2-§. Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari

Shartnomada qatnashuvchi taraflar **hadya qiluvchi** va **hadya oluvchi** deb atalib, o'z navbatida, ular fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat bo'lishi mumkin. Hadya fuqarolik-huquqiy xarakteridagi shartnoma bo'lganligi bois, hadya qiluvchi va hadya oluvchi muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim. Ba'zan muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar nomidan shartnomalarni ularning qonuniy vakillari tuza-dilar.

Ayni paytda qonunchilikda istisno holat ham mavjud bo'lib, ya'ni FKning 29-moddasi, ikkinchi qism, ikkinchi bandiga asosan, olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar o'zlari mustaqil ravishda hadya qiluvchi va hadya oluvchi sifatida qatnashib, shartnomani o'z stipendiyalari, ish haqlari va qonunda ko'zda tutilgan boshqa daromadlari miqdorida tuzishlari mumkin. Lekin ular mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ashyolarni tasarruf qilish huquqiga ega emaslar. Bunday bitimlarni amalga oshirish uchun ular qonuniy vakillarining roziligini olishlari kerak. Chunki hadya ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi, yashirin daromadlarga ega bo'lishiga olib kelishi, pirovardida ularning huquqlariga salbiy

ta'sir qilishi mumkin. Ayrim shaxslarga hadya shartnomasini tuzishda rad qilish va chegaralash qo'yilgan (FKning 505-moddasi tartibida).

Qonun er va xotinlar o'rtasida hadya shartnomasi tuzilishini cheklamaydi. Hadya qilingan mol-mulk, ashyo yoki mulkiy huquq hadya oluvchining shaxsan o'zigagina tegishli bo'ladi. Aytaylik, er-xotinning nikoh davomida (yoki nikohga qadar) hadya hisobiga orttirgan mol-mulkleri ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi. Binobarin, undan haq undirishga yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishga faqat mulkdorning roziligi bilangina yo'l qo'yiladi.

Shartnoma yuzasidan taraflarning huquq va burchlari uni bajarishdan bosh tortib, hadyani bekor qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Eng umumiy holda, hadya bo'yicha hadya qiluvchi mulkni yoki unga nisbatan bo'lgan mulkiy huquqni hadya oluvchiga topshirishga, hadya oluvchi esa uni qabul qilib olishga majbur hisoblanadilar. Biroq, ayni paytda, quyidagi hollarda: birinchidan, hadya qiluvchining moddiy ahvoli jiddiy yomonlashganligi tufayli, u kelgusida hadya oluvchiga ashyoni yoki mulkiy huquqni yoxud mulkiy majburiyatdan ozod etish va'da qilingan shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli. Lekin hadya qiluvchining bunday ahvolga tushib qolishi oldindan ma'lum bo'lmasligi lozim.

Ikkinchidan, hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a'zolarining yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog'lig'iga qarshi ataylab jinoyat sodir qilingan hollarda hadya qiluvchi shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqlidir (bunday hollarda shartnomani bekor qilishga sud tartibida yo'l qo'yiladi).

Shuni eslatish kerakki, yuqoridagi asoslar hadya qiluvchining aybini istisno etganligi sababli, uning hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortishi hadya oluvchiga bu bilan bog'liq zararni qoplashni talab qilish huquqini bermaydi.

Yuqorida aytganimizdek, hadya bo'yicha taraflarning subyektiv huquq va burchlari hadyani bekor qilish va undan voz kechish bilan uzviy bog'liq. Masalan, hadya oluvchi hadyadan quyidagi hollarda voz kechishi mumkin:

— birinchidan, ashyoning nobud bo'lishi tufayli;

— ikkinchidan, ashyo fuqarolik muomalasida bo'lmaganligi tufayli (FKning 82-moddasi);

— uchinchidan, va'da qilingan harakatlarni sodir etish uchun cheklashlar mavjud bo'lsa.

Bunday majburiyatlar, odatda, bajarish mumkin bo'lmaganligi tufayli bekor qilinadi. Biroq ashyo hadya qiluvchining qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etgan harakatlari oqibatida nobud bo'lsa, u hadya oluvchiga yetkazgan zararlarni qoplash majburiyatini oladi.

Hadya qiluvchining subyektiv huquqlari hal qiluvchi rol o'ynaganligi va shaxsga tekinga o'tkazilganligi bois, ushbu munosabatlarda qonunchilik hadya qiluvchiga bir qator ustuvorliklar beradi. Chunonchi, agar hadya oluvchining hadya qiluvchi uchun katta nomulkiy qiymatga ega bo'lgan hadya buyumga nisbatan muomalasi uning butunlay yo'q bo'lib ketishi xavfini solsa, hadya qiluvchi hadyani sud tartibida bekor qilishga haqli. Demak, bu hadya oluvchi hadyaga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish va uni saqlash majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, manfaatdor shaxsning talabiga binoan sud yakka tadbirkor yoki yuridik shaxsning bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlari qoidalarini buzib, bankrot deb e'lon qilinishidan oldingi bir yil ichida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq mablag'lar hisobidan qilgan hadyasini bekor qilishi mumkin. Bu holat, shubhasiz, kreditorlarning manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi.

Hadya shartnomasida hadya oluvchi hadya qiluvchidan oldin vafot etgan taqdirda hadya qiluvchining hadyani bekor qilish huquqi shart qilib qo'yilishi mumkin. Bu jihatdan hadyani shartli bitimlar sirasiga kiritish mumkin (FKning 104-moddasi).

Hadya bekor qilingan hollarda ashyo hadya qiluvchiga, agar u hadya bekor qilingan paytda asl holatida saqlanib qolgan bo'lsa, qaytarilishi lozim. Hadya oluvchining hadyadan olgan daromadlari uning o'z tasarrufida qoladi. Agar ashyo uchinchi shaxslarga o'tkazilgan bo'lsa, uni qaytarishning imkoni bo'lmaydi. Bordi-yu, hadya qiluvchi hadya oluvchining hadyani qaytarib bermaslik uchun uchinchi shaxslarga o'tkazganligini isbotlasa, u hadya oluvchiga nisbatan da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'ladi. Agar ashyo

taflarning o'zaro kelishuvi asosida hadya qiluvchiga qaytarilgudek bo'lsa, bunday kelishuvni yangidan tuzilgan hadya, deb tushunish mumkin.

Hadya tekinga tuziladigan shartnoma bo'lganligi bois, hadya oluvchi topshirilayotgan mulkning sifatsizligi haqidagi talablarni qo'yishga haqli emas. Albatta, topshirilayotgan ashyo sifatsiz, butsiz, uning kamchiliklari bo'lishi mumkin, biroq bu hadya oluvchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazmasligi kerak. Bunday hollarda hadya qiluvchining bu haqda hadya oluvchini ogohlantirganligi isbot qilinishi talab etiladi.

Mazkur shartnomaning o'ziga xos jihatlaridan biri — hadya va'da qilinganda huquqiy vorislik masalasidir. FKning 510-moddasi mazmuniga ko'ra, hadya shartnomasiga muvofiq, hadya va'da qilinganda hadya oluvchining huquqlari uning merosxo'rlari (huquqiy vorislari)ga o'tmaydi, hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari esa uning merosxo'rlari (huquqiy vorislari)ga o'tadi. Demak, hadya qilishda hadya beruvchining va'dasi muayyan huquqiy ahamiyatga ega, ya'ni u kelgusida fuqarolik huquq va burchlarini keltirib chiqaradi.

3-§. Xayr-ehson

Rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarida turli-tuman shartnomalar vujudga kelmoqda. Ikki yoki undan ortiq shaxslarning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvlarning huquqiy ifodasi, shakli sifatida shartnomalar fuqarolik-huquqiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutmoqda. Ana shunday shartnomalardan biri xayr-ehsondir. **Xayr-ehson** hadyaning bir ko'rinishi bo'lib, bunda qilinadigan hadya umumfoydali maqsadlarga xizmat qilishi bilan xarakterlidir. Demak, xayr-ehson keng ommaning umumfoydali maqsadlarini amalga oshirish uchun qilinadi. Qonunchilik xayr-ehson, asosan, notijorat subyektlariga (davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga, xayriya ilmiy muassasalariga, fondlarga, muzeylarga, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlarga va boshqa shunga o'xshash subyektlarga), shuningdek,

fuqarolarga va davlatga qilinishi mumkinligini normalaydi. Xayr-ehson qilingan mol-mulk kelgusida uni qabul qilib olgan shaxsning mablag'lari jumlasiga kiradi, uning operativ boshqaruviga o'tadi. Jumladan, amaldagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning 24-moddasi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 15-moddasi mazmuniga ko'ra, fuqarolar va mehnat jamoalarining ixtiyoriy xayr-ehsonlari mazkur yuridik shaxslar mol-mulkinging tashkil topish manbalaridan hisoblanadi va ular tomonidan tegishli tartibda mustaqil tasarruf etiladi.

Xayr-ehsonning predmeti fuqarolik muomalasida bo'lgan obyektlar, ya'ni pullar, qimmatli qog'ozlar, mol-mulklar, ashyolar, binolar, inshootlar (ularning bir qismi), avtomobillar va hokazolar bo'lishi mumkin. Xayr-ehsonni qabul qilishga biror kimsaning (ya'ni uchinchi shaxsning) ruxsati yoki roziligi talab qilinmaydi.

Xayr-ehson qilingan mol-mulkdan foydalanish bir qator shartlar asosida amalga oshiriladi. Chunonchi:

— birinchidan, xayr-ehson qiluvchilar mol-mulkni topshirayotganda undan ma'lum bir maqsadda foydalanishni shart qilib qo'yishi lozim. Masalan, hadya qilingan uy-joydan faqat bolalar yaslisi uchun foydalanish lozimligini shart qilishlari mumkin. Bunday shart qo'yilmasa, u oddiy hadya deb hisoblanadi va undan hadya oluvchi mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanadi;

— ikkinchidan, aniq maqsadda foydalanishga mo'ljallangan xayr-ehsonni qabul qilib olayotgan yuridik shaxs xayr-ehson qilingan mol-mulkdan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning alohida ro'yxatini yuritishi lozim;

— uchinchidan, vaziyat jiddiy o'zgarganligi bois bunday mol-mulkdan ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish mumkin bo'lmasa, undan boshqa maqsadda faqat xayr-ehson qiluvchining roziligi bilan, agar mol-mulkni xayr-ehson qilgan fuqaro vafot etgan bo'lsa yoki xayr-ehson qilgan yuridik shaxs qayta tashkil etilgan yoxud tugatilgan bo'lsa, bunday hollarda sudning qaroriga muvofiq foydalanish mumkin.

FKning 511-moddasi mazmuniga ko'ra, xayr-ehson qilingan mulkdan ko'rsatilgan maqsadda foydalanmaslik kelgusida xayr-ehson qiluvchiga, uning merosxo'rlariga yoki boshqa huquqiy vorisiga xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.

Nazorat savollari

1. Hadya shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari, taraflarning huquq va majburiyatlari.
2. Hadya shartnomasini ijro etish qanday amalga oshiriladi?
3. Hadyani bekor qilish asoslari.
4. Hadya va'da qilinganda vorislik.
5. Xayr-ehson tushunchasi, uning hadyadan farqi.
6. Xayr-ehson qilingan mol-mulkdan foydalanish qanday shartlar asosida amalga oshiriladi?

37-BOB. RENTA

1-§. Renta shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilari

Renta shartnomasi Fuqarolik kodeksida o'z ifodasini topgan yangi shartnomalardan biri hisoblanadi. Renta munosabatlari dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan bo'lib, o'sha paytlarda u «yerdan olinadigan haq» ma'nosini bildirgan.

Renta shartnomasi o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, mol-mulk va unga nisbatan mulk huquqini boshqa shaxsга o'tkazishga qaratilgan shartnomalar jumlasiga kiradi. Renta shartnomasiga muvofiq, bir taraf (renta oluvchi) ko'chmas yoki ko'char mol-mulkni boshqa tarafga (renta to'lovchiga) mulk qilib beradi, renta to'lovchi esa olingan mol-mulk o'rniga renta oluvchiga vaqt-vaqti bilan belgilangan pul summasi yoki uni ta'minlash uchun boshqa shaklda mablag' berish tarzida renta to'lash majburiyatini oladi.

Renta shartnomasi shartnomaviy munosabatlar uzoq davom etishi, mulk qilib berilayotgan ashyo uchun haq to'lash vaqt-vaqti bilan amalga oshirilishi, mulkdordan mulkni begonalashtirishning o'ziga xos usuli ekanligi bilan oldi-sotdi shartnomalarining boshqa turlaridan farq qiladi.

Huquqiy belgilariga ko'ra, renta shartnomasi real xarakterga ega, chunki unga muvofiq, shartnoma yuzasidan taraflardan huquq va majburiyat mulk renta to'lovchiga topshirilganidan so'ng vujudga keladi. Mulk renta to'lovchiga topshirilganidan so'ng renta oluvchida faqatgina mol-mulk haqini talab qilish huquqi bo'lib, unga nisbatan hech qanday majburiyat yuklanmaydi va bu holat renta shartnomasining bir tomonlamaligidan dalolat beradi. Renta to'lovchi olingan mol-mulk uchun vaqt-vaqti bilan pul summasini to'lab turishi sababli renta shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Renta to'lash sharti bilan boshqa shaxsga beriladigan mol-mulk renta oluvchi tomonidan renta to'lovchiga haq evaziga yoki tekinga mulk qilib beriladi. Renta shartnomasida mol-mulkni haq evaziga topshirish nazarda tutilgan taqdirda taraflarning mol-mulkni topshirish va uning haqini to'lash bo'yicha munosabatlariga nisbatan oldi-sotdi shartnomasi to'g'risidagi qoidalar, hunday mol-mulk tekinga berilgan hollarda esa, hadya shartnomasi to'g'risidagi qoidalar, renta shartnomasining qoidalarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa va bu hol renta shartnomasining mohiyatiga zid kelmasa qo'llaniladi. Renta shartnomasi notarial tasdiqlanishi, ko'chmas mol-mulkni renta to'lash sharti bilan boshqa shaxsga berishni nazarda tutadigan shartnoma esa, bundan tashqari davlat ro'yxatidan ham o'tkazilishi lozim.

Renta to'lash sharti bilan berilgan yer uchastkasi, korxona, bino, inshoot yoki boshqa ko'chmas mol-mulkdan renta olinadi. Renta to'lovchi bunday mol-mulkni boshqa shaxsga bergan taqdirda renta shartnomasi bo'yicha uning majburiyatlari mol-mulkni oluvchiga o'tishiga olib keladi. Renta olinadigan ko'chmas mulkni boshqa shaxsga mulk qilib bergan shaxs, agar FKda, boshqa qonunda yoki shartnomada bu majburiyat bo'yicha solidar javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa, renta oluvchining renta shartnomasi buzilgani tufayli kelib chiqqan talablari bo'yicha boshqa shaxs bilan subsidiar javobgar bo'ladi.

Renta to'lash sharti bilan yer uchastkasi yoki boshqa ko'chmas mulk berilganida renta oluvchi renta to'lovchi o'z majburiyatlarini bajarishini ta'minlash maqsadida bu mulkka garov huquqini oladi. Renta sifatida pul summasi yoki boshqa ko'char mol-mulkni berishni nazarda tutadigan shartnomaning muhim sharti shuki, unda renta to'lovchi o'z majburiyatlarini bajarishning garovini taqdim etishga yoki ushbu majburiyatlarni bajarmaslik yoxud lozim darajada bajarmaslik xavfini renta oluvchi foydasiga sug'urtalashga majbur bo'ladi. Agar renta to'lovchi mazkur shartlarni bajarmasa, shuningdek, renta oluvchi javobgar bo'lmaydigan holatlarda ta'minlash yo'qotilgan yoki ta'minlash sharoitlari yomonlashgan taqdirda renta oluvchi renta shartnomasini bekor qilishni va shartnoma bekor

qilinishi tufayli ko'rgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin bo'ladi.

Fuqarolik huquqida mazmunan bir-biriga o'xshash, lekin o'ziga xos jihatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi renta turlari mavjud. Ular doimiy va umrbod renta hisoblanadi. Renta shartnomasining bu turlari muddatlari, ta'minlash shakllari, ta'minlash miqdori, subyektlari bilan bir-biridan farq qiladi.

2-§. Doimiy renta

Doimiy rentani faqat, agar bu hol qonunga zid kelmasa va ularning faoliyat maqsadiga mos bo'lsa, fuqarolar va notijorat tashkilotlari olishlari mumkin. Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, doimiy renta shartnomasi bo'yicha renta oluvchining huquqlari fuqarolar va notijorat tashkilotlariga talabdan voz kechish yo'li bilan topshiriladi va vorislik bo'yicha yoki yuridik shaxslar qayta tashkil qilinganda boshqa shaxslarga o'tadi.

Doimiy renta oluvchi hisoblangan fuqarolarning muomalaga layoqatliligi, yoshi va qobiliyati bu o'rinda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Agar fuqarolar muomalaga layoqatsiz bo'lsalar, ular nomidan shartnomani ularning qonuniy vakillari imzolashi mumkin. Odatda, renta oluvchi rentaga topshirilayotgan mol-mulkning mulkdori hisoblanadi. Biroq renta oluvchining huquqlari talabdan voz kechish yo'li bilan yoki vorislik asosida yoxud yuridik shaxs qayta tashkil etilganda boshqa shaxsga o'tishi mumkinligi doimiy rentaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Doimiy renta pul bilan to'lanib, u renta to'lash sharti bilan topshirilgan mol-mulkka o'xshash mol-mulkni ijaraga berishda qo'llaniladigan mol-mulkdan foydalanish haqining o'rtacha stavkasi doirasida shartnoma bilan belgilanadigan miqdorda belgilanadi. Renta to'lash sharti bilan pul summasi topshirilganda esa FKning 327-moddasida nazarda tutilgan bank foizining tegishli darajada joriy etilgan stavkasi doirasida bo'ladi. Ya'ni bu holatda foizlar miqdori renta oluvchi yashaydigan joyda, renta oluvchi yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan yerida pul majburiyati yoki uning

tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi.

Shartnomada rentaning pul summasiga teng qiymatdagi ashyolarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmat ko'rsatish yo'li bilan ham renta to'lash nazarda tutilishi mumkin. Agar doimiy renta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mol-mulkdan foydalanish haqining tegishli stavkasi yoki bank foizi stavkasi o'zgarsa, to'lanadigan renta miqdori ham mutanosib ravishda o'zgaradi.

FKning 520-moddasiga muvofiq, doimiy renta yilning har bir kalendar choragi (har uch oy) tugashi bilan to'lanadi. Taraflarning kelishuvi bilan bu muddat har oyda, har bir yilning yakunida yoki yilning boshida ham belgilanishi mumkin.

Doimiy rentani to'lovchi uni sotib olish yo'li bilan bundan buyon renta to'lashdan bosh tortishga haqli. Agar renta to'lovchi renta to'lashdan bu tarzda bosh tortishini renta to'lashni to'xtatishidan kamida uch oy oldin yoki shartnomada nazarda tutilganidek, undan ham avvalroq yozma ravishda ma'lum qilgan bo'lsa, bunday bosh tortish haqiqiy hisoblanadi. Bunda renta to'lash majburiyati, agar shartnomada sotib olishning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, renta oluvchi sotib olish summasining hammasini olib bo'lgunga qadar to'xtatilmaydi.

Shartnomaning doimiy renta to'lovchi uni sotib olish huquqidan voz kechishi to'g'risidagi sharti o'z-o'zidan haqiqiy emas. Shartnomada doimiy rentani sotib olish huquqini renta oluvchi hayotligida yoki shartnoma tuzilgan paytdan boshlab o'ttiz yildan oshmaydigan muddat mobaynida amalga oshirib bo'lmashligi nazarda tutilishi mumkin.

Quyidagi hollarda doimiy renta oluvchi to'lovchidan rentani sotib olishni talab qilishga haqli:

— agar shartnomada boshqacha muddat belgilangan bo'lmasa, renta to'lovchi uni to'lash muddatini bir yildan ortiq kechiktirib yuborgan taqdirda;

— renta to'lovchi rentani to'lashni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda;

— renta to'lovchi to'lovga qodir emas deb topilgan yoki u rentani shartnomada belgilangan miqdor va muddatlarda to'lamasligini ko'rsatadigan boshqa vaziyatlar vujudga kelgan taqdirda;

— renta to'lash sharti bilan topshirilgan ko'chmas mulk umumiy mulkka aylangan yoki bir necha shaxs o'rtasida taqsimlangan taqdirda;

— shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

FKning 521- va 522-moddalarida nazarda tutilgan hollarda doimiy renta shartnomada belgilangan bahoda sotib olinadi. Renta to'lash sharti bilan mol-mulk haq evaziga topshirilgan doimiy renta shartnomasida sotib olish bahosi to'g'risida shart bo'lmaganida sotib olish yillik renta to'lovlari summasiga mos bahoda amalga oshiriladi.

Renta to'lash sharti bilan mol-mulk tekinga berilgan doimiy renta shartnomasida sotib olish bahosi to'g'risida shart bo'lmaganida sotib olish bahosiga yillik renta to'lovlari summasi bilan bir qatorda topshirilgan mol-mulkning FKning 356-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha aniqlanadigan bahosi ham kiritiladi.

Doimiy renta to'lash sharti bilan bepul topshirilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lish yoki tasodifan buzilish xavfi renta to'lovchi zimmasida bo'ladi. Doimiy renta to'lash sharti bilan haq evaziga topshirilgan mol-mulk tasodifan nobud bo'lganda yoki tasodifan buzilganda to'lovchi renta to'lash majburiyatini tegishli ravishda to'xtatishni yoki uni to'lash shartlarini o'zgartirishni talab qilishga haqli.

3-§. Umrbod renta

Umrbod renta mulkini renta to'lash sharti bilan topshirayotgan fuqaro hayot bo'lgan davrga yoki u ko'rsatgan boshqa fuqaro hayot bo'lgan davrga belgilanishi mumkin. Masalan, ota o'zidan keyin farzandi hayotligiga qadar mol-mulkni renta to'lash sharti bilan topshirishi mumkin.

Umrbod rentani bir necha fuqaro foydasiga belgilashga yo'l qo'yiladi, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan

bo'lmasa, renta olish huquqida ularning ulushlari teng deb hisoblanadi. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, renta oluvchilarning biri vafot etgan taqdirda, uning renta olish huquqidagi ulushi undan keyin hayot bo'lgan renta oluvchilarga o'tadi, oxirgi renta oluvchi vafot etgan taqdirda renta to'lash majburiyati bekor bo'ladi.

Shartnoma tuzilgan paytgacha vafot etgan fuqaro foydasiga umrbod renta belgilaydigan shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas. Umrbod renta shartnomada renta oluvchi hayot bo'lgan davrda unga vaqt-vaqti bilan to'lanadigan pul summasi sifatida belgilanadi.

Umrbod rentaning shartnomada belgilanadigan bir oylik miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmasligi kerak, FKning 247-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa oshirilishi lozim. Umrbod renta har bir kalendar oy tugashi bilan to'lanadi. Taraflarning kelishuviga muvofiq, umrbod renta har oyning oxirida ham to'lanishi mumkin.

Renta to'lovchi umrbod renta shartnomasini jiddiy buzgan hollarda renta oluvchi renta to'lovchidan rentani FKning 523-moddasida nazarda tutilgan shartlarda sotib olishni yoki shartnomani bekor qilish va zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega. Agar umrbod renta to'lash sharti bilan tekinga kvartira, uy yoki boshqa mol-mulk topshirilgan bo'lsa, renta to'lovchi shartnomaning muhim shartlarini jiddiy buzgan taqdirda, renta oluvchi bu mol-mulkni uning qiymatini sotib olinadigan renta hisobiga qo'shgan holda qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

Umrbod renta to'lash sharti bilan topshirilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan buzilishi renta to'lovchini rentani shartnomada nazarda tutilgan shartlarda to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi. Shu yo'l bilan renta oluvchining huquq va manfaatlari muhofaza qilinadi.

Nazorat savollari

1. Bozor munosabatlari sharoitida renta shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
2. Rentaning qanday turlarini bilasiz?
3. Rentashakli.

4. Renta to'lash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxslarga berish.

5. Renta shartnomasida taraflarning javobgarligi.

6. Doimiy rentani sotib olish huquqi.

7. Umrbod renta.

8. Renta oluvchining huquqlari.

9. Qanday holatlarda renta shartnomasi bekor qilinadi?

38-BOB. UMRBOD TA'MINLASH SHARTI BILAN UY-JOY (KVARTIRA) NI BOSHQA SHAXSGA BERISH SHARTNOMASI

1-§. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyni boshqa shaxsga berish shartnomasi tushunchasi

Insonning eng asosiy ma'naviy qadriyatlaridan biri — o'jiz, zaif kishilarga yordam berish, ular haqida g'amxo'rlik qilish, qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Bu qadriyat axloqiy qoidalarda ham, huquqiy me'yorlarda ham o'z ifodasini topgan. Shu sababli bunday g'amxo'rlik mas'uliyati o'zgalarga ko'mak berishga layoqatli har bir inson zimmasida, deb aytish mumkin. Ko'p hollarda bunday mas'uliyat hech qanday tamasiz, ezgu niyatlar bilan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda qonunlarda o'zgalar qaroviga, parvarishiga muhtoj shaxslar bilan shunday parvarishni amalga oshiruvchi shaxslar manfaatini umumlashtirish, ularning o'zaro munosabatlarini shartnoma asosida rasmiylashtirib, ularning bir-birlariga nisbatan huquq va burchlarini belgilab qo'yish holatlari ham nazarda tutilgan. Bunday shartnomaning intizomiy ahamiyati shundan iboratki, o'zgalar qaroviga muhtoj kishilar o'zlariga zarur yordam — ko'mak oladilar, ikkinchidan, ularning mol-mulki qarovsiz, xo'jasiz bo'lib qolmay, doimiy nazorat ostiga o'tadi, uchinchidan, o'jiz kishilarni parvarish qiluvchi shaxs kelajakda bu xizmatlari evaziga ma'lum mol-mulkka ega bo'ladi. Binobarin, bunday shartnoma tuzilishi va amalga oshirilishidan shartnoma ishtirokchilari ham, jamiyat ham manfaatdordir.

Fuqarolik-huquqiy munosabatda qo'llanadigan umrbod asrash sharti bilan uy-joyni topshirish shartnomasi shu nom bilan birinchi marta 1963-yil 23-martda tasdiqlangan Grajdanklik kodeksida o'z ifodasini topgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinib, 1997-yil 1-martdan boshlab amalga kiritilgan yangi Fuqarolik kodeksida muqaddam davlatga tegishli bo'lgan turar joylarni xususiylashtirish natijasida kvartiralar fuqarolarga xususiy mulk sifatida berilishi munosabati bilan ushbu shartnoma nomiga birmuncha o'zgartirishlar kiritilib, endilikda bu shartnoma «Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasi», deb nomlanadigan bo'ldi.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasi o'ziga turdosh bo'lgan umrbod renta shartnomasidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

- birinchidan, bu shartnoma predmeti (narsasi) faqat ma'lum ashyolargagina (ko'chmas mulk, uy-joy, kvartira va shu kabilar) bo'lishi mumkin;

- ikkinchidan, umrbod ta'minlash shartnomasida ta'minlash xarajatining umumiy bahosi ko'rsatilishi lozim bo'ladi;

- uchinchidan, asraluvchini pul shaklida ham, natura shaklida ham ta'minlashga yo'l qo'yiladi;

- to'rtinchidan, asrovchiga topshirilgan ashyo unga garchand egalik qilish huquqi o'tgan deb hisoblansa ham, lekin ashyoni garovga yoki ijaraga faqat asraluvchining roziligi bilangina berilishi mumkin.

Bu shartnoma ikki tomonlama, haq baravariga tuziladigan shartnomalardan biri bo'lib, taraflar sifatida faqat fuqarolar ishtirok etishlari mumkin. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni, uning bir qismini boshqa shaxsga berish shartnomasiga muvofiq, bir taraf (oluvchi) yoshi yoki sog'lig'i tufayli mehnatga layoqatsiz bo'lgan boshqa taraf (boshqa shaxsga beruvchi) ni natura (aslicha) holda uy-joy berish, oziq-ovqat bilan ta'minlash, parvarishlab turish va insonning yashashi uchun zarur bo'lgan boshqa yordamni umrbod ko'rsatib turish va moddiy tomondan ta'minlab turish majburiyatini oladi, boshqa shaxsga beruvchi esa, oluvchiga uy-joy (uning bir qismi) ni, kvartirani mulk qilib, uning egaligiga berish majburiyatini oladi.

Mazkur shartnomada mehnat qilish yoshida bo'lgan mehnatga layoqatli shaxslar kreditor sifatida qatnasha olmaydilar, chunki

mehnatga layoqatli shaxs uy-joyi yoki boshqa ashyosini asraluvchi shaxs sifatida boshqa bировga topshirishi — uning mehnat qilmay yashashiga va jamiyat oldida axloqqa to'g'ri kelmaydigan holat yuz berishiga sabab bo'ladi. Demak, bunday shartnomada nogironlar, shuningdek, qarilik pensiyasi olish yoshiga yetgan shaxslar kreditor sifatida qatnashadilar.

Mulkni oluvchi fuqaro muomala layoqatiga ega bo'lgan, asraluvchi shaxsni umrbod moddiy ta'minlash, parvarishlash va zarur bo'lgan boshqa yordamlar berib turish majburiyatini bajara oladigan har qanday fuqaro bo'lishi mumkin (biroq vasiylar va homiylar o'z nazorati ostidagi shaxslar bilan bunday shartnoma tuza olmaydilar).

Shartnoma predmeti (narsasi) uy-joy (kvartira) yoki uning bir qismi bo'lishi ko'rsatilgan bo'lsa ham, ammo ba'zi iste'mol qilinmaydigan qimmatbaho ashyolar (avtomobil, mashhur rassom asari bo'lgan noyob kartina, asrovchi shaxs shajarasi (avlodi) uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy ashyolar va boshqa narsalar) ham shartnoma predmeti bo'lishi mumkin.

Shartnoma mazmuni asraluvchi shaxsning o'ziga egalik huquqi asosida tegishli bo'lgan uy-joyning yoki uning bir qismi (kvartira)ni yoxud boshqa ashyolarni topshirish majburiyati bo'lsa, mulkni oluvchining esa asraluvchi shaxsning umrbod uy-joy, oziq-ovqat, kasal bo'lganida parvarish qilish va zarur bo'lgan boshqa yordamlarni ko'rsatish majburiyati tashkil etadi. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasining qancha vaqt davomida kuchda bo'lishi va asraluvchiga nisbatan qilinadigan xarajatlarni ham pul baravarida oldindan belgilab bo'lmaydi.

Uy-joy (kvartira)ni olgan shaxs bu mulkka nisbatan egalik huquqini asraluvchi vafot etgandan so'nggina boshqa shaxslarga o'tkazishga (sotishga, ayirboshlashga, hadya qilishga va vasiyat qilishga) haqli bo'ladi. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasida asraluvchiga ko'rsatiladigan moddiy ta'minotning qat'iy summasini aniq belgilab qo'yish mumkin bo'lmasa ham, lekin unga nisbatan qilinadigan bir oylik xarajat pul summasi bilan ifodalangan bo'lishi kerak.

Bular jumlasiga: turar joy uchun to'lanadigan pul summasi, oziq-ovqat uchun to'lanadigan pul summasi, har xil urf-odatlar va marosimlarga ketadigan xarajatlar, shuningdek, boshqa zarur bo'ladigan sarf-xarajat turlari shartnomada taraflarning kelishuvi bilan belgilab qo'yilishi lozim.

Asraluvchining yashashi uchun beriladigan turar joy topshirilayotgan uy-joy (kvartira) ning aynan o'zida bo'lmasdan, balki taraflar o'zaro kelishgan holda asraluvchining yashaydigan joyi boshqa yerda ham bo'lishi mumkin. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasi Fuqarolik kodeksining 110-moddasidagi qoidalarga rioya qilgan holda yozma shaklda tuzilib, notarial tasdiqlanishi kerak, aks holda shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi.

Ushbu shartnoma bo'yicha uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani boshqa shaxsga berish shartnomasiga muvofiq, oluvchi shartnoma amal qilib turgan davrda asraluvchi tomonidan berilgan uyni (uyning bir qismini), kvartirani sotishga, boshqa shaxsga hadya qilishga, uni ayirboshlashga haqli emas, shuningdek, uy-joy (uyning bir qismi) kvartiraga mulk huquqini og'irlashtiradigan (xo'jasizlarcha) munosabatda bo'lish, o'z vaqtida zarur bo'lgan ta'mirlash ishlarini olib bormaslik va h. k. holatlarga yo'l qo'ymaslik lozim. Mazkur uy (uyning bir qismi) dan kvartira oluvchining qarzlari bo'yicha haq undirishga ham yo'l qo'yilmaydi.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasi bo'yicha olingan uy-joy (uyning bir qismi), kvartiraning tasodifan nobud bo'lishi asrovchini o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan ozod qilishga asos bo'lmaydi. Uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani umrbod ta'minlash sharti bilan mulkni olgan shaxs shartnoma yuzasidan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini, masalan, belgilangan vaqtda oziq-ovqat bilan ta'minlash, turar joyni isitish va shu kabi boshqa burchlarini bajarmasa yoki lozim darajada bajarmayotgan bo'lsa, asraluvchi shaxs mulkni olgan shaxsdan yashashi uchun zarur bo'lgan ta'minotning belgilangan va ma'lum muddatlarda to'lanadigan pul summalari bilan almashtirilishini yoki shartnomaning bekor qilinishini talab qilishga haqli bo'ladi.

Qonun uy-joy (kvartira) ni oluvchi talabi bilan ham shartnoma bekor qilinishi mumkinligini belgilaydi. Mulk oluvchining o'ziga bog'liq bo'lgan holatlar yuz berganida, masalan, uning og'ir kasalligi, baxtsiz hodisalarning ro'y berishi natijasida mehnat qobiliyatining yo'qotilishi yoki moddiy ahvolining jiddiy o'zgarib qolishi, asraluvchiga doimiy ravishda parvarish qiladigan odamning bo'lmasligi hollarida, shuningdek, asraluvchining mehnat qobiliyati tiklansa, shartnoma oluvchining talabiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira) ni boshqa shaxsga berish shartnomasi asraluvchi tomonidan bekor qilingan taqdirda, asrovchi shartnoma amalda bo'lgan vaqtda asraluvchini ta'minlash va uyni (uyning bir qismini), kvartirani saqlab turishi uchun qilingan sarf-xarajatlarning qaytarilishini talab qilishga haqli bo'ladi.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani oluvchi vafot etgan taqdirda, bu shartnoma yuzasidan olgan majburiyatlari asrovchining vorislariga o'tadi. Agar uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani oluvchining vorislari bo'lmasa yoki vorislari umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani berish to'g'risidagi shartnomadan voz kechishsa, mulk asraluvchining o'ziga qaytariladi. Agar bunday uy-joy (uyning bir qismi), kvartira vorislik huquqi asosida bir necha vorislarga o'tsa, asraluvchiga ta'minot berish majburiyati vorislarning har qaysilariga olgan meros ulushlariga qarab o'tadi.

Agar vorislar o'z hissalaridan bitta voris foydasiga voz kechsalar, asraluvchining ta'minlash burchi ana shu voris zimmasida bo'ladi. Vorislar asraluvchi hayot vaqtida uy-joy (uyning bir qismi), kvartirani sotishga, boshqa shaxslarga hadya qilishga haqli emaslar.

Nazorat savollari

1. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
2. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari.
3. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joy (kvartira)ni boshqa shaxsga berish shartnomasini bekor qilish asoslari.

39-BOB. MULK IJARASI

1-§. Mulk ijarasi haqida umumiy qoidalar

Mulk ijarasi shartnomasi ilk bor Rim huquqida vujudga kelgan bo'lib, ashyolarni foydalanishga berish (location — conduct rerum) bo'lib hisoblangan. Ijara shartnomasi (mulk ijarasi) bo'yicha bir taraf — ijaraga beruvchi ikkinchi taraf — ijaraga oluvchiga (ijarachi) haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki vaqtincha foydalanishga berish majburiyatini oladi. Yuridik tabiati, xususiyati bo'yicha ijara shartnomasi konsensual, haq evaziga, qaytarma va ikki tomonlama bo'lib hisoblanadi.

Ijara shartnomasi — mol-mulkdan xo'jalikda foydalanish imkoniyatini kengaytirishga yo'l qo'yadigan bitimdir. Mulkdor o'z mulkini begonalashtirmay boshqa shaxsga foydalanish uchun topshiradi va, o'z navbatida, bu topshirishidan daromad oladi.

O'z navbatida, mulkdan foydalanuvchi bironing mulkidan foydalanish evaziga o'z manfaatiga erishadi. Shundan kelib chiqqan holda ijara munosabatining shakllari xilma-xildir. Bularga: prokat, transport vositalari ijarasi, bino va inshoot ijarasi, korxona ijarasi, moliyaviy ijara kiradi. Ushbu shartnomalar uchun ham ijara shartnomasining umumiy qoidalari qo'llaniladi, agarda maxsus normalarda boshqa qoidalar belgilangan bo'lmasa.

Yer uchastkalari, yerosti boyliklari joylashgan uchastkalar va boshqa alohida tabiiy obyektlar, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari va foydalanish jarayonida o'zining tabiiy xususiyatlarini yo'qotmaydigan boshqa ashyolar ijara shartnomasining obyekti bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, ijara shartnomasining predmeti bo'lib xususiy belgilarga ega, iste'mol qilinmaydigan va qaytarilishi lozim bo'lgan ashyolar hisoblanadi.

Turga xos alomatli ashyolar va nomoddiy ne'matlar mulk ijarasi shartnomasining predmeti bo'lib hisoblanadi. Nomoddiy ne'matlardan foydalanish litsenziyali kelishuvlar asosida boshqa shaxsga topshiriladi va bu mulk ijarasi shartnomasining ko'rinishi hisoblanmaydi. Ijara shartnomasining predmeti ham ko'char, ham ko'chmas mulk bo'lishi mumkin. Qonunchilik bilan ijaraga berishga yo'l qo'yilmaydigan yoki cheklanadigan mulk turlari belgilanishi mumkin. Bunday mulklar qatoriga atom elektrostansiyalari, qurol-yaroqlar, umumiy foydalanishdagi temiryo'llar va shu kabilar kiradi.

Amaldagi qonunchilik bo'yicha ijara shartnomasining qonun talab qilgan yagona muhim sharti ijara predmeti to'g'risidagi shartdir. Shunday ekan, ijara predmetini aniqlab olish uchun muhim ma'lumotlar shartnomada belgilangan yoki shartnomaga maxsus hujjatlar ilova qilinishi kerak. Agar ijaraga yer uchastkasi yoki uning bir qismi berilsa, shartnomaga qo'shimcha ravishda yer uchastkasi rejasi (chegaralar chizmasi), uning (ijaraga beriladigan) qismi belgilanib, ilova qilib berilishi lozim.

Ijaraga bino, inshoot, xona berilganda shartnomaga qo'shib binoning qavatma-qavat rejasi berilishi hamda topshirilayotgan xonaning maydoni ham belgilab berilishi kerak. Agar ijaraga uskuna beriladigan bo'lsa, shartnomaga qo'shimcha ushbu uskunaning texnik pasporti ham berilishi lozim.

Shartnomaning taraflari bo'lib ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi (ijarachi) hisoblanadi. Ijaraga beruvchi bo'lib mulkdorlar hamda qonun yoki mulkdor tomonidan mulkni ijaraga topshirishga vakolatlangan shaxslar hisoblanadi.

Xo'jalik yuritish huquqi subyekti bo'lib hisoblanuvchi unitar korxonalar ijaraga beruvchi sifatida o'ziga belgilab berilgan ko'char mulklarni mustaqil ijaraga berishlari, ko'chmas mol-mulkni esa faqatgina mulkdorning roziligi bilangina ijaraga berishlari mumkin. Operativ boshqaruv huquqi subyekti bo'lgan unitar korxona ijaraga beruvchi sifatida ham ko'char, ham ko'chmas mulkni mulkdorning roziligi bilangina ijaraga berishi mumkin.

Ijara shartnomasi bir yildan ortiq muddatga tuzilganida (taraflardan biri yuridik shaxs hisoblanganida muddatidan qat'i

nazar) yozma ravishda tuzilishi lozim. Qonunchilikka asosan ko'chmas mulkni ijaraga berish shartnomasi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim, agarda qonunlarda boshqacha holatlar nazarda tutilgan bo'lmasa. Keyinchalik sotib olish sharti bilan tuziladigan ijara shartnomasi, ushbu mulk oldi-sotdisi shartnomasi uchun belgilangan shaklda belgilanishi lozim.

Ijara shartnomasining muddati bu shartnomaning bir belgisi hisoblansa-da, muhim sharti emas. Ya'ni gap shundaki, agar ijara shartnomasida muddat belgilab berilgan bo'lmasa, ijara shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi. Lekin bu holatda ham ijara shartnomasi o'zining vaqtinchalik xususiyatini yo'qotmaydi. Chunki shartnoma ta'rifida bitilganidek, mulk haq evaziga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish yoki faqat vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi. Qonunchilik bilan ba'zi ijara shartnomasining turlari uchun maksimal muddatlar ham belgilab berilgandir. Misol uchun prokat shartnomasi bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuzilishi, o'rmon uchastkasi ijarasi 49 yilgacha tuzilishi mumkinligi belgilangandir. Qonunda belgilangan oxirgi muddatdan ortiq muddatga tuzilgan bunday mulk ijarasi shartnomasi oxirgi muddatga teng muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Mulk ijarasi shartnomasining maksimal muddatlarini belgilashdan maqsad quyidagicha:

- birinchidan, ijara shakli ostida mulkni begonalashtirishning oldini olish;

- ikkinchidan, muayyan muddat o'tganidan so'ng mulkdan foydalanish bilan bog'liq xo'jalik sharoitlari o'zgarganligi sababli har bir tarafga mulkdan foydalanish shartlarini o'zgartirish talabi bilan chiqish imkoniyatini berishdir.

2-§. Ijara shartnomasining mazmuni va bajarilishi

Konsensual bitim sifatidagi ijara shartnomasidan ijaraga beruvchining ijarachiga aynan shartnomada belgilangan mulkni berish majburiyati kelib chiqadi. Ijaraga beruvchi ijarachiga mol-mulkni shartnoma shartlari va uning vazifasiga muvofiq holda topshirishi lozim.

Mulk ijaraga berilganda mansub ashyolari va unga aloqador hujjatlari bilan birgalikda ijaraga berilishi lozim, agarda shartnomada o'zgacha holat nazarda tutilgan bo'lmasa. Agar bunday mansub ashyolar va hujjatlar topshirilgan bo'lmasa va ularsiz ijaraga oluvchi mulkdan o'z vazifasi bo'yicha foydalana olmasa yoxud shartnoma tuzish paytida mo'ljallashga haqli bo'lgan ancha narsadan mahrum bo'lsa, u ijaraga beruvchidan bunday mansub ashyolar va hujjatlarni topshirishni yoxud shartnomani bekor qilishni, shuningdek, zararlarni qoplashni talab qilishi mumkin.

Ijaraga kamchiliklarga ega bo'lgan mulk topshirilganida ijaraga oluvchi ijaraga beruvchiga nisbatan quyidagi javobgarlik choralarini qo'llashi mumkin:

- ijaraga beruvchidan yo mulkdagi kamchiliklarni tekinga bartaraf etishni yoki mulkdan foydalanganlik haqini mutanosib kamaytirishni yoxud mulkdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilgan o'z xarajatlarini qoplashni talab qilish;

- ijaraga beruvchini oldindan ogohlantirgan holda o'sha kamchiliklarni bartaraf etishga sarflangan xarajatlari summasini mulkdan foydalanganlik uchun to'lanadigan puldan bevosita chegirib olish;

- shartnomani muddatidan oldin bekor bo'lishini talab qilish;

- agar ijaraga oluvchining talablarini qanoatlantirish yoxud uning kamchiliklarini bartaraf etish xarajatlarini mulkdan foydalanganlik uchun to'lanadigan puldan chegirib qolishi ijaraga oluvchi ko'rgan zararni qoplamasa, u zararning qoplanmagan qismini to'lashni talab qilishga haqli.

Ijaraga topshirilgan mulkning undan foydalanishga to'liq yoki qisman to'sqinlik qiladigan kamchiliklari uchun ijaraga beruvchi shartnoma tuzish paytida bular haqida bilgan yoki bilmaganligidan qat'i nazar javobgardir.

Shartnoma tuzish vaqtida ijaraga beruvchi oldindan aytib qo'ygan yoki ijaraga oluvchiga oldindan ma'lum bo'lgan yoxud shartnomani tuzishda yoki mol-mulkni ijaraga topshirishda uni ko'zdan kechirganda yoxud uning sozligini tekshirganda ijaraga oluvchi aniqlashi kerak bo'lgan kamchiliklar uchun ijaraga beruvchi

javobgar bo'lmaydi. Mol-mulk ijaraga oluvchiga shartnomada belgilangan vaqtida, muddatida, agar bunday muddat shartnomada ko'rsatilgan bo'lmasa, oqilona muddatda topshirilishi lozim. Bu yerda oqilona muddat deganda, mulkni ijarachiga unda ushbu mulkka nisbatan xo'jalik qiziqishi yo'qolmaguncha bo'lgan muddatda topshirish tushuniladi.

Ijara shartnomasining ayrim turlarida ijarachiga ijaraga olingan mol-mulkni qabul qilib olish majburiyatini ham yuklaydi. Misol uchun, bino ijarasi shartnomasiga muvofiq, ijaraga oluvchi binoni qabul qilib olishga majbur. Korxona ijarasida ham aynan shunday majburiyat mavjud. Bu majburiyatning buzilishi shartnoma majburiyatlaridan noqonuniy bir tomonlama bo'yin tovlash hisoblanadi.

Ijaraga oluvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkdan shartnomada belgilangan maqsadlarda, bunday shartlar shartnomada bo'lmasa, mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishi lozim. Ijaraga oluvchi ijaraga olingan mulkka nisbatan xuddi o'z mulki kabi qarab ehtiyot qilishi lozim. Agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqa holat nazarda tutilgan bo'lmasa, ijaraga oluvchi ijaraga topshirilgan mol-mulkni o'z hisobidan omonat saqlashi, joriy ta'mirlashni ta'minlashi lozim. Agar ijaraga oluvchi mol-mulkdan shartnomada belgilangan maqsadlarga yoki mulkning vazifasiga nomuvofiq foydalansa, ijaraga beruvchi shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Ijaraga beruvchi tomonidan mulkni kapital ta'mirlash majburiyati bajarilmaganda, buzilganda, ijarachi quyidagilarni amalga oshirishga haqli:

a) shartnomada belgilangan yoki shoshilinch zarurat taqozo etgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish, ta'mirlash qiymatini ijaraga beruvchidan undirib olish, mol-mulkdan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq hisobiga o'tkazish;

b) haqni tegishli kamaytirishni talab qilish;

d) shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va zararning qoplanishini talab qilish.

Ijara shartnomasi haq evazi xarakteriga ega bo'lganligi sababli ijaraga oluvchining muayyan ijara to'lovlarini to'lab berish

majburiyati mavjuddir. Bu majburiyat ijaraviy majburiyat shartnomasining muhim elementidir. Gap shundaki, ijara to'lovlari to'g'risidagi shartnoma sharti muhim ahamiyatga ega emas, chunki uning mavjud emasligi shartnomaning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

FKning 544-moddasi 2-qismida ko'rsatilganidek, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to'lash tartibi, shartlari va muddatlari mulk ijarasi shartnomasi bilan belgilanadi. Bular shartnomada belgilanmagan hollarda, odatda, xuddi shunday mol-mulkni o'xshash holatlarda ijaraga berishda qo'llaniladigan tartib, shartlar va muddatlar belgilangan deb hisoblanadi.

Ijara shartnomasi uchun to'lovning xarakteri muhim ahamiyatga ega emas, chunki u pul ko'rinishida ham, boshqa moddiy shaklda ham bo'lishi mumkin.

FKning 544-moddasi 3-qismiga ko'ra, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq ijaraga olingan barcha mol-mulk uchun yaxlit holda yoki uning har bir tarkibiy qismi uchun alohida-alohida holda quyidagi ko'rinishlarda belgilanadi:

a) vaqt-vaqti bilan yoki bir yo'la to'lanadigan qat'iy summada belgilangan to'lovlar tariqasida;

b) ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan mahsulot, mevalar yoki daromadlarning belgilangan ulushi tariqasida;

d) ijaraga oluvchi tomonidan ko'rsatiladigan ma'lum xizmatlar tariqasida;

e) ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga beruvchiga shartnomada kelishilgan ashyoni mulk qilib yoki ijaraga topshirish tariqasida;

f) ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash bo'yicha shartnomada kelishilgan xarajatlarni ijaraga oluvchi zimmasiga yuklash tariqasida.

Ijara haqi shartnomada nazarda tutilgan muddat va tartibda to'lab borilishi lozim. Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara haqini to'lash muddatlari ijaraga oluvchi tomonidan jiddiy buzilgan taqdirda, ijaraga beruvchi undan ijara haqini muddatidan oldin, ijaraga beruvchi belgilagan muddatda to'lashni talab qilishga haqli.

Bunda ijaraga beruvchi mol-mulkdan foydalanganlik uchun ko'pi bilan ikki muddatning haqini muddatidan oldin to'lashni talab qilishga haqli.

3-§. Ijaraga oluvchining ijaraga olingan mulkdan foydalanish huquqi mazmuni va amalga oshirilishi

Ko'pgina holatlarda ijara shartnomasidan kelib chiqqan maqsadlarga erishish uchun mulkka egalik huquqini bermasdan foydalanishga berishning o'zi kifoya. Shu bilan birga, mutlaq ko'pchilik holatlarda ijara mulkini foydalanishga berish uni egalikka topshirmasdan amalga oshirilishi mumkin emas. Egalik huquqining bunday o'tkazilishi natijasida ijarachi titulli mulkdor bo'lib qoladi va uchinchi shaxslarning ashyoviy-huquqiy da'volaridan himoya qilish huquqini qo'lga kiritadi.

Ijarachi quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

- ijaraga olingan mulkni boshqa shaxslarning har qanday noqonuniy egaligidan talab qilib olish;
- undan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan to'siqlarni yo'q qilishni talab qilish;
- har qanday shaxsdan, shuningdek, ijaraga beruvchidan ham mol-mulkka yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

Ijara huquqining mazmuni tarkibiga kiruvchi ko'pgina vakolatlar ijara shartnomasidan kelib chiqib belgilanadi, lekin ba'zi birlari qonunchilik bilan ham belgilab qo'yilgan bo'lishi mumkin. Misol uchun ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilashni olaylik, agarda mulk ijarasi shartnomasida o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ijaraga oluvchi tomonidan mol-mulkning ajratib olsa bo'ladigan tarzda yaxshilanish qismi uning mulki hisoblanadi. Shartnomaga muvofiq ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan mahsulot, meva va boshqa daromadlar ijaraga oluvchining mulki hisoblanadi.

Agar Fuqarolik kodeksida, amaldagi qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mol-mulkni ijaraga beruvchining roziligi bilan ikkilamchi ijaraga (qo'shimcha ijaraga) topshirishga, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha

o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijara), ijara olingan mol-mulkni tekin foydalanish uchun berishga, shuningdek, bu huquqlarini garovga qo'yishga va ularni xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari ustav fondiga (kapitaliga) hissa sifatida yoki ishlab chiqarish kooperativiga pay badali sifatida topshirishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan hollarda ijara oluvchi shartnoma bo'yicha ijara beruvchi oldida javobgar bo'lib qolaveradi, qayta ijara bundan mustasno. Mol-mulkni boshqa shaxslarga topshirish haqidagi shartnoma ijara shartnomasining amal qilish muddatidan ortiq muddatga tuzilishi mumkin emas.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ijara olingan mol-mulkni ikkilamchi ijara topshirish haqidagi shartnomaga nisbatan mulk ijarasi shartnomasi haqidagi qoidalar qo'llaniladi (FKning 546-moddasi).

Agarda qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, o'z majburiyatlarini lozim darajada bajargan ijara oluvchi shartnoma muddati tugaganidan keyin yangi muddatga mulk ijarasi shartnomasini tuzishda sharoitlar teng bo'lgan hollarda boshqa shaxslarga nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo'ladi. Ijara oluvchi ijara beruvchini mulk ijarasi shartnomasida belgilangan muddatda, agar shartnomada bunday muddat belgilangan bo'lmasa, shartnomaning amal qilishi tamom bo'lguncha oqilona muddatda bunday shartnomani tuzish istagi haqida yozma ravishda ogohlantirishi lozim. MulK ijarasi shartnomasini yangi muddatga tuzishda shartnoma shartlari taraflarning kelishuvi asosida o'zgartirilishi mumkin. Agar ijara beruvchi ijara oluvchi bilan yangi muddatga shartnoma tuzishni rad etsa-yu, ammo u bilan tuzilgan shartnoma muddati tugaganidan keyin bir yil ichida boshqa shaxs bilan mulK ijarasi shartnomasini tuzsa, ijara oluvchi o'z xohishiga ko'ra yo tuzilgan shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlar o'ziga o'tkazilishini va o'zi bilan shartnomani yangilashni rad etish oqibatida o'ziga yetkazilgan zararining to'lanishini yoki faqat zararining o'zi to'lanishini sud orqali talab qilishga haqli.

Agar mulk ijarasi shartnomasining muddati tamom bo'lgandan keyin ham ijaraga oluvchi mulkdan foydalanishni davom ettirsa va ijaraga beruvchi bunga e'tiroz bildirmagan bo'lsa, shartnoma avvalgi shartlar asosida noma'lum muddatga qaytadan tuzilgan hisoblanadi (FKning 553-moddasi). Qonun yoki shartnoma bilan ijaraga oluvchiga keyinchalik butun summani to'lab ijara mulkini sotib olish huquqi berilishi mumkin. Ushbu huquq ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'rtasida qo'shimcha kelishuv tuzilishi yo'li bilan ham belgilanishi mumkin.

Ijaraga olingan mol-mulkdan ijarachining foydalanish huquqiga ba'zi bir holatlarda mutlaqlik belgilari tegishlidir: u aynan ijaraga olingan mulkka biriktiriladi; uning subyektlariga bir qator imtiyozli vakolatlar (huquqlar) beriladi, jumladan, ijaraga olingan mulkka nisbatan ijara shartnomasini tuzish, uni sotib olish. Lekin shunga qaramay, ijaraga oluvchiga tegishli bo'lgan bu huquq majburiyatli hisoblanadi, chunki bu vaqtinchalik xususiyatli shartnomaviy munosabatdir, ya'ni bu huquq vaqtincha muddatga berilgan. Shuning uchun mulkni ijaraga berish unga nisbatan mulkdorning yoki uchinchi shaxslarning huquqlari bekor bo'lishi yoki o'zgarishiga olib kelmaydi.

4-§. Ijara shartnomasining bekor bo'lishi

Ijara shartnomasidagi majburiyatlar bekor bo'lishining asosiy sababi bo'lib muddatning tugashi hisoblanadi. Agar mulk ijarasi shartnomasining muddati tamom bo'lganidan keyin ham ijaraga oluvchi mulkdan foydalanishni davom ettirsa va ijaraga beruvchi bunga e'tiroz bildirmagan bo'lsa, shartnoma avvalgi shartlar asosida noma'lum muddatga qaytadan tuzilgan hisoblanadi.

Nomuayyan muddatga tuzilgan shartnomadan ijarachi va ijaraga beruvchi ikkinchi tarafni bir oy oldin xabardor qilib voz kechishi, ko'chmas mulk ijarasida esa uch oy oldin xabardor qilib voz kechishi mumkin. Nomuayyan muddatga tuzilgan mulk ijarasi shartnomasi qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan asoslarda qonun va ijara shartnomasi tezkor bitim mohiyatiga ko'ra bekor qilinishi mumkin.

Nomuayyan muddatga tuzilgan mulk ijarasi shartnomasi ijaraga beruvchining talabi bilan sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar ijaraga oluvchi:

— mol-mulkdan shartnoma shartlarini yoki mulkning vazifalarini jiddiy ravishda buzgan yoxud bir necha marta buzgan holda foydalansa;

— mol-mulknı jiddiy yomonlashtirsa;

— shartnomada belgilangan to'lov muddatini ketma-ket ikki martadan ortiq buzib, mol-mulkdan foydalanganlik uchun haq to'lamasa;

— qonun hujjatlariga yoki shartnomaga muvofiq kapital ta'mirlash ishlarini bajarish ijaraga oluvchi zimmasidagi majburiyat bo'lgan hollarda shartnomada belgilangan muddatlarda, shartnomada muddat belgilangan bo'lmasa, oqilona muddatlarda mol-mulknı kapital ta'mirlashni amalga oshirmasa.

Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini yozma ravishda ogohlantirganidan va unga o'z majburiyatlarini bajarish uchun imkoniyat berganidan keyingina shartnomani muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.

FKning 552-moddasiga muvofiq, mulk ijarasi shartnomasi ijaraga oluvchining talabi bilan sud tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin, agar:

1) ijaraga beruvchi mol-mulknı foydalanish uchun ijaraga oluvchiga bermasa yoki mol-mulkdan shartnoma shartlariga yoxud mol-mulkning vazifasiga muvofiq foydalanishga to'sqinlik qilsa;

2) ijaraga oluvchiga topshirilgan mol-mulkda undan foydalanishga to'sqinlik qiladigan kamchiliklar bo'lib, ularni ijaraga beruvchi shartnoma tuzish vaqtida aytib o'tmagan, ijaraga oluvchiga oldindan ma'lum bo'lmagan va shartnoma tuzayotganda mol-mulknı ko'zdan kechirish yoxud uning sozligini tekshirish vaqtida aniqlanishi mumkin bo'lmagan bo'lsa;

3) ijaraga beruvchi shartnomada belgilangan muddatlarda, agarda shartnomada muddat belgilangan bo'lmasa, oqilona muddatlarda o'z zimmasidagi mol-mulknı kapital ta'mirlash majburiyatini bajarmasa;

4) ijaraga oluvchi javobgar bo'lmagan holatlar tufayli mol-mulk foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolsa.

Umumiy qoidaga muvofiq, mulk ijarasi shartnomasining muddatidan oldin bekor bo'lishi ikkilamchi ijara shartnomasining ham bekor bo'lishiga olib keladi.

Nazorat savollari

1. Mulk ijarasi shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
2. Mulk ijarasi shartnomasi obyektlari. Shartnoma shakli va muddatlari.
3. Mulk ijarasi shartnomasida ijara haqi va uni to'lash tartibi qanday?
4. Mulkni ijaraga topshirish tartibi.
5. Mulk ijarasi shartnomasida taraflar, ularning huquq va majburiyatlari.
6. Ikkilamchi ijara shartnomasi.
7. Ijaraga berilgan mol-mulkni yaxshilash va uning oqibatlari.
8. Mulk ijarasi shartnomasini buzganlik uchun taraflarning javobgarligi.
9. Mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha mol-mulkdagi yashirin kamchiliklarning bartaraf etilishi.
10. Qanday hollarda ijaraga olingan mol-mulk ijaraga beruvchiga qaytariladi?

40-BOB. MULK IJARASI SHARTNOMASINING ALOHIDA TURLARI

1-§. Prokat shartnomasi

Prokat shartnomasi ijara shartnomasining bir turi bo'lib, aholiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan shartnoma hisoblanadi. Prokat shartnomasi bo'yicha doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida mol-mulkni ijaraga beruvchi haq evaziga ijaraga oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun ko'char mol-mulkni topshirish majburiyatini oladi. Prokat shartnomasi bo'yicha topshirilgan mol-mulkdan, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa yoki u majburiyat mohiyatidan kelib chiqmasa, iste'mol maqsadlarida foydalaniladi. Ya'ni prokatga olingan mol-mulk maishiy xarakterdagi kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratiladi.

Prokat shartnomasi har doim yozma tuzilishi lozim. FK prokat shartnomalari ommaviy shartnomalar toifasiga mansubligini belgilaydi (FKning 558-moddasi). Bunda doimiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ijaraga beruvchi taklif qilingan shartlarga rozi bo'lgan shartnoma tuzish istagini bildirgan har bir shaxs bilan shartnoma tuzishi lozim bo'ladi.

Prokat shartnomasining predmeti ham mulk ijarasi shartnomasining predmeti kabi xususiy alomatlari bilan belgilanadigan, iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi. Biroq mulk ijarasi shartnomasining boshqa turlaridan farq qilib, prokat shartnomasining predmeti sifatida faqatgina ko'char ashyolar shartnoma predmeti bo'lishi mumkin. Bular jumlasiga uy-ro'zg'or buyumlari, sport anjomlari, maishiy texnika vositalari va shu kabilar kiradi. Boshqacha aytganda, prokat shartnomasining predmeti bo'lib iste'mol qilinmaydigan, o'zining muayyan belgilari bilan shu turdagi boshqa ashyolardan ajralib turadigan, bir joydan ikkinchi

joyga ko'chirilganda, o'zining tabiiy tayinlanishiga ko'ra xususiyatini yo'qotmaydigan ashyolar hisoblanadi.

Prokat shartnomasi ko'pi bilan bir yil muddatgacha tuziladi. Mulk ijarasi shartnomasini nomuayyan muddatga qaytadan tuzish va ijaraga oluvchining mulk ijarasi shartnomasini qaytadan tuzishga imtiyozli huquqi haqidagi qoidalar prokat shartnomasiga nisbatan qo'llanmaydi. Ijaraga oluvchi prokat shartnomasini bajarishni istagan vaqtida rad etishi mumkin.

Prokat shartnomasida barcha hollarda majburiy subyekt sifatida doimiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar va yuridik shaxslar ijaraga beruvchi bo'lishi mumkin. Prokat shartnomasi asosida buyumlarni ijaraga berish faoliyati bilan shug'ullanish uchun alohida ruxsatnoma talab etilmaydi. Bunda shaxsning tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tganligi yetarli hisoblanadi.

Ijaraga oluvchi sifatida prokat shartnomasida faqatgina fuqarolar ishtirok etishi mumkin. Prokat shartnomasi asosida fuqarolar ko'char mol-mulkni ijaraga olayotganlarida shaxsni tasdiqlovchi hujjat ko'rsatishlari lozim bo'ladi. Ushbu hujjat asosida ijaraga beruvchi shaxsning turar joyi manzilini va ism-sharifini tegishli tartibda qayd etadi hamda buyumni berish bilan birga muayyan muddatga ijara haqi to'langanligini tasdiqlovchi hujjat, pattani ijaraga oluvchiga topshiradi.

Ijaraga oluvchi ijara haqini vaqt-vaqti bilan to'lab turishi yoki bir martalik to'lov shaklida to'lashi lozim. Odatda, prokatga berilgan buyum uchun ijara haqi mol-mulk ijaraga oluvchiga topshirilgan kunning ertasidan boshlab hisoblanadi. Mol-mulkdan foydalanganlik haqi bo'yicha ijaraga oluvchining qarzlari notariusning ijro ustxati asosida so'zsiz undirib olinadi.

Prokat shartnomasining taraflari hisoblangan ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o'ziga xos huquq va majburiyatlarga ega hisoblanadi. Doimiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ijaraga beruvchi shartnomada ko'zda tutilgan, foydalanish uchun yaroqli bo'lgan ashyoni topshirish majburiyatini oladi. Ish muomalasi odatlariga ko'ra, prokatga berilayotgan buyumning yaroqliligi ijaraga beruvchi

tomonidan ashyo prokatga topshirilayotganda ijaraga oluvchining ishtirokida tekshiriladi. Shu bilan birga ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga ashyodan foydalanish qoidalarini, buyumning xavfsizligini ta'minlash usullarini tushuntirishi, ashyo shikastlanganda, ijaraga oluvchining aybi bilan buzilganda va ashyo yo'qotilganda belgilangan mulkiy javobgarlik choralari haqida ijaraga oluvchini ogohlantirishi lozim.

Agar prokatga berilgan ashyo ijaraga oluvchiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra buzilib qolsa, buyum ijaraga oluvchi tomonidan boshqasiga almashtirib berilishi yoki ta'mirlab berilishi lozim. Shuningdek, ijaraga topshirilgan mol-mulkdagi kamchiliklar ijaraga oluvchi tomonidan mol-mulkdan foydalanish va uni omonat saqlash qoidalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan bo'lsa, ijaraga oluvchi ijaraga beruvchiga mol-mulkni ta'mirlash va transportda tashish xarajatlarini to'laydi. Prokat shartnomasi bo'yicha ijaraga topshirilgan mol-mulkni kapital va joriy ta'mirlash ijaraga beruvchining burchidir.

Prokat shartnomasi bo'yicha ijaraga oluvchiga topshirilgan mol-mulkni ikkilamchi ijaraga berishga, ijaraga oluvchi prokat shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishiga, bu mol-mulkning bepul foydalanish uchun berib qo'yilishiga, ijaraga oluvchining huquqlarini garovga qo'yishga va ularni xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga (kapitaliga) hissa tariqasida, ishlab chiqarish kooperativlariga pay badallari tariqasida qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat savollari

1. Prokat shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
2. Prokat shartnomasining predmeti va muddati.
3. Prokat shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlari.
4. Korxonani ijaraga berish shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
5. Korxonani ijaraga berish shartnomasining shakli va shartnomani tuzish tartibi.
6. Korxonani ijaraga berish shartnomasida taraflar. Ularning huquq va majburiyatlari.

41-BOB. LIZING SHARTNOMASI

1-§. Lizing shartnomasi tushunchasi

Lizing so'zi inglizcha bo'lib, ijaraga bermoq ma'nosini anglatadi. Lizing shartnomasi ijaraga shartnomasining o'ziga xos turi sifatida Fuqarolik kodeksida o'z ifodasini topgan yangi shartnoma hisoblanadi. Shu bilan birga lizing shartnomasi amaliyotda moliya ijarasi deb ham yuritiladi.

Lizing shartnomasi bo'yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig'iga binoan sotuvchi uchunchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to'lovlarini to'lash majburiyatini oladi.

Lizing shartnomasi huquqiy belgilariga ko'ra uch tomonlama shartnoma bo'lib, unda ishtirok etuvchi har uch tarafda ham huquq va majburiyatlar mavjud. Masalan, lizing beruvchida mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyati va lizing to'lovlarini to'lashni talab qilish huquqi mavjud bo'lsa, lizing oluvchi lizing to'lovlarini to'lab borish majburiyatini oladi va lizing mol-mulkini o'ziga topshirishni talab qilishga haqli bo'ladi, sotuvchi esa sotilgan lizing obyekti haqini talab qilish va shartnomada belgilangan talablarga javob beradigan mol-mulkni topshirish majburiyatini oladi. Shu bilan birga lizing shartnomasi ba'zi holatlarda ikki tomonlama bo'lishi ham mumkin. Bunda lizing beruvchi mol-mulkni bo'lajak foydalanuvchidan sotib olgan taqdirda yoxud lizing beruvchi kelajakda mol-mulkni sotuvchiga lizing bo'yicha topshirish uchun undan shu mol-mulkni sotib olish maqsadida uni mablag' bilan ta'minlagan taqdirda bir shaxsning o'zi ham lizing oluvchi, ham sotuvchi bo'lishiga yo'l qo'yilgan holatlarda lizing shartnomasi ikki

tomonlama shartnoma hisoblanadi. Shuningdek, lizing shartnomasi konsensual va haq evaziga tuziladigan shartnomalar jumlasiga kiradi.

Iste'mol qilinmaydigan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan har qanday ashyolar lizing obyekti bo'lishi mumkin, yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari bundan mustasno. Kelajakda lizing oluvchiga lizing bo'yicha topshirish maqsadida mol-mulkni o'ziga mulk qilib oluvchi shaxs *lizing beruvchi* deb tan olinadi. Egallik qilish va foydalanish uchun lizing obyektini oladigan shaxs *lizing oluvchi* deb hisoblanadi. Lizing beruvchi lizing obyektini kimdan olayotgan bo'lsa, shu shaxs *sotuvchi* deb e'tirof etiladi.

Lizing to'lovi lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarning hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlari lizing oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizing beruvchining daromadidan iborat bo'ladi. Lizing beruvchi lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olayotganda mol-mulk muayyan shaxsga lizingga berishga mo'ljallanganligini sotuvchiga bildirishi lozim.

Agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu shartnoma obyekti bo'lgan mol-mulk sotuvchi tomonidan bevosita lizing oluvchiga u turgan joyda topshiriladi. Shu bilan birga lizing shartnomasining narsasi bo'lgan mol-mulk shu shartnomada ko'rsatilgan muddatda, basharti, shartnomada bunday muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, oqilona muddatda lizing oluvchiga topshirilmagan bo'lsa, lizing beruvchi javobgar bo'ladigan holatlar tufayli muddat o'tkazib yuborilgan taqdirda, lizing oluvchi shartnomani bekor qilishi va zararning qoplanishini talab qilishi mumkin.

Lizing bo'yicha ijaraga olingan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan buzilishi xavfi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing oluvchiga bu mol-mulkni topshirish paytida o'tadi. Lizing beruvchi lizing obyektini lizing oluvchiga shartnoma shartlariga javob beradigan holatda va unda kelishilgan muddatda topshirishi shart. Agar lizing beruvchining aybli harakatlari yoki yo'l qo'ygan kamchiliklari tufayli

mol-mulk yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, muddati kechiktirib yetkazib berilgan yoki tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk yetkazib berilgan bo'lsa, buning uchun u lizing oluvchi oldida javobgardir.

Mol-mulk yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, muddati kechiktirib yetkazib berilgan yoki uning sifati tegishli darajada bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa:

- lizing to'lovlarini to'xtatib turish;
- yetkazib berilayotgan mol-mulkni rad etish va lizing shartnomasini bekor qilishni talab qilishga haqli.

Lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda lizing oluvchi vaqt-vaqti bilan bo'nak sifatida to'lagan pullarini va boshqa summalarni lizing obyektidan foydalanish davrida olgan foydaning qiymatini chegirib tashlab, o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli. Lizing shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, lizing oluvchi ilgari bo'nak sifatida to'lagan pullarini, lizing obyektidan foydalanishdan olgan foydaning qiymatini chegirib tashlab, o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli. Lizing oluvchi lizing beruvchi oldida shartnoma yuzasidan javobgar bo'lib qolgani holda lizing shartnomasi bo'yicha olgan mol-mulkini lizing beruvchining roziligi bilan qo'shimcha lizingga topshirishi mumkin.

Agar lizing shartnomasida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, lizing oluvchi lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lashi, mol-mulkdan uni yetkazib berish shartlariga muvofiq foydalanishi, uni soz holda omonat saqlashi, o'z hisobidan joriy ta'mirlash ishlarini bajarishi, omonat saqlash bo'yicha boshqa xarajatlarni amalga oshirishi shart. Lizing shartnomasi bekor qilinganida lizing oluvchi mol-mulkni lizing beruvchidan olgan holatida uning normal eskirishini va taraflarning kelishuvida shartlashilgan o'zgarishlarni hisobga olib, qaytarib berishga majbur.

Lizing oluvchi lizing to'lovlarini to'lash majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, lizing beruvchi o'ziga tegishi kerak bo'lgan to'lovlarni foizi bilan olishi mumkin. Lizing oluvchi o'z majburiyatlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, agar lizing shartnomasida

boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing beruvchi bo'lajak lizing to'lovlarini tezlashtirishni yoki lizing obyektini qaytarib olgan va zararni undirgan holda shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqiga ega.

Lizing oluvchi lizing shartnomasining narsasi bo'lgan mol-mulkni sotuvchiga sotuvchi bilan lizing beruvchi o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqadigan talablarni, xususan, mol-mulkning sifati va butligi, uni yetkazib berish muddatlari haqidagi talablarni va shartnoma sotuvchi tomonidan zarur darajada bajarilmayotgan boshqa hollardan kelib chiqadigan talablarni qo'yishga haqli. Bunda lizing oluvchi, mazkur mol-mulkning oldi-sotdi shartnomasidagi taraflardan biri bo'lgani kabi, FKda sotib oluvchi uchun nazarda tutilgan huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi (sotib olingan mol-mulk haqini to'lash majburiyati bundan mustasno). Biroq lizing oluvchi sotuvchi bilan oldi-sotdi shartnomasini lizing beruvchining rozilgisiz bekor qila olmaydi.

Sotuvchi bilan bo'ladigan munosabatlarda lizing oluvchi va lizing beruvchi solidar kreditorlar bo'ladilar. Agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, lizing beruvchi oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqadigan talablarning sotuvchi tomonidan bajarilishi uchun lizing oluvchi oldida javobgar bo'lmaydi, sotuvchi tanlash bo'yicha javobgarlik lizing beruvchining zimmasida bo'lgan hollar bundan mustasno. Sotuvchini lizing beruvchi tanlagan taqdirda, lizing oluvchi oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiqadigan talablarni o'z xohishiga qarab, solidar javobgar bo'lgan mol-mulk sotuvchi oldiga ham, lizing beruvchi oldiga ham qo'yishga haqli.

Nazorat savollari

1. Bozor munosabatlari sharoitida lizing shartnomasi tushunchasi, mohiyati va huquqiy belgilari.
2. Lizing shartnomasi subyektlari va obyektlari kimlar?
3. Lizing shartnomasini tuzish tartibi va shartlari qanday?
4. Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchining huquq va majburiyatlari.
5. Lizing shartnomasida javobgarlik.

42-BOB. PUDRAT SHARTNOMASI

1-§. Pudrat shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilari

Pudrat shartnomasi muayyan ishni bajarishga qaratilgan shartnoma hisoblanadi. Pudrat shartnomasi orqali bir necha turdagi ishlar bajariladi. Bular jumlasiga maishiy ta'minlash, muayyan obyektni qurish va ta'mirlash, loyihalash va rejalashtirish, ilmiy tekshirish, tajriba-konstruktorlik va tajriba ishlari kiradi. Pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi) ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

Pudrat shartnomasi ikki tomonlama, konsensual va haq baravariga tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Chunki, pudrat shartnomasida shartnoma taraflarining har birida o'ziga xos huquq va majburiyatlar mavjud. Pudratchida shartnomada belgilangan ishni bajarish majburiyatini va bajarilgan ish haqini talab qilish huquqi mavjud bo'lsa, buyurtmachida shartnomada belgilangan, bajarilgan ish uchun haq to'lash majburiyati va ishni bajarishni talab qilish huquqi mavjud bo'ladi.

Shu bilan birga, shartnoma taraflar o'rtasida kelishuvga erishilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va shu paytdan boshlab kuchga kiradi.

Pudrat shartnomasida buyurtmachi pudratchi tomonidan amalga oshirilgan ishlar uchun shartnomada belgilangan haqni to'lashi lozim bo'ladi. Bajarilgan ishning bahosi taraflarning kelishuvi bilan belgilanadi.

Taraflarning kelishuviga ko'ra, pudratchi tomonidan bajariladigan ishlar pudrat shartnomasining predmeti hisoblanadi. Pudrat

shartnomasi bo'yicha bajariladigan ish ma'lum bir ashyoni tayyorlash, masalan, ishlab chiqarish texnikasiga oid bo'lgan mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo'yicha olishi mumkin bo'lmagan asbob-uskunalar va shunga o'xshash mahsulotlarni yasatib olish, fuqarolarning maishiy ehtiyojlari uchun buyumlar tayyorlab berish yoki ashyolarni qayta ishlab, ta'mirlab, xomashyoga qayta ishlov berish yoxud boshqacha tartibda ishni bajarib, buyurtmachiga topshirish yo buyurtmachining topshirig'iga muvofiq, uning tomonidan ko'rsatilgan, vakil qilingan shaxslarga topshirishdan iborat hisoblanadi.

Pudrat shartnomasida ikki taraf — *pudratchi* va *buyurtmachi* ishtirok etadi. Pudratchi — ishni bajaruvchi, buyurtmachi esa ish bo'yicha topshiriq beruvchi hisoblanadi. Shuningdek, shartnomada pudratchi tomonidan yordamchi pudratchi ishtirok etadi.

Odatda, shartnomada belgilangan ishni pudratchining o'zi bajarishi lozim. Agar qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida pudratchining shartnomada ko'rsatilgan ishni shaxsan o'zi bajarish majburiyatlari kelib chiqmasa, pudratchi o'z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar) ni jalb qilishga haqli. Bunday hollarda pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi.

Bosh pudratchi buyurtmachining pudrat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun yordamchi pudratchi oldida javobgar bo'lsa, yordamchi pudratchi o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligining oqibatlari uchun buyurtmachi oldida javobgar bo'ladi. Agar qonun yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi va yordamchi pudratchining har biri bosh pudratchi bilan tuzgan shartnomalar buzilishi bilan bog'liq talablarni bir-biriga qo'yishga haqli emas.

FK 634-moddasining birinchi qismidagi qoidalarni yoki pudrat shartnomasini buzib, shartnomani bajarish uchun yordamchi pudratchini jalb qilgan pudratchi ushbu yordamchi pudratchi shartnomani bajarishda qatnashib, yetkazgan zarar uchun buyurt-

machi oldida javobgar bo'ladi. Bosh pudratchining roziligini olgan holda buyurtmachi ayrim ishlarni bajarish uchun boshqa shaxslar bilan shartnoma tuzishga haqli. Bu holda bevosita buyurtmachi oldida mazkur shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar hisoblanishadi.

Pudrat shartnomasida ishni bajarishning boshlang'ich va oxirgi muddatlari ko'rsatiladi. Taraflar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, shartnomada ishning ayrim bosqichlarini tugallash muddatlari (oraliq muddatlar) ham nazarda tutilishi mumkin. Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, pudratchi ishni bajarishning boshlang'ich va oxirgi, shuningdek, oraliq muddatlarini buzganlik uchun javobgardir.

Pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishni bajarishning boshlang'ich, oxirgi va oraliq muddatlari shartnomada nazarda tutilgan hollarda va tartibda o'zgartirilishi mumkin. Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi yoki uni aniqlash usullari ko'rsatiladi. Ular shartnomada ko'rsatilgan bo'lmasa, ishning bahosi aynan shunday ishlar uchun olinadigan baho bo'yicha aniqlanadi. Pudrat shartnomasidagi ishning bahosi pudratchining chiqimlari (masalan, qurilish va ta'mirlash uchun ishlatiladigan materialni tashib kelish, ortish va tushirish bilan bog'liq xarajatlar) ni va unga to'lanadigan haqni o'z ichiga oladi.

Ishning bahosi smeta tuzish yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta bo'yicha bajarilgan taqdirda, smeta buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga ega bo'ladi va pudrat shartnomasining bir qismi bo'lib qoladi. Ishning bahosi (smeta) taxminiy yoki qat'iy bo'lishi mumkin. Pudrat shartnomasida bunday ko'rsatma bo'lmasa, ishning bahosi (smeta) qat'iy hisoblanadi.

Agar qo'shimcha ishlarni bajarish zarur bo'lib qolsa va shu sababli ishning taxminan belgilangan bahosini (taxminiy smetani) ancha oshirishga to'g'ri kelsa, pudratchi bu haqda buyurtmachini vaqtida ogohlantirishi shart. Buyurtmachi pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirishga rozi bo'lmagan taqdirda, shartnomadan voz kechishga haqli. Bunday hollarda

pudratchi buyurtmachidan ishning bajarilgan qismi bahosini to'lashni talab qilishi mumkin.

Buyurtmachini pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirish zarurligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirmagan pudratchi ish uchun shartnomada ko'rsatilgan baho bo'yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajarishi shart. Pudratchi, qoida tariqasida, qat'iy baho (qat'iy smeta) ni oshirishni, buyurtmachi esa uni kamaytirishni talab qilishga, shu jumladan, bajarilishi kerak bo'lgan ishning to'la hajmini yoki buning uchun zarur xarajatlarni pudrat shartnomasi tuzilayotgan paytda nazarda tutish imkoniyati bo'lmagan hollarda ham, haqli emas.

Pudratchi tomonidan taqdim qilinishi kerak bo'lgan materiallar va uskunalar, shuningdek, uchinchi shaxslar tomonidan unga ko'rsatiladigan xizmatlar bahosi ancha oshgan va buni shartnoma tuzish vaqtida nazarda tutish mumkin bo'lmagan hollarda FKning 383-moddasiga binoan, pudratchi belgilangan ish bahosini (smetani) oshirishni talab qilishga, buyurtmachi bu talabni bajarishdan bosh tortgan taqdirda esa, shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli. Pudrat shartnomasiga muvofiq, buyurtmachi ishni bajarishni va uning natijasini talab qilishga haqli. Shu bilan birga buyurtmachi ishini bajarilish jarayonini pudratchining faoliyatiga aralashmagan holda tekshirib turish, ish bo'yicha pudratchidan hisobot talab qilish, ishning bajarilishi shartnomada belgilangan muddatlarga muvofiq kelishini tekshirish, pudratchi shartnomani bajarishga o'z vaqtida kirishmagan yoki ishni bajarishda sustkashlikka yo'l qo'yganda shartnomadan bir tomonlama voz kechish huquqiga ega.

Agar ishni bajarish vaqtida uning tegishli darajada bajarilmasligi aniq bo'lib qolsa, buyurtmachi pudratchiga kamchiliklarni yo'qotish uchun oqilona muddat belgilashga va bu talabni pudratchi belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda pudrat shartnomasidan voz kechishga yoxud bu kamchiliklarni pudratchi hisobidan tuzatishni boshqa shaxsga topshirishga, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi ish natijasi o'ziga topshirilgunga qadar istagan vaqtda shartnomadan voz kechib, belgilangan bahoning buyurtmachi shartnomadan voz kechganligi to'g'risida ogohlantirish olingunga qadar bajarilgan ishga mutanosib qismini to'lashi mumkin. Buyurtmachi pudratchiga shartnomaning bekor qilinishi tufayli yetkazilgan zararni ham bajarilgan ishning bahosi bilan hamma ish uchun belgilangan baho o'rtasidagi farq doirasida to'lashi shart.

Buyurtmachi shartnomaga muvofiq, pudratchini materiallar bilan ta'minlashi, unga zarur topshiriq va ma'lumotlarni berishi lozim. Buyurtmachi pudrat shartnomasi bo'yicha o'zining muqobil majburiyatlarini bajarmaganligi, xususan, material, uskunalar, texnik hujjatlarni yoki qayta ishlanishi (ishlov berilishi) kerak bo'lgan ashyoni bermaganligi pudratchining shartnomani bajarishiga to'sqinlik qilgan hollarda, shuningdek, mazkur majburiyatlar belgilangan muddatda bajarilmasligini yaqqol ko'rsatib turgan holatlar mavjud bo'lganida pudratchi ishga kirishmasligi, boshlangan ishni esa to'xtatib qo'yishi mumkin. Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, pudratchi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shartnomani bajarishdan bosh tortishga va zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Pudratchining ishni bajarishiga buyurtmachi pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda, hajmda va tartibda yordam berishi lozim. Buyurtmachi bu majburiyatni bajarmasa, pudratchi ko'rilgan zararni, shu jumladan, bekor turib qolganlik oqibatidagi qo'shimcha chiqimlarni qoplashni yoki ishni bajarish muddatini o'zgartirish yoxud pudrat shartnomasida ko'rsatilgan ish bahosini oshirishni talab qilish huquqiga ega.

Buyurtmachining harakati yoki yo'l qo'ygan xatosi tufayli pudrat shartnomasi bo'yicha ishni bajarish mumkin bo'lmay qolsa, pudratchi ishning bajarilgan qismini hisobga olgan holda shartnomada ko'rsatilgan bahoni olish huquqini saqlab qoladi. Buyurtmachi bajarilgan ishni (uning natijasini) pudrat shartnomasida nazarda tutilgan muddatda va tartibda pudratchi ishtirokida ko'rib chiqishi va

qabul qilishi, ish natijasini yomonlashtiradigan darajada shartnomadan chekinish yoki boshqa kamchiliklar aniqlangan taqdirda esa bu to'g'rida pudratchiga darhol ma'lum qilishi shart.

Ishni qabul qilish vaqtida uning kamchiliklarini aniqlagan buyurtmachi bu kamchiliklar yoxud ularni tuzatish to'g'risida keyinchalik talab qo'yish mumkinligi dalolatnoma yoki qabul qilishni tasdiqlovchi boshqa hujjatda ko'rsatilgan hollardagina ularni vaj qilib keltirishga haqli. Buyurtmachi ishni tekshirmasdan qabul qilgan bo'lsa, uni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo'lgan kamchiliklar (ochiq ko'rinib turgan kamchiliklar) ni dalil qilib keltirish huquqidan mahrum bo'ladi.

Buyurtmachi ish qabul qilib olinganidan so'ng unda pudrat shartnomasidan chekinishlar yoki ishni qabul qilishning oddiy usulida aniqlanishi mumkin bo'lmagan boshqa xil kamchiliklar (yashirin kamchiliklar) ni, shu jumladan, pudratchi qasddan yashirgan kamchiliklarni aniqlasa, ular aniqlanganidan so'ng o'n kunlik muddat ichida bu to'g'rida pudratchiga xabar qilishi shart.

Buyurtmachi bilan pudratchi o'rtasida bajarilgan ishning kamchiliklari yoki ularning sabablari yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, istagan tarafning talabi bo'yicha ekspertiza tayinlanishi kerak. Ekspertiza o'tkazish xarajatlari pudratchi zimmasida bo'ladi, ekspertiza pudrat shartnomasi buzilmaganligini yoki pudratchining harakatlari bilan aniqlangan kamchiliklar o'rtasida sababiy bog'lanish yo'qligini aniqlagan hollar bundan mustasno. Bunday hollarda ekspertiza xarajatlarini ekspertiza o'tkazishni talab qilgan taraf, agar ekspertiza taraflarning o'zaro kelishuvi bilan tayinlangan bo'lsa, har ikki taraf teng miqdorda to'laydi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortganida, pudratchi shartnomaga binoan ish natijasi buyurtmachiga topshirilishi kerak bo'lgan kundan boshlab bir oy o'tgach va shundan keyin buyurtmachini ikki marta ogohlantirgan holda ish natijasini sotib yuborishga, tushgan pulni esa, pudratchiga tegishli hamma to'lovlarni chegirib tashlab, notarial idoraning depozitiga buyurtmachining nomiga kiritib qo'yishga haqli. Pudratchi

puđrat narsasini sotish o'rniga uni ushlab turish yoki keltirilgan zararni buyurtmachidan undirib olish huquqidan foydalanishga haqli. Agar buyurtmachining bajarilgan ishni qabul qilishdan bosh tortishi ishni topshirish kechikib ketishiga sabab bo'lgan bo'lsa, tayyorlangan (qayta ishlangan) ashyoning tasodifan nobud bo'lish xavfi ashyo topshirilishi lozim bo'lgan paytda buyurtmachiga o'tgan deb hisoblanadi.

Puđratchi bajargan ish puđrat shartnomasining shartlariga, shartlar bo'lmaganida yoki to'liq bo'lmaganida esa, odatda tegishli turdagi ishlarga qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bajarilgan ish natijasi buyurtmachiga topshirish paytida shartnomada ko'rsatilgan yoki odatda qo'yiladigan talablar bilan belgilangan xususiyatlarga ega bo'lishi va oqilona muddat davomida shartnomada nazarda tutilganidek foydalanish uchun, agar u shartnomada belgilangan bo'lmasa, bunday turdagi ishning natijasidan odatdagidek foydalanish uchun yaroqli bo'lishi kerak.

Agar qonun hujjatlarida puđrat shartnomasi bo'yicha bajariladigan ishga qo'yiladigan majburiy talablar nazarda tutilgan bo'lsa, tadbirkor sifatida ish olib borayotgan puđratchi ishni bunday majburiy talablarga amal qilgan holda bajarishi shart. Puđratchi belgilangan majburiy talablarga nisbatan sifat jihatidan birmuncha yuqori talablarga javob beradigan ishni bajarishni puđrat shartnomasi asosida o'z zimmasiga olishi mumkin.

Qonun hujjatlarida yoki puđrat shartnomasida puđratchi buyurtmachiga ishning sifatiga kafolat berishi nazarda tutilgan bo'lsa, puđratchi butun kafolat muddati davomida FKning 647-moddasi birinchi qismi talablariga mos keladigan ish natijalarini buyurtmachiga topshirishi shart. Agar puđrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishlar natijasining sifatiga berilgan kafolat ishning natijasini tashkil etuvchi hamma narsaga tegishli bo'ladi.

Agar puđrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafolat muddati buyurtmachi bajarilgan ish natijasini

qabul qilgan yoki qabul qilishi lozim bo'lgan paytdan o'ta boshlaydi. Shuningdek, qonun hujjatlarida yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoxud u pudrat shartnomasining xususiyatlaridan kelib chiqmasa, pudrat shartnomasi bo'yicha kafolat muddatini hisoblash uchun FKning 404-moddasi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan qoidalar tegishli tatiq etiladi.

Agar ish pudratchi tomonidan pudrat shartnomasidan chetga chiqqan holda bajarilib, ish natijasini yomonlashtirgan bo'lsa yoki uni shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun yoxud shartnomada yaroqsizlik haqida tegishli shartlar bo'lmagan taqdirda, odatdagi maqsadlar uchun foydalanishga yaroqsiz qilib qo'yadigan boshqa kamchiliklar bilan bajarilgan bo'lsa, buyurtmachi, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, o'z xohishiga ko'ra pudratchidan:

- kamchiliklarni oqilona muddatda bepul bartaraf etishni;
- ish uchun belgilangan bahoni mutanosib ravishda kamaytirishni;
- shartnomada buyurtmachining kamchiliklarni bartaraf etish huquqi nazarda tutilgan bo'lsa, ularni bartaraf etishga qilgan o'z xarajatlarini qoplashni talab qilishga haqli.

Pudratchi ishdagi o'zi javobgar bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish o'rniga, buyurtmachiga shartnomani bajarishni kechiktirganlik natijasida yetkazgan zararni qoplagan holda ishni yangidan bepul bajarib berishga haqli. Bunday holda buyurtmachi ilgari o'ziga topshirilgan ish natijasini, agar ishning xarakteriga ko'ra uni qaytarib berish mumkin bo'lsa, pudratchiga qaytarib berishi shart.

Agar ishdagi pudrat shartnomasi shartlaridan chetga chiqishlar yoki boshqa xil kamchiliklar jiddiy va bartaraf etib bo'lmaydigan darajada bo'lsa yoxud aniqlangan kamchiliklar buyurtmachi tomonidan belgilangan oqilona muddatda bartaraf etilmagan bo'lsa, buyurtmachi shartnomani bajarishdan bosh tortishga va keltirilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli. Pudrat shartnomasining muayyan kamchilik uchun pudratchini javobgarlikdan ozod qilish

to'g'risidagi sharti, agar bunday nuqsonlar pudratchining aybli harakatlari yoki harakatsizligi tufayli vujudga kelganligi isbotlansa, pudratchini javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Ishni bajarish uchun material bergan pudratchi uning sifati uchun sotuvchining sifati lozim darajada bo'lmagan tovar uchun javobgarligi to'g'risidagi qoidalar bo'yicha javobgar bo'ladi. Agar qonun yoki pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, buyurtmachi ushbu moddada belgilangan muddatlarda ish natijasining lozim darajada sifatli emasligini aniqlagan taqdirda, ishning natijasi lozim darajada sifatli emasligi bilan bog'liq talablarni qo'yishga haqli.

Ish natijasiga kafolat muddati belgilanmagan hollarda ish natijalaridagi kamchiliklar oqilona muddatda, biroq ish natijasi topshirilgan kundan boshlab ikki yil mobaynida aniqlangan taqdirda, agar qonunda, shartnomada yoki ish muomalasi odatlarida boshqa muddatlar belgilangan bo'lmasa, buyurtmachi ish natijasidagi kamchiliklar bilan bog'liq talablarni qo'yishi mumkin. Buyurtmachi kafolat muddati mobaynida aniqlangan ish natijasidagi kamchiliklar bilan bog'liq talablarni qo'yishga haqli.

Shartnomada nazarda tutilgan kafolat muddati ikki yildan kam bo'lib, buyurtmachi ish natijasidagi kamchiliklarni kafolat muddati tamom bo'lgach, biroq ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida aniqlagan va bu kamchiliklar ish natijasi o'ziga topshirilgunicha yoki topshirish paytiga qadar yuzaga kelgan sabablarga ko'ra paydo bo'lganligini isbot qilsa, ular uchun pudratchi javobgar bo'ladi.

Agar pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafolat muddati bajarilgan ish natijasi buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingan yoki qabul qilib olinishi lozim bo'lgan paytdan e'tiboran o'ta boshlaydi. Pudrat shartnomasi bo'yicha kafolat muddatini hisoblashda, agar qonun hujjatlarida, taraflar o'rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki u pudrat shartnomasining xususiyatlaridan kelib chiqmasa, FKning 404-moddasi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarining qoidalari tegishli qo'llanadi.

Nazorat savollari

1. Bozor munosabatlari sharoitida pudrat shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
2. Pudrat shartnomasini tuzish tartibi qanday?
3. Pudrat shartnomasida taraflar. Ularning huquq va majburiyatlari.
4. Pudrat ishlari lozim darajada bo'lmaganligi uchun pudratchining javobgarligi.
5. Pudrat shartnomasida subpudratchi va uning majburiyatlari.
6. Pudrat ishining sifati va kafolat muddati.
7. Maishiy pudrat shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
8. Maishiy pudrat shartnomasida taraflar, ularning huquq va majburiyatlari.
9. Maishiy pudrat shartnomasining shakli va muddati.
10. Qurilish pudrati shartnomasi tushunchasi, mazmuni va huquqiy belgilari.
11. Qurilish pudrati shartnomasida loyiha va smeta hujjatlari.

43-BOB. KREDIT SHARTNOMASI

1-§. Kredit shartnomasi tushunchasi

Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi. Odatda, kredit deganda, mulkdorning egaligida bo'lgan bo'sh turgan pul mablag'larini boshqa shaxslar tomonidan muayyan muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish bilan bog'liq munosabatlar tushuniladi.

Kredit munosabatlari kredit beruvchi va kredit oluvchi o'rtasida vujudga keladi. Kredit munosabatlari quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- olingan pul yoki tovarlarning qaytarilishi;
- muayyan muddatning belgilanishi;
- shartnomada belgilangan foizlarni to'lash.

Qonun hujjatlariga muvofiq, kredit tashkilotlari bo'lmagan tijorat tashkilotlarining kreditlashni amalga oshirishiga yo'l qo'yilgan hollarda kredit shartnomasi to'g'risidagi qoidalar bunday tijorat tashkilotlari amalga oshiradigan kreditlash munosabatlariga nisbatan qo'llanadi.

Kredit shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shart. Yozma shaklga rioya qilmaslik kredit shartnomasining haqiqiy bo'lmashligiga olib keladi. Bunday shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi. Ta'kidlash lozimki, qarz va kredit shartnomalari o'rtasidagi umumiylik bilan birga, ular o'rtasidagi farqlar ham mavjud.

Birinchidan, kredit munosabatlarida qarz munosabatlaridan farqli ravishda, har doim majburiy subyektlar — bank yoki kredit tashkilotlari ishtirok etishi lozim.

Ikkinchidan, kredit oluvchi olingan pul summasi uchun foizlar to'lashi shart.

Uchinchidan, qarz shartnomasi og'zaki tuzilishiga ham yo'l qo'yilsa, kredit shartnomasi faqat yozma shaklda tuziladi.

Kredit shartnomasi, qarz shartnomasi kabi real emas, konsensual shartnoma hisoblanadi.

Kredit shartnomalarining subyektlari bo'lib kredit beruvchi va kredit oluvchi hisoblanadi. Kredit beruvchi sifatida shartnomada bank va kredit muassasalari ishtirok etadi. Kredit oluvchi sifatida yuridik shaxslar va fuqarolar (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar) shartnomada qatnashishlari mumkin. Hozirgi kunda kreditning bir necha turlari mavjud bo'lib, bular jumlasiga tijorat krediti, bank krediti, iste'molchi krediti, davlat krediti, xalqaro kredit va shu kabilar kiradi.

Tijorat krediti bajarilishi uchun pul summalarini yoki turga xos alomatlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni ikkinchi tarafga mulk qilib topshirish talab qilinadigan shartnomalarda, agar qonun hujjatlarida boshqa hol belgilab qo'yilgan bo'lmasa, kredit berish, shu jumladan, bo'nak, oldindan haq to'lash, tovarlarga, ishlar yoki xizmatlarga haq to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash shaklida kredit berish (tijorat krediti) nazarda tutilishi mumkin.

Amaliyotda tijorat kreditining quyidagi usullari qo'llaniladi:

- veksel usuli;
- ochiq schot orqali berish;
- to'lovni ma'lum belgilangan muddatda amalga oshirgan sharoitda chegirma berish;
- mavsumiy kredit;
- konsignatsiya.

Taraflar bir tarafning kredit shartnomasi shartlari asosida turga xos alomatlari bilan belgilangan ashyolarni ikkinchi tarafga berish majburiyatini nazarda tutuvchi shartnomani tuzishlari mumkin. Ashyolarni kreditga berish to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnomaning berilayotgan ashyolarning miqdori, assortimenti, to'liqligi, sifati, idishi va (yoki)

o'ralishi haqidagi shartlari tovarlarning oldi-sotdi shartnomasi to'g'risidagi qoidalarga muvofiq bajarilishi shart.

Kreditor qarz oluvchini to'lovga qobiliyatsiz deb hisoblasa, qarz oluvchi kreditni ta'minlash majburiyatlarini bajarmasa, shartnomada nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzsa, shuningdek, shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish huquqiga ega.

Qarz oluvchi kredit olishdan butunlay yoki qisman bosh tortishga haqli. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz oluvchi bu haqda kreditorni kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan kredit berish muddatiga qadar xabardor qilishi shart. Qarz oluvchi kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditdan aniq maqsadda foydalanish majburiyatini buzgan taqdirda kreditor shartnoma bo'yicha qarz oluvchini bundan buyon kreditlashni to'xtatishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Kredit shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari.
2. Kredit shartnomasini ta'minlash usullari.
3. Kredit shartnomasi qanday tuziladi?
4. Tijorat krediti nima?

44-BOB. BANK OMONATI VA BANK HISOBVARAG'I SHARTNOMASI

1-§. Bank omonati shartnomasi

Bank omonati shartnomasi bankning mijozlarga xizmat ko'rsatishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, bu shartnoma orqali fuqarolar va yuridik shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'lari iqtisodiyotga va fuqarolik muomalasiga jalb qilinadi. Bank omonati shartnomasi bo'yicha birinchi tarafdin (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Bank omonati shartnomasi o'zining huquqiy belgilariga ko'ra, bir tomonlama shartnomalar toifasiga kiradi. Chunki, shartnoma tuzilgach, omonatchida faqatgina omonat summasini foizlari bilan qaytarish huquqi mavjud bo'ladi. Bank omonati shartnomasi omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Ushbu jihati bilan bank omonati shartnomasi real shartnoma hisoblanadi. Omonatga qo'yilgan pul summasi uchun bank foiz to'lash majburiyatini oladi va shu sababli bank omonati shartnomasi haq evaziga tuziladigan shartnomalar jumlasiga kiradi.

Fuqaro omonatchi bo'lgan bank omonati shartnomasi *ommaviy shartnoma* deb hisoblanadi. Chunki, bank ommaviy oferta e'lon qilgach, shartnoma tuzish istagini bildirgan har bir fuqaro bilan shartnoma tuzishga majburdir. Omonat saqlash shartnomasining subyektlari bo'lib qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya berilgan banklar va omonatchi fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadilar.

Pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish huquqiga ega bo'lmagan shaxs fuqarodan omonat qabul qilgan taqdirda, omonatchi darhol omonat summasini qaytarib berishni, shuningdek, bu summaga FKning 327-moddasida nazarda tutilgan foizlarni to'lashni hamda foiz summalaridan tashqari omonatchiga yetkazilgan hamma zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Agar bunday shaxs bank omonati shartnomasi shartlari asosida yuridik shaxsning pul mablag'larini qabul qilgan bo'lsa, FKning bitimlar haqiqiy bo'lmashligining asoslari va oqibatlariga doir tegishli qoidalari qo'llanadi.

Qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, FKning 760-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan oqibatlar, kim bo'lishidan qat'i nazar, fuqarolar va yuridik shaxslarning pul mablag'larini:

- omonat saqlovchilarga omonatni talab qilishi bilan oq olish va omonatchining ushbu bob qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydigan veksellar yoki boshqa qimmatli qog'ozlar berish;

- ularga g'ayriqonuniy chiqarilgan deb topilgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan omonatlarga jalb qilish hollariga nisbatan qo'llanadi.

Bank omonati shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lishi kerak. Agar omonatning qo'yilganligi omonat daftarchasi, jamg'arma (depozit) sertifikati yoki bank tomonidan omonatchiga berilgan, qonunda, qonunga muvofiq belgilangan bank qoidalarida va bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomalasi odatlarida bunday hujjatlar uchun nazarda tutilgan talablarga javob beradigan boshqa hujjat bilan tasdiqlangan bo'lsa, bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi. Bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik bunday shartnomaning haqiqiy bo'lmashligiga olib keladi. Bunday shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Bank omonati shartnomasi omonatni talab qilinishi bilan oq berish (talab qilinguncha saqlanadigan omonat) yoki omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish

(muddatli omonat) sharti bilan tuziladi. Bank omonati shartnomasida qaytarib berishning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlari asosida omonatlar qo'yish ham nazarda tutilishi mumkin. Bank omonati shartnomasi bo'yicha, omonatning turidan qat'i nazar, bank omonatchining talabi bilan omonat summasini yoki uning bir qismini berishi shart, yuridik shaxslar tomonidan qaytarib berishning shartnomada nazarda tutilgan boshqa shartlari asosida qo'yilgan omonatlar bundan mustasno. Bank omonati shartnomasining fuqaro omonatni talab qilishi bilanoq olish huquqidan, muddatli yoki boshqa omonatni esa xabardor etishning qonun hujjatlarida belgilangan muddati o'tganidan keyin olish huquqidan voz kechish haqidagi sharti o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Agar omonatchi muddatli yoki boshqa omonatni, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat bundan mustasno, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo'lsa, u o'zining bu niyatidan bankni omonatni olishni mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim.

Muddatli yoki boshqa omonat, talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat bundan mustasno, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, omonat yuzasidan foizlar to'lanmaydi. Omonatchi muddatli omonat summasini muddat tugaganidan keyin yoki qaytarishning boshqa shartlari bilan qo'yilgan omonat summasini bank omonati shartnomasida nazarda tutilgan holatlar vujudga kelganidan keyin qaytarib berishni talab qilmagan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma omonatni talab qilib olguncha omonat saqlash shartlari asosida uzaytirilgan, deb hisoblanadi.

Bank omonatchiga omonat summasi uchun bank omonati shartnomasida belgilanadigan miqdorda foizlar to'laydi. Bank omonati shartnomasida to'lanadigan foizlar miqdori haqida shart

bo'lmagan taqdirda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan miqdorda foizlar to'lashi shart.

Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan foizlar miqdorini o'zgartirishi mumkin. Bank foizlar miqdorini kamaytirgan taqdirda, foizlarning yangi miqdori foizlar kamaytirilganligi haqida omonatchilarga xabar berilganidan keyin qo'yilgan omonatlarga nisbatan qo'llanadi. Agar bank omonati shartnomasida boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu xabarga qadar qo'yilgan omonatlarga nisbatan kamaytirilgan foizlar miqdori tegishli xabar berilgan paytdan bir oy o'tganidan keyin qo'llanadi. Omonatni muayyan muddat o'tgach yoki shartnomada nazarda tutilgan vaziyatlar yuz berganidan keyin qaytarish sharti bilan qo'yilgan omonat yuzasidan bank omonati shartnomasida belgilangan foizlar miqdori, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bank tomonidan bir tomonlama kamaytirilishi mumkin emas.

Bank omonati summasiga foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi. Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi. Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank omonati summasiga foizlar har bir oy o'tganidan keyin uning talabi bilan omonat summasidan alohida to'lanadi, bu muddatda talab qilib olinmagan foizlar esa foizlar yoziladigan omonat summasiga qo'shib boradi. Omonat qaytarilganida shu paytgacha yozilgan hamma foizlar to'lanadi.

Bank qabul qilib olgan omonatlarning qaytarilishini ta'minlash uchun foydalanishi shart bo'lgan vositalar va usullar qonun bilan va bank omonati shartnomasi bilan belgilanadi. Bank omonatchining talabiga muvofiq, omonatning qaytarilishi ta'minlanganligi to'g'risida axborot berishi lozim. Bank omonatning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan,

shuningdek, ta'minotni yo'qotgan yoki uning shartlarini yomonlashtirgan taqdirda, omonatchi bankdan omonat summasini darhol qaytarib berishni, FKning 327-moddasiga muvofiq, unga foizlar to'lashni hamda o'ziga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

Bank omonatchining omonatni yoki uning bir qismini qaytarish haqidagi talabini FKning 762-moddasida nazarda tutilgan muddatlarda bajarmagan taqdirda, FKning 327-moddasiga muvofiq bank omonatga foizlar to'lashdan qat'i nazar, keltirilgan zararni to'lashi lozim.

Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, omonatga uchinchi shaxslardan omonatchining hisobvarag'i to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni ko'rsatgan holda tushgan pul mablag'lari kiritib qo'yiladi. Bunda omonatchi bunday shaxslarga omonat bo'yicha hisobvaraqa to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni berish bilan ulardan pul mablag'larini olishga rozi bo'lgan, deb hisoblanadi.

Omonat bankka muayyan uchinchi shaxs foydasiga qo'yilishi mumkin. Nomiga omonat qo'yilayotgan fuqaroning ismini yoki yuridik shaxsning nomini ko'rsatish bank omonati to'g'risidagi tegishli shartnomaning muhim shartidir. Shuningdek, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, nomiga omonat qo'yilgan uchinchi shaxs pul o'z hisobvarag'iga kelib tushgan paytdan boshlab omonatchi huquqlarini qo'lga kiritadi. Nomiga omonat qo'yilgan uchinchi shaxs undan voz kechgan hollarda uchinchi shaxs nomiga bank omonati shartnomasi tuzgan shaxs omonatni qaytarib berishni talab qilishi yoki uni o'z nomiga o'tkazishi mumkin.

Bank omonati shartnomasi tuzilganligini tasdiqlash maqsadida fuqarolarga omonat daftarchasi beriladi. Taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqaro bilan bank omonati shartnomasi tuzish hamda uning hisobvarag'iga omonat bo'yicha pul mablag'larini kiritib qo'yish omonat daftarchasi bilan tasdiqlanadi.

Omonat daftarchasida bankning yoki uning tegishli filialining nomi, uning joylashgan manzili hamda omonat bo'yicha hisob-

varaq raqami, shuningdek, hisobvaraqqa kiritilgan hamma pul mablag'lari summasi, hisobvaraقدan o'chirilgan hamma pul mablag'lari summasi va omonat daftarchasi bankka taقدim etilgan paytda hisobvaraقدagi pul mablag'larining qoldig'i ko'rsatilgan va tasdiqlangan bo'lishi shart. Agar omonatning boshqa holati isbot qilingan bo'lmasa, omonat to'g'risida omonat daftarchasida ko'rsatilgan ma'lumotlar bank bilan omonatchi o'rtasida omonat bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Bank omonati shartnomasida omonatchining nomi yozilgan omonat daftarchasi yoki taقدim etuvchiga pul to'lanadigan omonat daftarchasi berish nazarda tutilishi mumkin. Taقدim etuvchiga pul to'lanadigan omonat daftarchasi qimmatli qog'oz hisoblanadi.

Bank omonat daftarchasi taقدim etilganida omonatni beradi, unga foizlar to'laydi hamda omonatchining omonat bo'yicha hisobvaraقدagi pul mablag'larini boshqa shaxslarga o'tkazish haqidagi topshirig'ini bajaradi.

Agar egasining nomi yozilgan omonat daftarchasi yo'qotilgan bo'lsa yoki taقدim etish uchun yaroqsiz holga keltirilgan bo'lsa, bank omonatchining arizasiga muvofiq, unga yangi omonat daftarchasi beradi. Ko'rsatuvchiga pul to'lanadigan omonat daftarchasi yo'qotilganida, u bo'yicha huquqlarni tiklash ko'rsatuvchiga pul to'lanadigan qimmatli qog'ozlar uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Omonat (depozit) sertifikat qimmatli qog'oz bo'lib, bankka qo'yilgan omonat summasini ham, omonatchining (sertifikat saqlovchining) belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin sertifikatni bergan bankda yoki ushbu bankning istalgan filialida omonat summasini va sertifikatda ko'rsatib qo'yilgan foizlarni olish huquqini ham tasdiqlaydi. Omonat (depozit) sertifikatlari taقدim etuvchiga to'lanadigan pul yoki egasining nomi yozilgan bo'lishi mumkin. Omonat (depozit) sertifikat qimmatli pul to'lash uchun muddatidan oldin taقدim etilgan taقدirda bank, agar sertifikatning shartlarida foizlarning boshqacha miqdori belgilab qo'yilgan bo'lmasa, omonat summasini va talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni to'laydi.

2-§. Bank hisobvarag'i shartnomasi

Naqd pulsiz hisob-kitoblar va kredit munosabatlarini amalga oshirish bevosita bank hisobvarag'i shartnomasi bilan amalga oshiriladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, bank hisobvarag'i shartnomasi bankning mijozlarga xizmat ko'rsatishiga oid bo'lgan shartnoma hisoblanadi. Bu shartnoma o'zining huquqiy belgilari, taraflarning huquq va majburiyatlariga ko'ra, xizmat ko'rsatish va ish bajarishga oid shartnomalar guruhiga mansubdir. Bank hisobvarag'i shartnomasidan asosiy maqsad shartnomada «mijoz» deb nomlanuvchi subyektlarga naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirish xizmatini ko'rsatish hisoblanadi. FKning 771-moddasiga muvofiq, bank hisobvarag'i shartnomasi bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit muassasasi (bundan buyon matnda — bank) ikkinchi tarafning — mijozning (hisobvaraqq egasining) hisobvarag'iga tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvaraqqdan tegishli summalarini o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraqq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatini oladi. Bank hisobvarag'i shartnomasi ikki tomonlama, konsensual va haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Bank mijozning bank hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'laridan hisobvaraqqqa talablar qo'yilgan vaqtda mablag'larning mavjud bo'lishini hamda hisobvaraqq egasining ushbu mablag'larni hisobvaraqqda turgan summalar doirasida monelihsiz tasarruf etish huquqini kafolatlagan holda foydalanishi mumkin. Mijoz bankdagi hisobvaraqqda turgan o'z pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi. Bank mijozning pul mablag'laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda uning pul mablag'larini o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqlariga qonunda yoki bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni belgilashga haqli emas. Mijozning bankdagi hisobvaraqqda turgan pul mablag'lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul shaklida olinishi mumkin.

Bank hisobvarag'i shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Bank hisobvarag'i shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik ushbu shartnomaning haqiqiy bo'lmashligini keltirib chiqaradi. Bunday shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bank hisobvarag'i shartnomasi bank tomonidan mijozga yoki u ko'rsatgan shaxsga bankda taraflar kelishgan shartlarda hisobvaraqlar ochish yo'li bilan tuziladi. Yuridik shaxslar va fuqarolar o'zlariga hisob-kitob va kassa xizmati ko'rsatadigan banklarni mustaqil tanlaydilar. Bank muayyan turdagi hisobvaraqlar ochish uchun e'lon qilgan, qonunda va qonunga muvofiq, belgilab qo'yilgan bank qoidalarida nazarda tutilgan tegishli talablarga mos keladigan shartlar asosida hisobvaraqlar ochishni taklif qilib murojaat etgan mijoz bilan bank hisobvarag'i shartnomasi tuzishi shart. Bank tegishli operatsiyalarni amalga oshirishda qonunda, bankning ta'sis hujjatlarida va unga berilgan litsenziyada nazarda tutilgan hisobvaraqlar ochishni rad etishga haqli emas, ana shunday rad etishga bankda bank xizmati ko'rsatishga qabul qilish imkoniyati yo'qligi sabab bo'lgan hollar bundan mustasno.

Mijoz nomidan hisobvaraqdagi mablag'larni o'tkazish va berish haqida ko'rsatma beradigan shaxslarning huquqlari mijoz tomonidan bankka qonunda nazarda tutilgan, qonunga muvofiq bank qoidalarida hamda bank hisobvarag'i shartnomasi bilan belgilangan hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan tasdiqlanadi. Mijoz uchinchi shaxslarning talabiga muvofiq, shu jumladan, mijozning ushbu shaxslar oldidagi majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq talabiga muvofiq pul mablag'larini hisobvaraqdan o'chirish haqida farmoyish berishi mumkin. Bank tegishli talab qo'yilgan vaqtda uni qo'yishga haqli bo'lgan shaxsni aniqlash va bunday talabning xarakteri va asoslarini belgilash imkonini beradigan zarur ma'lumotlar bu farmoyishlarda yozma ravishda ko'rsatilgan taqdirda ularni qabul qiladi.

Bank hisobvarag'i shartnomasida hisobvaraqda turgan pul mablag'larini tasarruf etish huquqini elektron to'lov vositalaridan hamda ularda mijozning o'z imzosi, kodlari, parollari hamda farmoyish tegishli vakolati bo'lgan shaxs tomonidan berilganligini tasdiqlaydigan boshqa vositalarning o'xshatmalaridan foydalanilgan boshqa hujjatlar bilan tasdiqlash nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank qonunda, qonunga muvofiq belgilab qo'yilgan bank qoidalarida va bank amaliyotida qo'llanadigan ish muomalasi odatlarida ushbu turdagi hisobvaraqlar uchun belgilab qo'yilgan operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan hisobvaraqa kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilishi va kiritib qo'yishi hamda mijozning pul mablag'larini qo'lga berish haqidagi topshiriqlarini bajarishi shart.

Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha muddatlar belgilab qo'yilgan bo'lmasa, bank tegishli to'lov hujjati bankka tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan tushgan pul mablag'larini hisobvaraqa kiritib qo'yishi, mijozning topshirig'iga muvofiq hisobvaraqdan pul mablag'larini qo'lga berishi yoki o'tkazishi shart. Bank hisobvarag'i shartnomasiga muvofiq bank mijozning hisobvarag'ida pul mablag'lari yo'qligiga qaramay, mijozning talablariga muvofiq, to'lovlarni amalga oshirgan hollarda bank mijozga to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab tegishli summaga kredit bergan (hisobvaraqli kreditlash) hisoblanadi. Taraflarning hisobvaraqli kreditlash bilan bog'liq huquq va majburiyatlari, agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz va kredit to'g'risidagi qoidalar bilan belgilanadi.

Mijoz bankning hisobvaraqa turgan pul mablag'lari bilan operatsiya qilish bo'yicha xizmatlariga bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan shartlar asosida haq to'laydi. Mazkur operatsiyalarni amalga oshirish borasidagi bank xizmatlarining narxi bank hisobvarag'i shartnomasida belgilab qo'yilmagan hollarda xizmatlar uchun to'lanadigan haq FKning 356-moddasiga muvofiq belgilanadi. Bankning xizmatlari uchun ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan haq, agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank tomonidan har oyning oxirida mijozning hisobvarag'ida turgan pul mablag'laridan undirib olinadi.

Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank hisobvaraqa turgan pul mablag'laridan

foydalanganligi uchun mijozga foizlar to'laydi, ularning summasi hisobvaraqqa kiritib qo'yiladi. Ko'rsatilgan foizlar bank tomonidan bank hisobvarag'i shartnomasida belgilanadigan miqdorda, shartnomada tegishli shartlar nazarda tutilmagan taqdirda esa, odatda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar yuzasidan to'laydigan miqdorda to'lanadi. Foizlar summasi bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, bunday muddatlar bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilmagan hollarda esa, yilning har choragi tamom bo'lgach, hisobvaraqqa kiritib qo'yiladi.

Bankning hisobvaraqqi kreditlash hamda bank xizmatlari uchun haq to'lash bilan bog'liq holda mijoz oldiga qo'yiladigan pul talablari, shuningdek, mijozning pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar to'lash haqida bank oldiga qo'yadigan talablari, agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bir-birlarining talablarini hisobga olish yo'li bilan bekor qilinadi. Ko'rsatilgan talablar bank tomonidan hisobga olinib, u talablar hisobga olinganligi to'g'risida mijozga bank hisobvarag'i shartnomasida belgilab qo'yilgan tartibda va muddatlarda, bordi-yu, tegishli shartlarni taraflar kelishib olishmagan bo'lsa, banklar, odatda, tegishli hisobvaraqdagi pul mablag'larining holati to'g'risida mijozlarga axborot beradigan tartibda va muddatlarda axborot berishi shart.

Bank hisobvaraqqdan pul mablag'larini mijozning topshirig'i asosida o'chiradi. Mijozning topshirig'isiz hisobvaraqda turgan pul mablag'larini o'chirishga sudning qarori bilan, shuningdek, FKda yoki boshqa qonunda belgilab qo'yilgan yoxud bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Hisobvaraqda unga qo'yilgan hamma talablarni qanoatlantirish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari bo'lsa, bu mablag'larni hisobvaraqqdan o'chirish mijozning farmoyishlari va o'chirish uchun boshqa hujjatlar tushgan tartibda (kalendar navbat), agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, amalga oshiriladi. Hisobvaraqdagi pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, pul mablag'lari quyidagi navbatda o'chiriladi:

— birinchi navbatda mutanosib ravishda budjetga, budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni hamda ish haqi to'lash uchun pul mablag'lari berilishini nazarda tutuvchi to'lov (ijrochi) hujjatlari bo'yicha, alimentlarni undirishga doir talablarni qondirish uchun hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish yoki pulni berishni nazarda tutuvchi ijrochi hujjatlar bo'yicha, mualliflik shartnomalariga binoan mukofotlarni to'lash bo'yicha, shuningdek, hayoti va salomatligiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash bo'yicha, budjetga to'lovlar bo'yicha hamda mehnatga oid va unga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan to'lovlar bo'yicha xo'jalik subyektlarining majburiyatlari teng darajada bajarilishini ta'minlovchi ijrochi hujjatlar bo'yicha pul o'chiriladi;

— ikkinchi navbatda boshqa pul talablarini qondirishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha pul o'chiriladi;

— uchinchi navbatda boshqa to'lov hujjatlari bo'yicha kalendar navbat tartibida pul o'chiriladi.

Bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarga pul mablag'larini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda hisobdan chiqarish, kalendar navbat tartibidan tashqari navbatda amalga oshiriladi. Mijozga kelgan pul mablag'lari hisobvaraqqa o'z vaqtida kiritib qo'yilmagan yoki bank hisobvaraqdan mablag'larni asossiz ravishda o'chirgan hollarda bank mijozning talabi bilan tegishli summani darhol hisobvaraqqa kiritib qo'yishi shart. Bank o'z vaqtida kiritilmagan yoki asossiz o'chirilgan summaga FKning 327-moddasiga muvofiq, foizlar to'lashi va zararning o'rnini qoplashi ham shart. Bank hisobvaraqdan mablag'larni o'z vaqtida bermaganligi va mijozning hisobvaraqdan mablag'larni o'tkazish haqidagi farmoyishlarini o'z vaqtida bajarmaganligi uchun ham javobgar bo'ladi.

Banklar bank hisobvarag'i va bank omonati, hisobvaraqq bo'yicha operatsiyalar hamda mijoz haqidagi ma'lumotlar sir saqlanishini kafolatlaydi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat mijozlarning o'zlariga yoki ularning vakillariga berilishi mumkin. Davlat organlariga va ularning mansabdor shaxslariga bunday

ma'lumotlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda berilishi mumkin. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bank tomonidan oshkor qilingan taqdirda, huquqlari buzilgan mijoz keltirilgan zararning o'rnini qoplashni bankdan talab qilishga haqli.

Mijozning hisobvaraqa turgan pul mablag'larini tasarruf qilish huquqlarini cheklashga yo'l qo'yilmaydi, hisobvaraqa turgan pul mablag'larini xatlash yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno. Bank hisobvarag'i shartnomasi mijozning arizasiga muvofiq, istalgan vaqtda bekor qilinadi. Bankning talabiga ko'ra, bank hisobvarag'i shartnomasi quyidagi hollarda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin:

— mijozning hisobvarag'ida saqlanayotgan pul mablag'lari summasi bank qoidalarida yoki shartnomada ko'zda tutilgan eng kam miqdordan oz bo'lsa, agar bunday summa bank bu haqda ogohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa;

— agar shartnomada boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu hisobvaraqa bo'yicha bir yil davomida operatsiyalar qilinmagan bo'lsa.

Hisobvaraqdagi pul mablag'lari qoldig'i mijozning tegishli yozma arizasi olinganidan keyin kechi bilan yetti kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqa o'tkaziladi. Bank hisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi mijoz hisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Bank omonati shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va shakli.
2. Qanday omonat turlarini bilasiz?
3. Bank hisobvarag'i shartnomasi tushunchasi, shakli va huquqiy belgilari.
4. Naqd pullar bilan va naqd pulsiz hisob-kitob qilish qanday amalga oshiriladi?

45-BOB. VOSITACHILIK SHARTNOMASI

1-§ Vositachilik shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilari

Vositachilik shartnomasi sanab o'tilgan shartnomalarga tegishli bo'lib, yuridik xizmat hisoblanadi. Uning yordamida mol-mulkni pulli realizatsiya qilishga doir kelishuvlar amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, u savdo vositachiligi munosabatini rasmiylashtiradi. Professional savdo vositachisi (vositachi) ishtiroki sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) va sotib oluvchi (iste'mol qiluvchi) likdan va yana kontragentlarni topish ular bilan tuzilgan kelishuvlarni rasmiylashtirish va bajarishdan ham ozod etadi. Masalan, xalqaro savdo munosabatlarida ishlab chiqaruvchilar (eksportor) yoki iste'mol qiluvchilar (importor) xalqaro kontragentlar bilan oldi-sotdi ishlarida xalqaro bozorda vositachi vositachiligida ish ko'radilar.

Vositachilik shartnomasiga ko'ra, bir tomon (vositachi) ikkinchi tomon hisobiga (komitentga) haq evaziga o'zi nomidan bir necha kelishuvlarni amalga oshiradi (FKning 832-moddasi). Vositachilik shartnomasi o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra konsensual, ikki tomonlama va haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Vositachining asosiy majburiyati komitent hisobiga savdo-sotiq kelishuvlarini tuzishdan iborat. Bu holatda vositachi kelishuvning bajarilishi uchun emas, balki haqiqiyliги uchun javob beradi. Agar uchinchi tomondan olingan tovar uchun komitentga to'lanadigan haq muddati o'tib ketsa, kelib chiqqan zarar uchun vositachi komitent oldida javobgar bo'ladi. Vositachi quyidagi ikki holatda uchinchi shaxs bilan tuzilgan kelishuv amalga oshmasa, komitent oldida javobgar bo'ladi. Bular:

— kontragentni tanlay olmaganida (uchinchi shaxsning yuridik shaxs ekanligini yoki u bankrot deb e'lon qilinganligini bilma-ganligi);

— vositachi shartnoma shartlarida qo'shimcha rag'batlantirishlar uchun uchinchi shaxs bilan tuzilgan kelishuvning bajarilishiga kafil bo'lganda (delkrederelik holati).

Bu shartnomada komitentning majburiyatlaridan biri vositachiga haq to'lashdir. Lekin bu haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan shart vositachilik shartnomasi shartlariga kirmaydi. Shartnoma shartlariga ko'ra delkrederelik uchun komitent vositachiga qo'shimcha haq to'lashga majbur. Shuningdek, vositachining topshirig'ini bajarish bilan bog'liq chiqimlarni qoplashga ham majbur.

Fuqarolik muomalasining kengayishi natijasida vositachilik shartnomasining turli xillari qo'llanilmoqda. FKning 832-modda-siga ko'ra vositachilik shartnomasi:

— muayyan muddatga yoki amal qilish muddati ko'rsatilmagan holda;

— qaysi hududda bajarilishi ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan holda;

— komitent vositachiga topshirgan komitentning manfaatlarini ko'zlab va uning hisobidan bitim tuzish huquqini uchinchi shaxslarga bermaslik haqida majburiyat olgan holda yoki bunday majburiyatni olmagan holda;

— vositachilik narsasi bo'lgan tovarlarning assortimenti xususida shartlar qo'yilgan yoki qo'yilmagan holda tuzilishi mumkin.

Vositachilik shartnomasi quyidagi xususiyatlari bilan topshiriq shartnomasidan farq qiladi:

1. Vositachilik shartnomasiga muvofiq, vakil topshiriq beruvchi nomidan yuridik harakatlarni amalga oshirsa, vositachi faqatgina bir yoki bir necha bitimni tuzish huquqiga ega bo'ladi.

2. Vakil topshiriq beruvchi nomidan huquqiy munosabatlarda ishtirok etsa, vositachi o'z nomidan qatnashadi.

3. Topshiriq shartnomasi tekinga tuzilishi mumkin, vositachilik shartnomasi esa har doim haq evaziga tuziladi.

Vositachilik shartnomasiga muvofiq, komitent vositachiga shartnomada ko'zda tutilgan haqni to'lashi lozim. Vositachi bitimning

uchinchi shaxs tomonidan bajarilishi uchun kafolatni o'z zimmasiga olgan (delkredere) hollarda esa shartnomada belgilangan miqdorda qo'shimcha haq ham to'lashi shart. Shartnomada bu miqdor nazarda tutilgan bo'lmasa va u shartnomaning shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin bo'lmasa, haq miqdori FKning 356-moddasida belgilangan shartnoma bahosini aniqlash qoidalariga muvofiq belgilanadi. Vositachilik shartnomasi komitentga bog'liq sabablar bilan bajarilmaganida, vositachi vositachilik haqiga, shuningdek, qilingan xarajatlarning qoplanishiga bo'lgan huquqini saqlab qoladi.

Vositachi uchinchi shaxs bilan o'zi tuzgan bitimdan kelib chiqadigan hamma majburiyatlarni bajarishi va hamma huquqlarni amalga oshirishi lozim. Vositachi o'z zimmasiga olgan topshiriqni komitentning ko'rsatmalariga muvofiq, vositachilik shartnomasida bunday ko'rsatmalar bo'lmaganda esa, ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq komitent uchun eng foydali shartlar asosida bajarishi kerak. Agar vositachi bitimni komitent ko'rsatganidan ham foydaliroq shartlar asosida tuzgan bo'lsa, qo'shimcha foyda, basharti, shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflar o'rtasida baravar taqsimlanadi.

Vositachi bitimning ijrosi uchun komitentga kafolat bergan (delkredere) hollarda u vositachilik shartnomasida kelishilgan miqdorda qo'shimcha haq olish huquqiga ega bo'ladi. Komitent hisobidan uchinchi shaxs bilan tuzilgan bitim uchinchi shaxs tomonidan bajarilmaganligi uchun vositachi komitent oldida javobgar bo'lmaydi, vositachi ushbu shaxsni tanlashda zarur ehtiyotkorlik qilmagan yoki bitimning bajarilishiga kafolat bergan (delkredere) hollar bundan mustasno.

Vositachi uchinchi shaxs bilan tuzgan bitimni uchinchi shaxs bajarmagan taqdirda, vositachi bu haqda darhol komitentga xabar berishi, zarur dalil-isbotlarni to'plashi va ta'minlashi, shuningdek, komitentning talabiga ko'ra bunday bitim yuzasidan huquqlarni, talablarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi qoidalarga rioya qilgan holda unga topshirishi shart. Vositachilik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, vositachi vositachilik shartnomasini

bajarish maqsadida boshqa shaxs bilan qo'shimcha vositachilik shartnomasi tuzishga haqli bo'lib, qo'shimcha vositachining harakatlari uchun komitent oldida javobgar bo'lib qolaveradi. Qo'shimcha vositachilik shartnomasi bo'yicha vositachi qo'shimcha vositachiga nisbatan komitent huquqlari va majburiyatlariga ega bo'ladi.

Qonun biron-bir bitimni faqat maxsus vakil qilingan shaxslar bilan tuzishga yo'l qo'yadigan hollarda qo'shimcha vositachilik shartnomasi faqat ana shunday shaxs bilangina tuzilishi mumkin. Agar vositachilik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, vositachilik shartnomasi bekor qilingunga qadar komitent vositachining roziligisiz qo'shimcha vositachi bilan bevosita munosabatlarga kirishish huquqiga ega emas. Vositachi sotadigan mol-mulkning bahosi, agar qonun hujjatlarida yoki vositachilik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, komitent bilan kelishgan holda belgilanadi.

Vositachi komitentning ko'rsatmalaridan FKning 819-moddasida nazarda tutilgan hollarda chetga chiqishga haqli. Mol-mulkni komitent bilan kelishilgan narxdan arzon sotgan vositachi mol-mulkni kelishilgan narxda sotish imkoniga ega bo'lmaganligini va arzon narxda sotish natijasida yana ham ko'proq zararining oldi olinganligini isbot qilib bermasa, oradagi farqni komitentga to'laydi. Vositachi komitentdan ruxsat so'rashi shart bo'lgan hollarda u komitentning ko'rsatmalaridan chetga chiqishga komitentning roziligini oldindan olish imkoniyatiga ega bo'lmaganligini ham isbot qilishi lozim. Vositachi mol-mulkni komitent bilan kelishilgandan yuqoriroq narxda sotib olgan bo'lsa, bunday xaridni qabul qilishni istamagan komitent vositachidan uchinchi shaxs bilan bitim tuzilganligi haqida bildirish olganidan keyin oqilona muddatda bu haqda vositachiga ma'lum qilishi shart. Aks holda xarid komitent tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi. Vositachi narxdagi farqni o'zi to'lashini ma'lum qilsa, komitent o'zi uchun tuzilgan bitimdan bosh tortishga haqli emas. Komitentdan vositachiga o'tgan yoki vositachi komitent hisobidan sotib olgan ashyolar komitentning mulki bo'ladi.

Vositachi o'z ixtiyoridagi komitent mol-mulkining yo'qolishiga, yetishmasligiga yoki shikastlanishiga olib kelgan har qanday kamchilik uchun komitent oldida javobgar bo'ladi. Vositachi komitent yuborgan yoki vositachiga komitent uchun kelgan mol-mulkni qabul qilib olayotganida bu mol-mulkda tashqaridan ko'zdan kechirganda sezib qolinishi mumkin bo'lgan shikastlanish yoki yetishmovchilik mavjud bo'lsa, shuningdek, komitentning vositachi qo'lida turgan mol-mulkiga biron-bir shaxs zarar keltirgan taqdirda vositachi komitentning huquqlarini himoya qilish choralarini ko'rishi, zarur dalil-isbotlarni to'plashi va ularning barchasi haqida darhol komitentni xabardor qilishi shart.

O'z ixtiyoridagi komitentning mol-mulkini sug'urtalamagan vositachi buning uchun faqat komitent unga mol-mulkni komitent hisobidan sug'urtalashni buyurgan yoki vositachining bu mol-mulkni sug'urtalashi vositachilik shartnomasida yoki ish muomalasi odatlarida nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'ladi.

Komitent:

— vositachilik shartnomasi bo'yicha ijro etilgan hamma narsani vositachidan qabul qilishi;

— o'zi uchun vositachi tomonidan sotib olingan mol-mulkni ko'zdan kechirishi va ushbu mol-mulkda aniqlangan kamchiliklar to'g'risida darhol vositachini xabardor qilishi;

— vositachini vositachilik topshirig'ini bajarish yuzasidan uchinchi shaxs oldida o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan ozod qilishi shart.

Komitent vositachilik haqini, shuningdek, delkredere uchun qo'shimcha haqni ham to'lashdan tashqari, vositachilik topshirig'ini bajarish yuzasidan vositachi sarflagan summalarni ham unga to'lashi lozim. Qonun hujjatlarida yoki vositachilik shartnomasida boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, vositachi o'z ixtiyorida bo'lgan komitentning mol-mulkini omonat saqlash yuzasidan qilgan xarajatlari qoplanishiga haqli emas.

Komitent vositachiga bergan topshirig'ini istagan vaqtida bekor qilib, vositachilik shartnomasini bajarishdan bosh tortishi mumkin. Bunda vositachining topshiriq bekor qilinishi munosabati bilan

ko'rgan zarari umumiy asoslarda qoplanadi. Vositachilik shartnomasi amal qilish muddati ko'rsatilmagan holda tuzilgan taqdirda komitent shartnomani bekor qilishi haqida, agar shartnomada xabar qilishning uzoqroq muddati nazarda tutilgan bo'lmasa, kamida o'ttiz kun oldin vositachini xabardor qilishi shart. Bunda komitent vositachiga u shartnoma bekor qilinguncha tuzgan bitimlar uchun haq to'lashi, shuningdek, vositachi shartnoma bekor bo'lgunicha qilgan xarajatlarni to'lashi lozim. Topshiriq bekor qilingan taqdirda komitent vositachi ixtiyoridagi o'z mol-mulkini vositachilik shartnomasida belgilangan muddatda, bordi-yu bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, darhol tasarruf etishi shart. Agar komitent bu majburiyatni bajarmasa, vositachi mol-mulkni komitent hisobidan saqlab qo'yishga topshirishga yoki uni komitent uchun iloji boricha foydali bahoda sotishga haqli.

Vositachilik shartnomasida o'zga holat belgilanmagan bo'lsa, vositachi shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Shartnoma amal qilish muddati ko'rsatilmasdan tuzilganda vositachi komitentga kamida o'ttiz kun oldin xabar berib shartnomadan bosh tortishga haqli.

Vositachi komitent tomonidan o'ziga topshirilgan mol-mulki saqlanishini ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishi kerak. Vositachi topshiriqni bajarishdan bosh tortayotganligi haqida xabardor qilingan komitent vositachining topshiriqni bajarishdan bosh tortayotganligi haqida bildirishnoma olgan kundan e'tiboran, agar shartnomada boshqa muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kun ichida vositachi ixtiyoridagi o'z mol-mulkini tasarruf etishi shart. Agar komissioner ushbu majburiyatni bajarmasa, vositachi yo mol-mulkni saqlab qo'yishga topshirishi yoki uni komitent uchun iloji boricha foydali bahoda sotishi mumkin.

Vositachilik shartnomasida o'zga holat belgilanmagan bo'lsa, topshiriqni bajarishdan bosh tortgan vositachi shartnoma bekor qilinguncha o'zi tuzgan bitimlar uchun vositachilik haqi olishga, shuningdek, shu paytgacha qilgan xarajatlarining qoplanishiga bo'lgan huquqini saqlab qoladi. Vositachilik shartnomasi: komitent shartnomani bajarishdan bosh tortganligi; vositachi shartnomani

bajarishdan bosh tortganligi; vositachi vafot etganligi, u muomalaga layoqatsiz, layoqati cheklangan, bedarak yo'qolgan yoki nochor deb topilganligi oqibatida bekor qilinadi.

Komitent muddati ko'rsatilmay tuzilgan vositachilik shartnomasini bajarishdan istagan vaqtda bosh tortishga haqli bo'lib, bu haqda vositachini, agar shartnomada uzoqroq muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, kamida o'ttiz kun oldin xabardor qiladi. Bunday holda komitent vositachilik shartnomasi bekor qilingunga qadar tuzgan bitimlari uchun vositachiga haq to'lashi, shuningdek, vositachi shartnoma bekor bo'lguncha qilgan xarajatlarni unga to'lashi shart.

Komitent vositachilik shartnomasini bajarishdan bosh tortgan taqdirda FKning 844-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishi shart. Vositachi muddati ko'rsatilmadan tuzilgan vositachilik shartnomasini bajarishdan istagan vaqtda bosh tortishga haqli bo'lib, bu haqda komitentni, agar xabardor qilishning uzoqroq muddati shartnomada ko'zda tutilgan bo'lmasa, o'ttiz kundan kechiktirmasdan xabardor qiladi.

Bunday holda vositachi o'z ixtiyoridagi komitentning mol-mulki to'liq saqlanishi uchun choralar ko'rishi shart. Komitent vositachilik shartnomasi bekor bo'lgunicha vositachining ixtiyoridagi mol-mulkni tasarruf qilishi shart. Agar u mana shu majburiyatni bajarmasa, vositachi yo mol-mulkni komitent hisobidan omonat saqlashga topshirishga yoki uni komitent uchun mumkin qadar foydali bahoda sotishga haqli.

Vositachilik shartnomasini bajarishdan bosh tortgan vositachi vositachilik haqini olish hamda shartnoma bekor bo'lgan paytda o'ziga tegishli bo'ladigan xarajatlarni undirib olish huquqiga ega. Fuqaro vafot etgan yoki vositachi yuridik shaxs tugatilgan taqdirda vositachilik shartnomasi bekor qilinadi.

Vositachi yuridik shaxs qayta tashkil etilganida uning vositachi sifatidagi huquq va majburiyatlari, basharti, qayta tashkil etish yuz berganligi haqidagi ma'lumotni olgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida komitent shartnomani bekor qilganligi haqida xabar bermasa, qonuniy vorislarga o'tadi. Komitent fuqaro vafot etgan,

u muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb topilgan taqdirda, shuningdek, komitent yuridik shaxs tugatilgan taqdirda vositachi o'ziga berilgan topshiriqni komitentning merosxo'rlaridan yoki huquqiy vorislaridan (vakillaridan) tegishli ko'rsatmalar kelguncha bajarib turishi shart.

Nazorat savollari

1. Vositachilik shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari.
2. Vositachilik shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlari.
3. Vositachilik shartnomasining qanday shakllari mavjud?
4. Vositachi komitentning ko'rsatmalaridan chetga chiqa oladimi?

46-BOB. SUG'URTA

1-§. Sug'urta tushunchasi

Sug'urta munosabatlari fuqarolik huquqining o'ziga xos munosabatlari hisoblanadi. Sug'urta fuqarolar va yuridik shaxslarning badallari hisobiga tashkil topadigan va bir tashkilot boshqaruvida bo'lgan pul mablag'lari hisobidan sug'urta qildiruvchining mulkiy yo'qotishlari va boshqa zararlari o'rnini qoplashga qaratiladi. Boshqacha aytganda, sug'urta bir shaxs ko'rgan zararni boshqa shaxslar hisobidan qoplash sifatida tushuniladi.

Sug'urta munosabatlarida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi ishtirok etadi. Sug'urtalovchi sifatida turli xildagi sug'urta kompaniyalari, sug'urta fondlari va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya olgan boshqa tashkilotlar ishtirok etadilar. Sug'urta qildiruvchi sifatida o'zining mulkiy va shaxsiy manfaatlarini muayyan badallar to'lash orqali sug'urta qildiradigan fuqarolar va mulkiy manfaatlari, tadbirkorlik faoliyatida xavf va fuqarolik-huquqiy javobgarlikni sug'urta qildiradigan yuridik shaxslar ishtirok etishadi.

Sug'urta shartnomasi ikki tomonlama, *konsensual va haq haravariga* tuziladigan shartnoma hisoblanadi. Sug'urta amalga oshirilish shakliga ko'ra *ixtiyoriy va majburiy* sug'urtaga bo'linadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yoxud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug'urta qilish (majburiy sug'urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug'urta shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga

soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi lozim.

Qonunda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini davlat budjeti mablag'lari hisobidan majburiy sug'urta qilish hollari (davlat majburiy sug'urtasi) nazarda tutilishi mumkin. Sug'urta majburiyatlari qanday obyekt sug'urta qilinishiga ko'ra *mulkiy* va *shaxsiy sug'urta* shartnomalariga bo'linadi.

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq, bir taraf (sug'urta-lovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'voni to'lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin:

- muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

- fuqarolik javobgarligi xavfi — boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek, shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

- tadbirkorlik xavfi — tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra, bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

G'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi. Qimor, lotereyalar va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi. Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

Mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo'lgan shaxs (sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol-mulkka nisbatan boshqa ashyoviy huquqqa ega bo'lgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqlovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalangan mol-mulkning asralishidan sug'urta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat bo'lmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi haqiqiy emas. Naf oluvchi foydasiga mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi ko'rsatilmadan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda, sug'urta qildiruvchiga egasining nomi ko'rsatilmagan polis beriladi. Bunday shartnoma bo'yicha huquqlarni amalga oshirishda bu polisni sug'urtalovchiga taqdim etish zarur.

Boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi o'zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfi sug'urtalangan shaxs sug'urta shartnomasida ko'rsatilishi lozim. Agar bu shaxs shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalangan hisoblanadi. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi, hatto shartnoma zarar yetkazilganligi uchun javobgar bo'lgan sug'urta qildiruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud shartnomada u kimning foydasiga tuzilgani ko'rsatilmagan taqdirda ham, zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuzilgan deb topiladi.

Zarar yetkazganlik uchun javobgarlik uni sug'urta qilish majburiy bo'lgani sababli sug'urtalangan taqdirda, shuningdek, qonunda yoki bunday javobgarlikni sug'urta qilish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda sug'urta shartnomasi o'z foydasiga tuzilgan deb hisoblanuvchi shaxs zararni sug'urta puli doirasida to'lash to'g'risida bevosita sug'urtalovchiga talab qo'yishga haqli.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchi o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo'lmagan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi, bu shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo'lsa, o'sha taraf — naf oluvchi foydasiga, hatto sug'urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham, sug'urtalangan hisoblanadi.

Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'z tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sug'urtalanishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchi o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs) ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqt-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi. Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar, deb tan olinadi.

Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan, sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Qonunda quyidagilarni sug'urta qilish majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin:

— qonunda ko'rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulki, ularning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib;

— boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zining fuqaroviy javobgarligi xavfi.

Sug'urta qildiruvchi bo'lish majburiyati qonun bilan unda ko'rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi. Qonunda majburiy sug'urtaning boshqa turlari ham belgilanishi mumkin. Fuqaroga o'z hayoti yoki sog'lig'ini sug'urtalash majburiyati qonun bilan yuklatilishi mumkin emas.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslarga bu mulkni sug'urtalash majburiyati yuklanadi. Mol-mulkni sug'urta qilish majburiyati qonundan kelib chiqmaydigan, balki mol-mulkning egasi bilan tuzilgan shartnomaga yoki mol-mulkning mulkdori hisoblanuvchi yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga asoslangan hollarda, bunday sug'urta ushbu moddaning ma'nosi jihatidan majburiy hisoblanmaydi va FKning 924-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Majburiy sug'urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug'urta qildiruvchi) sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasi tuzishi vositasida amalga oshiriladi. Majburiy sug'urta sug'urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi, yo'lovchilarni majburiy sug'urtalash

bundan mustasno bo'lib, bu sug'urta qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning o'z hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar, ular sug'urtalanishga sabab bo'ladigan xavflar va sug'urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Qonun bo'yicha foydasiga majburiy sug'urta amalga oshirilishi lozim bo'lgan shaxs, agar sug'urta amalga oshirilmagani unga ma'lum bo'lsa, sug'urta qildiruvchi sifatida zimmasiga sug'urtalash majburiyati yuklangan shaxs uni amalga oshirishini sud tartibida talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi sifatida sug'urtalash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs uni amalga oshirmagan bo'lsa yoki sug'urta shartnomasini naf oluvchining ahvolini qonunda belgilangan shartlarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarda tuzgan bo'lsa, u sug'urta hodisasi yuz berganida, hasharti, tegishlicha sug'urtalangan taqdirda sug'urta to'voni to'lashga asos bo'lishi kerak bo'lgan shartlarda javobgar bo'ladi.

Sug'urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Sug'urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiyasi) ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yoxud sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda, birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi. Sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida turlari bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) ning o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llashga haqli.

Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug'urtalash sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug'urta shartnomasi — bosh polis

asosida amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning har bir turkumi to'g'risida sug'urtalovchiga bunday polisda shartlashilgan ma'lumotlarni unda nazarda tutilgan muddatda, agar muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, ular olinganidan keyin darhol xabar qilishi shart. Agar hatto bunday ma'lumotlarni olish paytigacha sug'urtalovchi to'lashi lozim bo'lgan zarar ko'rish ehtimoli o'tib ketgan bo'lsa ham, sug'urta qildiruvchi bu majburiyatdan ozod bo'lmaydi.

Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning alohida turkumlari bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart. Sug'urta polisining mazmuni bosh polisga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urta obyekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;

- yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi) ning xususiyati to'g'risida;

- sug'urta puli miqdori to'g'risida;

- sug'urta to'voni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;

- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;

- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib, sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi) ning xususiyati to'g'risida;

- sug'urta puli miqdori to'g'risida;

— sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

— shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. Sug'urta tushunchasi va uning ahamiyati.
2. Mulkiy sug'urta shartnomasi va uning predmeti.
3. Sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydigan manfaatlar deganda nimaning tushunasi?
4. Shaxsiy sug'urta shartnomasi.
5. Sug'urta amalga oshirilish shakliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
6. Bosh sug'urta polisi.
7. Qo'shimcha, qo'shaloq va ikki tomonlama sug'urta.
8. Sug'urta puli va tovonni to'lashdan ozod qilish asoslari.

47-BOB. ZARAR YETKAZISHDAN KELIB CHIQADIGAN MAJBURIYATLAR

1-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tushunchasi

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Bu majburiyatlar shartnomaviy munosabatlardan tashqari, shaxsga yoki mulkka g'ayriqonuniy xatti-harakat natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga qaratilgan.

Kishilarning bir-biri bilan doimiy ravishda o'zaro munosabatlarida ba'zan ularning moddiy yoki nomoddiy manfaatlariga zarar yetish oqibatlarini keltirib chiqaradi. Bu zararlar turli tasodiflar, ehtiyotsizlik, qasd orqali, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladi. Shunday holatda yetkazilgan zarar kim tomonidan to'lanishi lozimligi aniqlanishi, ya'ni zarar yetkazgan shaxs yoki jabrlangan yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'lanishi masalasi yuzaga keladi.

Hozirgi vaqtda yuridik va jismoniy shaxslar kutilmagan zararlardan himoyalaniish maqsadida sug'urta xizmatidan foydalanishga harakat qilishmoqda. Ko'p holatlarda jabrlanuvchilar tomonidan, zarar yetkazilgan vaqtdan boshlab, uning oldini olish choralari ko'rish hollari uchrayapti. Biroq har doim ham, hatto nafaqa bilan ta'minlash munosabatida ham, yetkazilgan zararni to'liq qoplash imkoniyatiga ega bo'lish uchun to'la kafolatga erishila olmaydi.

Shuni ham aytish mumkinki, odatda, zarar yetkazilgan holatlarda, bunday zararlar kimga yoki qanday ma'nodagi zararlar bo'lishidan qat'i nazar, bunday oqibatlarni muayyan huquqiy institutlar (sug'urta, pensiya ta'minotlari va h.k.) yordamida o'rini

qoplashga erishib bo'lmaydi. Bunday zararlarni unumli va samarali qoplash, asosan, o'zaro turli huquqiy vositalar orqali ular orasida majburiyatlarning mavjudligi yaqqol ko'rinishi bilan oq amalga oshirilishi mumkin.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning qanday belgilari mavjud? Ushbu majburiyatlarning belgilari, asosan, moddiy va shaxsiy nomoddiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Vaholanki, zararni qoplash, xususan, moddiy munosabatlarda ko'rinadi. Ikkinchidan, ular mutlaq xarakterga ega bo'lgan mulkiy-huquqiy huquqbuzarliklar (egalik huquqi, vorislik huquqi, xo'jalik yuritish, operativ boshqarish va h.k.) yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlar (hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati, ishchanlik obro'si va h.k.) oqibatida ro'y beradi. Uchinchidan, mutlaq huquqbuzarlik natijasidagi majburiyat noshartnomaviy xususiyatga ega bo'lgan huquq bo'lib, bunday huquqdagi shaxslardan biri, ya'ni jabrlanuvchi shartnomaviy munosabatlarda ishtirok etgan bo'ladi.

Zarar yetkazilishi natijasida ushbu zararining qoplanishi yuzasidan majburiyat yuzaga kelib, majburiyatlar taraflar (kreditor va qarzdor), munosabatlar (huquq va taraflar majburiyati) va predmetlar bilan qiyofalanadi. Majburiyatlarni amalga oshirish, bunday majburiyatlar fuqarolik-huquqiy va boshqa huquqiy javobgarlik bo'lishidan qat'i nazar, muhofazalanadigan huquqiy munosabatlarda amalga oshiriladi. Vaholanki, bunday huquqiy munosabatlarda huquqqa ega shaxs (kreditor), shuningdek, majburiyatga ega shaxs (qarzdor) ishtirokchidir. Bunday huquqiy munosabatlar, asosan, mutlaq huquqbuzarlik natijasida yuz beradi (egalik huquqi, yashash huquqi, sha'ni va qadr-qimmati va h.k.). Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatda kreditor unga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega bo'lsa, qarzdor yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Majburiyatda subyektiv tarkibning o'zgarish holatlari uchrashi mumkin. Bunda taraflardan kreditor yoki qarzdorning ushbu huquqiy munosabatda almashinishi misol bo'la oladi. Bunday almashinish, asosan, subrogatsiya va regress munosabatlarda uchraydi. Bunday almashinish boshqa hodisalarda ham o'rin tutishi

mumkin, ya'ni vorislik huquqida ham. Bunda shaxsning mulkiga yetkazilgan zarar uchun undiruvchisi yoki javobgar vafot etgan bo'lib, zararni undirish imkoni bo'lmaganda, ularning o'rniga zararni yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda kreditor yoki undiruvchi sifatida ularning vorislari qatnashishi mumkin.

Zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan majburiyatlarda subyektiv almashinuvi masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Shuni aytish lozimki, zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan majburiyatlarda ham yuridik shaxslar yoki boshqa jamoat tashkilotlari ham o'rin tutishi mumkin. Unda ular ham zarar yetkazuvchi yoki jabrlanuvchi sifatida ishtirok etadilar. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning faoliyati turli xil xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. U operativ-xo'jalik, ijtimoiy-madaniy, oddiy va tevarak-atrofga bog'liq bo'lgan xavf-xatarli faoliyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq ular qanday faoliyat bo'lishidan qat'i nazar, barcha hodisalarda mehnat (xizmat, lavozimdagi) majburiyatlar yuklatilgan o'zining xodimlari, ishtirokchilari va a'zolarining qilmishlari (harakat yoki harakatsizlik sifatida) orqali ifodalanadi. Agar yuqoridagi shaxslarga muayyan harakatni bajarish majburiyati yuklatilgan bo'lsa-da (masalan, atrof-muhit va insonlar sog'lig'iga zarar yetkazayotgan korxona xatti-harakatining oldini olish choralarini ko'rmaslik), lekin ular bu harakatlarni amalga oshirmasa, bunda ish bu korxonaning harakatsizligi natijasida kelib chiqqan zarar hisoblanadi.

Agarda ma'lum bir shaxsning sodir etgan harakati (harakatsizligi) natijasida zarar yetkazilgan bo'lib, ushbu harakat tashkilotga aloqador bo'lmasa, unda yetkazilgan zarar bevosita kim tomonidan yetkazilgan bo'lsa, shu shaxs tomonidan qoplash majburiyati yuklatiladi.

Misol tariqasida:

1. Xodim ishlab chiqarishga daxli bo'lmagan patronlarni tashkilotga keltiradi. Patronni sinov plitasida portlatib ko'radi. Shu portlash natijasida patron parchalari boshqa bir xodimning ko'zi jarohatlanishiga olib keladi. Bunda xodimning harakatlari uning mehnat majburiyatlaridan tashqarida bo'lgan harakat hisoblanadi hamda bu harakatlarning tashkilotga hech qanday daxli bo'lmaydi.

Bunday zarar uchun faqatgina bevosita ushbu harakatlarni sodir qilgan shaxs javobgar bo'ladi.

2. Elektrokara boshqaruvchi xodim texnika xavfsizligi qoidalarini buzishi natijasida boshqa bir xodimni elektrokara bilan bosib, uning o'limiga sababchi bo'lgan. Marhumning qaramog'ida ikki nafar voyaga yetmagan farzandlari borligi hamda ular boquvchisini yo'qotganligi bois tashkilotga nisbatan da'vo arizasi bilan murojaat qilingan. Bunday holatda xodimning harakati bilan tashkilot yetkazilgan zarar uchun o'z zimmasiga zararni qoplash majburiyatini oladi. Elektrokarani boshqargan xodim tashkilot tomonidan regress tartibida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Regress tartibida zararni undirish to'liq yoki qisman amalga oshirilishi mumkin.

Ayrim hollarda zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda tomonlar bir necha kishidan tashkil topishi mumkin bo'lib, ular qarzdor yoki kreditor sifatida ishtirok etishlari mumkin. Bunday majburiyatlar turli xildagi aralash majburiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Birgalikdagi majburiyatlar ulushli yoki solidar tartibda yetkazilgan zararni qoplash uchun qo'llanilishi mumkin. Masalan, agarda bir necha voyaga yetmagan shaxslar tomonidan zarar yetkazilgan bo'lsa, unda yetkazilgan zarar voyaga yetmagan shaxslar uchun javobgar tashkilotlar yoki shaxslardan solidar tartibda emas, balki ulushli subsidiar tartibda jabrlanuvchi foydasiga undiriladi. Bu holat voyaga yetmagan shaxslarning o'z harakatlari bilan yetkazilgan zarar uchun javob bera olmagan paytda qo'llanilishi mumkin.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning predmeti (obyekti) — kreditorga yetkazilgan zarar oqibatida uning manfaati uchun moddiy yoki shaxsiy nomoddiy zararining o'rnini qoplash maqsadida qarzdorning harakati hisoblanadi.

2-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat shartlari

Zararning o'zi zararni yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarda zaruriy shart hisoblanadi. Chunki ijtimoiy munosabatlarda

zarar mavjud bo'lmaz ekan, zararni qoplash yoki undirish majburiyatini keltirib chiqarmaydi.

Zarar faqat muayyan ziyonlar shaklida ifodalansagina mulkiy zarar qatorida ko'riladi. Zarar jabrlangan shaxsga qarashli bo'lgan ashyolarni nobud qilish, zararlantirish yoxud o'g'irlash natijasida kelib chiqishi mumkin. Zarar tushunchasi deganda, muayyan shaxsning huquq bilan qo'riqlanadigan shaxsiy nomulkiy yoki mulkiy manfaatining yo'qolishi yoki kamaytirilishi tushuniladi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni qo'llash uchun quyidagi asoslar mavjud bo'lishi lozim:

- mulkiy zarar bo'lishi;
- zarar yetkazuvchi xatti-harakatining qonunga xilof bo'lishi;
- qonunga xilof harakat va harakatsizlik o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi;
- zarar yetkazgan shaxsning aybi bo'lishi kerak.

Noqulaylik holatida shaxsga nisbatan jismoniy va ma'naviy tomondan zarar yetkazish ham zarar deb belgilanadi va yetkazilgan zararni qoplashni nazarda tutadi.

Zararning mavjudligi, yetkazilgan zarardan istisnosiz barcha majburiyatlarning kelib chiqishi uchun zarur bo'lgan yolg'iz shart bo'lib hisoblanadi. Yetkazilgan zararni qoplashga majbur shaxsning aybi, ushbu shaxsning to'g'rilikka, huquqqa zid bo'lgan xulqi, ko'rsatilgan shaxsning xulqi bilan vujudga kelgan zarar o'rtasidagi huquqiy ahamiyatli bo'lgan sababiy bog'lanish kabi shartlarga to'xtalsak, ular bo'lishi ham, bo'lmazligi ham mumkin yoki hammasi to'liq bo'lmazligi mumkin.

Ushbu holatlarda, qachonki zararni qoplash majburiyati mas'uliyat bo'lib hisoblansa, uning asosida huquqbuzarlik tartibi (to'la yoki qisman) yotadi. Huquqbuzarlikning to'la tarkibi, zarardan tashqari, o'zida aybdorlikni, to'g'rilikka qarshi va sababli bog'liqliklarni aks ettiradi, shuningdek, ular faqat bir shaxsning xulqida to'plangan bo'lishi va xuddi shunday turli shaxslarning xulqida namoyon bo'lishi mumkin. Oxirgisi qachonki yosh bola yoki ishga yaroqsiz shaxs orqali yetkazilgan zarar uchun ularga qarab turuvchi, nazorat qilish majburiyatini amalga oshiruvchi shaxslar javob berishlariga to'g'ri kelsa, qisman ushbu holatlarda o'rin tutadi.

Huquqbuzarlikning qisman tarkibi, zarardan tashqari, o'zida faqat huquqqa qarshi va sababiy bog'lanish kabi shartlarni aks ettiradi. Huquqbuzarlikning qisman tarkibida misol sifatida bajarilgan harakat orqali atrofdagilarga yuqori xatarli vaziyatni keltirib chiqaradigan zarar uchun javobgarlikning asosini keltirish mumkin. Yuqori xatarli manbaning egasi jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar uchun o'zining aybidan qat'i nazar javob beradi. Boshqacha qilib aytganda, u nafaqat aybi uchun, balki oddiy holat uchun ham javob beradi. Lekin boshqa ikki mas'uliyat shartlari — zarar yetkazilgan faoliyat o'rtasidagi sababiy bog'lanish va zarar hamda yetkazilgan zararining qonunga xilofligi yaqqol namoyon bo'lishi shart. Shuning uchun ko'rsatilgan holatlarda zararni qoplash majburiyati fuqarolik-huquqiy majburiyatlar sirasiga kiritilishi mumkin.

Yuqori xatarli vaziyat manbayining egasi yetkazilgan zararining yuqori xatarli faoliyati uchun javobgarlikdan ozod bo'lishi mumkin, agar zarar jabrlanuvchining yengilmas kuchi yoki g'arazli niyati natijasida vujudga kelganligini isbotlab bera olsagina, u javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunday hollarda yuqori xatarli faoliyat bilan vujudga kelgan zarar o'rtasidagi bog'liqlik sabablari o'z o'rmiga ega bo'ladi. Biroq ba'zi holatlarning mavjudligi, ya'ni jabrlanuvchining yengilmas kuchi yoki g'arazli niyati yuqori xatarli vaziyat manbayi egasini majburiyatdan ozod etadi.

Yangi Fuqarolik qonunchiligida yengilmas kuchning xarakteristikasi unchalik o'zgarishlarga uchramadi, faqat bittadan tashqari, agar avval yengilmas kuch vaziyat sifatida, ya'ni odamlar erkiga bog'liq bo'lmagan holat sifatida ko'rilgan bo'lsa, bugun esa u nafaqat tabiiy kelib chiqadigan kuch, balki ijtimoiy ko'rinishdagi (harbiy harakatlar, millatlararo nizolar, mamlakatdan qandaydir mollarni olib chiqib ketish yoki kiritishning man etilganligi va boshq.) larni ham ushbu tushuncha ostidagi holat sifatida tavsiflanishni ta'minlaydi. Favquloddagi xarakter va o'nglab bo'lmis sharoitlar kabi belgilar kuchiga kelsak, ular hech bir o'zgarishlarsiz qoldi. Bunda yengilmas kuch doimo yetkazilgan zarar faoliyatiga nisbatan tashqi holat sifatida namoyon bo'ladi. Agar gap faoliyatga nisbatan

ichki yetkazilgan zarar holati haqida borsa, unda bu fors-major (vis major), ushbu faoliyatda daxldor vaziyat esa unga yuqori — xatarli sifatni beradi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning muhim jihatlaridan biri — bir organing bajargan harakati uchun javobgarlik ba'zi hollarda huquqbuzarlikning qisman tarkibiga, boshqa hollarda esa to'la tarkibiga asos bo'lishini ta'kidlab o'tish mumkin.

Shunday qilib, majburiyatlar asosida yetkazilgan zararining ba'zi hollarida huquqbuzarlik tarkibi (to'la yoki qisman) yotadi; boshqa holatlarda ko'rsatilgan majburiyatlar boshqa shartlarga asoslanadi, ya'ni ular huquqbuzarlik tarkibini keltirib chiqarmaydi. Shunga muvofiq yetkazilgan zarar uchun kelib chiqadigan majburiyat shartlari bilan majburiyat choralari aloqasi bo'lmagan zarar uchun kelib chiqadigan shartlarni ajrata bilish zarur. Bunda ular iloji boricha qisqa ko'rib chiqilishi mumkin, chunki fuqarolik-huquqiy majburiyatlarning umumiy shartlari, shu bilan birga shartnomadan tashqari bo'lgan va ularning detalizatsiyasi yetkazilgan zararining alohida holatlarni o'rganishda (hokimlik tomonidan yetkazilgan zarar uchun belgilangan majburiyat, atrofdagilarga yuqori xatarli bo'luvchi faoliyat uchun zararni qoplash majburiyati va boshq.) ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu narsa majburiyat chorasi sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin bo'lmagan, yetkazilgan zarar uchun belgilangan majburiyatga ham ma'lum bir jihatdan taalluqlidir. Ko'pincha, zararni qoplash bo'yicha majburiyat haqida gap borar ekan, voyaga yetmaganlar va ishga yaroqsiz shaxslar, shuningdek, qilayotgan ishining mazmunini tushunishdan yiroq bo'lgan shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar bilan bog'liq bo'lgan masalalar bayon etiladi.

Yetkazilgan zarar uchun vujudga keladigan majburiyat shartlari. Bunda gap aybdorlik, sababiy bog'lanish va huquqqa xiloflik haqida ham boradi. Umumiy ko'rinishda aybdorlik uchun javobgarlik prinsipi qayd etilgan. Zarar yetkazilgan shaxs aybsizlik prezumpsiyasi ko'rsatilgan, chunki zarar yetkazuvchi zararni qoplash majburiyatidan (bu holatda javobgarlikdan) ozod qilinishi mumkin, agar zarar uning aybi bilan sodir etilmaganligini isbotlab bera olsa. Shu

bilan birga, qonun tomonidan zarar yetkazuvchining aybi bo'lmaganda ham zararni qoplashi ko'rilishi mumkin.

Noshartnomaviy majburiyatlar to'laligicha fuqarolik huquqida aybdorlikning uch guruhiga ajratilib o'rganiladi (g'arazli niyat, qo'pol ehtiyotsizlik, oddiy ehtiyotsizlik). Bunda umumiy qoidaga asosan javobgarlik chorasiga aybdorlik bosqichi emas, balki zarar yetkazuvchining oqibati xizmat qiladi. Jabrlanuvchining oddiy ehtiyotsizligi yetkazilgan zarar majburiyatidan kelib chiqib hisobga olinmasligi mumkin, ya'ni u zarar yetkazuvchini javobgarlikdan ozod etishni ham, javobgarlik miqdorini kamaytirishni ham keltirib chiqarmaydi. Bu jabrlanuvchi xulqiga nisbatan yetkazilgan zarardan kelib chiqib, unga ham kreditorga nisbatan shartnoma majburiyatlarida ko'rsatilgan talablarni qo'yish mumkin emasligi bilan bayon etiladi, chunki kreditor ham doimo hushyor bo'lishi lozim.

Jabrlanuvchining g'arazli niyati oqibatida vujudga kelgan zarar qoplanmaydi. Jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligiga kelsak, agar jabrlovchi faqat aybi uchun javob berayotgan bo'lsa, qo'pol ehtiyotsizligi uchun jabrlanuvchi aybidan kelib chiqib, jabrlanuvchi va jabrlovchilarning ayblariga bog'liq bo'lgan holda zarar yetkazuvchining javobgarligi kamayishiga olib kelishi mumkin. Zarar yetkazuvchi aybidan qat'i nazar javob berishiga to'g'ri kelganda esa, uning aybi yo'qligi va jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligining mavjudligi e'tiborga olinib, agar qonun boshqa narsani nazarda tutmasa, zararni qoplash miqdori kamaytirilishi shart yoki zararni qoplash bekor qilinishi ham mumkin. Biroq, agar zarar fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan bo'lsa, zarar yetkazuvchining aybi yo'qligi va jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligi mavjudligi uchun zararni qoplash miqdori faqat kamaytiriladi. Bu holatda zararni qoplashni to'laligicha bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ba'zi hollarda javobgarlik sharti sifatida yetkazilgan zararda tashkilot aybi aybsizlik prezumpsiyasidan kelib chiqib hisobga olinadi. Tashkilot aybi uning xodimlari (a'zolari, qatnashuvchilari) ning aybdorlik xulqida namoyon bo'ladi va hokimlik-boshqaruvchilik funksiyalarini bajaruvchi shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bu

oddiy ishchining aybi bo'lishi ham mumkin. Biroq barcha hollarda tashkilotning aybi, ushbu tashkilot tarkibiga kiruvchi ma'lum bir xodimning aybi bilan taqqoslanganda boshqacha ijtimoiy sifatga ega bo'ladi, shuningdek, tashkilot aybi, ko'pincha, bir shaxsning aybi bilan to'xtalmaydi, balki ko'pgina shaxslar xulqiga ham taalluqli bo'lib qoladi va shu tashkilotning bo'lingan tuzilishlari o'rtasida tarqalgan bo'ladi (masalan, moddiy-texnika ta'minoti bo'limi yaxshi bo'lmagan xomashyoni qabul qildi, ishlab chiqarish sexi undan mahsulot tayyorladi, texnik nazorat bo'limi esa ushbu mahsulotni sotishga ruxsat berdi, buning natijasida iste'molchiga zarar yetkazildi).

Tashkilotning xodimi tomonidan yetkazilgan zarar uchun tashkilotning javobgarlik shartlari ayni vaqtda bu shartlar belgilangan biron-bir fuqaro tomonidan yetkazilgan zarar uchun ham taalluqlidir (masalan, yollangan ishchilar kuchidan foydalanadigan yakka ishbiarmon yoki yollangan haydovchi, qorovul, bog'bon xizmatlaridan foydalanadigan fuqaro va boshq.)

Javobgarlikning majburiy sharti huquqbuzarlik tarkibining ham to'la, ham qisman mavjudligida zarar yetkazuvchining xulqi (harakat yoki harakatsizlik shaklida yetkazilgan) bilan vujudga kelgan zarar o'rtasidagi huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan bog'liqlik sabablari hisoblanadi. Bog'liqlik sabablari huquqiy ahamiyatga molik bo'lishi mumkin, agarda zarar yetkazuvchining xulqi zararli oqibatlarining vujudga kelish imkoniyatini harakatga keltirgan bo'lsa yoki har qanday holatda ham uning vujudga kelishiga aniq imkoniyat shartlarini yaratib bersa. Agar zarar yetkazuvchining xulqi zarar yetkazishning faqat abstrakt shartlarini keltirib chiqargan bo'lsa, unda zarar yetkazuvchining xulqi bilan zarar o'rtasidagi huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan bog'liqlik sabablari bo'lmaydi. Huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan bog'liqlik sabablari, odatda, shartli, kerakli deb, huquqiy ahamiyatsizi esa, shartsiz, bexosdan ro'y bergan deb ataladi.

Shunday qilib, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni yuklashda zarar yetkazuvchining xulqi bilan zarar o'rtasidagi shartli bog'liqlik sabablarining mavjudligi yuqorida aytib o'tilgan kriteriyalar

yordamida belgilanadi. Biroq bunda qonunda ko'rsatilgan hollarda javobgarlik zarar yetkazuvchining o'ziga emas, balki boshqa shaxslarga, masalan, ularni nazorat qilish majburiyati yuklatilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, ko'rsatilgan hollarda zarar bilan faqat bevosita zarar yetkazuvchilarning emas, balki nazorat majburiyati yuklatilgan shaxslarning ham o'rtasidagi bog'liqlik sabablarining mavjudligini ta'kidlash mumkin. Masalan, yosh bolaning xulqi ustidan ota-onalari nazorat qilmasalar, zarar yetishi uchun aniq imkoniyat shartlarini keltirib chiqaradilar. Bola esa o'zining harakatlari bilan bu imkoniyatni harakatga keltirishi mumkin.

Va nihoyat, yetkazilgan zarar uchun javobgarlikning majburiy sharti huquqqa qarshi bajarilgan harakat bo'lib hisoblanadi, bunda begona subyekt huquqini buzishni tushunish lozim bo'ladi. Huquqqa qarshi borish huquqbuzarlik tarkibining elementlaridan biri sifatida ko'rilishi va uni to'la huquqbuzarlik sifatida javobgarlik asosi, deb hisoblamaslik kerak. Agar zarar bexosdan yetkazilgan bo'lsa, huquqqa qarshi borish yaqqol namoyon bo'ladi, biroq javobgarlik, umumiy qoidaga asosan, huquqbuzarlikning to'la tarkibi uchun shart bo'lgan aybning bo'lmaganligi uchun ro'y bermaydi.

Faoliyati tevarak-atrofdagilarga ortiqcha xavf tug'diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar (transport tashkilotlari, sanoat korxonalari, qurilishlar, transport vositalarining egalari va boshqalar) ortiqcha xavf manbayi yetkazgan zararni, agar zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlay olmasalar, to'lashlari shart.

Zararni to'lash majburiyati ortiqcha xavf manbayiga mulk huquqi, xo'jalik yuritish huquqi yoki operativ boshqaruv huquqi yoxud boshqa har qanday qonuniy asosda (mulkiy ijara shartnomasi, transport vositasini boshqarish huquqini beradigan ishonchnoma, tegishli organning unga ortiqcha xavf manbayini topshirish to'g'risidagi farmoyishiga ko'ra va hokazo) egalik qiluvchi yuridik shaxs yoki fuqaroga yuklanadi.

Ortiqcha xavf manbalarining egalari bu manbalarning bir-biriga ta'siri (transport vositalarining to'qnashuvi va hokazo) natijasida uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar uchun ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha solidar javobgar bo'ladilar.

Ortiqcha xavf manbalarining o'zaro ta'siri natijasida ularning egalarga yetkazilgan zarar umumiy asoslarda qoplanadi. Bunda bir tarafning aybi bilan yetkazilgan zarar shu taraf tomonidan to'liq hajmda qoplanadi, ikkala yoki bir necha taraflarning aybi bilan yetkazilgan zarar esa ulardan har birining aybi darajasiga mutanosib ravishda qoplanadi. Taraflardan har birining aybi darajasini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda javobgarlik ular o'rtasida teng baravar taqsimlanadi. Zararning yetkazilishida taraflarning aybi bo'lmaganda, ulardan hech biri zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega emas. Bunday holda taraflarning har biri o'zi ko'rgan zarar xavfini zimmasiga oladi.

Ortiqcha xavf manbayining egasi shu manba yetkazgan zarar uchun, agar manba egasining tasarrufidan boshqa shaxslarning g'ayrihuquqiy harakatlari (harakatsizligi) natijasida chiqib kelganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi. Bunday hollarda ortiqcha xavf manbayi tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik manbani g'ayrihuquqiy egallab olgan shaxsning zimmasida bo'ladi. Bu manbani egasining tasarrufidan g'ayrihuquqiy tortib olishda egasining aybi bo'lgan taqdirda, javobgarlik uning egasiga ham, ortiqcha xavf manbayini egallab olgan shaxslarga ham yuklanishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar tushunchasi va zararni qoplash asoslari.
2. Muomalaga layoqatsiz shaxslar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik.
3. Yuridik shaxsning o'z xodimiga yetkazgan zarar uchun javobgarligi.
4. Yetkazilgan zararni qoplashni istisno etuvchi holatlar.

48-BOB. FUQARONING HAYOTI VA SOG'LIG'IGA YETKAZILGAN ZARAR O'RNINI QOPLASH

1-§. Fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash tushunchasi

Fuqaroning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish, uning vafotiga sabab bo'lish, zarar yetkazishdan vujudga kelgandagina majburiyatlarni vujudga keltiradi. Shartnoma majburiyatlarini bajarishda, shuningdek, harbiy xizmat majburiyatlarini, ichki ishlar organlaridagi xizmatni va boshqa shunga o'xshash majburiyatlarni bajarishda fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar, agar qonunda yoki shartnomada javobgarlikning ancha yuqori miqdori nazarda tutilmagan bo'lsa, FKning 57-bobi qoidalariga muvofiq qoplanadi.

Fuqaroning hayoti va sog'lig'i hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan bebaho ne'mat hisoblanadi. Fuqaroning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish hamma holatlarda ham qonunga xilof hisoblanadi.

Fuqaro mayib qilinganda yoki uning sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilganda jabrlanuvchi oladigan yoki muayyan ravishda olishi mumkin bo'lgan yo'qotilgan ish haqi (daromadlari), shuningdek, salomatligiga shikast yetkazilishi tufayli qilgan qo'shimcha xarajatlari, shu jumladan, davolanish, qo'shimcha ovqatlanish, dori-darmonlar sotib olish, protez qo'ydirish, birovning parvarishida bo'lish, sanatoriy-kurortda davolanish, maxsus transport vositalarini sotib olish, boshqa kasbga tayyorgarlikdan o'tish xarajatlari, agar jabrlanuvchining ana shu yordam va parvarish turlariga muhtojligi hamda ularni bepul olish huquqiga ega emasligi aniqlansa, o'rni qoplanishi lozim.

Yo'qotilgan ish haqini (daromadlarni) aniqlashda jabrlanuvchiga mayib bo'lishi yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetishi sababli tayinlangan nogironlik pensiyasi, xuddi shuningdek, sog'lig'iga zarar yetkazilmasidan oldingi va undan keyingi boshqa turdagi pensiyalar, nafaqalar va boshqa shunga o'xshash to'lovlar e'tiborga olinmaydi va zararni qoplash miqdorini kamaytirishga sabab bo'lmaydi (zararni qoplash hisobiga kiritilmaydi). Zararni qoplash hisobiga, shuningdek, jabrlanuvchi sog'lig'iga shikast yetkazilganidan keyin oladigan ish haqi (daromadi) ham kiritilmaydi.

Qonun hujjatlari yoki shartnoma bilan ushbu moddaga muvofiq jabrlanuvchiga tegadigan to'lov hajmi va miqdori ko'paytirilishi mumkin. O'rni qoplanishi lozim bo'lgan yo'qotilgan ish haqi (daromad) ning miqdori mayiblanishgacha yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetkazilishigacha yoxud mehnat qobiliyati yo'qotilgungacha bo'lgan o'rtacha oylik ish haqi (daromad) ga nisbatan jabrlanuvchining kasbiy mehnat qobiliyatini yo'qotishi darajasiga, kasbi yo'q bo'lganda esa umumiy mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga muvofiq foizlarda aniqlanadi.

Jabrlanuvchining yo'qotilgan ish haqi (daromadi) tarkibiga ham asosiy ish joyidan, ham o'rindoshlik bo'yicha ishlaydigan joyidan mehnat va fuqaroviy-huquqiy shartnomalar bo'yicha to'lanadigan, daromad solig'i olinadigan barcha turdagi mehnat haqi qo'shiladi. Bir yo'la to'lanadigan to'lovlar (foydalanilmagan ta'til uchun to'lanadigan pul, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi ishdan bo'shatish nafaqasi) hisobga olinmaydi. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri hamda homiladorlik va tug'ish ta'tili uchun to'langan nafaqa hisobga olinadi. Tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar, shuningdek, mualliflik gonorari yo'qotilgan ish haqi (daromad) tarkibiga kiritiladi, bunda tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar soliq inspeksiyasining ma'lumotlari asosida kiritiladi.

Ish haqi (daromad) ning barcha turlari soliqlar ushlab qolinmasdan oldin hisoblangan summalarda hisobga olinadi. O'rtacha oylik ish haqi (daromad) sog'liqqa shikast yetkazilishidan oldingi ishlangan o'n ikki oy ichidagi ish haqi (daromad) ning umumiy

summasini o'n ikkiga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqiladi. Zarar yetkazilgan paytgacha jabrlanuvchi o'n ikki oydan kam ishlagan hollarda o'rtacha ish haqi (daromad) sog'liqqa shikast yetkazilishidan oldingi amalda ishlangan oylardagi ish haqi (daromad) ning umumiy summasini ana shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqiladi. Jabrlanuvchi to'liq ishlamagan oylar uning xohishiga ko'ra, bundan oldingi to'liq ishlangan oylarga almashtiriladi yoki ularni almashtirish imkoniyati bo'lmaganda hisobdan chiqarib tashlanadi. Jabrlanuvchi zarar yetkazilgan paytda ishlamayotgan bo'lsa, uning xohishiga ko'ra, mehnat shartnomasi bekor qilinishigacha bo'lgan ish haqi (daromadi) yoxud mazkur joyda uning malakasidagi xodimga to'lanadigan, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh karrasidan kam bo'lmagan odatdagi haq to'lash miqdori hisobga olinadi.

Agar jabrlanuvchining ish haqida (daromadlarida) uning mayib qilinishi yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilishiga qadar uning mulkiy ahvolini yaxshilovchi barqaror o'zgarishlar sodir bo'lgan (egallab turgan lavozimi bo'yicha ish haqi oshirilgan, yuqoriroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilgan, kunduzgi o'quv yurtini bitirganidan keyin ishga kirgan) bo'lsa va o'zgarishning barqarorligi yoki jabrlanuvchining ish haqi o'zgarishi ehtimoli isbotlangan boshqa hollarda, uning o'rtacha oylik ish haqini aniqlashda u tegishli o'zgarishdan keyin olgan yoki olishi lozim bo'lgan ish haqi (daromad) gina hisoblanadi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan va ish haqi (daromad) olmaydigan voyaga yetmagan shaxs mayib bo'lib qolgan yoki sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetkazilgan taqdirda, zarar yetkazilganligi uchun javobgar shaxs sog'liqqa shikast yetkazilishi tufayli qilingan xarajatlarning o'rnini qoplashi shart. Jabrlanuvchi o'n to'rt yoshga to'lganda, shuningdek, o'n to'rt dan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan ish haqi (daromad) olmaydigan voyaga yetmagan shaxsga zarar yetkazilgan taqdirda, yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxs jabrlanuvchiga sog'liqqa shikast yetkazilishi tufayli qilingan xarajatlardan tashqari, shuningdek, uning mehnat qobiliyati yo'qotilganligi yoki kamayganligi bilan bog'liq zararni qonun

hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh karrasi miqdoridan kelib chiqib qoplashi shart.

Agar voyaga yetmagan shaxs sog'lig'iga shikast yetkazilguniga qadar ish haqi (daromad) ga ega bo'lgan bo'lsa, unda zarar ushbu ish haqi (daromad) miqdoridan kelib chiqib, ammo qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh karrasidan kam bo'lmagan miqdorda to'lanadi. Sog'lig'iga ilgari shikast yetkazilgan voyaga yetmagan shaxs mehnat faoliyati boshlanganidan so'ng zarar uchun to'lanayotgan haqni u oladigan ish haqi (daromad) yoxud unga lavozimi bo'yicha belgilangan haq miqdoridan yoki u ishlayotgan joydagi ayni shunday malakadagi xodimning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqib, ko'paytirishni talab qilishga haqli.

Boquvchisi vafot etgan taqdirda quyidagilar zararni undirish huquqiga ega:

— marhumning qaramog'ida turgan yoki u vafot etgan kungacha undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar;

— marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandi;

— mehnat qobiliyatidan qat'i nazar marhumning qaramog'ida bo'lgan uning o'n to'rt yoshga to'lmagan yoxud ko'rsatilgan yoshga to'lgan bo'lsa ham tibbiyot muassasasining xulosasiga ko'ra salomatligi bo'yicha boshqalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlashda band bo'lgan va ishlamaydigan ota-onasidan biri, eri (xotini) yoki oilaning boshqa a'zosi;

— marhumning qaramog'ida bo'lgan va uning vafotidan keyin besh yil ichida mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan shaxslar.

Ishlamaydigan va marhumning ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlashda band bo'lgan ota-onasidan biri, eri (xotini) yoxud oilaning boshqa a'zosi parvarishlashni amalga oshirish davrida mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan taqdirda, ana shu shaxslarni parvarishlash tugaganidan keyin zararni undirish huquqini saqlab qoladi.

Boquvchisi vafot etganda zarar quyidagilarga to'lanadi:

- voyaga yetmaganlarga — o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar;
- o'n sakkiz yoshdan oshgan o'quvchilarga — o'quvning kunduzgi shaklida o'qishni tugatgunga qadar, biroq yigirma uch yoshdan oshmaguncha;
- ellik besh yoshdan oshgan ayollarga va oltmish yoshdan oshgan erkaklarga — umrbod;
- nogironlarga — nogironlik muddatiga;
- marhumning qaramog'ida bo'lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini ular o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar parvarishlashda band bo'lgan ota-onasidan biri, eri (xotini) yoxud oilaning boshqa a'zosiga.

Boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga zarar marhumning FKning 1007-moddasi qoidalari bo'yicha aniqlangan ish haqi (daromadi) ning marhum hayot vaqtida ular o'z ta'minoti uchun olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan ulushi miqdorida qoplanadi. Bu shaxslarga zararni qoplashni aniqlashda marhumning daromadlari tarkibiga ish haqi (daromad) bilan bir qatorda u hayot vaqtida olgan pensiya, umrbod ta'minot va boshqa shunga o'xshash to'lovlar kiritiladi.

Zararning o'rnini qoplash miqdorini aniqlashda boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan shaxslarga tayinlangan pensiya, shuningdek, boquvchisining vafotidan oldin ham, vafotidan keyin ham tayinlangan boshqa turdagi pensiyalar hamda ish haqi (daromad), stipendiya qoplash hisobiga kiritilmaydi.

Boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirish huquqiga ega bo'lganlarning har biriga belgilangan qoplash miqdori keyinchalik qaytadan hisoblab chiqilmaydi, quyidagi hollar bundan mustasno:

- boquvchining vafotidan keyin farzand tug'ilishi;
- vafot etgan boquvchining bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlashda band bo'lgan shaxslarga haq to'lashni tayinlash yoki uni to'xtatish.

Qonun hujjatlarida yoki shartnomada qoplash miqdorini ko'paytirish nazarda tutilishi mumkin. Fuqaro tomonidan yetka-

zilgan zararni qoplash majburiyati uning vafotidan keyin merosni qabul qilib olgan merosxo'rlariga o'tadi. Merosxo'rlar jabrlanuvchining oldida o'zlariga meros bo'lib o'tgan mol-mulkning haqiqiy qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Vorissiz mol-mulk o'ziga o'tgan davlat yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi ham ana shunday asoslarda javobgar bo'ladi.

Mehnat qobiliyatini qisman yo'qotgan jabrlanuvchi zararni to'lash majburiyati yuklangan shaxsdan istalgan vaqtda, agar uning mehnat qobiliyati sog'lig'iga yetkazilgan shikast tufayli o'ziga zararni undirish belgilangan paytda bo'lgandagiga nisbatan yomonlashsa, qoplash miqdorini tegishlicha ko'paytirishni talab qilishga haqli. Jabrlanuvchining sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash majburiyati zimmasiga yuklangan shaxs, agar jabrlanuvchining mehnat qobiliyati zararni undirish belgilangan paytda bo'lgandagiga nisbatan oshgan bo'lsa, qoplash miqdorini tegishlicha kamaytirishni talab qilishga haqli.

Jabrlanuvchi, agar zararning o'rnini qoplash majburiyati zimmasiga yuklangan fuqaroning mulkiy ahvoli yaxshilangan bo'lsa, qoplash miqdori esa Fuqarolik kodeksining 1004-moddasi, beshinchi qismiga muvofiq kamaytirilgan bo'lsa, zararni to'lash miqdorini ko'paytirishni talab qilishga haqli. Sud zarar yetkazgan fuqaroning talabiga binoan, agar uning mulkiy ahvoli nogironligi yoxud pensiya yoshiga yetganligi sababli zararning o'rnini qoplash belgilangan paytdagiga nisbatan yomonlashgan bo'lsa, zararning o'rnini qoplash miqdorini kamaytirishi mumkin, zarar qasddan yetkazilgan hollar bundan mustasno.

Nazorat savollari

1. Fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar qanday qoplanadi?
2. Ma'naviy zarar tushunchasi.
3. Ma'naviy zarar o'rnini qoplash usuli va miqdori.

49-BOB. INTELLEKTUAL MULK HUQUQI

1-§. Intellektual mulk tushunchasi va obyektlari

Intellektual mulk, bu ijodiy faoliyat individuallashtirish vositalariga bo'lgan mutlaq huquqlar yig'indisidir. Intellektual mulk: adabiy, badiiy va ilmiy asarlarga, asarlarning ijro faoliyatiga va boshqa ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan huquqlarni o'z ichiga oladi.

Intellektual mulk obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

Birichidan, intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot va san'at asarlari;
- eshittirish tashkilotlarining ijrolari, fonogrammalari va eshittirishlari;
- elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

Ikkinchidan, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

- firma nomlari;
- tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
- tovarlar chiqarilgan joy nomi.

Uchinchidan, qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining alohida, o'ziga xos obyektidir. «Intellektual» lotincha so'z bo'lib, «aql»

ma'nosini bildiradi. Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari — ashyolar, qimmatli qog'oz kabilardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: ko'p hollarda intellektual mulk obyektlari moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi. Obyektiv shaklda ifodalangan g'oya yoki bilim moddiy eltuvchi, moddiy ifodada, masalan, chizma, maket, apparat, qurilmada mujassamlashgan bo'lishi mumkin, biroq bunda g'oya, bilim birlamchi, uning moddiy mujassami har doim ikkilamchi bo'ladi; g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilinganidek egalik qilish mumkin emas; bunday obyektlardan bir vaqtning o'zida cheklanmagan miqdordagi shaxslar foydalanishi mumkin; intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining muddatsizligi haqidagi qoida (FKning 164-moddasi) qo'llanilmaydi. Binobarin, aksariyat ko'pchilik hollarda (nou-xauga nisbatan istisnoni nazarga olmaganda) intellektual mulk huquqining amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan; qonunlarda belgilangan muddatlar o'tishi bilan intellektual mulk huquqi egasining muayyan shunday mulkka nisbatan huquqlari bekor bo'lib, bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanadi va har kim undan ma'lum shartlar asosida (muallif shaxsiy huquqlariga rioya qilgan holda) tekin hamda ruxsatsiz foydalanishi mumkin; intellektual mulk huquqi obyektlari g'oya ko'rinishida bo'lgan hollarda ularga odatdagi ashyolarni egallash tartibini tatbiq etish mumkin emasligi, ulardan bir vaqtning o'zida cheksiz miqdordagi shaxslarning foydalanish imkoniyatlari mavjudligi sababli bunday obyektlarga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsion da'vo (FKning 228-moddasi) qo'llanilmaydi; intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqi emas, balki mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llaniladi; intellektual mulk huquqining amal qilishi ayni vaqtda ma'lum hudud bilan ham chegaralanadi. Masalan, ixtiroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi tomonidan berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro konvensiyalar hamda O'zbekiston

Respublikasi bilan xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan hududlarda amal qiladi; ko'pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan mualliflarning shaxsiy huquqlari mavjud bo'lib, bu obyektlardan foydalanuvchilar ushbu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim.

Intellektual faoliyat o'z xususiyatiga ko'ra inson faoliyatining eng oliy ko'rinishi, ijodiy faoliyat hisoblanadi. Inson ijodiy faoliyati odatdagi kundalik faoliyatdan farq qiladi. Odatda, kundalik faoliyat doimiy va takrorlanib turadi. Bunda faoliyat o'zi ham, undan vujudga keladigan natijalar ham ilgaridan ma'lum bo'ladi. Shu sababli ham odatdagi, kundalik faoliyat reproduktiv (tiklanuvchi, takrorlanuvchi) faoliyat hisoblanib, bunda tayyor o'y-fikrlar formal mantiq yoki boshqa qonun-qoidalar asosida qaytadan takroriy hosil bo'ladi.

Ijodiy faoliyat aqliy (tafakkur, intellektual) faoliyat bo'lib, uning natijasida fan, texnika, adabiyot yoki san'at sohasida yangi, ijodiy mustaqil mahsul yaratiladi.

Fuqarolarning muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar. Bunday vositalarga bo'lgan huquqlarga nisbatan ham mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar ko'zlanadi. Ma'lumki, fuqarolik muomalasida turli-tuman subyektlar ishtirok etib, ayni vaqtda muomalada xilma-xil mahsulotlar va xizmatlar harakatda bo'ladi. Mana shunday sharoitda subyektlar, ular ishlab chiqargan tovarlar va ko'rsatadigan xizmatlar alohida farqlash belgilariga ega bo'lishi shart, aks holda turli anglashilmovchilik, qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Ana shunday farqlash belgilari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining o'zlarini, ular ishlab chiqargan tovarlar, bajaradigan ishlar va ko'rsatadigan xizmatlarining xususiy alomatlarini (individual belgilarini) aks ettiruvchi vositalar bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar ham intellektual mulk obyektlari bo'lishi mumkin. Masalan, topogral va integral sxemalar.

2-§. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolat berilgan davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish asoslari qonunda belgilangan. *Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish* deganda, bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar egasining huquqlarini qonuniy jihatdan qo'riqlashi asoslari tushuniladi. Binobarin, intellektual mulk obyektining o'zi emas, balki bu obyektga nisbatan subyektiv huquqlarga ega shaxslar (muallifning shaxsiy huquqlari, mutlaq huquqlar egasining huquqlari, litsenziya asosida foydalanuvchining huquqlari, avvaldan foydalanuvchining huquqlari va boshqalar) ning huquqlari huquqiy jihatdan muhofazaga olinadi.

Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish: ularning yaratilganlik fakti asosida; FK yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilganlik hollarida va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilangan.

Intellektual mulk obyektlarining quyidagi turlari bo'yicha ularni huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilish (vujudga kelish) fakti asosida sodir bo'ladi:

- fan, adabiyot, san'at asarlari;
- EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- ijrolar, ijrolarni sahnalashtirish, eshittirish va ko'rsatuvlar;
- topologik va integral sxemalar.

Bunda axborot ijodkor tomonidan idrok etish (qabul qilish) uchun imkon beradigan boshqa obyektiv shaklda mujassam etilishi bilan u yaratilgan hisoblanadi. Binobarin, shu vaqtdan boshlab unga nisbatan boshqa shaxslarda subyektiv huquqlar vujudga

keladi va huquqiy muhofaza qilinadi. Bunday holda obyektidan uchinchi shaxslar foydalanganda obyektning ro'yxatdan o'tkazilishi yoki boshqa rasmiyatchiliklarga rioya qilishi talab etilmaydi. Hatto obyekt keyinchalik ro'yxatdan o'tkazilishi lozimligi haqidagi qoida mavjud bo'lsa ham (masalan, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari uchun davlat ro'yxati mavjud), bu holat ularning huquqiy muhofazasiga ta'sir etmaydi. Bunda intellektual mulk obyektining O'zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat hududida yaratilganlik fakti ahamiyatga ega emas.

Bir qator intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish FK yoki boshqa qonunlarda (masalan, ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari haqidagi qonun va sh.k.) belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi orqali vujudga keladi. Buning uchun intellektual mulk obyektiga nisbatan o'z subyektiv huquqlarining e'tirof etilishiga haqli manfaatdor fuqaro yoki yuridik shaxs belgilangan tartibda vakolatli davlat organiga murojaat etishi va o'z talabiga asos bo'ladigan hujjatlarni taqdim etishi lozim. Talab qanoatlantirilgan taqdirda vakolatli davlat organi fuqaro yoki yuridik shaxsning intellektual mulk obyektiga nisbatan subyektiv huquqlari muhofazaga olinganligini bildiruvchi hujjat (patent, guvohnoma, qayd etilganlik haqidagi shahodatnoma) huquqiy muhofaza yorlig'ini beradi. Vakolatli davlat organi bunday talabni rad etgan taqdirda bu haqda asoslantirilgan qaror chiqaradi. Ushbu qaror ustidan Apellatsiya kengashi yoki sudga qonunlarda belgilangan tartibda shikoyat berilishi mumkin.

Vakolatli davlat organi (O'zbekiston Respublikasi fan va texnika qo'mitasi, Patent idorasi ko'p obyektlar bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi) huquqiy muhofaza yorlig'ini berishda quyidagi holatlarni, albatta, o'rganib chiqadi: huquqiy muhofaza berilishi so'ralayotgan obyekt intellektual mulk obyekt sifatida tegishli xususiyatlarga egami-yo'qmi; o'z nomiga huquqiy muhofaza yorlig'i berilishini so'rab murojaat qilayotgan fuqaro yoki yuridik shaxsning talabi qonuniy asoslanganmi; huquqiy muhofaza yorlig'ining berilishi boshqa shaxslarning

qonuniy huquq hamda manfaatlariga putur yetkazmaydimi va hokazolar.

Ayrim turdagi intellektual mulk obyektlarining vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig'i asosida qo'riqlash tartibini belgilashning ahamiyati shundan iboratki, bunda, birinchidan, huquqiy muhofaza yorlig'i intellektual mulk obyektining sifat talablariga javob bera olishi lozimligi, ikkinchidan, nomiga huquqiy muhofaza yorlig'i olgan shaxsning subyektiv huquqlarini tasdiqlovchi va bu huquqlarga boshqalar tomonidan rioya etilishini ta'minlovchi vosita ekanligi guvohlantiriladi.

Intellektual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi vakolatli davlat organi tomonidan quyidagi huquqiy muhofaza yorliqlari: ixtiro, sanoat namunasiga patent; foydali modelga guvohnoma («Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi); seleksiya yutuqlariga patent; tovar (xizmat ko'rsatish) belgisiga davlat ro'yxatidan o'tkazib, guvohnoma; firma nomi davlat ro'yxatidan o'tkazilib (reystrga kiritilib), bu haqda dalolatnoma; tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilib, undan foydalanish huquqi to'g'risida guvohnoma berilishi bilan vujudga keladi.

Intellektual mulk obyektiga berilgan huquqiy muhofaza yorlig'ida obyekt nomi, uning alohida xususiyatlari, ushbu obyekt muallifi (ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlariga nisbatan huquqlar egasining nomi, huquqiy muhofaza muddatining boshlanish va tugash vaqti, ushbu yorliqni bergan vakolatli davlat organining nomi) ko'rsatiladi. Uni rahbar imzolab, muhri bilan tasdiqlaydi. Firma nomiga berilgan huquqiy muhofaza yorlig'ining amal qilishi muddat bilan chegaralanmaydi. Tovlar (xizmat ko'rsatish) belgisi, tovar chiqargan joy nomiga bo'lgan huquqqa berilgan huquqiy muhofaza yorlig'ining amal qilish muddati vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda uzaytirilishi mumkin. Sanoat namunasi va foydali modelga berilgan huquqiy muhofaza yorlig'i cheklangan muddatga uzaytiriladi.

Vakolatli davlat organidan huquqiy muhofaza yorlig'i olinishi shart bo'lgan mulk obyektlariga nisbatan huquqlar bunday yorliq

olinmagan hollarda sud yoki boshqa davlat organlari tomonidan huquqiy muhofaza qilinmaydi.

Huquqiy muhofaza yorlig'i har qanday davlat organi yoki jamoat tashkiloti tomonidan emas, balki qonun hujjatlarida belgilangan vakolatli davlat idorasi tomonidagina berilishi lozim.

Xorijiy davlatlarning vakolatli organlari tomonidan intellektual mulk obyektiga berilgan huquqiy muhofaza yorlig'ining O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilishi O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro konvensiyalar, shartnomalar, ikki yoki ko'p tomonlama bitimlar yoxud O'zbekiston Respublikasi vakolatli davlat idoralari ro'yxatidan o'tkazish yoki tegishli huquqiy yorliq berilishi asosida vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotlarni huquqiy muhofaza qilish qonunlarda belgilangan qator shartlar (FKning 98-moddasi, «Korxonalar haqida»gi Qonunning 34-moddasi, «Davlat sirlarini saqlash haqida»gi Qonunning 5-moddasi, «Axborotlar haqida»gi Qonunning 23-moddasi) asosida amalga oshiriladi.

Oshkor etilmagan axborot egasining huquqlariga uchinchi shaxslarning insofsiz harakatlari, g'irrom raqobat (sanoat josusligi, xodimni sotib olish) orqali putur yetkazilganda, u sud yo'li bilan huquqiy muhofaza qilinadi.

Oshkor etilmagan axborotlar uchinchi shaxslar tomonidan insofli asoslarda olinganda yoki u mustaqil ravishda izlanish tufayli topilganda oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquq egasining subyektiv huquqlari huquqiy muhofaza qilinmaydi.

3-§. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlar

Intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladilar.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda uning o'zida saqlanib qoladi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar yoki xizmatlarning xususiy

alamatlarini aks ettiruvchi vositalarga nisbatan huquq egalariga bu vositalar borasida mulkiy huquqlar tegishli bo'ladi.

Mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilish huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi.

Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va berilmaydi.

Agar natija ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ular hammualliflar hisoblanadilar. Intellektual mulkning ayrim obyektlariga nisbatan shaxslar doirasi cheklab qo'yilishi mumkin.

Intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladilar. Intellektual faoliyat natijalariga nisbatan muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari deganda, mulkiy mazmunga ega bo'lmagan, ushbu natijaga nisbatan ijodkor-yaratuvchi sifatidagi mavqeyini e'tirof etish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan mutlaq (absolyut) huquqlar tushuniladi va bu huquqlar muallifning faqat o'zigagina tegishli bo'lib, boshqa birovga o'tkazilishi, ya'ni muallifdan begonalashtirilishi mumkin emas.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar mazmuni, doirasi har bir intellektual faoliyat natijasi uchun alohida o'ziga xos tarzda belgilanadi. Masalan, mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan mualliflik shaxsiy nomulkiy huquqlarining (mualliflik huquqi, nomiga bo'lgan huquq, asar daxlsizligiga bo'lgan huquq va hokazolar) doirasi keng qilib belgilangan. Ba'zi obyektlar bo'yicha esa (masalan, seleksiya yutuqlarida) shaxsiy huquq obyekt muallifi sifatida tan olinishi huquqi va nom qo'yish bilan kifoyalanadi.

Intellektual faoliyat natijalari muallifi shaxsiy nomulkiy huquqlar bilan bir qatorda ushbu natijaga nisbatan mulkiy huquqlarga ham ega. Mulkiy huquq mazmuni muallifning mazkur yaratgan intellektual faoliyati natijasidan o'zi foydalanishi, boshqalarga haq evaziga foydalanishga berish yoki evaziga foydalanish uchun ruxsat berish yoxud haq evaziga bu natijaga nisbatan huquqlarni boshqalarga o'tkazish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Muallif mulkiy huquqlarining hajmi to'liq yoki cheklangan bo'lishi mumkin. Intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mutlaq huquqlar muallifning o'ziga tegishli bunday mutlaq huquqlari boshqa shaxsga tegishli bo'lsa, muallifning intellektual faoliyat natijasiga mulkiy huquqlari cheklangan bo'ladi (masalan, mualliflik huquqida ulush huquqi, seleksiya yutuqlari bo'yicha seleksionerlarning patent egasidan mukofot olish huquqi, ixtirochining ixtirodan ilmiy tadqiqot va shaxsiy maqsadlarda foydalanish huquqi kabilar).

Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxslarga o'tgan taqdirda ham uning o'zida saqlanib qoladi. Intellektual faoliyat natijalariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlar faqat ijodkor-yaratuvchi (muallif) shaxslarga ham tegishli bo'la oladi (masalan, buyurtma asosida yaratilganda).

Mulkiy huquqlar fuqarolik muomalasida faol harakatda bo'lishi, ya'ni u boshqalarga haq evaziga yoki tekinga o'tkazilishi, garov predmeti bo'lishi, meros tartibida o'tishi mumkin. Shaxsiy nomulkiy huquqlar esa ijodkor-muallifning shaxsi bilan bog'liq bo'lib, undan begonalashtirilishi, birovga o'tkazilishi mumkin emas. Binobarin, intellektual faoliyat natijasiga nisbatan mulkiy huquqlar fuqarolik muomalasida qanday harakatda bo'lishidan qat'i nazar, shaxsiy nomulkiy huquqlar faqat ijodkor-muallifning o'zida saqlanib qoladi va mulkiy huquqlardan foydalanuvchilar ijodkor-yaratuvchi (muallif) ning shaxsiy nomulkiy huquqlariga rioya qilishlari shart (masalan, asarga nisbatan mutlaq huquqni sotib olgan nashriyot asarni nashr etishda muallif nomini ko'rsatishi, asar daxlsizligiga rioya qilishi lozim).

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar yoki xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga nisbatan huquq egalarga bu vositalar borasida mulkiy huquqlar tegishli bo'ladi.

Alohida farqlash belgilari (xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalar) ga nisbatan huquqlar intellektual faoliyat natijalariga nisbatan bo'lgan huquqlar kabi ikki turga, ya'ni shaxsiy nomulkiy

va mulkiy tarzdagi huquqlarga bo'linmaydi va unga faqat bir xil, ya'ni mulkiy tarzdagi huquq sifatida qaraladi. Binobarin, xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarga nisbatan huquq egasining huquqi faqat mulki bo'ladi. Demak, bu huquq ma'lum tartib va shartlarga rioya qilingan holda haq evaziga yoki tekinga vaqtincha boshqalarga o'tkazilishi, foydalanish uchun berilishi mumkin (firma nomiga bo'lgan huquqdan tashqari).

Mualliflik huquqi (intelektual faoliyat natijasining muallifi deb e'tirof etilish huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi.

Intellektual faoliyat natijasi (ixtiro yoki asar) ni o'z aqliy, ijodiy faoliyati, mehnati bilan yaratgan shaxs ushbu natijaning muallifi deb tan olinadi, e'tirof etiladi. Bu huquq ijodiy faoliyat mahsuliga nisbatan mualliflik huquqi deb atalib, qolgan barcha shaxsiy nomulkiy huquqlarning o'zagini tashkil etadi. Boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar ushbu huquq mavjud bo'lgan taqdirdagina, undan kelib chiquvchi o'ziga xos hosila, ikkilamchi huquqdir. Muallif sifatida tan olinishiga bo'lgan huquq o'z mohiyatiga ko'ra shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi, ya'ni birinchidan, ijodkor-yaratuvchi shaxsi bilan bog'liq, ikkinchidan mulkiy-iqtisodiy mazmunga ega emas, uchinchidan, huquq egasining o'zidan begonalashtirilishi mumkin emas. Bunday huquq ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli. Ijodiy xususiyatlarga ega bo'lmagan, odatdagi, mexanik tarzdagi mehnati bilan ijodiy faoliyat natijasini yaratishda qatnashgan shaxslar mualliflik huquqiga ega bo'lmaydi.

Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va berilmaydi. Ijodiy faoliyat natijasiga nisbatan mualliflik huquqi ijodkor yaratuvchining o'zigagina tegishli, undan har qanday tarzda, har qanday asosda begonalashtirilishi, boshqa birovga o'tkazilishi mumkin emas. Binobarin, bir shaxsning ikkinchi shaxs uchun, uning nomidan dissertatsiya yozib berishi, asar yozib berishi qonunga nomuvofiq bitim sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasida intellektual mulk obyektiga

nisbatan mualliflik majburlash harakatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilanmagan. Agar ijodiy faoliyat natijasi (ixtiro, asar) ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ular hammuallif hisoblanadi. Hammualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlari umumiy qoidalar bo'yicha teng bo'lishi e'tirof etiladi. Mulkiy huquqlar hajmi esa hammualliflar o'rtasida o'zaro kelishuv asosida belgilanadi va noteng hajmda bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Qonunda intellektual mulkning ayrim obyektlariga nisbatan asarning to'laligicha hammualiflari deb hisoblanadigan shaxslar doirasi cheklab qo'yilishi mumkin. Ushbu qoida intellektual mulk obyektini yaratishda g'oyat ko'pchilik qatnashadigan turlariga nisbatan amal qiladi.

Yaratilish fakti sababli huquqiy muhofaza qilinadigan obyekt-larga nisbatan vujudga keladi va rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab qilinmaydi. Vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig'i asosida huquqiy muhofazaga olinadigan intellektual mulk obyektiga nisbatan mualliflik huquqiy muhofaza yorlig'i hujjati yoki boshqa hujjat asosida guvohlantiriladi. Masalan, Seleksiya yutuqlari haqidagi qonunning 4-moddasiga asosan, Patent idorasi tomonidan o'zi yaratgan obyektga nisbatan patent egasi bo'lmagan har bir seleksiyachiga mualliflik huquqini tasdiqlovchi seleksiyachi guvohnomasi beriladi.

Barcha shaxsiy huquqlar kabi muallif-yaratuvchi huquqlari muddatsiz himoya qilinadi.

4-§. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar

Intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi.

Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan intel-
lektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Intellectual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq egasi bu huquqni boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga, intellectual mulk obyektidan boshqa shaxs foydalanishiga ruxsat berishga haqli va agar bu fuqarolik qonunchiligiga va boshqa qonunlarning qoidalariga zid bo'lmasa, ularni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Mutlaq huquqlarni cheklashga, shu jumladan, intellectual mulk obyektidan boshqa shaxslar foydalanishiga imkoniyat berish yo'li bilan cheklashga, bu huquqlarni haqiqiy emas deb topishga va ularni tugatishga (bekor qilishga) ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda, doiralarda va tartibda yo'l qo'yiladi.

Mutlaq huquqlarni cheklashga, agarda bunday cheklash intellectual mulk obyektidan normal foydalanishga zarar yetkazmagan va huquq egalarining qonuniy manfaatlarini kamsitgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida mutlaq huquqlar deyilganda, bunday huquq sohiblari (egarlari) ni turli harakatlar sodir etish (ijodiy faoliyat mahsulidan foydalanish, uni tasarruf etish kabilar) ga haqli hamda vakolatli ekanligi va ayni vaqtda boshqa har qanday shaxslarga yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etishning taqiqlanishini ta'minlovchi subyektiv mutlaq (absolyut) huquq tushuniladi. Mutlaq huquqlarning huquqiy mexanizmi odatdagidek egallab turishi mumkin bo'lgan obyektlarga nisbatan huquq egasining mulkiy huquqlari amalga oshirishini ta'minlovchi muhim vositadir. Biroq mulkiy huquq va mutlaq huquqlar aslo bir xil tushunchalar emas.

Intellectual faoliyat natijasida yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellectual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi. Mutlaq huquqlar o'z xususiyati va mazmuniga ko'ra mulkiy huquq hisoblanadi.

Intellectual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra foydalanish deyilganda, huquq egasining o'z erki, irodasi bilan, hech qanday majburlashsiz, tazyiqlarsiz foydalanishi tushuniladi.

Obyektlardan har qanday shaklda va turli usulda foydalanish deyilganda, undan turli obyektiv shakllarda: qo'lyozma, bosma asar, apparat, qurilma, etiketka, har xil yorliqlar, partetura, maket, inshootlar, haykallar va shu kabilarda hamda turli vositalar yordamida qo'lyozma shaklida tarqatish, nashr etish, og'zaki o'qish, reklama prospektlariga joylashtirish, qurilishlarda mujassamlashtirish va hokazo usullarda foydalanish (ekspluatatsiya qilish) tushuniladi.

Obyektdan foydalanish shakllari va usullari qonun yo'l qo'ygan asoslarga to'la muvofiq bo'lishi shart. Buning uchun mutlaq huquq egasi belgilangan talablarga rioya qilishi kerak. Masalan, yangi ixtiro asosida avtomobil yasagan ixtirochi bu avtomobilni tegishli davlat idoralarida (masalan, Davlat avtomobil nazoratida) qayd ettirgan bo'lishi shart. Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlariga nisbatan tovar belgilari bolalar muassasalarida reklama prospektlariga joylashtirilishi mumkin emas. Yangi dori-darmonlar yaratgan shifokor undan foydalanishda qonunda belgilangan talablarga rioya qilishi shart. Aks holda intellektual mulk obyektidan foydalanish qonuniy hisoblanmaydi.

Huquq egasiga mutlaq huquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Agarda mutlaq huquq bir necha shaxsga tegishli bo'lsa (masalan, hammualliflarga), uchinchi shaxslar mutlaq huquq obyektidan foydalanish uchun barcha huquq egalaridan ruxsat olishi shart.

Uchinchi shaxslarning mutlaq huquq egasidan obyektidan foydalanishga olingan roziligi aniq-yaqqol ifodalangan va tegishli huquqiy shaklda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart. Indamaslik, sukut rozilik hisoblanmaydi.

Ko'pgina intellektual mulk obyektlaridan ayni bir vaqtda cheksiz miqdordagi uchinchi shaxslarning foylanish imkoniyati mavjud. Biroq uchinchi shaxslar bunday imkoniyatdan har doim faqat mutlaq huquq egasining roziligi asoslaridagina foydalanishi shart.

Intellektual mulk obyektidan mutlaq huquq egasining roziligini olmasdan foydalangan uchinchi shaxslar tegishli fuqarolik-huquqiy tartibda javobgar bo'ladi. Huquq egasi o'z huquqlarini sud tartibida himoya qilishni, uchinchi shaxslardan huquqni buzish harakatlarini to'xtatishni, keltirilgan hamma zararni, shu jumladan, ma'naviy zararining qoplanishi, uchinchi shaxslarning huquq-buzarlik natijasida olgan barcha daromad va foydalarni o'ziga undirib berilishini talab qilishga haqli.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq egasi bu huquqni boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga, intellektual mulk obyektidan boshqa shaxs foydalanishiga ruxsat berishga haqli va agar FK, boshqa qonunlarning qoidalariga zid bo'lmasa, ularni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Umumiy qoidaga ko'ra intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquq mulkiy huquq sifatida fuqarolik muomalasida erkin harakatda bo'ladi. U turli bitimlar va shartnomalar narsasi (predmeti) bo'lishi mumkin. Binobarin, intellektual mulk obyektiga bo'lgan mutlaq huquq egasi bu huquqni haq evaziga yoki tekinga boshqa shaxslarga to'liq yoxud qisman o'tkazish (sotish, hadya qilish, ma'lum cheklangan doirada foydalanishga ruxsat berish kabilar) ga haqli.

Mutlaq huquq to'liq o'tkazilganda huquq egasi mutlaq huquqni to'liq hajmda uchinchi shaxsga o'tkazadi, demak u bu huquqni o'zidan to'la begonalashtiradi, natijada uchinchi shaxs mutlaq egasiga aylanadi.

Mutlaq huquq qisman o'tkazilganda huquq egasi o'z huquqining ma'lum qismini o'zida saqlagan holda qolganini uchinchi shaxslarga o'tkazadi.

Mutlaq huquqlarni boshqa shaxslarga to'liq yoki qisman o'tkazishni huquqiy rasmiylashtirish shartlari va tartibi FKning 1035-moddasi sharhida berilgan.

Intellektual mulk obyektidan boshqa shaxslarning foydalanishiga ruxsat berish bu obyektga nisbatan mutlaq huquq egasining vakolatiga kiradi. Obyektdan foydalanishga ruxsat berishda mutlaq huquq obyekt egasining o'zida qoladi, undan begona-

lashtirilmaydi, bunda uchinchi shaxslarda obyektidan foydalanish huquqigina vujudga keladi. Foydalanish shartlari va tartibi mutlaq huquq egasi bilan foydalanuvchi o'rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasi o'z huquqini FK va amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan har qanday tarzda tasarruf etishga haqli. Masalan, mutlaq huquqlar egasi bu huquqlarni o'z majburiyati yoki uchinchi shaxslar majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash usuli sifatida garovga qo'yishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Intellektual mulk obyektlari.
2. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
3. Intellektual mulk obyektlariga, shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga nimalar kiradi?
4. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar nimadan iborat?

50-BOB. MUALLIFLIK VA TURDOSH HUQUQLAR

1-§. Mualliflik huquqi tushunchasi

Mualliflik huquqi — bu fan, madaniyat, adabiyot, ixtiro, foydali model, sanoat sohasida yaratilgan yangiliklarga beriladigan huquq.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga bo'lgan mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy huquqlar patentga asoslangan huquqlar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran vujudga keladi.

Sanoat mulki obyekt (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi) ni o'z ijodiy mehnati bilan shaxsan yaratgan jismoniy shaxs bu obyektning muallifi deb e'tirof etiladi.

Sanoat mulki obyektiga huquqiy muhofaza yorlig'ini olish uchun topshirilgan talabnomani ko'rib chiqishning istalgan bosqichida muallif ariza berib, sanoat mulki obyektiga o'z nomini yoki maxsus nom berish huquqiga ega.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga bo'lgan mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy huquqlar patent (guvohnoma) ga asoslangan huquqlar bilan aynan bir vaqtdan boshlab vujudga keladi. Binobarin, mualliflik huquqi va boshqa shaxsiy huquqlar ham shu vaqtdan boshlab vujudga keladi va patentga asoslangan huquqlardan farqli ravishda muddatsiz amal qiladi.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi muallifiga qonun hujjatlari asosida maxsus huquqlar, imtiyozlar va ijtimoiy tushadigan afzalliklar berilishi mumkin.

FKda, boshqa qonun hujjatlarida muallifga tegishli quyidagi maxsus huquqlar va ularni himoya qilish bo'yicha me'yorlar belgilab qo'yilgan: obyektning muallifi sifatida huquqiy muhofaza yorlig'ida qayd etilishi va bu huquqning hamma tomonidan tan olinishi, rioya etilishiga bo'lgan huquq. O'zbekiston Respublikasi

Jinoyat kodeksining 149-moddasiga asosan mualliflikni o'zlash-tirish, hammualliflikka majbur qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan; muallifning sanoat mulki obyektiga nom berish huquqi; muallif sanoat mulki obyektidan bu obyektga nisbatan mutlaq huquq egasidan ruxsat olmay va haq to'lamay ilmiy tadqiqot va shaxsiy maqsadlarda foydalanishga haqli; patent (guvohnoma) egasi bo'lmagan sanoat mulki obyektining muallifi mazkur obyektidan foydalanganligi va unga doir litsenziya sotilganligi uchun mukofot puli olishga haqlidir. Haq miqdori, uni to'lash tartibi ish beruvchi, patent egasi yoki ularning huquqiy vorisi bilan tuzilgan shartnoma asosida belgilanadi.

Patent (guvohnoma) egasi uning amal qilish muddati davomida muallifga quyidagilar hisobidan haq to'laydi: obyektidan foydalanganlikdan keladigan foyda (daromad); obyekt asosida ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) tannarxi; obyekt uchun berilgan litsenziya to'lovlari; litsenziya shartnomasi bo'yicha mukofot puli litsenziya shartnomasida ko'rsatilgan to'lov valutasida ham to'lanishi mumkin (Qonunning 34-moddasi); qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda sanoat mulki obyektining mualliflari qator imtiyozlar va afzalliklar (shtatlar qisqarganda ishda qoldirishda imtiyoz, ijodiy ta'tilga chiqish huquqi kabilar) ga ega bo'lishi, ularga davlat mukofotlari, ilmiy daraja va faxriy unvonlar berilishi mumkin.

Sanoat mulki obyektiga huquqiy muhofaza berish haqidagi talabnomada obyektни o'z ijodiy mehnati bilan yaratgan shaxs uning muallifi sifatida qayd etiladi. Bu holatning aksi (obyektning muallifi boshqa shaxs ekanligi) isbotlab berilmaguncha, talabnomada obyekt muallifi sifatida ko'rsatilgan shaxsning mualliflik prezumpsiyasi amal qiladi. Mualliflik haqida nizo chiqqan taqdirda mualliflik huquqi vujudga kelishidan avval mavjud bo'lgan faktlar va holatlar (mualliflik huquqi da'vogarning obyekt bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganligi, ijobiy natijalarga erishgani va hokazo) dalil, isbot tariqasida jalb etilishi mumkin. Huquq yuzaga kelishidan keyin vujudga kelgan faktlar va holatlar mualliflikni tasdiqlovchi dalil, isbot o'miga o'tmaydi.

Basharti, sanoat mulki obyektini bir necha jismoniy shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati asosida yaratilgan bo'lib, ular o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning barchasi bu obyektning teng huquqli hammuallifi deb e'tirof etiladi.

Sanoat mulki obyektini hammualliflarining obyekt bo'yicha munosabatlari o'zaro kelishuv asosida, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda sud tomonidan belgilanadi.

Sanoat mulki obyektini yaratishda noijodiy tarzda faoliyat (texnikaviy, tashkiliy yoki matematik jihatdan yordam, huquqlarning rasmiylashtirilishiga ko'maklashish va hokazo) orqali yordam berish hammualliflikka sabab bo'lmaydi. Biroq ular Qonunning 35-moddasiga asosan, sanoat mulki obyektlarini yaratish va ulardan foydalanishda ko'maklashgan shaxs sifatida mukofot olishga haqli.

Xodim o'z xizmat majburiyatlarini yoki ish beruvchidan olgan aniq topshiriqni bajarish vaqtida yaratgan ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga (xizmat ixtirosiga) patent olish huquqi, basharti, bu ular o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, ish beruvchiga tegishli bo'ladi.

Xizmat ixtirosi, foydali modeli, sanoat namunasi uchun muallifga to'lanadigan mukofot puli miqdori, to'lov sharti va tartibi u bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuv bilan belgilab qo'yiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda qarorni sud chiqaradi. Basharti muallif va ish beruvchining xizmat ixtirosi, foydali modeli yoki sanoat namunasini yaratishga qo'shgan hissasini aniq belgilashning iloji bo'lmasa, ish beruvchi olgan yoki oladigan foydaning yarmisiga bo'lgan huquq muallifniki deb e'tirof etiladi.

Quyidagi hollarda sanoat mulki obyektiga nisbatan patent (guvohnoma) olish huquqi obyekt muallifi bilan mehnat shartnomasi (bitimi, kontrakti) tuzgan ish beruvchiga tegishli:

— obyektini xodim o'z xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida yaratgan bo'lsa;

— obyekt xodim tomonidan ish beruvchining aniq muayyan xizmat topshirig'ini bajarish natijasida yaratilgan bo'lsa;

— basharti bu holat sanoat mulki obyektining muallifi bilan ish beruvchi o'rtasida shartnoma (kontrakt) da nazarda tutilgan bo'lsa (agar yuqoridagi holatlardan biri mavjud bo'lsa-yu, obyektiga patent olish huquqi ish beruvchiga tegishli bo'lishi haqida kelishuv bo'lmasa, u holda patent olish huquqi muallifning o'zida qoladi).

Qonunda, shuningdek, xizmatchi korxonaning ixtisosiga texnik bilimlar yordamida yaratilgan sanoat mulki obyektiga patent olish huquqi ham ish beruvchiga tegishli bo'lishi nazarda tutiladi.

Odatda, obyekt yaratilishida xodim o'z ijodiy mehnati bilan, ish beruvchi esa mehnat sharoitini yaratish, zarur asbob-uskuna, adabiyotlar, ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali ishtirok etadi. Obyektdan foydalanishda olinadigan daromadni taqsimlashda kim qancha hissa qo'shganligi hisobga olinadi va shunga mutanosib ravishda foydadan ulush beriladi. Agarda obyektни yaratishda xodim va ish bajaruvchi qo'shgan hissalarini aniq belgilashning iloji bo'lmasa, obyektdan foydalanish yoki litsenziya berish asosida ish beruvchi oladigan (olgan) foydaning yarmi (50 foizi) muallifga tegishlidir.

Patentga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi (patentni berish to'g'risidagi) shartnoma yozma shaklda tuzilishi va patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Uni yozma shaklda tuzishga yoki ro'yxatdan o'tkazish talabiga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi.

Sanoat mulki obyektiga berilgan patentga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi shartnoma haq evaziga yoki tekin ekanligidan qat'i nazar, yozma ravishda tuzilishi shart. Bunday shartnomani shakllantirishda FKning 107-moddasida belgilab qo'yilgan bitimning yozma shakliga oid qoidalariga rioya qilinishi lozim.

Yozma ravishda tuzilgan shartnoma Davlat Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Ro'yxatdan o'tkazishga vakolatli davlat idorasi, eng avvalo, shartnoma shartlarini qonunga muvofiqligi nuqtayi nazaridan tekshiradi. Qonunga nomuvofiq shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda uni qonunga muvofiqlashtirish taklif etiladi.

Umumiy qoidalar bo'yicha shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilishida qanchalik maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan

baholanmaydi (davlat va jamiyat manfaatlariga ataylab xilof tuzilgan shartnomalar bundan mustasno). Shartnoma ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

Shartnomani yozma ravishda tuzishga yoki ro'yxatdan o'tkazish talabiga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi. FKning 112-moddasiga asosan, bunday shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi. Agar shartnoma yozma ravishda tuzilsa-yu, ammo taraflardan biri uni davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan bitimni ro'yxatdan o'tkazish haqida qaror chiqaradi. Bunday holda shartnoma FKning 112-moddasi 3-qismiga binoan ro'yxatdan o'tkaziladi. Shartnomani davlat ro'yxatidan o'tkazishdan asossiz bosh tortgan taraf shartnomani tuzishni kechiktirganligi tufayli yetkazilgan zararni ikkinchi tarafga to'lashi lozim.

Shartnomadagi taraflar tomonidan ushbu sharhlanayotgan modda talablariga rioya etmaslik oqibatlariga nisbatan FKning 113—114-moddalarida belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

2-§. Mualliflik huquqining subyektlari, obyektlari va belgilari

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi, qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat'i nazar tatbiq etiladi. Yozma shakldagi yoki moddiy jismda boshqacha usulda ifodalangan asar (qo'lyozma, yozuv mashinkasida yozilgan yozuv, notali yozuvlar, texnika vositalari yordamidagi yozuv, shu jumladan, audio yoki video yozuv, ikki o'lchovli yoki hajmiy-fazoviy shaklda yaratilgan tasvir va hokazo) undan uchinchi shaxslarning foydalanish imkoniyati bor-yo'qligidan qat'i nazar, obyektiv shaklga egadir. Og'zaki yoki moddiy jismda ifodalanmagan boshqa asar, basharti u uchinchi shaxslar idrok eta oladigan holga kelgan bo'lsa (omma oldida so'zlash, ommaviy ijrochilik va hokazo), obyektiv shaklda bo'ladi.

Mualliflik huquqi e'lon qilingan (oshkor qilingan, chop etilgan) va e'lon qilinmagan asarlarga ham tatbiq qilinadi. Mualliflik huquqi g'oyalar, konsepsiyalar, tamoyillar, tizimlar, taklif qilina-

yotgan yechimlar, obyektiv mavjud kashfiyotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki boshqa biron-bir rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Bundan tashqari, har qanday asar alohida elementlar, masalan, badiiy obrazlar, g'oya, sujet, til, gipoteza, ilmiy faktlardan iborat bo'ladi. Bunday elementlarning ayrimlari asarning shakliga taalluqlidir (masalan, badiiy obrazlar, til); boshqa elementlar esa hevosita asar mazmuniga daxldor, masalan, g'oya, sujet. Mualliflik huquqi asar mazmunini tashkil qiluvchi elementlarni asarda aks etgan shaklda qo'riqlaydi. Chunonchi, g'oya mualliflik huquqi bilan himoya qilinmasa-da, ammo u asarda qandaydir shaklda ifodalangan bo'lishi mumkin. Agar ilmiy maqolada kashfiyot bayon qilinsa, bunday kashfiyot bayon qilingan shaklda muhofazalanadi.

Mualliflik huquqining obyektlari hisoblanmaydigan asarlar va ularga o'xshash faoliyat natijalari ro'yxati Fuqarolik kodeksining 1044-moddasida sanab o'tilgan. Rasmiy hujjatlar, ramzlar va belgilarning loyihalari mualliflik huquqining obyekti sifatida e'tirof etilishi xususiyatlari qonunda mustahkamlangan.

Qonunda birinchi marta mualliflik huquqi bilan qo'riqlanadigan obyektlar jumlasiga «manzarali amaliy va sahna bezagi san'ati asarlari» kiritildi. Manzarali amaliy san'at asarlari jumlasiga amalda foydalaniladigan buyumlarga ko'chirilgan ikki o'lchovli yoxud uch o'lchovli, shu jumladan, badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat yo'li bilan tayyorlangan asarlar kiradi.

Audiovizual asarlar ham xuddi shuningdek, birinchi marta mualliflik huquqi bilan qo'riqlanadigan obyekt sifatida ko'rsatib o'tildi. Audiovizual asarlar o'z ichiga kino, tele va videoasarlarni qamrab olib, bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali inson qabul qiladigan asarlar hisoblanadi.

Audiovizual asarlar jumlasiga janridan (badiiy, hujjatli, ilmiy-ommabop, o'quv, multiplikatsion va boshqalar), hajmidan (to'liq metrajli, qisqa metrajli, ko'p seriyali va boshqalar), ijro etish shaklidan (tovushli, oq-qora, rangli, kar-soqovlar uchun

ko'rsatuv va eshittirishlar va boshqalar) qat'i nazar, har qanday kino, tele va videofilmlar bilan bir qatorda slayd filmlar, diafilmlar va boshqa kino hamda teleasarlari kiradi. Amaliy jihatdan barcha audiovizual asarlari ssenariy muallifi, rassom, kompozitor, operator, aktyor va boshqa ijodkorlarning mehnati muharrir tomonidan yagona badiiy asarga birlashtirilishi natijasida vujudga keladi.

Qonunda belgilab qo'yilgan talablarni qanoatlantiruvchi asarlarning qismlari, nomi va hosila asarlar hammualliflik huquqi obyektlari hisoblanadi.

Hosila asarlarga quyidagilar kiradi: boshqa asarlarni qayta ishlash natijasida hosil etilgan asarlar (ishlanma asarlar, annotatsiya, referatlar, muxtasar xulosalar, sharhlar, insenirovkalar, aranjirovkalar hamda fan, adabiyot va san'at sohasidagi shunga o'xshash boshqa asarlar); tarjimalar; materiallarning tanlanganligi yoki joylashtirilganligiga ko'ra ijodiy mehnat natijasi bo'lgan to'plamlar (ensiklopediyalar, antologiyalar, ma'lumot bazalari) va boshqa jamlanma asarlar.

Hosila asarlarning yaratilishi uchun asos bo'lgan yoki ular o'z ichiga olgan asarlar mualliflik huquqi obyektlari bo'lishi yoki bo'lmashligidan qat'i nazar, hosila asarlar mualliflik huquqi bilan himoya qilinadi.

Asar nomining qo'riqlanishi muallifning asar daxlsizligiga bo'lgan huquqini qo'riqlash bilan chambarchas bog'liqdir, chunki asar nomi asar mazmunining tarkibiy qismi hisoblanib, uning o'ziga xos tashrifnomasidir. Asarning nomi mazmuni va asardan alohida holda ham huquqiy muhofaza obyekti bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi Qonunning (mazkur Qonunga 2002-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan) 10-moddasida mustahkamlab qo'yilgan normaga asosan, mualliflik huquqiga ega bo'lgan shaxs yoki uning huquqiy vorislari (merosxo'rlari) roziligini olmagan tarzda O'zbekiston

Respublikasida mashhur bo'lgan ilmiy asarlar, adabiyot va san'at asarlarining nomlari, ularning qahramonlari yoki iboralari, san'at asarlari yoki ularning ko'rinishlarini mahsulot va xizmat ko'rsatish belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish mumkin emas.

Binobarin, asar nomidan mahsulot yoki xizmat ko'rsatish belgisi sifatida foydalanishning alohida tartibi mavjud. Asar nomidan boshqa maqsadlarda foydalanish cheklangan tarzda amalga oshiriladi. Asarga nom qo'yishda muallif alohida yondashib, o'z erk-irodasiga asosan ish ko'rishi mumkin, chunki asar nomi muallif fantaziyasining natijasi hisoblanadi. Asarning nomi uning tarkibiy qismi sifatida mualliflik huquqi obyeksi bo'lib, uni belgilashda mutlaq huquq muallifga berilgan.

Ayni vaqtda muallif bu nomdan mahsulot yoki xizmat ko'rsatish belgisi sifatida foydalanishga ruxsat bersa, mahsulot ishlab chiqaruvchi bu nomni o'z mahsulotining belgisi sifatida rasmiylashtirishi va unga nisbatan mutlaq huquq sohibi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining FK 1046-moddasida asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu shaxs asar muallifi deb e'tirof etilishi mustahkamlab qo'yilgan. Asar birinchi marta e'lon qilinganda muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs, basharti boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, asar muallifi hisoblanadi.

Asar imzosiz yoki taxallus ostida e'lon qilingan taqdirda (muallifning taxallusi uning kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan hollar bundan mustasno), asarda ism-sharifi yoki nomi ko'rsatilgan nashr, basharti boshqa dalillar bo'lmasa, muallifning vakili hisoblanadi hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash huquqiga ega bo'ladi. Bu qoida bunday asar muallifi o'z shaxsini oshkor etgunicha va o'zining muallif ekanligini ma'lum qilgunicha amalda bo'ladi.

Asarga nisbatan subyektiv huquqlarga ega bo'lgan shaxs mualliflik huquqining subyeksi hisoblanadi. Amaldagi qonunlar bo'yicha mualliflik subyektiv huquqlariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari, ularning vorislari, boshqa huquqni qabul qiluvchilar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining o'zi

ega bo'lishi mumkin. Yuqoridagi har bir subyekt uchun asarga nisbatan huquq turlicha yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Biri uchun ijodiy faoliyati natijasida asar yaratish asos bo'lib xizmat qilsa, ikkinchisi vorislik bo'yicha mualliflik huquqlarini olsa, uchinchisi mualliflik shartnomasi va hokazo orqali subyektiv huquqlarga ega bo'ladi.

Mualliflik huquqining muhim subyekti o'z ijodiy faoliyati bilan asar yaratgan shaxs hisoblanadi. Jinsidan, yoshidan, muomala layoqatidan qat'i nazar, har qanday shaxs asar muallifi bo'lishi mumkin. Nafaqat asl (original) asar ijodkorlari, balki hosila asarlariga nisbatan ham mualliflik huquqi tan olinadi. Bundan tashqari, ijodiy asarlar voyaga yetmaganlar, o'smirlar tomonidan, shuningdek, muomalaga layoqatsiz yoxud muomala layoqati cheklangan shaxslar tomonidan ham yaratilishi mumkin. Bunday toifadagi shaxslarning mualliflik huquqlari ularning ota-onalari, vasiy yoki homiylari tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmaganlar va muomala layoqati cheklanganlarning mualliflik huquqlarini amalga oshirish birmuncha boshqacha. O'n to'rt yoshga to'lmagan, shuningdek, muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning mualliflik huquqlarini ularning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylari amalga oshiradi. Jumladan, voyaga yetmaganlar nomidan mualliflik shartnomalarini ularning ota-onalari yoxud qonuniy vakillari tuzadi. Bu ota-onalar, qonuniy vakillar ushbu shartnoma bo'yicha o'zlariga qandaydir majburiyatlarni olib, ularning bajarilmasligi uchun javobgar bo'ladi, degan ma'noni bildirmaydi. Shartnoma bo'yicha taraf bo'lib voyaga yetmagan shaxsning o'zi qatnashadi, ota-onalar va qonuniy vakillar esa voyaga yetmagan nomidan qatnashadi, xolos. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar o'z mualliflik huquqlarini mustaqil amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari bo'yicha jismoniy shaxslar bilan bir qatorda yuridik shaxslar ham mualliflik huquqlariga ega bo'lishi mumkin. Agar yuridik shaxslar ijodkor huquqlarini qabul qiluvchi bo'lib hisoblansa, uning mualliflik huquqlariga ega bo'lishiga hech qanday shubha tug'dirmaydi. Masalan, yuridik

shaxs ayrim mualliflik vakolatlariga muallif xizmat vazifasini bajarish vaqtida asar yaratgan hollarda ega bo'lishi mumkin. Barcha hollarda yuridik shaxs ilk marotaba jismoniy shaxs, ijodkor ega bo'lgan mualliflik huquqlariga qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha hosila tarzida ega bo'ladi. Muayyan jismoniy shaxs (shaxslar) ning ijodiy mehnatini o'z ichiga qamrab olmagan yuridik shaxsning qandaydir ijodiy faoliyati to'g'risida so'z yuritish mantiqqa zid bo'lar edi. Yuridik shaxs faqatgina jismoniy shaxslarning erkin ijod qilishi uchun moddiy shart-sharoit yaratishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar ko'rganligi to'g'risida gapirish mumkindir, ammo bunday xatti-harakatlar yuridik shaxsning dastlabki mualliflik huquqlariga ega bo'lishini bildirmaydi. Shu bilan birga mualliflik huquqlarining subyektlari nafaqat mamlakatimiz fuqarolari, balki chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmaganlar ham bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida birinchi marta chop etilgan yoki chop etilmagan bo'lsa-da, asl nusxasi biron-bir obyektiv shaklda uning hududidagi asarga bo'lgan mualliflik huquqi mamlakatimiz hududida amal qiladi. Bunday holda mualliflik huquqi muallifga va uning merosxo'rlariga, shuningdek, fuqaroligidan qat'i nazar, muallifning boshqa vorislariga tegishli deb e'tirof etiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon Intellektual Mulk to'g'risidagi Namunaviy qonunida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunining 10-moddasida mualliflik prezumpsiyasi o'z aksini topgan. Bu prezumpsiyaga asosan, agar boshqacha dalil, isbotlar bo'lmasa, asar birinchi marta e'lon qilinganda asarning asli yoki uning nusxasida muallif deb ko'rsatilgan shaxs nomi ko'rsatilgan nashr asar muallifi deb tan olinadi. Binobarin, ijodkor shaxs o'zining muallifligini, to boshqa shaxslar buning aksini isbotlamaguncha isbotlab o'tirishga majbur emas.

Ikki yoki undan ortiq fuqaroning birgalikdagi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi, mazkur asar bo'linmas bir butun yoki har biri mustaqil mazmunga ega qismlardan iborat ekanligidan qat'i nazar, hammualliflarga birgalikda tegishli bo'ladi. Basharti, asarning muayyan qismidan

uning boshqa qismlariga bog'liq bo'lmagan holda foydalanish mumkin bo'lsa, bu mustaqil mazmunga ega bo'lgan qism deb e'tirof etiladi.

Hammualiflarning har biri, basharti, ularning o'rtasidagi kelishuvda o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, asarning o'zi yaratgan mustaqil mazmunga ega bo'lgan qismidan o'z xohishiga ko'ra foydalanishga haqlidir. Basharti, mualliflarning asari bo'linmas bir butunni tashkil etsa, asardan foydalanishni yetarli asoslar bo'lmay turib taqiqlab qo'yishga hammualiflardan hech biri haqli emas.

Asar bir necha ijodkor shaxslarning birgalikda, hamkorlikda qilgan mehnatlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Mualliflik huquqida birgalikda ijod qilgan ikki yoki undan ortiq shaxslarga hammualiflar deyiladi. Biroq asar yaratishda texnikaviy, moliyaviy hamkorlik qilish mualliflikni keltirib chiqarmaydi. Eng asosiysi, mualliflar o'z ijodiy mehnatlari bilan asar yaratishda ishtirok etgan bo'lishlari kerak.

Hammualiflikda yuzaga kelgan asarlar ikkiga bo'linadi: birinchidan, mazmun jihatidan bo'linmaydigan asarlar. Bunday asarlarni yaratishda o'z ijodiy mehnati bilan qatnashgan shaxslarning har biri asarning u yoki bu qismini yaratishi mumkin, ammo asardan biror qism, bob yoki bo'lim tushib qolsa, asar mazmuni to'la bo'lmaydi. Masalan, Fuqarolik huquqi bo'yicha darslikning bitimlarga, yuridik shaxslarga yoxud da'vo muddatiga bag'ishlangan biron-bir hobi olib tashlansa, mazkur darslik o'z funksiyasini bajarishga qodir bo'lmaydi. Shu sababli bunday asar mazmun jihatidan bo'linmaydi.

Ikkinchidan, mazmun jihatidan bo'linadigan asarlar mavjud bo'lib, bunday asarlarning ma'lum qismlari mustaqil mazmunli bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, hammualiflar asar yaratishda boshqa shaxslar bilan munosabatlarga kirishishlari natijasida, bunday shaxslar mualliflarga bevosita ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan texnikaviy yordamlar, jumladan, tajriba ishlarini o'tkazish, mablag' bilan ta'minlash, turli jadvallar tuzish va boshqa masalalarda hamkorlik qilishlari mumkin. Bunday hollarda

hamkorlik qilgan shaxslarning xatti-harakatida ijodiy faoliyatning alomatlari bo'lmaganligi sababli, bunday shaxslar mualliflik huquqidan foydalana olmaydi.

Ilmiy to'plamlar, ensiklopedik lug'atlar va vaqtli matbuot nashrini mustaqil ravishda yoki biron-bir nashriyot vositasida chiqaruvchi shaxslar ana shu yaxlit o'z nashrlariga nisbatan mualliflik huquqlariga ega bo'ladi. Bunday asarlarga kiritilgan asarlarning mualliflari o'z-o'zidan mualliflik huquqlariga ega bo'ladi. Kinofilm va boshqa filmlarga nisbatan mualliflik huquqi uning mualliflariga ushbu filmni olgan yuridik shaxsga tegishli bo'ladi. Sahnaga qo'yuvchi rejissyor, bastakor, rassom, shuningdek, kinofilmga tarkibiy qism bo'lib kirgan boshqa asarlarning mualliflariga mualliflik huquqi har kimning o'z asariga nisbatan tegishli bo'ladi. Radio va televideniye ko'rsatuvlari, eshittirishlariga nisbatan mualliflik huquqi bularni yetkazib beruvchi tashkilotlarga, bu eshittirish, ko'rsatuvlarga kiritilgan asarlarga nisbatan esa ularning mualliflariga tegishli bo'ladi. U yoki bu shaxslarni hammuallif deb tan olishning asosiy shartlaridan biri ular o'rtasidagi o'zaro kelishuvning mavjudligidir. Bunday kelishuv mualliflarning asar yaratishga qaratilgan birgalikdagi ijodiy mehnatlari va o'z erk, ixtiyorlari asosida erkin amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Bunday kelishuv har qanday shaklda va asar ustida ishlashning har qanday jarayonida sodir bo'lishi mumkin. Kelishuv predmeti tugatilgan asarga qo'shimcha kiritishga qaratilgan bo'lishi ham mumkin.

Kelajakda yaratilishi lozim bo'lgan asarning ijodiy hamkorligi yuridik jihatdan ahamiyatga ega bo'lmagan dastlabki kelishuvdir, binobarin, yuridik oqibatlar kelib chiqishi uchun hammualliflar tomonidan asar yaratilgan bo'lishi lozim. Ba'zan vafot etgan mualliflarning asarlarini qayta ishlash natijasida hammualliflik kelib chiqishi mumkin. Bu holatda hammualliflik tegishli vorislar yoxud asar daxlsizligini qo'riqlash zimmasida bo'lgan shaxslar roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Boshqa asarlarni qayta ishlagan shaxslar, tarjimonlar to'plamlar va jamlama asarlarning tuzuvchilari tegishlicha hosila asarlarning

mualliflari deb e'tirof etiladi. Hosila asarning muallifi qayta ishlangan, tarjima qilingan yoki jamlangan asarga kiritilgan asar muallifining huquqlariga rioya etgan taqdirdagina hosila asarga bo'lgan mualliflik huquqidan foydalanadi. Hosila asarlar yaratuvchilarining mualliflik huquqi boshqa shaxslarning muqaddam foydalanilgan asarlar asosida o'z hosila asarlarini yaratishiga to'sqinlik qilmaydi.

Hosila asarlar jumlasiga kiruvchi asarlar Fuqarolik kodeksining 1043-moddasida ko'rsatib o'tilgan. Bunday asarlar boshqa mualliflar (hammualliflar) ning ijodiy faoliyati natijalari bo'lgan fan, adabiyot, san'at asarlarini qayta ishlash, shuningdek, tarjima qilish, to'plash (yig'ish) va boshqa xil tarzda jamlash natijasida vujudga kelishi mumkin. Shuning bilan bunday asarlarni yaratish uchun asos bo'lgan asarlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmasligi ham mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharhlar hosila asar hisoblanadi. Aksincha, roman yoxud pyesaning tarjimasi hosila asar hisoblansa-da, ammo u mualliflik huquqining obyekti hisoblangan asarni tarjima qilish natijasida bunyodga keladi.

Muallifning tarjimaga ruxsat berish huquqi muallifning asar daxlsizligiga bo'lgan huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Asar muallifi tarjimadan tarjimonga nisbatan kam manfaatdor emas. Xuddi shu sababli u tarjimonni tanlash huquqiga ega. Shuning uchun amaliyotda «mualliflashtirilgan tarjima»lar ko'plab uchraydi.

Asarlar yaratilishini tashkil etuvchi shaxslarning huquqlari mualliflik huquqi institutining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Asar yaratilishini tashkil etuvchi shaxslar (ensiklopediyalarni nashrga tayyorlovchilar, filmlar prodyusserlari va shu kabilar) tegishli asarlarning mualliflari deb e'tirof etilmaydi, biroq qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, bunday shaxslar ana shunday asarlardan foydalanishda alohida huquqlarga ega bo'ladilar.

Audiovizual asar, shu jumladan, film yaratish xususida shartnoma tuzish, bashedi, bunday shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, mazkur asar mualliflarining asarni takrorlashga,

uni tarqatishga, omma oldida ijro etishga, barchaning e'tiboriga yetkazish uchun kabel orqali berishga, efirga uzatish yoki asardan boshqa har qanday tarzda ommaviy foydalanishga, film matnini subtitrlash va dublyaj qilishga bo'lgan alohida huquqlari asarning tayyorlovchiga o'tishiga olib kelmaydi. Mazkur huquqlar audio-vizual asarga bo'lgan mualliflik huquqining amal qilish muddati davomida amal qiladi.

Film tayyorlovchisi bu asardan har qanday tarzda foydalanilganida ham o'z ism-sharifi yoki nomini ko'rsatishga yoxud ism-sharifi yoki nomi ko'rsatilishini talab qilishga haqlidir. Film omma oldida namoyish etilganida musiqa asarining muallifi o'zining musiqa asari (matnli yoki matnsiz) uchun haq olish huquqini saqlab qoladi. Film muallifi va filmga bo'lgan mulkiy huquqning boshqa egalari roziligisiz filmning oxirgi variantini (yozuvning asl nusxasini) yo'q qilib yuborish taqiqlanadi.

Amaldagi qonun hujjatlarida ensiklopediyalar, ensiklopedik lug'atlar, ilmiy ishlarning davriy va davomli to'plamlari, ro'znoma hamda jurnallar va boshqalar nashrini mustaqil ravishda yoxud biron-bir nashr vositasida chiqaruvchi tashkilotlar, ana shu yaxlit o'z nashrlariga nisbatan mualliflik huquqlariga ega bo'lmasdan, balki bunday nashrlardan foydalanishning alohida huquqlarigina ularning nashrlariga tegishli bo'lishi mumkinligi mustahkamlangan.

Audiovizual asarlar turli-tuman san'at turlarining, yagona badiiy butunlikka organik jihatdan birlashtirilishidir. Kinofilm, telefilm yaratishda ssenariy muallifi, rassom, bastakor, operator, aktyor va boshqa shaxslarning ijodiy mehnatlari muharrirning san'ati bilan badiiy butunlikka birlashib ketadi. Audiovizual asar badiiy jihatdan bir butun asar bo'lishi bilan birga filmning ba'zi bir komponentlari bo'lgan musiqa, fotosuratlar, andozalar, kostumlar, chizmalar mualliflik huquqining mustaqil obyektlari sifatida ahamiyatli bo'lishi mumkin. Muharrir, operator, aktyor va boshqa shaxslarning hissalarini esa faqat nazariy jihatdangina mustaqil alohida-alohida obyektlarga ajratish mumkin. Har qanday film (havaskorlik filmidan tashqari) ga nisbatan mualliflik huquqi ushbu

filmni olgan korxonaga tegishli bo'lishi to'g'risidagi qoida ilgari amalda bo'lgan qonunlarda ham mustahkamlangan.

«Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasiga binoan kinofilm, telefilm, videofilmning to'liq mualliflari (mualliflari) bo'lib uni sahnalashtiruvchi rejissor, ssenariy muallifi, muayyan audiovizual asar uchun maxsus yaratilgan matnsiz va matnli musiqa asarining muallifi, sahnalashtiruvchi operator¹ hisoblanadi. Bunday asarning mualliflari tarkibiga aytib o'tilgan mualliflar bilan kelishuvga binoan filmda foydalanilgan boshqa asarlarning mualliflari kiritilishi mumkin.

Audiovizual asar mualliflari deyilganda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan mualliflar tushunilmog'i lozim va mazkur mualliflarning asarini takrorlashga, tarqatishga bo'lgan ushbu moddada ta'kidlangan huquqlari asarni tayyorlovchiga o'tkazilishi mumkin emas (film tuzish shartnomasida ko'zda tutilgan o'zgacha hollar bundan mustasno), ya'ni tayyorlovchi shaxs bunday asarga nisbatan mualliflik huquqlariga ega bo'lmaydi va ular bunday asarlardan foydalanishdagina alohida huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

Mualliflik huquqining himoya belgilari deganda, mualliflik huquqi egasi o'z huquqlaridan xabardor etish uchun asarning har bir nusxasida aks ettiriladigan va quyidagi uch elementdan iborat himoya belgisidan foydalanishi tushuniladi: doira ichiga olingan lotin imlosidagi «C» harfi; alohida mualliflik huquqlari egasining ismi (nomi); asar birinchi marta e'lon qilingan yil.

Mualliflik huquqining himoya belgisida ko'rsatilgan shaxs huquq egasi hisoblanadi.

Mualliflik huquqining vujudga kelishi, amalga oshirilishi, qo'riqlanishi uchun «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasiga binoan, asarni ro'yxatdan o'tkazish yoxud biron-bir rasmiyatchiliklarga yo'l qo'yilmaydi. Mualliflik huquqi asar og'zaki, yozma shaklda yoki uni idrok etish imkonini beradigan boshqa biron-bir tarzda obyektiv shaklda ifodalanish holatining sodir etilishi bilan asarlarga nisbatan tatbiq

¹ *Toshev B.* Mualliflik huquqi. —T.: 1997, 31-bet.

etilishi mumkin. Bunda biron-bir rasmiyatchilikka rioya qilish lozimligi emas, balki mualliflik huquqining egasi o'z huquqlaridan xabardor etish uchun asarning har bir nusxasida aks ettiriladigan himoya belgilaridan foydalanish mumkinligi tushuniladi. Asarda bunday himoya belgisining qo'yilishi respublikamizda yaratilgan asarlarning ayrim mamlakatlarda ham qo'riqlanishini ta'minlaydi. Xususan, Meksika, Filippinda asarda shunday belgining qo'yilgan bo'lishi shart hisoblanadi. Ammo chet mamlakatlarning aksariyatida bunday belgilar asarda qo'yilgan yoxud qo'yilmaganligi hech qanday huquqiy ahamiyatga ega emas.

«Elektron-hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi Qonun mazmuniga binoan, «huquq egasi o'z huquqlaridan foydalanish maqsadida EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazasining birinchi marta bosib chiqarilishidan e'tiboran mualliflik huquqining uch qismidan: doira yoki kichik qavs ichida olingan «C» harfi, huquq egasining nomi (ismi), EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazasi birinchi marta bosib chiqarilgan yil ko'rsatilgan yozuvdan tarkib topgan himoya belgisini qo'llashi mumkin».

Bunday himoya belgisini qo'llash alohida mualliflik huquqlari egasining ixtiyoriga bog'liq. Bu alohida mualliflik huquqlari egasining rozilgisiz hech kimning asardan tekin foydalanishga haqqi yo'qligini bildiradi. Asar barcha shaxslar tanishish, o'qish, o'rganish uchun imkon beradigan holatda bo'lsa ham, alohida mualliflik huquqlarining egasi himoya belgisi orqali uchinchi shaxslarning o'z asaridan ruxsatsiz foydalanishini taqiqlaydi.

Muallif asardan har qanday usulda foydalanishda alohida (mutlaq) huquqlarga egadir. Asarni takrorlash va uni tarqatish, boshqa yo'llar bilan realizatsiya qilish, xususan: asarni omma oldida namoyish etish (ko'rgazmaga qo'yish, eksponat sifatida ko'rsatish); asarning moddiy jismini tashkil etuvchi nusxasini ijaraga berish; asarni omma oldida ijro etish; asarni efirga uzatish (radio yoki televideniye orqali translatsiya qilish), shu jumladan, kabel yoki aloqa yo'ldoshi orqali berish; asarni texnika yordamida yozib olish;

asarning texnikaviy yozuvini eshittirish yoki ko'rsatish, shu jumladan, radio yoki televideniye orqali; asardan keyinchalik foydalanish maqsadida uni tarjima qilish yoki qayta ishlash; shaharsozlik, arxitektura, dizayn loyihasini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish asardan foydalanish hisoblanadi.

Asarga uning obyektiv shaklini, asl nusxasida qanday bo'lsa, shu holdagi shaklini qayta berish (asarni nashr etish, audio yoki videoyozuvlardan nusxa ko'paytirish va shu kabilar) asarni takrorlash hisoblanadi. Asar nusxalarini sotish, almashtirish, ijaraga berish yoki ular ishtirokida boshqa amallarni bajarish, shu jumladan, ularni import qilish asarni tarqatish hisoblanadi.

Muallifning asaridan foydalanishga bo'lgan alohida huquqlari uning mulkiy huquqlari hisoblanadi. Muallifning asardan foydalanishga bo'lgan alohida huquqi asarni ro'yobga chiqarish, undan foydalanish uchun ruxsat berish yoxud bunga ruxsat bermaslik kabi vakolatlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab tarkibli huquqdir. Ushbu muallifga tegishli alohida huquq o'z ichiga qamrab oladigan vakolatlarni muallifning shaxsan o'zi alohida-alohida tarzda yoki qisman amalga oshirishi mumkin. Bunday vakolatlardan biri asarni takrorlash (qayta aks ettirish) dir. Takrorlash deganda, asarni bir yoki undan ortiq nusxalarda har qanday moddiy shakllarda, jumladan, ovoz yoki videoyozuvlarda, EHM xotirasida qayta aks ettirishlar tushuniladi.

Asarni tarqatishga bo'lgan huquq deganda, asar nusxalarini fuqarolik muomalasiga chiqarish, jumladan, ularni sotish, asarning moddiy jismini tashkil etuvchi nusxasini ijaraga berish va boshqalar tushuniladi. Shu bilan bir qatorda, asarning nusxalari qonunga asosan fuqarolik muomalasiga chiqarilgan bo'lsa, qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari, muallifning roziligisiz va haq to'lamagan holda tarqatishga yo'l qo'yilishi mumkinligini nazarda tutadi, importga bo'lgan huquq, O'zbekiston Respublikasi hududida asar nusxalarni muallifning ruxsatisiz O'zbekiston hududida tarqatish maqsadida olib kelish o'z-o'zidan mualliflik huquqlariga zid hisoblanadi.

Asarni omma oldida namoyish qilish shundan iboratki, bunda ko'rgazmaga qo'yish, eksponat sifatida ko'rsatish yo'llari bilan

asarning, fonogrammaning asli yoxud nusxalari yetarli miqdorda chiqariladi. Asarni omma oldida ijro qilish deganda aktyor, qo'shiqchi, musiqachi yoki ifodali o'qiydigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot va san'at asarini boshqa bir tarzda ijro etadigan shaxslar tomonidan asarning omma oldida ijrosi tushuniladi. Asarni efirga uzatish (radio, televideniye orqali translatsiya qilish), shu jumladan, kabel yoki aloqa yo'ldoshi orqali berish holatining o'zi asardan foydalanish hisoblanadi.

Tarjimaga bo'lgan huquq, ya'ni mavjud asarni boshqa tilga o'girish ham asardan foydalanish hisoblanadi. Tarjimon biror adabiy asarning aslini muallifning rozilgisiz tarjima qilish faktining o'zi muallif huquqlariga xilof holda ish tutish (foydalanish) hisoblanadi. Chunki asardan daromad (foyda) olish maqsadida foydalanilganligi yoki undan foydalanish bunday maqsadga qaratilmaganligidan qat'i nazar, asardan foydalanilgan hisoblanadi. Tarjimaga bo'lgan huquqni ro'yobga chiqarish, asardan foydalanishni qamrab oladigan boshqa huquqlar, jumladan, asarni takrorlash huquqi bilan birga sodir bo'ladi.

Asardan keyinchalik foydalanish maqsadida qayta ishlash deganda, asar shaklini o'zgartirish, aranjirovka qilish va boshqalar tushuniladi. Asarga hatto unchalik ahamiyatga molik bo'lmagan o'zgartirish (muharrirning tahriri, kartinalar bilan to'ldirish va hokazo) kiritishga qaratilgan harakatlar uni qayta ishlash deb tushuniladi va bu haqda muallifning roziligi talab qilinadi.

Shuni ta'kidlash joizki, muallifning asardan foydalanishga qaratilgan alohida huquqlari ichida muallifning haq olish huquqi sanab o'tilmagan. Amaldagi qonun hujjatlari mazmuni muallifning haq olish huquqini boshqa mulkiy huquqlar: takrorlashga bo'lgan huquq, tarqatishga bo'lgan huquq, ommaviy ijro etishga bo'lgan huquq kabilarning tarkibiy qismi sifatida qarashni taqozo qiladi.

Muallif yoki huquqqa ega bo'lgan, boshqa shaxs shartnomaga, shu jumladan, ochiq savdoda tuzilgan shartnomaga binoan, asardan foydalanish borasidagi barcha huquqlarni o'zga shaxsga berishi (foydalanish huquqini boshqa shaxsga o'tkazishi) mumkin. Asardan foydalanish huquqi bir shaxsdan boshqa shaxsga universal huquqiy vorislik tartibida o'tadi.

Huquq egasi boshqa shaxsga asardan muayyan doirada foydalanish uchun ruxsatnoma (litsenziya) berishi mumkin. Bunday ruxsatnoma asardan uning dastlabki yoki qayta ishlangan shaklida, xususan, tarjima, aranjirovka tarzida va shu kabi usullardan foydalanishda asqatadi. Asardan foydalanishning har bir usuli uchun huquq egasidan maxsus ruxsatnoma talab qilinadi.

Mualliflik huquqi vorislarga vasiyat va qonun bo'yicha o'tadi. Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi. Ma'lumki, muallifning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquqlar, jumladan, mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar meros tarkibiga kirmaydi. Muallifga tegishli bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar faqatgina merosxo'rlar tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin.

Asardan foydalanish huquqi muallifning mulkiy huquqi hisoblanganligi sababli u huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tadi. Meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, muallifning hayotlik paytida homila bo'lgan va meros ochilgandan keyin tug'ilgan bolalari vasiyat hamda qonun bo'yicha merosxo'rlar bo'lishi mumkin. Meros ochilgan paytgacha qadar tuzilgan yuridik shaxslar, shuningdek, davlat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosga da'vogarlik huquqiga ega. Qonun bo'yicha vorislar jumlasiga kiradigan, shuningdek, kirmaydigan shaxslar ham vasiyat majburiyati yuzasidan muallifning huquqlarini oluvchilar hisoblanadi. Merosxo'rlar FKning 1135, 1141-moddalarida nazarda tutilgan tartib bilan chiqariladi.

Turdosh huquqlar

Televizorda futbol yoki boksni ko'rgansiz, unda sharhlovchi «translatiya» so'zini bir necha bor aytgani ham yodingizdadir. «Konsertda jonli ijro va fonogrammadan foydalaniladi» jumlasini ham sizga tanish. Bular — fuqarolik huquqi tili bilan aytganda, turdosh huquqlar hisoblanadi. Turdosh huquqlar obyektlari jumlasiga

ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kiradi. Ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlar — turdosh huquqlar subyektlaridir.

Turdosh huquqlarning yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun turdosh huquqlar obyektini ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, ko'rsatuv yoki eshittirishni efirga uzatish va kabel orqali yuborishni (retranslatsiya ham shunga kiradi) amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar, FKda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollardan tashqari, asardan, ijrodan, fonogrammadan yoxud efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuv yoki eshittirishidan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin. Retranslatsiya mualliflar, ijrochilar, fonogrammalarni tayyorlovchilar va boshqa huquq egalariining efirga uzatish, kabel orqali yuborish, barchaning e'tiboriga yetkazishga bo'lgan huquqlariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi kerak.

Soha qonunchiligi fonogramмага va (yoki) bunday fonogramмага yozilgan ijroga bo'lgan mutlaq huquqlar egalari o'z huquqlaridan xabardor qilish uchun turdosh huquqlarning muhofaza belgisidan foydalanishlari mumkinligini belgilaydi. Bu belgi fonogrammaning har bir nusxasida va (yoki) u saqlanadigan har bir g'ilofda aks ettiriladi hamda u quyidagilardan iborat:

- aylana ichidagi lotincha «P» harfi;
- mutlaq turdosh huquqlar egasining ismi (nomi);
- fonogramma birinchi marta chop etilgan yil.

Turdosh huquq ijrochilari quyidagi huquqlarga egadir:

- ismiga bo'lgan huquq;
- ijroni ijrochining sha'ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday tarzda buzib ko'rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz etilishidan himoya qilish huquqi;

— ijrodan har qanday shaklda foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlar, shu jumladan, ijrochining ijrosidan foydalanishning har bir turi uchun haq olishga bo'lgan huquq.

Ijrochining ijrodan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlari quyidagi harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarga ruxsat berish huquqini anglatadi:

— ijro yozuvini takrorlash (takrorlash huquqi);

— ijro yozuvining asl nusxasi yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan tarqatish (tarqatish huquqi);

— ijro yozuvini barchaning e'tiboriga yetkazish (barchaning e'tiboriga yetkazish huquqi);

— ijro yozuvining asl nusxasi yoki nusxalarini, hatto ular ijrochining roziligi bilan tarqatilganidan keyin hamda asl nusxaga va nusxalarga bo'lgan mulk huquqidan qat'i nazar, prokatga berish (prokatga berish huquqi);

— ilgari yozilmagan ijrolarni yozib olish (yozib olish huquqi);

— ijroni efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish, agar bunday eshittirish yoki ko'rsatuv uchun foydalaniladigan ijro ilgari efirga uzatilmagan bo'lsa yoki yozuvdan foydalanilgan holda amalga oshirilmasa (yozib olinmagan ijroni efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish huquqi);

— ijro yozuvini efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish, agar dastlab bu yozuv notijorat maqsadlar uchun tayyorlangan bo'lsa (ijro yozuvini efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish huquqi).

Agar ijro yozuvining nusxalari ularni sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish vositasida fuqarolik muomalasiga qonuniy kiritilgan bo'lsa, ularning bundan buyongi tarqatilishiga ijrochining roziligisiz va unga haq to'lanmagan holda yo'l qo'yiladi. Ijrochilar o'z huquqlarini ijro etiladigan asarlar mualliflarining huquqlariga rioya etgan holda amalga oshirishlari kerak.

FK fonogramma tayyorlovchining huquqlarini ham belgilaydi. Fonogrammani tayyorlovchiga FKga va boshqa qonunlarga muvofiq mazkur fonogrammadan foydalanishda mutlaq huquqlar tegishlidir.

Fonogrammani tayyorlovchining mutlaq huquqlariga quyidagilar kiradi:

- fonogrammani takrorlash (takrorlash huquqi);
- fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan tarqatish (tarqatish huquqi);
- fonogrammani barchaning e'tiboriga yetkazish (barchaning e'tiboriga yetkazish huquqi);
- fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini, hatto ular fonogrammani tayyorlovchi tomonidan yoki uning roziligi bilan tarqatilganidan keyin hamda uning asl nusxasi yoki nusxalariga bo'lgan mulk huquqidan qat'i nazar, prokatga berish (prokatga berish huquqi);
- fonogrammaning asl nusxasi yoki nusxalarini, shu jumladan, fonogrammaga bo'lgan mutlaq huquqlar egasining roziligi bilan tayyorlangan nusxalarini tarqatish maqsadida import qilish (import qilish huquqi);
- fonogrammani efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish (efirga uzatish yoki kabel orqali yuborish huquqi);
- fonogrammaga tuzatishlar kiritish yoki uni boshqacha usulda qayta ishlash (qayta ishlash huquqi).

Fonogrammani tayyorlovchi o'z fonogrammasidan foydalanishning har bir turi uchun haq olish huquqiga ega. Fonogrammalarni tayyorlovchilar o'z huquqlarini foydalanilayotgan asarlar va ijrolar mualliflari hamda ijrochilarining huquqlariga rioya etgan holda amalga oshirishlari kerak. Fonogrammadan daromad olish maqsadida foydalanilganligi yoki undan foydalanish bunday maqsadga qaratilmaganligidan qat'i nazar, fonogrammadan foydalanilgan deb hisoblanadi.

Shuningdek, qonunda efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotning huquqlari ham normalangan bo'lib, unga ko'ra efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotga o'z ko'rsatuvi yoki eshittirishidan foydalanishda FKga va boshqa qonunlarga muvofiq mutlaq huquqlar tegishli ekanligi belgilangan. Xususan, bunday tashkilot ko'rsatuv yoki

eshittirish yozuvini takrorlash (takrorlash huquqi); ko'rsatuv yoki eshittirish yozuvining asl nusxasi yoxud nusxalarini sotish yoki mulk huquqini o'zgacha tarzda boshqa shaxsga o'tkazish yo'li bilan tarqatish (tarqatish huquqi); ko'rsatuv yoki eshittirish yozuvini barchaning e'tiboriga yetkazish (barchaning e'tiboriga yetkazish huquqi), ko'rsatuv yoki eshittirishni yozib olish (yozib olish huquqi); kirish pulli joylarda ko'rsatuv yoki eshittirishni barchaning e'tibori uchun yuborish (kirish pulli joylarda barchaning e'tibori uchun yuborish huquqi); ko'rsatuv yoki eshittirishni retranslatiya qilish (retranslatiya huquqi); ko'rsatuv yoki eshittirishni kabel orqali barchaning e'tibori uchun yuborish yoxud ko'rsatuv yoki eshittirishni efirga uzatish (ko'rsatuv yoki eshittirishni kabel orqali yuborish yoki efirga uzatish huquqi) kabi huquqlarga egadir.

Efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilot o'z ko'rsatuvi yoki eshittirishidan foydalanishning har bir turi uchun haq olish huquqiga ega. Eng muhimi, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlar o'z huquqlarini foydalaniladigan asarlarning mualliflari hamda ijrolarning ijrochilari huquqlariga, tegishli hollarda esa fonogrammalarni tayyorlovchilar hamda efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlar huquqlariga rioya etgan holda amalga oshirishlari kerak.

Nazorat savollari

1. Mualliflik huquqi bilan qo'riqlanadigan obyektlar va ularning turlari.
2. Asar muallifi, hammuallif va hosila asar mualliflari.
3. Turdosh huquq obyektlari va subyektlari kimlar?
4. Mualliflik va turdosh huquqni himoya qilish belgilari.
5. Mualliflik huquqining amal qilish muddati qanday?
6. Xizmat asariga bo'lgan huquq.
7. Mualliflik nomiga, asar daxlsizligiga va asarni e'lon qilishga bo'lgan huquq.
8. Mualliflik shartnomasi tushunchasi, shakli va huquqiy belgilari.
9. Mualliflik shartnomasining shartlari.

51-BOB. VORISLIK HUQUQI

1-§. Vorislik huquqi tushunchasi

Vorislik huquqi fuqarolik huquqining o'ziga xos instituti bo'lib, fuqarolar vafot etganidan so'ng ularga tegishli bo'lgan muayyan huquqlarning boshqa shaxslarga o'tishi bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy normalarning yig'indisidan iboratdir. Fuqarolik qonunchiligi fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini mustahkamlash bilan birga, ularga vafotlaridan oldin, o'zlariga tegishli mol-mulkning yuridik taqdiri vafot etganlarida qanday bo'lishini belgilab berish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga muvofiq, meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi. Vorislik vasiyatnoma va qonun asosida belgilanadi.

Meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan, uning o'limidan keyin ham bekor bo'lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar meros tarkibiga kiradi. Meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar:

— yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo'lmasa;

— hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun tovon undirish huquqi;

— aliment majburiyatlari tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar;

— mehnat va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlar olish huquqi;

— mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar meros tarkibiga kirmaydi.

Meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy boyliklar merosxo'rlar tomonidan

amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin. Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisining o'limi umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqdagi uning ulushini aniqlash va FKning 226-moddasida belgilangan tartibda umumiy mol-mulkni taqsimlash yoxud undan vafot etgan ishtirokchining ulushini ajratish uchun asos bo'ladi. Bu holda meros vafot etgan ishtirokchining ulushiga to'g'ri keladigan umumiy mol-mulkka nisbatan ochiladi, mol-mulkni natura holida taqsimlashning imkoni bo'lmaganda esa, bunday ulushning qiymatiga nisbatan ochiladi. Umumiy birgalikdagi mulk ishtirokchisi umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqdagi o'z ulushini vasiyat qilishga haqlidir, bu ulush uning vafotidan keyin ushbu moddaning birinchi qismiga muvofiq aniqlanadi.

Meros fuqaroning o'limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan, deb e'lon qilinishi oqibatida ochiladi. Meros qoldiruvchining o'lgan kuni (zarurat bo'lganda payti ham), u vafot etgan, deb e'lon qilinganda esa, agar sudning qarorida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, vafot etgan, deb e'lon qilish to'g'risidagi sudning qarori kuchga kiradigan kun meros ochilgan vaqt, deb hisoblanadi.

Agar biridan keyin boshqasi meros olishga haqli bo'lgan shaxslar bir kalendar sutka (yigirma to'rt soat) ichida vafot etgan bo'lishsa, ular bir vaqtda vafot etgan deb hisoblanadilar, meros ularning har biridan keyin ochiladi va ulardan har birining merosxo'rlari vorislikka chaqiriladilar. Meros qoldiruvchining oxirgi doimiy yashab turgan joyi merosning ochilish joyi hisoblanadi. Agar meros qoldiruvchining oxirgi yashab turgan joyi noma'lum bo'lsa, meros qoldiruvchiga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk yoki uning asosiy qismi turgan joy, ko'chmas mulk bo'lmagan taqdirda esa, ko'char mulkning asosiy qismi turgan joy meros ochilgan joy, deb hisoblanadi.

Meros ochilgan paytda hayot bo'lgan fuqarolar, shuningdek, meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo'lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug'ilgan bolalari vasiyat va qonun bo'yicha merosxo'r bo'lishlari mumkin. Meros ochilgan paytda tuzilib bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, davlat va fuqarolarning o'zini

o'zi boshqarish organlari ham vasiyat bo'yicha merosxo'r bo'lishga haqli hisoblanadilar. Meros qoldiruvchini yoki ehtimol tutilgan merosxo'rlardan birortasini qasddan o'ldirgan yoki ularning hayotiga suiqasd qilgan shaxslar vasiyat bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar. Vasiyat qiluvchi o'z hayotiga suiqasd qilinganidan keyin vasiyatnoma bergan shaxslar bundan mustasno.

Meros qoldiruvchi o'zining oxirgi xohish-irodasini amalga oshirishiga qasddan to'sqinlik qilgan va shu orqali o'zining yoki o'ziga yaqin shaxslarning vorislikka chaqirilishiga yoxud merosning o'ziga yoki o'ziga yaqin shaxslarga tegishli ulushi ko'paytirilishiga imkon yaratgan shaxslar vasiyatnoma bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham meros olish huquqiga ega emaslar.

Bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan va meros ochilgan paytda bu huquqlari tiklanmagan ota-onalar ana shu bolalardan qolgan mulkka voris bo'lish huquqiga ega emaslar, shuningdek, meros qoldiruvchiga ta'minlab turish yuzasidan qonunga ko'ra, zimmlariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va voyaga yetgan bolalar (farzandlikka olinganlar) qonun bo'yicha vorislik qilish huquqiga ega emaslar. Noloyiq merosxo'rlarni vorislikdan chetlatish uchun asos bo'ladigan holatlar bunday chetlatish keltirib chiqaradigan vorislik bilan bog'liq mulkiy oqibatlarga daxldor shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan belgilanadi.

Vasiyatnoma bo'yicha vorislik

Insonning so'nggi xohish-irodasini ifoda etadigan huquqiy hujjat vasiyatnoma hisoblanadi. Vasiyatnomada inson o'zining so'nggi istagini bayon etadi va shu orqali undan qolayotgan mol-mulk va boshqa huquqlarning yuridik taqdirini belgilaydi. Bunday tasarruf etish bir vaqtning o'zida ham huquqiy, ham ma'naviy mazmunga ega bo'ladi. Birinchi vaziyatda vasiyatnoma orqali shaxs o'zining butun umri davomida mehnati va aqliga tayanib topgan mol-mulki, pul mablag'i, uy-joyini o'zidan keyin kimga qoldirib ketishini belgilab ketsa, ikkinchi vaziyatda vasiyatnoma farzandlar va yaqin

kishilarga so'nggi vidolashuv so'zi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga vasiyatnoma kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qarindoshlar, aka-ukalar, opa-singillar, ota yoki ona bilan farzandlar o'rtasidagi huquqiy nizolarning oldini olish vositasi hisoblanishi bilan ham xarakterlidir.

Huquqiy nuqtayi nazardan vasiyatnoma bir tomonlama bitim hisoblanadi. Zero, vasiyatnomada faqat bir shaxs — o'zining so'nggi istagini (albatta, bunda huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan xohish) ifodalagan shaxs — vasiyatnoma qoldiruvchining xohish-irodasi bayon etiladi. FKning 1120-moddasiga muvofiq, fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat, deb e'tirof qilinadi.

Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqaro o'zining barcha mol-mulkini yoki uning muayyan qismini qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga kiradigan, shuningdek, kirmaydigan bir yoki bir necha shaxsga, shu bilan birga yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilishi mumkin.

Vasiyat qiluvchi qonun bo'yicha merosxo'rlardan birontasini, bir nechasini yoki hammasini izoh bermagan holda merosdan mahrum qilishga haqli. Qonun bo'yicha merosxo'rni merosdan mahrum etish, agar vasiyatnomadan boshqa hol kelib chiqmasa, bu vasiyat qiluvchining taqdim etish huquqi bo'yicha vorislik qiladigan avlodlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Meros qoldiruvchi har qanday mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Meros qoldiruvchi vasiyat qilayotgan paytida o'ziga tegishli bo'lmagan mol-mulk to'g'risidagi farmoyishni o'z ichiga oladigan vasiyatnoma tuzishga haqli. Agar meros ochilgan paytga kelib, bunday mol-mulk unga tegishli bo'lib qolsa, tegishli farmoyish haqiqiy hisoblanadi. Meros qoldiruvchi vasiyatnoma tuzilganidan keyin uni istagan paytda bekor qilish va o'zgartirish borasida erkin bo'lib, bunda bekor qilish yoki o'zgartirish sabablarini ko'rsatishga majbur emas. Meros qoldiruvchi o'zi vasiyatnomada merosxo'r etib tayinlagan shaxslar-

ga, o'z navbatida, vafot etishlari ehtimoli bilan o'zlariga vasiyat qilingan mol-mulkni muayyan tarzda tasarruf etish xususida ko'rsatma berish majburiyatini yuklashga haqli emas.

Vasiyat qiluvchi merosning olinishi uchun merosxo'r xulq-atvorining xususiyatini qonuniy ravishda shart qilib qo'yishga haqli. Ya'ni vasiyatnomada ko'zda tutilgan merosxo'r munosib xulq-atvorda bo'lishi, o'zining yurish-turishini axloq mezonlariga moslashtirilishi talabi qo'yilishi mumkin.

Vasiyatnomaga merosxo'rni tayinlash yoki vorislik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi farmoyishga kiritilgan g'ayriqonuniy shartlar haqiqiy bo'lmaydi. Masalan, vasiyat qoldiruvchining qonunga zid bo'lgan shartlari: birovni o'ldirish, biror kishiga turmushga chiqish yoki uylanish to'g'risidagi talablar haqiqiy sanalmaydi. Vasiyatnomaning o'zi esa, bu holatda mazkur shartlarni hisobga olmagan holda haqiqiydir. Vasiyatnomaga kiritilgan merosxo'r o'z salomatligiga ko'ra yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli bajara olmaydigan shartlar merosxo'rning da'vosi bo'yicha haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.

Vasiyat qiluvchi vasiyatnomada ko'rsatilgan merosxo'r meros ochilgunga qadar vafot etishi, merosni qabul qilmasligi yoxud undan voz kechishi yoki noloyiq merosxo'r sifatida belgilangan tartibda meros olishdan chetlashtirilishi ehtimolini, shuningdek, vasiyatnoma bo'yicha merosxo'r meros qoldiruvchining qonuniy shartlarini bajarmasligi ehtimolini nazarda tutgan holda boshqa merosxo'rni (vorisdan keyingi vorisni) tayinlashi mumkin. Vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rning vorisdan keyingi voris zarariga merosdan voz kechishiga yo'l qo'yilmaydi. Mol-mulkning vasiyat qilinmagan qismi qonunda belgilangan tartibda vorislikka chaqiriladigan qonun bo'yicha merosxo'rlar o'rtasida taqsimlanadi. Bu merosxo'rlar jumlasiga mol-mulkning boshqa qismi vasiyatnoma bo'yicha meros qilib qoldirilgan qonun bo'yicha vorislar ham kiradilar (FKning 1123-moddasi).

Vasiyatnoma yozilgan joyi va vaqti ko'rsatilgan holda yozma shaklda tuzilishi lozim. Quyidagi vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi:

- notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar;
- notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar.

Yozma shakldagi vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z qo'li bilan imzolanishi lozim. Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani o'z qo'li bilan imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan notarius yoki qonunga muvofiq vasiyatnomani tasdiqlaydigan boshqa shaxs hozir bo'lganida vasiyat qiluvchi o'z qo'li bilan imzolay olmaganligining sabablari ko'rsatilgan holda vasiyatnomaga boshqa shaxs imzo qo'yishi mumkin.

Quyidagilar vasiyat qiluvchining o'rniga vasiyatnomani imzolashi mumkin emas:

- notarius yoki vasiyatnomani tasdiqlovchi boshqa shaxs;
- vasiyatnoma kimning foydasiga tuzilgan yoki kimga nisbatan vasiyat majburiyati yuklatilgan bo'lsa, o'sha shaxs, uning eri (xotini), bolalari, ota-onasi, nevaralari va chevaralari, shuningdek, vasiyat qiluvchining qonun bo'yicha merosxo'rlari;
- to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan fuqarolar; savodsizlar va vasiyatnomani o'qiy olmaydigan boshqa shaxslar; yolg'on guvohlik berganlik uchun muqaddam sudlangan shaxslar.

Notarial tasdiqlangan vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan yozilgan yoki uning so'zlaridan notarius tomonidan yozib olingan bo'lishi lozim. Vasiyatnomani vasiyat qiluvchi so'zlaridan notarius tomonidan yozib olish paytida umumiy qabul qilingan texnika vositalaridan (yozuv mashinkasi, shaxsiy kompyuter va hokazolardan) foydalanilishi mumkin. Vasiyat qiluvchining so'zlaridan notarius tomonidan yozib olingan vasiyatnomani imzolashdan oldin vasiyat qiluvchi uning matnini notarius oldida to'liq o'qib chiqishi lozim.

Agar vasiyat qiluvchi jismoniy nuqsonlari, kasalligi yoki savodsizligi tufayli vasiyatnomani shaxsan o'qiy olmasa, vasiyatnomaning matni vasiyat qiluvchiga notarius tomonidan o'qib eshittiriladi, bu haqda vasiyatnomada tegishlicha qayd etilib, vasiyat qiluvchi vasiyatnomani shaxsan o'qiy olmaganligining sabablari

ko'rsatiladi. Vasiyat qiluvchining xohishiga ko'ra, vasiyatnoma notarius tomonidan uning mazmuni bilan tanishib chiqilmasdan (maxfiy vasiyatnoma) tasdiqlanadi. Maxfiy vasiyatnomani vasiyat qiluvchi haqiqiy sanalmaslik xavfi ostida o'z qo'li bilan yozishi va imzolashi lozim. Vasiyatnoma ikki guvoh va notarius ishtirokida xatjildga solinib, xatjild yelimlanishi lozim, guvohlar o'z familiyalari, ismlari, otalarining ismini va doimiy turar joylarini ko'rsatgan holda xatjildga imzo qo'yadilar. Guvohlar imzo qo'ygan xatjild guvohlar va notariusning ishtirokida boshqa xatjildga solinadi va bu xatjild ham yelimlanadi, unga notarius tasdiqlash ustxatini yozib qo'yadi.

Quyidagi vasiyatnomalar notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi:

- kasalxonalar, gospitalar, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar uylarida yashab turgan fuqarolarning ana shu kasalxonalar, gospitalar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning davolash ishlari bo'yicha o'rinbosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek, gospitalarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari yoki bosh shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

- fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi bayrog'i ostidagi kemalarda suzib yurgan vaqtidagi ana shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

- qidiruv ekspeditsiyalari yoki shu kabi boshqa ekspeditsiyalardagi fuqarolarning ana shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

- harbiy xizmatchilarning, notariuslar bo'lmagan yerlarda joylashgan harbiy qismlarda esa, bu qismlarda ishlayotgan harbiy bo'lmagan fuqarolar, ularning oila a'zolari va harbiy xizmatchilar oila a'zolarining hamda harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

- ozodlikdan mahrum etish joylarida yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

— notarius bo‘lmagan aholi punktlarida yashayotgan shaxslarning qonunga muvofiq notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari.

Vorislik huquqini rasmiylashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan notarial harakatlar ancha murakkab bo‘lganligi sababli, uni amalga oshirishda mavjud bo‘lgan muammolar anchagina. Shu ma’noda vasiyatnomaning huquqiy hujjat ekanligi nuqtayi nazaridan kelib chiqib, uni qonun hujjatlari darajasida rasmiylashtirish va belgilangan talablarga amal qilish har doim muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, vasiyatnoma huquqiy hujjat sifatida manfaatdor taraflarga oshkor qilinayotgan paytda uni qoldirgan shaxs vafot etgan bo‘ladi va vasiyatnomani tuzatish yoki qayta tayyorlash imkoniyati mavjud bo‘lmaydi. Shuning uchun ham vasiyatnoma o‘z vaqtida qonuniy tarzda tayyorlanishi va tegishli tartibda rasmiylashtirilishi lozim bo‘lgan bitim hisoblanadi.

Qonun bo‘yicha vorislik

Vafot etgan shaxs vasiyatnoma qoldirmaganida qonun bo‘yicha vorislik qo‘llaniladi. Qonun bo‘yicha vorislikda farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari bir tarafdin, farzandlikka oluvchi shaxs va uning qarindoshlari ikkinchi tarafdin tug‘ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladilar.

Farzandlikka olinganlar va ularning avlodlari farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari vafot etganidan keyin qonun bo‘yicha meros olmaydilar. Farzandlikka olingan shaxsning ota-onasi hamda buva-buvilari, aka-ukalari, opa-singillari farzandlikka olingan shaxs va uning avlodlari vafot etganidan keyin qonun bo‘yicha meros olmaydilar. Qonun bo‘yicha vorislarning har bir navbati avvalgi navbatdagi merosxo‘rlar bo‘lmagan, merosdin chetlashtirilgan, merosni qabul qilmagan yoxud undan voz kechgan taqdirda vorislik huquqiga ega bo‘ladi.

Meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar)

teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar. Meros qoldiruvchining vafotidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar hisoblanadilar. Meros qoldiruvchining tug'ishgan hamda ona (ota) bir ota (ona) boshqa aka-ukalari va opa-singillari, shuningdek, uning ham ota, ham ona tarafdan bobosi va buvisi teng ulushlarda qonun bo'yicha ikkinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega hisoblanadilar. Meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi, tog'asi, ammasi va xolasi teng ulushlarda qonun bo'yicha uchinchi navbatdagi vorislardir. Meros qoldiruvchining oltinchi darajagacha (oltinchi daraja ham shunga kiradi) bo'lgan boshqa qarindoshlari qonun bo'yicha to'rtinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar, bunda yaqinroq qarindoshlar uzoqroq qarindoshlarga nisbatan meros olishda imtiyozli huquqqa ega. Vorislikka chaqiriladigan to'rtinchi navbatdagi vorislar teng ulushlarda meros oladilar. Meros qoldiruvchining mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, agar ular FKning 1141-moddasi asosida meros olmasalar, qonun bo'yicha beshinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladilar.

Taqdim qilish huquqi bo'yicha vorislik qonun bo'yicha merosxo'r meros ochilgunga qadar vafot etgan taqdirda, unga tegishli ulush uning avlodlariga o'tishini nazarda tutadi, bunda ulush taqdim qilinayotgan qonun bo'yicha merosxo'r bilan bir xil darajada qarindosh bo'lgan avlodlar o'rtasida teng taqsimlanadi. Bola, nevara, chevara, evara merosxo'rlikida taqdim qilish huquqi qarindoshlik darajasi cheklanmagan holda amal qiladi, yon qarindoshlik bo'yicha merosxo'rlikda taqdim qilish huquqiga meros qoldiruvchining tug'ishgan aka-ukalari (opa-singillari) nomidan uning jiyanlari yoxud meros qoldiruvchining tug'ishgan amakisi (tog'asi) yoki ammasi (xolasi) nomidan uning amakivachchalari (tog'avachchalari) va ammavachchalari (xolavachchalari) ega bo'ladilar.

Meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida bo'lgan va u bilan birgalikda yashagan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar qonun bo'yicha merosxo'rlar jumlasiga kiradi. Qonun bo'yicha boshqa merosxo'rlar bo'lgan taqdirda, mehnatga

qobiliyatsiz boqimlar vorislikka chaqirilayotgan navbatning merosxo'rlari bilan birgalikda meros oladilar.

FKning 1136—1138-moddalarida ko'rsatilgan qonun bo'yicha merosxo'rlar jumlasiga mansub bo'lgan, biroq vorislikka chaqiriladigan navbatning merosxo'rlari doirasiga kirmaydigan mehnatga qobiliyatsiz shaxslar, meros qoldiruvchi bilan birgalikda yashagan-yashamaganliklaridan qat'i nazar, agar meros qoldiruvchining vafotiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida turgan bo'lishsa, ana shu vorislikka chaqiriladigan navbatning merosxo'rlari bilan birgalikda meros oladilar. Qonun bo'yicha boshqa merosxo'rlar bo'lgan taqdirda, ushbu modda asosida vorislikka chaqiriladigan shaxslarning hammasi birgalikda ko'pi bilan merosning to'rtidan bir qismini meros qilib oladilar.

Meros qoldiruvchining voyaga yetmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz bolalari, shu jumladan, farzandlikka olgan bolalari, shuningdek, mehnatga qobiliyatsiz eri (xotini) va ota-onasi, shu jumladan, uni farzandlikka olganlar, vasiyatnomaning mazmunidan qat'i nazar, qonun bo'yicha voris bo'lganlarida ulardan har biriga tegishi lozim bo'lgan ulushning kamida yarmini (majburiy ulush) meros qilib oladilar. Majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'r biron-bir asos bo'yicha merosdan oladigan hamma narsa, shu jumladan, oddiy uy jihozlari va ro'zg'or buyumlaridan iborat mol-mulkning qiymati ham, bunday merosxo'r foydasiga qilingan vasiyat majburiyatining qiymati ham majburiy ulushga qo'shiladi. Merosdan majburiy ulush olish huquqiga ega bo'lgan merosxo'r uchun vasiyatnomada belgilangan har qanday cheklashlar va shartlar unga tegadigan merosning majburiy ulushdan ortiqcha qismiga nisbatangina haqiqiydir.

Vasiyatnoma yoki qonun bo'yicha erga (xotinga) tegishli bo'lgan vorislik huquqi uning meros qoldiruvchi bilan nikohdagi holatiga bog'liq boshqa mulkiy huquqlariga, shu jumladan, nikohda bo'lib, birgalikda erttirilgan mol-mulkning muayyan qismiga nisbatan bo'lgan mulk huquqiga daxl qilmaydi. Agar meros qoldiruvchi bilan tuzilgan nikoh meros ochilgunga qadar amalda bekor bo'lgan bo'lsa va meros ochilgunga qadar kamida besh yil mobaynida er-xotin

alohida-alohida yashaganliklari isbotlansa, sudning qarori bilan er (xotin) qonun bo'yicha vorislikdan chetlashtirilishi mumkin, FKning 1142-moddasi asosida meros olish bundan mustasno.

Nazorat savollari

1. Vorislik va vasiyatnoma shakli.
2. Qonun bo'yicha vorislik navbatlari.
3. Merosdan majburiy ulush olish huquqi.
4. Notarial tasdiqlangan vasiyatnoma.
5. Vasiyatnomani bekor qilish, o'zgartirish va haqiqiy emas deb topish asoslari.
6. Qonun bo'yicha vorislik.
7. Noloyiq merosxo'rlarni merosdan chetlashtirish.

Respublikada oila munosabatlari sohasida amalga oshirilgan islohotlarning tadrijiy rivojlanishi

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

Prezident I.A.Karimov oilani mustahkamlash, yosh oilalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, sog'lom va mustahkam oila barpo etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi keng qamrovli ishlarni davom ettirish haqida to'xtalib, aynan oila bag'rida, otanonaning o'zaro mehr-muhabbati, g'amxo'rligi muhitida farzandning dunyoga kelishi, uning shaxs va fuqaro sifatida kamol topishi, halollik, ezgulik va mehribonlik haqidagi tushunchalar, kattalarga hurmat tuyg'usi, avvalo, oilada paydo bo'ladi, insonning dunyoqarashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida aynan shu muhitda shakllanadi¹, deya ta'kidlab o'tgan edi.

Mamlakatimizda oilaga jamiyatning asosi, muhim bir bo'g'ini sifatida qaraladi, bu nafaqat shaxsiy masala, balki u ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, komil inson — har tomonlama farovon, bekam-u ko'st, sog'lom oilada tarbiya topadi, ulg'ayadi. Sog'lom avlodni voyaga

¹ Qarang: *Karimov I.A.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish — taraqqiyotimizning muhim omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza//Adolat. 2010-yil, 10-dekabr.

yetkazish, sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor masalasi sifatida e'tirof etilgani bejiz emas.

Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlarini bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi.

Mamlakatda har bir oila va har bir inson turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

«Oila, — deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov, — hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i...»¹.

Oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizda mustahkam jo bo'lgan.

Islom Karimov ta'kidlaganidek, avvalo, har qaysi yilga nom berishdan **asosiy maqsad** — butun xalqimiz, jamiyatimizning orzuniyat va intilishlarini ifoda etadigan, ertangi kunimizning ravnaqiga xizmat qiladigan eng ustuvor yo'nalishni aniq belgilab olish va uni amalga oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishdan iborat.

Shu ma'noda mamlakatimizda:

- 1997-yil — Inson manfaatlarini yili;
- 1998-yil — Oila yili;
- 1999-yil — Ayollar yili;
- 2000-yil — Sog'lom avlod yili;
- 2001-yil — Onalar va bolalar yili;
- 2002-yil — Qariyalarni qadrlash yili;
- 2003-yil — Obod mahalla yili;
- 2004-yil — Mehr-muruvvat yili;
- 2005-yil — Sihat-salomatlik yili;
- 2006-yil — Homiyilar va shifokorlar yili;

¹ 1998-yil — Oila yili. — 1998 год — год Семьи. — T.: O'zbekiston, 1998. 9—10-betlar.

- 2007-yil — Ijtimoiy himoya yili;
- 2008-yil — Yoshlar yili;
- 2009-yil — Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili;
- 2010-yil — Barkamol avlod yili;
- 2011-yil — Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili;
- 2012-yil — Mustahkam oila yili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov oldimizda turgan vazifalar haqida gapirib, «Eng muhim vazifa — xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi»¹, — degandi.

Biz adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari, jumladan, jamg'armalarning ahamiyati, oilaning muhofazasi ortib boraveradi.

Bu degani jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, ya'ni «kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari» ijtimoiy va davlat qurilishi dasturini hayotga joriy etish demakdir.

Oila instituti huquqiy asoslarining rivojlanish bosqichlari

Birinchi bosqich (1991—1997-yillar). O'zbek oilasining uzoq yillar mobaynida shakllangan an'analari, qadriyatlari qayta tiklandi va bu borada mustaqil davlatimizning dastlabki huquqiy hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaning huquqiy asoslari belgilandi.

Ikkinchi bosqich (1998 — 2004-yillar). Ushbu yillar mobaynida oilaga bo'lgan munosabat yangi bosqichga ko'tarildi. 1998-yil O'zbekistonda «Oila yili» deb e'lon qilindi, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi.

¹ *Karimov I.A.* O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. —T.: O'zbekiston, 1996. 14 — 15-b.

Uchinchi bosqich (2005 — 2011-yillar). Mamlakatimizda oilalarni yanada mustahkamlash hamda bolalar huquqlarini himoya qilish borasida bir qator tashkiliy-huquqiy va amaliy ishlar olib borildi. Natijada yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

To'rtinchi bosqich (2012-yil). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «2012 yil — Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida bir qator ustuvor vazifalar va yo'nalishlarni belgilab berdi.

Oila sohasida amalga oshirilgan islohotlarning qonunchilik asoslari

Mamlakatimizda oilaviy-huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomasi, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida Nizom, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi Qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalariga qaratilgan dasturiy ko'rgazmalari bilan tartibga solinadi.

Birinchi bosqich (1991—1997-yillar) da qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar:

Qonunlar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (14-bob. Oila. 63 — 66-moddalar);

Prezident Farmonlari:

1. Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.08.1994-y. PF-938-sonli Farmoni);

2. Bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.1996-y. PF-1383-sonli Farmoni);

3. Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.12.1996-y. PF-1657-sonli Farmoni).

Hukumat qarorlari:

1. Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.1994-y. 434-son Qaroriga ilova);

2. Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.1994-y. 434-sonli Qarori);

3. Muddatli xizmat harbiy xizmatchilariga va ularning oila a'zolariga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.10.1994-y. 496-sonli Qarori);

4. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.12.1996-y. 437-son Qarori bilan tasdiqlangan).

Oila sohasida 1991—1997-yillarda amalga oshirilgan tashkiliy chora-tadbirlar va erishilgan natijalar

1. Oilalarga o'zlari yashab turgan, davlatga qarashli bo'lgan turar joylar xususiylashtirib berildi;

2. Qishloq joylardagi oilalarning moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida 0,25 ga dan yer uchastkalari ajratib berildi;

3. Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari qabul qilindi;

4. O'zbek oilasining o'ziga xos bo'lgan milliy qadriyatlari va an'analari qayta tiklandi.

Ikkinchi bosqich (1998—2004-yillar) da qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar

Qonunlar:

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi (8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat).

Prezident Farmonlari:

Oila yili tadbirlar dasturi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.1997-y. F-796-son Farmoyishi).

Hukumat qarorlari:

1. Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.02.1998-y. 54-sonli Qarori);

2. Oilada, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan 1999-yil uchun chora-tadbirlar Davlat Dasturi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.1999-y. 73-sonli Qarori);

3. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi Nizom. 2003-yil 25-avgustdagi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli Qarori;

4. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari. 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli Qarorga ilova.

Oila sohasida 1998 — 2004-yillarda amalga oshirilgan tashkiliy chora-tadbirlar va erishilgan natijalar

1. 1998-yili «Oila yili» deb e'lon qilinishi bilan shu yili oila manfaatlari uchun barcha manbalar bo'yicha 144,8 milliard so'm mablag' ajratilib, ularning deyarli yarmi davlat budjetidan qoplandi.

2. «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil qilindi.

3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilinib, oila va nikoh bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni huquqiy tartibga solishning izchil qonunchilik mexanizmi yaratildi. Unda o'ziga xos zamonaviy institutlar sifatida nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy

ko'rikdan o'tkazilishi, nikoh shartnomasi, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar yanada aniqlashtirildi.

4. Oila, bolalar va ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator nodavlat-notijorat tashkilotlari tashkil qilindi. «Mehr nuri», «Sen yolg'iz emassan», «SOS Tashkent kinderhoff», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun» tashkilotlari shular jumlasidandir.

Uchinchi bosqich (2005—2011-yillar) da qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar

Qonunlar:

O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Prezident Farmonlari:

Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.05.2007-y. PF-3878-son Farmoni).

Hukumat qarorlari:

Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyuldagi 216-son Qaroriga ilova).

Oila sohasida 2005—2011-yillarda amalga oshirilgan tashkiliy chora-tadbirlar va erishilgan natijalar

1. Prezidentimizning «Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingandan so'ng, tijorat banklari tomonidan imtiyozli shartlar asosida yosh oilalarga ipoteka, iste'mol va mikrokreditlar shaklida 2007-yilda 50,0 milliard so'm mablag' ajratildi.

2. 2007-yil 23-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan tasdiqlangan «Ijtimoiy himoya yili»ga bag'ishlangan davlat dasturi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat va jamiyat

faoliyatining yo'nalishlarini belgiladi. Ushbu dasturni amalga oshirish uchun davlat budjetidan 390114,6 mln. so'm ajratildi.

Statistik ma'lumotlar:

- O'zbekiston Respublikasida 29 milliondan ortiq aholi yashasa, ular 6,5 milliondan ortiq oilalardan iborat bo'lib, ularning bir millioni yosh oilalar hisoblanadi.

- Aholining 98 foizi oilalarda, qolganlari esa yolg'izlikda yashaydilar.

- Har yili mamlakatimizda 450 — 500 ming bola tug'ilmoqda. Yiliga o'rta hisobda 250 ming atrofida yosh oilalar vujudga kelmoqda.

- Mamlakatimizda 6 milliondan ortiq reproduktiv (bola tug'ish yoshidagi) ayollar mavjud.

- Aholining o'rtacha yoshi: ayollar — 75 yosh, erkaklar — 73 yosh.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan
2012-yilning «Mustahkam oila yili» deb e‘lon qilinishi
munosabati bilan belgilangan ustuvor yo‘nalishlar**

QONUNCHILIK SOHASIDA:

1. Oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan, bugungi va ertangi kunimizning talablari aks etadigan yangi qonun-qoida va normalarni qabul qilish.
2. Oilaning jamiyat va davlat hayotidagi bugungi o‘rnidan kelib chiqib, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.
3. Oila sohasidagi qonun ijodkorligi masalasiga jamiyatimizning e‘tiborini yanada kuchaytirish.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan
2012-yilning «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi
munosabati bilan belgilangan ustuvor yo'nalishlar**

**YOSH OILALARNI MODDIY VA MA'NAVIY
JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH SOHASIDA:**

1. Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga ko'mak, imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berishda ota-onalar, davlat va jamiyatning mas'uliyatini oshirish.

2. Yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlashda zaruriy tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar ishlab chiqish.

3. Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashda davlat idoralarining rahbarlari, keng jamoatchilik, turli ijtimoiy tuzilmalar tashabbusi va amaliy harakatlarini muvofiqlashtirish.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan
2012-yilning «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi
munosabati bilan belgilangan ustuvor yo'nalishlar**

**OILANI MUSTAHKAMLASHDA MAHALLANING
ROLINI OSHIRISH SOHASIDA:**

1. Mustahkam oila degan g'oyaning hayotimizdagi amaliy ifodasini ta'minlashda mahallalarning o'rni va rolini yanada aniqlashtirish.

2. «Mahalla — xalq vijdoni» degan yuksak ta'rifdan kelib chiqib, oilaviy munosabatlarda yosh avlodni milliy g'oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mahallalarning vazifalarini belgilash.

3. Mahalla idorasining jamiyatimizdagi, kundalik hayotimizdagi mohiyatini kengaytirish va nufuzini yanada oshirish.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan
2012-yilning «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi
munosabati bilan belgilangan ustuvor yo'nalishlar**

**OILANI MUSTAHKAMLASHDA AYOLLARNING
ROLINI OSHIRISH SOHASIDA:**

1. Oila oldida turgan vazifalarni har tomonlama amalga oshirish, avvalambor, moddiy, ma'naviy, bugun o'ta dolzarb bo'lib bora-yotgan tarbiyaviy muammolarni yechish, oilaning barcha-barcha tashvishlarini osonlashtirish.

2. Oila qo'rg'onining ham chiroyi, ham charog'boni bo'lgan ayol zotining, opa-singillarimizning og'irini yengil qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash.

3. Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik tizimini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Rahbariy adabiyotlar

1. *Karimov I. A.* O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. — T.: O'zbekiston, 1996.
2. *Karimov I. A.* Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. — T.: O'zbekiston, 1996.
3. *Karimov I. A.* Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. — T.: O'zbekiston, 1996.
4. *Karimov I. A.* Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. — T.: O'zbekiston, 1996.
5. *Karimov I. A.* Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. T.5. — T.: O'zbekiston, 1997.
6. *Karimov I. A.* Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. — T.: O'zbekiston, 1998.
7. *Karimov I. A.* Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. — T.: O'zbekiston, 1999.
8. *Karimov I. A.* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. T.8. — T.: O'zbekiston, 2000.
9. *Karimov I. A.* Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. — T.: O'zbekiston, 2001.
10. *Karimov I. A.* Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. — T.: O'zbekiston, 2002.
11. *Karimov I. A.* Biz tanlagan yo'l — demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. — T.: O'zbekiston, 2003.
12. *Karimov I. A.* Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. — T.: O'zbekiston, 2004.
13. *Karimov I. A.* O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. — T.: O'zbekiston, 2005.

14. *Karimov I. A.* Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari — eng oliy qadriyat. T.14. — T.: O‘zbekiston, 2006.

15. *Karimov I. A.* Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish — barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. — T.: O‘zbekiston, 2007.

16. *Karimov I.A.* O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. — T.: O‘zbekiston, 2007.

17. *Karimov I.A.* Asosiy maqsadimiz — yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir. Prezident I.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi //Xalq so‘zi, 2007-yil 8-dekabr.

18. *Karimov I.A.* Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma’naviyat, 2008.

19. *Karimov I.A.* Eng asosiy mezon hayot haqiqatini aks ettirishdir. — T.: O‘zbekiston, 2009.

20. *Karimov I.A.* Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. — T.: O‘zbekiston, 2009.

21. *Karimov I.A.* O‘zbekiston Konstitutsiyasi — biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevordir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza // Xalq so‘zi. 2009-yil 6-dekabr.

22. *Karimov I.A.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruza // T. 10. — T.: O‘zbekiston, 2010.

23. *Karimov I.A.* Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. 2009-yilning yakunlari va 2010-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza //T. 10. —T.: O‘zbekiston, 2010.

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. *Zokirov I., Baratov M.* Mulk nima? Mulkdor kim? —T.: TDYI, 2003.
2. *Zokirov I., Oqyulov O., Baratov M.* Fuqarolik huquqi: savollar va javoblar. —T.: TDYI, 2003.
3. *Zokirov I.* Fuqarolik huquqi. —T.: TDYI, 2006.
4. *Imomov N.F.* Intellektual mulk huquqi. O'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: TDYI, 2008.
5. *Караходжаева Д.* Методические указания к изучению курса гражданского права Республики Узбекистан (часть I). —T.: TDYI, 2003.
6. *Karaxodjayeva D.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqining birinchi qismi bo'yicha uslubiy qo'llanma. — T.: TDYI, 2003.
7. *Mualliflar jamoasi.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar. — T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998.
8. *Mualliflar jamoasi.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (II). — T.: Adolat, 1999.
9. *Mualliflar jamoasi.* O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqining umumiy qismidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: TDYI, 2005.
10. *Rahmonqulov X.R.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. — T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997.
11. *Rahmonqulov X.R.* Oldi-sotdi shartnomasi. — T.: Adolat, 2000.
12. *Rahmonqulov X.R.* Majburiyat huquqi. Darslik. —T.: TDYI, 2005.
13. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksiga sharh. — T.: TDYI, 2008.
14. *Караходжаева Д.М.* Гражданское право. Учебник. — T.: O'qituvchi, 2007.
15. *Rahmonqulov X.R.* Fuqarolik huquqi obyektlari. — T.: TDYI, 2009.

16. *Rahmonqulov X.R.* Fuqarolik huquqi subyektlari. — T.: TDYI, 2008.

17. *Boboqulov S.B., Imomov N.F., Egamberdiyeva N.X., Axmadjonov B.U.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqining maxsus qismidan o'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: TDYI, 2008.

18. *Yuldashev J.I. va boshq.* Aksiyadorlik jamiyatlari. Sxemalar. O'quv-uslubiy qo'llanma. — T.: TDYI, 2009.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2008.

2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1998-yil, №5 — 6, ilova.

3. O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999. №1, 4-modda.

4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.

5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. — T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2005.

6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Uy-joy kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish hamda «Davlat uy-joy siyosatining asoslari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 8-yanvardagi O'RQ-77-son Qonuni /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 1 — 2-son, 2007- yil, yanvar. — T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2007.

7. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1998. №5 — 6, 82-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni. 14.12.2000-yilda qabul qilingan //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001-yil, №1 — 2, 8-modda.

9. O'zbekiston Respublikasining «Ijara to'g'risida»gi Qonuni. 1991-yil 19-noyabrda qabul qilingan. 1993-yil 2-sentabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. 2000-yil 26-mayda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1992-yil, №1, 45-modda; 1993-yil, №9, 329-modda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000.

10. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari. 1990-yil, №31 — 33, 371-modda.

11. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-yil, №1, 43-modda.

12. O'zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to'g'risida»gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 yil, №9, 185-modda.

13. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2000-yil, №5 — 6, 140-modda.

14. Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1-tom. —T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-yanvardagi «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3202-sonli Farmoni /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 1—2-son, 4-modda.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil, 23—24-son, 167-modda.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Barkamol avlod yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha

tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoyishi // Xalq so'zi. 2009-yil 10-dekabr.

18. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida»gi 1999-yil 24-sentabrdagi qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Meros huquqiga oid qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida»gi 2000-yil 22-dekabrdagi qarori /O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2000-yil 22-dekabrdagi Plenumi qarorlari. — T.: 2001.

20. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. — T.: Adolat, 2007.

21. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — T.: Rasmiy nashr. 2007. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, №2, ilova; 1996-yil, 11 — 12-son.

22. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. — T.: 2007.

23. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel №171-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini». — T.: Adolat, 1999.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel №171-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi Nizom. — T.: Adolat, 1999.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-aprel №171-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida»gi Nizom. — T.: Adolat, 1999.

26. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991 — 1998. — T.: Sharq, 1999.

27. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining «Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan qonunlarning tatbiq etilishi to'g'risida»gi 2001-yil 1-iyundagi 6-sonli qarori. NORMA ma'lumotlar bazasi.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. *Asfandiyyarov C.* Правовая охрана объектов промышленной собственности в Республике Узбекистан //J.Davlat va huquq. 2003. №1.

2. *Асянов Ш.М.* Лизинг — особый вид договора имущественного найма /Монография/. — Т.: Эволюция договорного права, 1997.

3. *Ashurova N.* Voyaga yetmaganlarning meros huquqi /Fuqarolik protsessual qonunchiligi va sud islohotlari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. — T.: TDYI, 2005.

4. *Ahmadjonov B.* Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'larning erkin harakatda bo'lish tamoyili /Fuqarolik qonunchiligi rivojlanishi va dolzarb muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — T.: TDYI, 2006.

5. *Baratov M.* Davlat — fuqarolik huquqining subyekti sifatida /Monografiya/. — T.:TDYI, 2006.

6. *Baratov M.* Davlatga nisbatan fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llash muammolari //O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi, 2005. №3.

7. *Baratov M.* Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomasi /J.TDYI ilmiy maqolalari to'plami, 2005. №2.

8. *Baratov M.* Vasiyat bo'yicha vorislik munosabatlarida davlatning ishtiroki //Davlat va huquq. 2005. №6.

9. *Baratov M.* Mulk huquqining subyekti sifatida davlatning maqomi //O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Axborotnomasi, 2006. №2.

10. *Baratov M.* Ko'chmas mulkni sotish shartnomasi //TDYI Axborotnomasi, 2006. №1.

11. *Baratov M.* Korxonani sotish shartnomasi //TDYI Axborotnomasi, 2006. №3.

12. *Baratov M.* Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida fuqarolik qonunchiligining taraqqiyoti //TDYI Axborotnomasi, 2006. №4.

13. *Baratov M.* Mulkchilik to'g'risidagi qonunchilik evolutsiyasi /Mustaqillik yillarida islohotlarni ta'minlashda huquqshunoslikning

roli mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. — T.: TDYI, 2006.

14. *Baratov M.* Davlat shaxsiy nomulkiy huquqlar subyekti bo'la oladimi? //Falsafa va huquq. 2006. Maxsus son.

15. *Baratov M.* Davlat mablag'lari hisobiga yaratilgan intellektual mulk obyektlarining huquqiy tartibga solinishi //Toshkent Islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti, 2006. №3.

16. *Baratov M.* Fuqarolik huquqi subyektlari tizimida davlatning tutgan o'rni va roli //O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Axborotnomasi, 2006. №11 — 12.

17. *Boboqulov S.B.* Lizing shartnomasini huquqiy tartibga solishning ba'zi bir muammolari /Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarini huquqiy ta'minlash muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — T.: TDYI, 2004.

18. *Boboqulov S.B.* Ko'chmas mulkning ko'chishi yoxud ijara shartnomasiga doir tartib-qoidalar //J.Hayot va qonun. 2004. №5.

19. *Boboqulov S.B.* Tadbirkorlik subyektlariga kredit berish // J.Hayot va qonun. 2006. №3.

20. *Boboyev J.* Iste'molchi huquqlarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari //J.TDYI ilmiy maqolalar to'plami. 2005. №1.

21. *Boboyev J.* Iste'molchi huquqlarini buzganlik uchun belgilanadigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari //J.TDYI ilmiy maqolalar to'plami. 2005. №2.

22. *Гулямов С.С.* Правовые проблемы корпоративного управления: теория и практика /Монография/. — Т.: ТДЮИ, 2004.

23. *Zokirov I.B.* Xalqaro Konvensiyalar va rivojlangan mamlakatlar tajribasi — fuqarolik-savdo qonunlarini takomillashtirish manbayi sifatida /Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo munosabatlarini huquqiy ta'minlash muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — T.: TDYI, 2004.

24. Зокиров И.Б. Влияние традиционно-обычного права на законодательство Республики Узбекистан //J.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. 2004. №4.

25. Zokirov I.B. Ma'naviy zararni qoplashning ayrim muammolari //J.TDYI ilmiy maqolalari to'plami. 2005. №1.

26. Zokirov I.B. Jadid mutafakkirlarining fuqarolik huquqiga oid g'oyalari //J.TDYI ilmiy maqolalar to'plami. 2005. №2.

27. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari. — T.: TDYI, 2005.

28. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqining asosiy tamoyillari haqida /Fuqarolik qonunchiligi rivojlanishi va dolzarb muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. — T.: TDYI, 2006.

29. Imomov N. Gen injeneriyasi bilan bog'liq munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi //J.Davlat va huquq. 2005. №3.

30. Imomov N. Fuqarolik huquqida muddatlar va da'vo muddati /Monografiya/. — T.: TDYI, 2005.

31. Otaxo 'jayev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. — T.: O'zbekiston, 1995.

32. Otaxo 'jayev F.M. Oila huquqi. — T.: TDYI, 2005.

33. Otaxo 'jayev F.M. Nikohning tugatilishi //J.Qonun himoyasida. 1998. №12.

34. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. — T.: TDYI, 2006.

35. Кочергина Т.В. Защита имущественных прав супругов нормами нового семейного кодекса РУз. В сборнике «Женщина. Право. Общество». — Т.: Центр по изучению прав человека и гуманитарного права, 1999.

36. Topildiyev R. Oila huquqi. O'quv uslubiy qo'llanma. — T.: 2009.

37. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. — T.: O'zbekiston, 2008.

38. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. — T.: Adolat, 2000.

39. *Mualliflar jamoasi*. Xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga oid qonun kafolatlari: Ommabop yuridik ma'lumotnoma. Oila huquqi. — T.: O'zbekiston, 2000.

40. *Mualliflar jamoasi*. Xalqaro xususiy huquq. — T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2002.

41. *Yuldasheva Sh.* Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish. — T.: O'zbekiston, 2005.

42. *Burhoniddin al-Marg'inoniy*. Hidoya. 1-jild. — T.: Adolat, 2000.

43. *Козергина Т.В., Свиридова И.А.* Охрана прав ребёнка семейным законодательством. Права ребёнка: Международные и национальные стандарты. Центр по изучению прав человека и гуманитарного права. — T.: 2000.

44. *Shoraxmetov Sh.Sh.* O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. — T.: Adolat, 2001.

45. *Yuldasheva Sh.* O'zbekiston Respublikasi oila huquqidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun qo'llanma. — T.: TDYI, 2004.

46. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish: Bakalavriatning yuridik yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: O'zbekiston, 2001.

47. Qur'oni karim (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). — T.: Cho'lpon. 1992.

48. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. Отв.ред. И.М. Кузнецова (2-е изд. перераб. и доп.). — М.: Юристь, 2000.

49. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. Под общ.ред. д.ю.н. П.В.Крашениникова и к.ю.н. П.И.Седугина. — М.: INFRA-Norma, 1997.

50. *Пчелинцева Л.М.* Семейное право России. Учебник для вузов. — М.: Infra-Norma, 1999.

51. *Антокольская М.В.* Семейное право. — М.: Юристь, 1996.

52. *Нечаева А.М.* Семейное право. Курс лекций. — М.: Юристь, 1998.

53. *Пилыева В.В.* Гражданское право. В вопросах и ответах.
— М.: 2009.

Elektron ta'lim resurslari

<http://Allpravo.ru>

<http://Internet-law.ru>

<http://dissertation1.narod.ru/avtoreferats1>

<http://www.library.by/data>

<http://www.lawportal.ru>

<http://www.legislature.ru>

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

1-bob. OILA HUQUQI TUSHUNCHASI. OILA TO'G'RISIDAGI QONUN Hujjatlari

1-§. Oila va oila huquqi tushunchasi.....	5
2-§. Oila huquqining manbalari.....	8

2-bob. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

1-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning turlari. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardan farqi.....	17
2-§. Oila huquqida huquq va muomala layoqati.....	19
3-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning subyektlari va obyektlari.....	21
4-§. Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar.....	22
5-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lish asoslari.....	23
6-§. Oila huquqida qon-qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik tushunchasi va ularning ahamiyati.....	25
7-§. Oila huquqida da'vo muddati.....	29

3-bob. OILA HUQUQI BO'YICHA NIKOH. NIKOHNING HAQIQIY EMAS DEB TOPILISHI

1-§. Oila huquqi bo'yicha nikoh tushunchasi va uni tuzish tartibi.....	31
2-§. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari va shartlari.....	35

4-bob. ER-XOTINNING SHAXSIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari tushunchasi.....	42
2-§. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari- ning turlari.....	44

5-bob. ER-XOTINNING MULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi.....	46
2-§. Er-xotinlarning xususiy va umumiy mulki.....	47
3-§. Er-xotinning mulkiy huquqlari bo'yicha javobgar- ligi.....	50
4-§. Nikoh shartnomasini tuzish.....	54
5-§. Nikoh shartnomasining mazmuni.....	55
6-§. Nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish.....	57
7-§. Nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish.....	57

6-bob. NIKOHNING TUGATILISHI

1-§. Nikohning tugatilishi tushunchasi.....	59
2-§. Nikohning tugatilishi uchun asoslar.....	60
3-§. Nikohning tugatilishi va nikohdan ajralish: umumiylik va o'ziga xoslik.....	62

7-bob. QON-QARINDOSHLIK VA BOLALARNING NASL-NASABINI BELGILASH

1-§. Qon-qarindoshlik tushunchasi.....	65
2-§. Qarindoshlik munosabatlarining huquqiy ahamiyati.....	66
3-§. Bolalarning nasl-nasabini belgilash tartibi va shartlari....	68

8-bob. OTA-ONA HAMDA VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING SHAXSIY NOMULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Ota-ona hamda voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi.....	72
---	----

9-bob. OTA-ONA HAMDA BOLALARNING MULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

1-§. Ota-ona hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari tushunchasi.....	77
2-§. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning tartibga solinishi.....	80
3-§. Voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulklari va uni tasarruf etish.....	82

10-bob. OILA A'ZOLARI VA BOSHQA SHAXSLARNING ALIMENT MAJBURIYATLARI

1-§. Aliment huquq va majburiyatlarining umumiy qoidalari.....	85
--	----

11-bob. ALIMENTLARNI TO'LASH VA UNDIRISH TARTIBI

1-§. Aliment to'lash va undirish tartibi.....	87
2-§. Aliment miqdorini indekslash tartibi.....	91
3-§. Er-xotinning aliment huquq va majburiyatlari.....	93

12-bob. OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH

1-§. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari tushunchasi va huquqiy belgilari.....	95
2-§. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini himoya qilish.....	98
3-§. Voyaga yetmagan bolalarni ota-ona qaramog'idan mahrum etgan deb topish asoslari.....	106

13-bob. FARZANDLIKKA OLISH

1-§. Farzandlikka olish tushunchasi va uning huquqiy tabiati.....	121
---	-----

14-bob. VASIYLIK VA HOMIYLIK

1-§. Vasiylik va homiylik tushunchasi, uni qo'llash tartibi.....	125
--	-----

2-§. Vasiylik va homiylik ostida bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari va majburiyatlari.....	130
--	-----

15-bob. BOLALARNI OILAGA TARBIYAGA OLISH (PATRONAT)

1-§. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish tushunchasi va ahamiyati.....	134
2-§. Oilaga tarbiyaga olingan bolalar va tutingan otionalarning huquq va majburiyatlari.....	136

16-bob. FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARINI QAYD ETISH

1-§. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tushunchasi va ahamiyati.....	138
--	-----

17-bob. CHET EL FUQAROLARI VA FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR ISHTIROKIDAGI OILAVIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH

1-§. Chet el fuqarolari bilan oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi.....	143
--	-----

18-bob. FHDY ORGANLARINING TIZIMI VA VAKOLATLARI

1-§. FHDY organlarining tizimi.....	146
-------------------------------------	-----

19-bob. TUG'ILISHNI QAYD ETISH

1-§. Tug'ilishni qayd etish tartibi.....	147
--	-----

20-bob. NIKOHDAN AJRALISHNI QAYD ETISH

1-§. Nikohdan ajralish tushunchasi.....	153
2-§. Sud qarori bilan nikohdan ajratishni qayd etish.....	155

21-bob. O'LIMNI QAYD ETISH

1-§. O'limni qayd etish tartibi.....	157
--------------------------------------	-----

22-bob. FAMILIYA, ISM, OTA ISMINI O'ZGARTIRISH

1-§. Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish.....	160
--	-----

23-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK HUQUQINING TUSHUNCHASI, TAMOYILLARI, TIZIMI VA MANBALARI

1-§. Fuqarolik huquqi tushunchasi.....	164
2-§. Fuqarolik huquqining tamoyillari va tizimi.....	165
3-§. Fuqarolik huquqining tizimi.....	167
4-§. Fuqarolik huquqining manbalari.....	170

24-bob. FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT

1-§. Fuqarolik-huquqiy munosabat tushunchasi.....	173
---	-----

25-bob. FUQAROLAR – FUQAROLIK HUQUQINING SUBYEKTI SIFATIDA

1-§. Fuqarolik huquqining subyektlari tushunchasi.....	177
--	-----

26-bob. FUQAROLIK HUQUQINING OBYEKTлари

1-§. Fuqarolik huquqining obyektlari tushunchasi.....	185
---	-----

27-bob. FUQAROLIK HUQUQIDA BITIMLAR

1-§. Bitimlar tushunchasi va bitimlarning bozor munosabatlarida tutgan o' mi.....	186
2-§. Bitimlarning turlari va ularning tasniflanishi.....	188

28-bob. VAKILLIK VA ISHONCHNOMA

1-§. Vakillik tushunchasi, ahamiyati va belgilanish asoslari.....	194
2-§. Vakolat va uning turlari.....	195
3-§. Ishonchnoma muddati va shakli.....	198

29-bob. MUDDATLAR. DA'VO MUDDATI

1-§. Muddat tushunchasi.....	203
2-§. Muddatlar o'tishining boshlanishi va tamom bo'lishi.....	209

3-§. Da'vo muddati va turlari.....	211
------------------------------------	-----

30-bob. MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIIY HUQUQLAR

1-§. Mulk huquqining umumiy qoidalar. Mulk huquqi tushunchasi.....	213
2-§. Mulk huquqining vujudga kelishi va to'xtatilishi.....	214

31-bob. MAJBURIYATLAR TO'G'RSIDA UMUMIY QOIDALAR. MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK VA MAJBURIYATNING BEKOR BO'LISHI

1-§. Majburiyat va majburiyat huquq tushunchalari.....	220
2-§. Neustoyka — majburiyatlar bajarilishini ta'minlash usuli sifatida.....	226
3-§. Garov huquqi.....	227
4-§. Majburiyatlarning bekor bo'lishi tushunchasi.....	228

32-bob. SHARTNOMA TO'G'RSIDA UMUMIY QOIDALAR. SHARTNOMANI TUZISH, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

1-§. Shartnoma to'g'risida umumiy qoidalar. Shartnoma tuzish, o'zgartirish va bekor qilish.....	230
2-§. Shartnomalarning turlari.....	234
3-§. Shartnomaning mazmuni.....	238
4-§. Shartnoma tuzish.....	239

33-bob. MAJBURIYATLARNING TURLARI

1-§. Oldi-sotdi shartnomasi.....	241
2-§. Oldi-sotdi shartnomasi taraflari.....	245
3-§. Oldi-sotdi shartnomasi predmeti.....	247
4-§. Oldi-sotdi shartnomasining mazmuni va ijro etilishi. Sotuvchining tovarni belgilangan muddatda topshirish majburiyati.....	247

34-bob. KONTRAKTATSIYA SHARTNOMASI

1-§. Kontraktatsiya shartnomasi tushunchasi.....	250
--	-----

35-bob. AYIRBOSHLASH SHARTNOMASI

1-§. Ayirboshlash shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti.....	255
2-§. Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari.....	258
3-§. Shartnomaning shakli, muddati. Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi.....	259

36-bob. HADYA SHARTNOMASI

1-§. Hadya shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari va predmeti.....	262
2-§. Shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va burchlari.....	265
3-§. Xayr-ehson.....	268

37-bob. RENTA

1-§. Renta shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilari.....	271
2-§. Doimiy renta.....	273
3-§. Umrbod renta.....	275

38-bob. UMRBOD TA'MINLASH SHARTI BILAN UY-JOY (KVARTIRA) NI BOSHQA SHAXSGA BERISH SHARTNOMASI

1-§. Umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyni boshqa shaxsga berish shartnomasi tushunchasi.....	278
---	-----

39-bob. MULK IJARASI

1-§. Mulk ijarasi haqida umumiy qoidalar.....	283
2-§. Ijara shartnomasining mazmuni va bajarilishi.....	285
3-§. Ijaraga oluvchining ijaraga olingan mulkdan foydalanish huquqi mazmuni va amalga oshirilishi.....	289
4-§. Ijara shartnomasining bekor bo'lishi.....	291

**40-bob. MULK IJARASI SHARTNOMASINING
ALOHIDA TURLARI**

1-§. Prokat shartnomasi.....	294
------------------------------	-----

41-bob. LIZING SHARTNOMASI

1-§. Lizing shartnomasi tushunchasi.....	297
--	-----

42-bob. PUDRAT SHARTNOMASI

1-§. Pudrat shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilari.....	301
--	-----

43-bob. KREDIT SHARTNOMASI

1-§. Kredit shartnomasi tushunchasi.....	311
--	-----

**44-bob. BANK OMONATI VA BANK HISOBVARAG'I
SHARTNOMASI**

1-§. Bank omonati shartnomasi.....	314
2-§. Bank hisobvarag'i shartnomasi.....	320

45-bob. VOSITACHILIK SHARTNOMASI

1-§ Vositachilik shartnomasining tushunchasi va huquqiy belgilari.....	326
---	-----

46-bob. SUG'URTA

1-§. Sug'urta tushunchasi.....	334
--------------------------------	-----

**47-bob. ZARAR YETKAZISHDAN KELIB
CHIQUADIGAN MAJBURIYATLAR**

1-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majbu- riyatlar tushunchasi.....	342
2-§. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyat shartlari.....	345

**48-bob. FUQARONING HAYOTI VA SOG'LIG'IGA
YETKAZILGAN ZARAR O'RNINI QOPLASH**

1-§. Fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar o'rnini qoplash tushunchasi.....	353
---	-----

49-bob. INTELLEKTUAL MULK HUQUQI

1-§. Intellektual mulk tushunchasi va obyektlari.....	359
2-§. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy mu- hofaza qilish.....	362
3-§. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy no- mulkiy va mulkiy huquqlar.....	365
4-§. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlar.....	369

50-bob. MUALLIFLIK VA TURDOSH HUQUQLAR

1-§. Mualliflik huquqi tushunchasi.....	374
2-§. Mualliflik huquqining subyektlari, obyektlari va belgilari.....	378

51-bob. VORISLIK HUQUQI

1-§. Vorislik huquqi tushunchasi.....	397
Respublikada oila munosabatlari sohasida amalga oshirilgan islohotlarning tadrijiy rivojlanishi.....	408
Foydalanilgan adabiyotlar.....	420

**K24 Karaxodjayeva D.M va boshq. Fuqarolik
va oila huquqi. Kasb-hunar kollejlari uchun
o'quv qo'llanma. T.: «ILM ZIYO», 2012.
—440 b.**

I. Muallifdosh

УДК: 347.6 (075)

КБК 67.404ya722

ISBN 978-9943-16-092-7

KARAXODJAYEVA DILOROM MAMIROVNA,
AKAYEVA NODIRA MEXLIBAYEVNA
YULDASHEVA SHOIRA RAXMATOVNA,

FUQAROLIK VA OILA HUQUQI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrir *B. Xudoyorova*
Musahhih *T. Mirzayev*
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*
Kompyuterda sahifalovchi *Sh. Yo'ldosheva*

Nashrlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-y.

2012-yil 5-oktabrda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16},
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i 27,5.
Nashr tabog'i 25,5. 773 nusxa. Buyurtma № 61

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Shartnoma № 35 —2012.

«PAPER MAX» xususiy korxomasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.